



SALOHIIYAT- MEZON



4

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI**

SALOHIYAT – MEZON

(ilmiy maqolalar to‘plami)

4-SON

**“Namangan” nashriyoti
2014**

УУК: 812.512.133-9

КБК: 84(5)36/7

Mazkur maqolalar to‘plami Namangan Davlat universiteti Milliy g’oya, ma’naviyat va huquq asoslari kafedrasining 2013 yil 24 dekabrdagi 4-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Mas’ul muharrir: Falsafa fanlari nomzodi, dotsent O.Mamatov

Tahrir hay’ati:

- | | |
|---------------|----------------------------|
| Qozoqov T. | - t.f.n., katta o‘qituvchi |
| Topildiyev O. | - t.f.n., katta o‘qituvchi |
| Zamilova R. | - o‘qituvchi |
| Tillayev B. | - o‘qituvchi |
| Abdullayev A. | - o‘qituvchi |
| Bo‘ronov B. | - o‘qituvchi |

Ilmiy to‘plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2014 yil 13 fevral kungi 2-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

© NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2014 YIL

ISBN 998-9943-4210-7-3

©“Наманган” нашриёти

21377/1

SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarda ijtimoiy fanlar sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Respublika ijtimoiy-gumanitar fanlar mutaxassislari tomonidan talaygina ilmiy adabiyotlar nashr etildi.

Bugungi kunda Namangan Davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan ilmiy ishlar borasida samarali izlanishlar amalga oshirilmoqda. Uning natijasi sifatida "**Salohiyat-Mezon**" nomli an'anaviy yillik ilmiy-ijodiy maqolalar to'plamining nashr etilishini misol qilib keltirish mumkin. Mutaxassislar va iqtidorli talabalarning ilmiy-ijodiy mehnatlari mahsuli sifatida nashrga tayyorlangan to'plamning 4 va 5 sonlarida ayni dolzarb maqolalar jamlangan.

Ushbu ilmiy to'plam 2010 yildan e'tiboran nashr etilib kelinmoqda. Ayni paytda mazkur ilmiy nashrning nufuzini shundan ham bilsak bo'ladiki, uning nashr etilishida Respublikamizning ko'plab oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari ham o'z ilmiy maqolalari bilan ishtirok etib kelmoqdalar.

Jumladan, to'plamning mazkur 4 va 5 sonlarida nashr etish uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Termiz Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti, Farg'on Davlat universiteti, Nizomiy nomli Pedagogika universiteti, Qo'qon Davlat pedagogika instituti va boshqa ta'lim dargohlaridan ilmiy maqolalar olindi.

Yangiliklar kamchilik va xatolar, qarama-qarshi fikrlar va turli yondoshuvlarsiz kashf etilishi mumkin bo'lmagan kabi ushbu to'plam ham kamchiliklardan holi emas. Mazkur to'plamda taniqli olimlar bilan bir qatorda iqtidorli yoshlarning maqolalari ham chop etilayotgani quvonarli hol. Eng muhimmi yoshlarning ilmga intilib fan cho'qqilarini egallashlarida ushbu to'plamning xizmati borligidan mammunmiz.

Mutaxassislar hukmiga taqdim etilayotgan ushbu to'plam haqidagi fikrlar, tanqidiy mulohazalar to'plamning yanada takomillashishiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Ilmiy to'plam uchun maqola yuborgan barcha mualliflarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Obidxon Mamatov.

*Mas'ul muharrir, falsafa fanlari nomzodi,
Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya,
ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi dotsenti.*

IJTIMOIY TARAQQIYOTDA ERKINLIK VA BEGONALASHUV

O. Mamatov,

Namangan DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Mehnat erkinligi, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy taraqqiyot sekin-astalik bilan mehnatni ijodiy jarayonga, ongli jarayonga aylantirib boradi. Mehnat ongli tarzda istak va iroda asosida amalga oshirilmas ekan, undan unum va qoniqishni kutib bo'lmaydi. Demak, ongli tarzda amalga oshirilmagan mehnatni tom ma'nodagi mehnat deb ham bo'lmaydi. O'z mehnatining natijasidan quvonmagan, zavqlanmagan odamning harakati mehnat emas, balki ish deb baholanmog'i maqsadga muvofiq. Bu ish albatta faoliyatdan qoniqmaslik, zavq olmaslik, qolaversa shaxsga nisbatan begona tarzda amalga oshadi. Biz bu o'rinda begonalashuvni huddi shu ma'noda ifodalaymiz. Shaxsning begonalashuvi demak, o'z mehnatidan qoniqmaslik, moddiy ma'naviy va estetik zavq ola bilmaslik sifatida amalga oshadi.

Agar begonalashuvni aqliy, intellektual mehnat sohasida ham ro'y berishini e'tiborga olsak, uning nafaqat unumsiz, balki zararli oqibatlarga olib kelishini kuzatamiz. Ayniqsa, bu byurokratiya sharoitida tez rivojlanadi. Agar rahbar, o'zidan yuqoridaqilarga go'yoki ishlayotganini ko'rsatish maqsadida, qog'ozbozlikka berilib ketsa, nokerak ma'lumotlarni to'ldirib berishni talab qilaversa, buning ustiga vazifasidan tashqari faoliyatga yo'llayversa, bunday rahbar ham, uning qo'l ostidagi xodim ham erkin faoliyatdan to'xtaydi. Bunday rahbar qo'l ostidagilardan samarali natijalarni kutmasligi kerak.

Shuning uchun ham Prezidentimiz shunday holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida: "Ayniqsa, olimlar va ijodkor xodimlarimizga e'tiborni kuchaytirish kerak. Chunki, ma'naviy boyliklarni aynan shular yaratadi, ularga g'amxo'rlik qilish, samarali faoliyat uchun barcha zarur moddiy ma'naviy sharoitlarni yaratib berish davlat hokimiyyati va xo'jalik tashkilotlari rahbarlarining burchi va mas'uliyatli vazifasidir", - degan edilar.

Prezidentimiz fikrlaridan ko'rinib turibdiki, erkinlik faqat moddiy omillarning natijasi bo'libgina qolmay, balki ma'naviy omil ustuvor ahamiyatga ega ekan. Shaxsning begonalashuvi nafaqat jismoniy yoki ruhiy zo'riqish tufayli, balki axloqiy va ma'naviy tubanlik tufayli ham yuzaga chiqar ekan. Demak, begonalashuvni muayyan axloqiy va ma'naviy me'yorlarning buzilishi, insoniylikdan hayvoniylikka yo'l, deb qaralishi erkinlik olamiga qarab emas, balki axloqiy va ma'naviy tubanlikning natijasi sifatida olib qaralmog'i lozim.

Mehnat avvalo, ehtiyoj sifatida maydonga chiqar ekan, rivojlangan jamiyatda insonnig huquqi va erkinligi sifatida amalga oshadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mehnat qilish huquqi va erkinligi

¹Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008 11 7

MILLIY G' OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA

quyidagicha ifodalangan: "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majbuliy mehnat taqiqlanadi".

Bundan ko'rinish turibdiki, mehnat qilish huquqi va erkinligi qonun nuqtai nazaridan ta'minlangan. Ya'ni, davlat mehnat erkinligini kafolatlayapti. Lekin, masalaning boshqa jihatlari mavjudki, bu anchayin murakkab jarayon ekanligi ko'zga tashlanadi. Mehnat erkinligining albatta shaxs va jamiyat bilan bog'liq jihatlari ro'yobga chiqmas ekan, uni erkinlik deb ham bo'lmaydi.

Demak, erkinlikni faqat siyosiy va huquqiy sohadan izlash, ular ustuvor ahamiyatga ega bo'lsa-da, bir tomonlamalikka olib keladi va mehnat erkinligining mazmunini to'liq yoritib bermaydi.

Erkinlikning faqat siyosiy va huquqiy kategoriya sifatida olib qaralishi bizningcha yetarli emas. Erkinlik avvalo ruhiy va ma'naviy yetuklik sifatida ham olib qaralmog'i lozim. Ma'naviy barkamol inson har qanday vaziyatda ham o'zini erkin tuta oladi. Faoliyatining ma'nosini anglab yeta oladi va xatti harakatidan qoniqish hosil qiladi. Shu nuqtai-nazardan erkinlikni ma'naviy omil sifatida olib qaralishi uning barkamol inson barkamol jamiyatga xos xususiyat, deb e'tirof etishga ham olib keladi.

Insoniyat tomonidan demokratiyani oshkorlik va erkinlik, deb qaralishi o'z navbatida oshkorlik va erkinlikni ma'naviy jihatdan uzilib qolishi jamiyatning ma'naviy tubanlashuvi va boshboshoqlikka olib keladi. Shuning uchun insonni nafaqat biluvchi va anglovchi mavjudot sifatida, balki ma'naviy mavjudot sifatida olib qaralishi insonning mohiyatini chuqurroq anglanishiga olib keladi.

Hozirgi jamiyat ma'nani va axloqan boshqaruvgaga muxtoj. Shuning uchun ham erkinlikning mohiyatini yana bir bor chuqur anglab tahlil etish zaruriyati mayjud. Bu zarurat siyosiy va huquqiy erkinlikning mohiyatini va me'yorlarni chuqur anglab yetmaslikdan kelib chiqadi.

Erkinlik me'yorlarining buzilishi siyosiy va huquqiy munosabatlarda insoniylikdan va insonparvarlikdan chekinishga olib keladi. Shu nuqtai-nazardan har qanday erkinlik ma'naviy, madaniy, axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashgan taqdirdagina uni erkinlik, deb aytmoq kerak bo'ladi.

Erkinlikning anglovoq uchun unga tarixiy kategoriya sifatida yondashmoq zarur. Erkinlik ham inson kabi tug'iladi, o'sadi va oxir oqibatda halokatga mahkum bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida jamiyat tabiat kuchlari oldida ojiz va uning quli edi. Bu qullik ya'ni dastlabki odamlarning ijtimoiylashuvi darajasining pastligida desa bo'ladi.

Erkinlik va ijtimoiylashuv parallel tarzda rivojlanib boradi. Bu o'rinda erkinlik va ijtimoiylashuv nafaqat insonga, balki avvalo jamiyatga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega. Agar jamiyat ijtimoiylashmas ekan, ya'ni insoniy

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2012.-B.34.

MILLIY G'OYA, MA'NAVİYAT VA MAFKURA

xususiyat kasb etmas ekan erkinlik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Chunki, inson jamiyatdagina o'zini anglaydi.

Erkinlikning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq ekan, demak qayerda jamiyat rivojlangan bo'lsa, shu joyda erkinlik va ijtimoiylashuv taraqqiy etgan desa bo'ladi.

Erkinlikning ijtimoiylashuv bilan bog'lar ekanmiz, unga sistemali yondoshmaslikning iloji yo'q. Ya'ni axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa jihatlar ijtimoiylashuvning rivojlanganligini anglatsa, bunday jamiyatda erkinlik ham rivojlangan bo'ladi. Bunday jamiyatatlarda inson erkinligi darajasi yuqoridagi jarayonlarni anglash bilan bog'liq. Erkinlik rivojlangan jamiyat bilan bog'liq bo'lgani kabi, ijtimoiylashuv o'z-o'zini anglash bilan bog'liqidir.

Falsafiy talqin nuqtai nazardan hozirgi rivojlangan jamiyatatlarda erkinlik va ijtimoiylashuv halokatga yuz tutmoqda. Bu jamiyatatlarda begonalashuv hamda noinsoniy mayllarning quliga aylanishi jarayoni sodir bo'lmoqdaki, bu insonni ibtidoiy podaga qaytishi, deb baholanmog'i lozim. Bu poda endi ibtidoiy emas, balki fan-texnika rivojlangan, huquqiy munosabatlar tabiiylikdan yiroq, insoniy hissiyotlar so'nayotgan, ma'naviy munosabatlar yo'qolib borayotgan poda, desa bo'ladi.

Jamiyatning ilk bosqichida kannibalizm hukmron bo'lsa, endi odam va uning a'zolari bilan savdolashish yuzaga keldi. Ijtimoiylik o'z-o'zini yemirmoqda. Insonga xos bo'lgan abstraksiya va romantizm yo'qolib bormoqda. Bugun inson huquqlari, huquqiy davlat degan tushunchalar noto'g'ri anglanib o'zini axloqiy va ma'naviy asoslaridan yiroqlashgan. Huquq ham o'z-o'zidan begonalashgan. Bu begonalashuv uning mexaniklashuviga, ya'ni sof formal mantiqiy munosabatlarga olib keldi. G'arb demokratiyasi eksporti Osiyo mamlakatlaridagi ota va ona, oila a'zolari, katta-kichik, erkak va ayol, davlat arbobi va tovuqboqar o'rtasidagi ma'naviy, axloqiy me'yorlarga qiron keltirmoqda.

Bu o'z navbatida g'urur degan muqaddas tuyg'uning yo'qolishiga olib keldi. G'ururi yo'q inson, xalq qullik holatidadir. G'urursizlik oila, xalq, jamiyat va davlatni tuproqqa qorishtiradi. Biz bugun "erkinlik" deb atayotgan va o'zining navqiron yoshida, deb bilgan narsa 120 (bir yuz yigirmaga) kirgan chol kabi halokat yoqasida turibdi. U o'zini va jamiyatni halokatga olib keladi.

MAXDUMI A'ZAM ILM VA MA'RIFAT HAQIDA

Abdulvohid Nuriddinov,

Namangan DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasи o'qituvchisi

Buyuk mutasavvif olim, naqshbandiya tariqatining ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergen mutafakkir, zamonasining ulamolari tomonidan "Maxdumi A'zam"- buyuk xizmat ko'rsatgan, ilm olamining "balandparvoz

lochini" kabi darajalarga munosib deb topilgan Hazrat Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagiy – Kosoniy (1461-1542) o'zining ko'plab asarlarida inson ma'naviy kamolotida ilm-ma'rifikatning o'rni haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Maxdumi A'zam Naqshbandiya tariqatining yetuk nazariyotchisi - piri murshidi bo'libgina qolmasdan tasavvuf ta'limotining nazariy muammolari tadqiqotiga bag'ishlangan teran asarlar yaratgan faylasufdir.

Temuriylar o'rtasida toju taxt uchun kurash avj olgan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda o'lkada ijtimoiy barqarorlik va osoyishtalikni ta'minlashda alloma Maxdumi A'zamning o'rni va roli beqiyos bo'lganligini ta'kidlash muhimdir.

Maxdumi A'zam Naqshbandiya tariqatining nazariy-axloqiy masalalari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari xususida bahs yurituvchi o'ttizdan ortiq risola yozgan. Alloma asarlari o'ziga xos falsafiy tizim bo'lib, ularda orifiy, tasavvufiy masalalar bilan bir qatorda axloq-odob, falsafa, siyosat, davlatni boshqarish usullari, ijtimoiyadolat, oila, ota-onalar va farzandlarning o'zaro munosabatlari, olim va oriflarning ijtimoiy ahvoli va jamiyatdagi o'rni kabi mavzular keng yoritilgan. Mutafakkir o'z asarlarida ilm va ma'rifikatning jamiyat va inson hayotidagi o'rni haqida fikr yuritib, odamlarni bilimlarni o'rganishga va shu orqali kamolot cho'qqilarini egallahsga da'vat etadi. "Ilm lazzat olish uchun emas, balki biror bir maqsadga yetishish uchun kerak. Ilm amal bilan bo'lsa natijali va foydali bo'ladi", -deb yozadi Maxdumi A'zam "Risolai vujudiya" ("Vujud haqidagi risola") asarida va fikrining isboti uchun qo'yidagi baytni keltiradi:

**Ilm boyad ba amal ganje buvad,
Varna be donish amal ranje buvad³.**

Mazmuni:

Ilm lozim, to amal ganj keltirur,
Chunki, bilimsiz amal ranj keltirur.

Fikrini rivojlantirib alloma yana yozadi: "Ilm gavhardur, undan sharifroq gavhar yo'q. Lekin haqiqiy ilmni komil piru ustozdan olish kerak. Ilmni egallah nihoyatda mashaqqatli, og'ir ish" ekanligini ta'kidlab Maxdumi A'zam ilmni qo'lga kiritishda kishi sabr-u qanoat bilan riyozat chekishi hamda kamtarlik qilishi muhim ekanligini ta'kidlab qoyidagi baytni keltiradi:

**Kam zadani xud kamoli mardon ast,
Har ki xudro kam zanad, mard on ast⁴.**

Mazmuni:

O'zini kam olmoq mard kamolidir,
Kim o'zini kamtarin tutsa u marddir.

³ Xojagiy Ahmad Kosoniy. "Risolai vujudiya", "Majmuat-ur-rasoil" to'plamidan. Qo'lyozma. O'z RFASHI xazinasidan, inv. №1443.- 38 v.

⁴ O'sha asar, 38v.

MILLIY G' OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA

Maxdumi A'zam o'zining ilm va ma'rifatga doir yana bir asari "Sharhi savodil vajh fid dorayn" ("Ikki dunyoda yuz qoraligi iborasining sharhi") risolasida ilmsizlik va ma'naviy qashshoqlik inson uchun ikki dunyoda ham sharmandali hol va yuz qoralik ekanligini hadislardan misol keltirib, tariqat nuqtai nazaridan izohlaydi. Ushbu asarda jumladan, ilm olishga oid qo'yidagi falsafiy-ma'rifiy fikrlar mavjud: "Bilim egallahda shariatga muvofiq yo'l tanlamoq lozimdir. Bilim katta mashaqqatlar bilan qo'lga kiritilur. U inson ko'ngliga, tafakkur rivojiga shifobaxsh dori-darmondur. Ilm izlagan kishi uni egallahda aniq maqsad bilan pok yashamog'i lozim. Tolibi ilm bilimni egallab borgan sari o'zidagi nodonlikni quvishi, baholi qudrat har xil salbiy xislatlardan xalos bo'lishi lozim"⁵.

Maxdumi A'zam ma'rifiy qarashlarida tabiiy, ilohiy, ruhiy, ilmiy uslublar ustuvor mavqega ega bo'lib, solikning (tariqat izdoshi) ma'naviy yuksalish yo'lida bosib o'tishi zarur bo'lgan ma'rifat bosqichiga ko'tarilishning tamoyillari belgilab berilgan. Jumladan, alloma shunday yozadi: "Bilgilkim, ey tolibi sodiq, solik avvalo qalbini jirkanch xulqlardan, yomon xislatlardan poklab olishi kerak. Zero, ilm qalb ibodasidir. Solik ilmi bilan kibrilanmasligi, ustoziga qarshi chiqmasligi shart. Ilm olishni ilk bora boshlagan kishi xoh dunyo, xoh oxirat masalalarida bo'lsin odamlarning ixtiloflariga qulq solishi, barcha ishlarni ularning biror turini qoldirmasdan mukammal o'rganmog'i va oldiga qo'ygan maqsadiga yetishmog'i lozimdir"⁶. Maxdumi A'zam Alloho bilimlar sarchashmasi, ilohiy murabbibiy deb ta'riflagan, undan muttasil bahramand bo'lishga chorlagan. Insonni ilmu ma'rifat baxtiyor qiladi, ma'rifat odamning ko'zini ochadi, uning o'zligini anglatadi, ko'ngil xilvatgohini poklaydi,-deb ta'kidlaydi.

"Bilgilkim, ey darveshi sodiq, mujarrad (hech narsaga bog'liq bo'lmanan) ilm mavjud emas. Balki, ilm albatta biror maqsadga yetishish uchun kerakdir",-deb yozadi alloma va fikrining isboti uchun quyidagi baytni keltiradi:

**Gar zi har ilm dori, dardi xudo nadori,
Dar vaqtijon supurdan ilm nadim ast.
Ba moyai muhabbat kon ast asli fitrat,
In zi har mo saqim ast, in ilmi mo aqim ast.**

Mazmuni:

Barcha ilmni bilsang, xudo bergen darding yo'q,
Jon topshirmoq paytida ilm hamrohdir.
Asl fitrat muhabbat moyasida kon erur,
Bu har birimizning ojizligimizdir,
Bizdag'i ilmning besamarligi.

⁵ O'sha asar, 38 v.

⁶ Xojagiy Ahmad Kosoniy. "Sharhi savodil vajhi fid dorayn", "Majmuat-ur-rasoil" to'plamidan. Qo'lyozma. O'zR FASHI xazinagohi, inv. № 1443.-157 a.

MILLIY G' OYA, MA'NAVİYAT VA MAFKURA

Alloma bu yerda ilmning inson hayotida tutgan o'rni, ilm kishining barcha muammolardan forig' bo'lishligi, insondagi muhabbatning o'chog'i, koni ham ilm ekanligini ta'kidlaydi. Bizdagi ilmning besamarligi, naf bermasligi bu o'zimizdagи xatolik, ojizligimizdir,-deydi alloma. Ilm misoli cheksiz, poyoni yo'q ummondir. Inson ana shu ummondagи kichik bir zarraday g'avvosdir. U ilm o'rganmoq birla o'zini halokatdan, turli muammolardan, notavonlig-u nochorliklardan xalos etadi. Ilm insonning bu dunyo va oxirati uchun nihoyatda zarur bo'lган ma'naviy ozuqadir. Bas shunday ekan, ilmu ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida muhim o'rin egallaydi va uni o'zligini anglashida beqiyos ahamiyatga molikdir,-deb ta'kidlaydi mutafakkir⁷.

Maxdumi A'zam ilmu ma'rifatning inson ma'naviyatini shakllantirishidagi ahamiyatini ta'kidlash bilan birgalikda yosh avlodni ko'proq ilm o'rganishga, shu orqali hayotni yanada farovonlashtirishga va go'zallashtirishga da'vat etadi.

JADID MATBUOTIDA AXLOQIY TARBIYA MUAMMOLARI

B.B.Ibrohimov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi
o'qituvchisi*

Jadid matbuoti ozodlikni, Vatanni jondan ortiq sevuvchi, ilg'or, tushungan, har tomonlama kamol topgan erkin Turkiston fuqarosini tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Afsuski, dastlabki fevral inqilobi bergen hurriyat uzoqqa cho'zilmadi. Bolsheviklarning 1917 yilning 25 oktyabrida amalga oshirgan davlat to'ntarishi tez orada uning yutuqlarini yo'qqa chiqardi. Falsafiy fanlar, shu jumladan, axloqshunoslik ham taraqqiyotdan to'xtadi; ular mafkuraga bo'yundirilib, soxtalashtirildi; erkin fikr tag-tugi bilan qo'porib tashlandi. Shu sababli jadidchilik o'z oldiga qo'yan vazifalarini to'la ado etolmadi. Lekin, shunga qaramasdan, Turkistondagi bu ma'rifatchilik harakati, qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lsa ham, mazlum xalqlarni ma'lum ma'noda uyg'ota oldi.

Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tmoq joiz. Jadidchilik harakati nafaqat ulkan ma'naviy ma'rifiy-axloqiy meros qoldirdi, ayni paytda u biz va bizdan keyingi avlodlar uchun axloqiy namunalar sifatida xizmat qiladigan, idealga aylantirilishi lozim bo'lган shaxslarni voyaga yetkazdi. Biz yuqorida tilga olib o'tgan jadid mutafakkirlaridan tashqari yana shunday siymolar borki, ular o'z hayotlarini milliy ozodlik harakatini uyushtirishga bag'ishladilar. Ulardan biri sobiq Shahrisabz begi, keyinchalik Chor armiyasi general-mayori Jo'rabeқ Qalandarkori o'g'li bo'lsa, ikkinchisi Xudoyerxonning o'g'li, Jo'rabeқning kuyovi Fansurullobekdir.

XX asr boshlarida amaliy axloq muammolari jadid matbuotida keng o'rin oladi. «Taraqqiy», «Sadoyi Turkiston», «Ulug' Turkiston», «Turon», «Xurshid» singari gazetalarda e'lon qilingan hajviy va publisistik asarlarda⁸

⁷ O'sha asar, 157 a.

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA MAFKURA

o'sha davr boyonlarining qoloqligi, Chor ma'muriyatining to'rachiligi, talabalarga 5 so'm iona (ehson) qilish o'rniga, besh yuzlab so'mni restoranlarda fohishalarga sochayotgan axloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon kabi o'z davrining buyuk namoyandalari o'z badiiy asarlarida axloq muammolarini dadil ko'tarib chiqdilar va yuqoridagi nashrlarda o'z publisistikasi bilan ham faol ishtirok etdilar.

Jo'rabek rus istilochilariga qarshi bir necha yil kurashib, bu sharoitda muvaffaqiyat qozonishning imkonini yo'qligiga ishonch hosil qilgach, asirlik paytida Turkiston general-gubernatori Kaufmanning taklifi bilan Chor armiyasi xizmatiga o'tib, tinch yo'l bilan, «ichkaridan turib» kurashish lozimligini anglab yetadi. U sarkarda sifatida rus zabit va askarlari orasida ham, milliy ziyyolilar orasida ham juda katta obro'ga ega edi. U umrini Vatan, millat ozodligiga bag'ishladi, jadidchilik harakatining avvalgi saflarida bo'ldi. Professor Sharif Yusupov Sirdaryo viloyati gubernatorining Jo'rabek ustidan yozgan maxfiy chaquv xatidan general Jo'rabek «Tarjimon» gazetasining jonkuyar targ'ibotchisi ekani, uning usuli jadid bilan qiziqishi, Gaspirali Toshkentga kelganida u bilan uchrashgani haqidagi parchani keltiradi va Furqatning jadidchilik qarashlari general Jo'rabek ta'sirida shakllanganiga ishora qiladi. Jo'rabek 1876 yilda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan Sharqshunoslarning III xalqaro kongressida ishtirok etadi. U taraqqiyarvar rus va jahon adabiyotidan ham yaxshi xabardor edi. Uning Lev Tolstoy haqidagi fikrini rus ziyyolilaridan biri shunday keltiradi: «Graf L.Tolstoy haqida Jo'rabek ehtirom bilan gapiradi: u donishmand adib va nimaiki yozsa, o'zi his qilib yozadi. Bunaqasi sizlarning ham, bizlarning ham yozuvchilarimiz orasida kam topiladi».

Fansurullobek esa o'zbek jadidlarining birinchi gazetasi bo'lmish Munavvar Qori Abdurashidxonovning «Xurshid» gazetasida yetakchi xodim edi. Shuningdek, boshqa nashrlarda ham faol ishtirok etardi. U ham general Jo'rabek kabi Furqatning ehtiromiga sazovor bo'lgan ziyyoli edi. Afsuski, mustamlakachilar ulardan qattiq o'ch oldilar: Furqat al dov yo'li bilan xorijga chiqarib yuborilib, qayta Vataniga kiritilmadi, general Jo'rabek Qorasuvdag'i bog' hovlisida sirli ravishda o'ldirildi, Fansurullobek esa keyinroq, Stalin davrida GPU yerto'lasida jon taslim qildi. Yoshlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, asl ziyyoli siyomatarni yaxshi bilishlari va unutmasliklari kerak. Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalaridir. Ayni paytda ular yodini, «elim deb, yurtim deb yonib yashagan» ulug' insonlar xotirasini e'zozlashning o'zi ham axloqiylik timsolidir.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA INTERNET TIZIMIDAGI MAFKURAVIY TAHDIDLAR

*B.M.Vahobov, N.O.Xomidova,
Nam DU "Tarix fanlari" kafedrasi o`qituvchilari*

Insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshidan kechirmoqda va u kishilik jamiyatni tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo`lsa, yozuvning paydo bo`lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, hatto zamonlararo olib o`tishga yo`l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo`lga qo`yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televideniya axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta`minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko`tardi. Internet tarmog`i esa gazeta va jurnallar hamda radio va televideniyaning ishini birvarakayiga bajara boshladi. Internet butun dunyoga keng tarqaldi va har qanday axborotni yer yuzining narigi chekkasiga tez sur`atlarda yetib borishini ta`minlamoqda. Hozirda deyarli 1 milliard 800 million kishi yoki sayyoramizdagi har to`rtta odamdan bittasi jahon elektron axborot to`ri – Internetdan foydalanadi. 2016 yilga kelib bu ko`rsatkich 3 milliard kishiga yetishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va ularni respublikaning xalq xo`jaligi sohalarida joriy qilishga juda katta e`tibor qilinmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining istiqbolli rivojlanishi bo`yicha qonunchilik aktlari ana shu masalaga qaratilgan⁸. Bugungi kunda O`zbekistonda ham aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Prezident I. Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma`ruzasida ta`kidlanganidek, “Respublikamizda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilar soni 19 million nafarni tashkil etib, har bir oilaga o`rtacha 3 ta uyali telefon to`g`ri kelmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda internet abonentlari soni o`tgan yilga nisbatan 18,3 foizga o`sib, hozirgi paytda 7 million 100 ming nafarni tashkil etmoqda. Albatta, bu raqamlar oxirgi yillarda aholimizning nafaqat turmush darajasi oshib, avvalo, hayotimiz sifati tobora yuksalib borayotganidan dalolatdir”.

⁸ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida" 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son. // www.lex.uz: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O`zbekiston Respublikasi telekomunikatsiya tarmog`ini 2010 yilgacha bo`lgan davrda rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish milliy dasaturi to`g`risida"gi 1995 yil 1 avgustdagи 307-ton qarori//www.lex.uz: O`zbekiston Respublikasi Qonuni "Aloqa to`g`risida" 1992 yil 13 yanvar//www.lex.uz:

Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni qurish – yorug` kelajagimizning asosiy omilidir. – Toshkent: O`zbekiston, 2013. – B. 28.

Bugungi kunga kelib, internet insonlarning ma'naviy yoki ruhiy qiyofasini shakllantirayotgan eng ommabop va ta'sirchan omilga aylangan. Gazeta, radio, televideniya ta'siri ma'lum bir auditoriyani qamrab olsa, internet orqali bir vaqtning o'zida dunyoning xohlagan qismiga, miqdori cheklanmagan auditoriyaga ta'sir o'tkazish mumkin. Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvovlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'laming keskin darajada o'sishiga olib keldi. Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "... hozirgi paytda hayotimizn elektron axborot vositalari, xususan, televideniya va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda"¹⁰.

Dunyodagi globallashuv jarayonlarida turli xil mafkuraviy ta'sir vositalari deyarli moneliksiz, shiddat bilan kirib kelayotgan bir davrda yoshlarimizni turli yot ta'sirlardan asrashimiz, xalqimiz kelajagini, yurtimiz ertasini asrash deganidir. Globallashuv jarayonining o'ziga xos jihatni uning mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamin haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rindi. "Mana shunday vaziyatda, – degan edi Prezident I.Karimov, – odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarg'a, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdid-larga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol"¹¹.

O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Yoshlar deganda, ma'naviy dunyosi shakllanish jarayonida bo'lgan, asosan 16-30 yoshlardagi insonlar tushuni-ladi. Kompyuterlar, mobil aloqa vositalaridan asosan yoshlar foydalanishi, O'zbekiston umumiy aholisining 60 foizidan ko'pini ham aynan yoshlar tashkil etishi, Internet va undagi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida tutgan o'rni va ahamiyati qanchalik yuqori ekanidan dalolat beradi. Bugungi kunda yoshlar eng ko'p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar axborot xurujining asosiy makoni bo'lib qolmoqda. Shu boisdan ham Internet tarmog'ida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish lozim. Chunki, hozirgi paytda yoshlarining sirlashadigan, dillashadigan, dardlashadigani ham bu – Internet, ijtimoiy tarmoqlar ekanligi sir emas, albatta. Ayni paytda axborot xurujining yana bir ko'rinishi odob-axloq, sharm-hayo kabi qadriyatlarg'a tajovuz tarzida namoyon bo'lmoqda. Ommalashib borayotgan Internet saytlari, kompyuter o'yinlari bilan ham yot g'oyalarni o'smir qalbi va ongiga olib kirishi kuzatilmoqda. Har qadamda uchraydigan internet kafelarda o'smir-yoshlarning nima bilan mashg'ulligi kattalarni sergak torttirmog'i shart. Internet tarmog'ida ayrim illatlarning kelib chiqishi va keng tarqalishiga yordam

¹⁰ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.134.

¹¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.113.

beradigan holat va vositalar, buzg'unchi mafkuralar targ'ibotining usullarini doimo chuqur o'rganib, tahlil qilib, yoritib borish lozim. Bugungi kunda Internet olami orqali "Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitch" ("Demokratik fundamentalizm"), "Ommaviy madaniyat", gedonizm, sadizm, vesternitsiya, shovinizm, neofashizm, axborot neokolonializmi, kiberludomaniya, axloqiy buzuqlilik, pornografiya, starizm, bilimsizlik, madaniyatsizlik, tartibsizlikni qo'llab-quvvatlash, bir jinsli nikoh, zo'ravonlik, xeppining, individualizm, jamiyat manfaatlarini mensimaslik, egotsentrizm, nigelizm, skeptitsizm, sinizm, vandalizm, kosmopolitizm kabi mafkuraviy tahdidlar avjolmoqda.

Internet saytlaridan tarqatilayotgan bu kabi yot g'oyalar va axborotlarni yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlar xalqlarini ham tashvishga solmoqda. Internet tarmoq'idagi uzlucksiz axboriy oqimning yoshlarning madaniy va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy (axborotga ega bo'lish, ta'lim olish, muloqot, o'z-o'zini ifoda etish, ijodiy rivojlanish, ish topish, ijtimoiylashuv imkoniyatlari), ham salbiy (pornografiya, depressiv yoshlar oqimi, narkotiklar, tanishuvlar sayti, aldov, ishonchszilik, sektalar, ekstremizm, irqchilik, fashizm va h.k.) tasirlari ham mavjud.

Axborot xurujlarining bunday salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun bir qator muammolarga yechim topish zarur. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalash deganda, ko'pincha ularga turli axborotlarni, har xil saytlarni, filmlarni, gazeta va jurnallarni taqiqlash kerak, hisoblashadi. Biroq, bu ularning axborot olish huquqlarini toptaydi. Inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan va butun jahonda bamisolai balo-qazodek tarqalib borayotgan xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday hodisalarни faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashning o'zi yetarli emas. Bu borada fikr yuritar ekan yurtboshimiz I.A.Karimov: "Hammamizga ayon bo'lishi kerakki, "axborot asri" deb nom olgan XXI asrda hech qaysi davlat yoki jamiyat o'zini temir devor bilan o'rab yashay olmaydi. Ayni paytda, ahvol shunday ekan, deb qo'l qovushtirib o'tirish ham to'g'ri kelmaydi, bunday tahdidlarga javoban, biz ham, sodda bo'lmasdan, zarur chora-tadbirlarni ko'rishimiz kerak", - deya ta'kidlagan edilar.

Yoshlarni internet tizimidagi axborot hurujlaridan himoyalashning eng samarali ta'sirchan vositasi bu – har bir yoshga mamlakat manfaatları nuqtai nazaridan yurtimizda hamda dunyoda kechayotgan vaziyatni to'g'ri tahlil etish va baholashga ko'maklashish uchun sharoit yaratish zarur. Mafkuraviy jarayonlar globallashib borayotgan bugungi kunda ohangrabo singari o'ziga rom etib, chalg'itayotgan axborot xurujlarining yoshlar ma'naviyatiga ta'sirining oldini olishda quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish;

MILLIY G' OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA

- hayotga samimiy munosabat, o'z xatti-harakatlariga mas'ullik hissini shakllantirish;
- mukammal ta'lif-tarbiyaga e'tibor qaratish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatish;
- milliy axloq qoidalariga doimiy amal qilishni ta'minlash;
- ajdodlarning tarixiy, adabiy-badiiy merosini o'rganish;
- mustaqil fikrli va qat'iy e'tiqodli bo'lishga undash;
- OA Vlari va internet tarmog'idagi milliy saytlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibotni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- yoshlarni qiziqtiradigan mavzularda professional darajada tayyorlangan axborotlarini tayyorlash va ommalashtirish.

Jamiyat o'z oldiga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bu o'z qadr - qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash deganidir. Shu bois, yurtboshimizning "Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarning ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamонавиy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqr tushunib olishimiz zarur"¹², degan fikrlari ayni kunda juda ahamiyatlidir.

YOSHLAR ONGINI SHAKLLANISHIDA MILLIY G' OYA O'RNI

*A'zamjon To'xtaboyev,
Nam DU «Tarix fanlari» kafedrasи o'qituvchisi*

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish jarayonlarida yoshlar faol kuch husoblanadi. Milliy g'oya shakllanishi, amal qilishi, yoshlarning faoliyatiga ta'sir etishi uchun ma'lum sharoit va imkoniyatlar ham kerak. Shu ma'noda yoshlar faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy muhit, u amal qilayotgan an'analar, urf – odatlar, turmush tarzi ham milliy g'oyani anglashning darajasi va amaliy imkoniyatlariga ta'sir etadi.

So'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy-mafkuraviy tushuncha va g'oyalarning ahamiyati kattadir. Yoshlar tafakkurida milliy mafkurani shakllantirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarimiz merosiga, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Prezidentimiz I.A. Karimov: "O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali beri yechilmagan muammojariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimiz

¹² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.127.

diqqat markazida turishi shart”,¹³ - deb ta'kidlab o'tgan edilar. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, 2008 yilni “Yoshlar yili” deb e'lon qilinishi o'sib kelayotgan yosh avlodga, davlat siyosatini yoshlarni jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylantirish uchun lozim sharoitlarni yana yaxshilash imkonini berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar yili” Davlat dasturi to'g'risida” 2008 yil 29 fevralda qabul qilingan Qaroriga¹⁴ muvofiq, yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashni nazarda tutuvchi “Yoshlar yili” Davlat dasturi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi.

Yoshlarning hayotga mustaqil qadam qo'yib, ijtimoiy, amaliy imunosabatlar doirasiga kirkach, hayotning qiyinchiliklari, murakkabliklariga bevosita duch keladi. Uning yoshlikdagi xayoliy tasavvurlarida ham jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Ular hayoliy orzularga emas, balki jamiyatda, jamoada amalga oshirish mumkin bo'lgan maqsadlarni o'laydilar. Ularning orzu-umidlari osmonu – falakdan yerga tushib, inson xohishidan ko'ra murakkabroq bo'lgan real voqealikka duch keladi. Ular hayotni chuqurroq o'rganishga, milliy ruhni, g'oyani, o'tgan avlodlar saboqlarini bilishga, hayotda katta tajriba orttirgan kishilarning fikr – mulohazalariga quloq solishga harakat qiladilar. Bu ijtimoiy – ma'naviy jarayon kelajakka kuch va g'ayrat bilan intilayotgan kishini o'tmishda insoniyat va millat taraqqiyotiga asos bo'lgan g'oyalarni chuqurroq anglash va egallashga undaydi. Shaxsning istiqbolga intilishi xayoliy tasavvurlar doirasidan chiqib, real imkoniyatlar, voqealik bilan bog'lana boshlaydi. Ana shu jarayonda yoshlar milliy g'oyaga kengroq maqsad va manfaat asosida yondashib, uni rivojlantirishga, tafakkuriga singdirishga, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikka harakat qilishadi. Chunki, hozirda mafkuraviy kurashlar va nizolar kuchayib borgani sayin uning yangidan yangi turlari ommalashib bormoqda. Mana shunday ko'rinishlarni yoshlar orasida keng tarqalayotganini ko'rish mumkin. Bu xatar yoshlar tafakkurini o'zgarishiga olib keladi. Masalan, ulardan biri “Ommaviy madaniyat”. “Jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan “Ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligi barchamizga ayon bo'lishi kerak”,¹⁵ – degan edi I.Karimov. “Ommaviy madaniyat”ning targ'ibotchi va homiyulari, ularning ortida turgan kuchlar katta mablag' va zamonaviy quroslash halapga, ilg'op texnologiyalapdan keng foydalanish imkoniyatlari ega. Lekin ular soxta «gumanizm” g'oyalariiga burkanib, zimdan eng xavfli uslub, insonning ongini egallashga intilmoqdalar. Ularning bu tutgan uslubi milliy qadriyatlarimizga

¹³ Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2008. –B.163.

¹⁴ Xalq so'zi. 2008 yil. 1 mart.

¹⁵ Karimov I. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir. –Toshkent: O'zbekiston, 2007. –B.22.

to'g'ri kelmaydigan, ayniqsa, yosh avlodning ongi va tafakkurini zaharlaydigan buzg'unchi mafkuradir. Jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy sohasida "Ommaviy madaniyat"ga, u olib kelayotgan ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlariga qarshi kurashda o'zbek xalqining o'ziga xos mentalitetini, dunyoqarashi va qadriyatlarini o'zida mujassam qilgan milliy g'oya bunday vaziyatda asosiy kurash vositasiga aylanish lozim. Shu bois, yoshlarda:

- g'oyaviy sog'lomlik har qanday g'ayritabiyy fikrlarga munosib javob berishga o'rgatish zarur;

- yot va zararli g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitet va o'z nuqtai nazaringin to'g'riliqiga ishonch-e'tiqod tuyg'usini kamol toptirish lozim;

- tarixiy shaxslar va buyuk allomalarimizninig hayot faoliyatları to'g'risida suhbatlar tashkil etish;

- vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy iftixor tuyg'usi shakllantirish kerak.

Chunki, demografik nuqtai-nazardan qaraganda, mamlakatimizdagagi 17 million nafardan ortiq yoshlar yillar o'tib mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini amalga oshiruvchi asosiy kuchga aylanadi. Tabiiyki, ular bugun qaysi g'oya ruhida tarbiya topsa, faoliyatini ham shu g'oya asosida olib boradilar. Milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida hamda milliy g'oya asosida kamol topsa, mamlakat kelajagi buyuk bo'lishi muqarrardir.

O'QUVCHI YOSHLAR ORASIDA MILLIY G' OYA TARG'IBOTINI OLIB BORISH USLUBLARI

*B.Abdurahmonova,
NVPKQTMOI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri*

Istiqlol tufayli odamlar ongi, dunyoqarashida yangilanish boshlandi. Tarixiy milliy qadriyatlar, urf-odatlarning tiklanishi xalqning milliy ruhiga kuchli ta'sir etdi. Ona tilimiz va dinimizga bo'lgan yangicha munosabat, vatanga va istiqlol g'oyalariga sadoqat milliy g'urur, iftixor tuyg'ularining o'sishida katta rol' o'ynaydi. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik tuyg'usi yangicha ma'no kasb etdi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining bunyodkori barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq. Yurtboshimizning bu borada bildirgan fikrlari, ilmiy-nazariy va amaliy ko'rsatmalar mustaqillik yillarini barcha bosqichlarida yo'lchi yulduz, dasturi amal bo'lib kelmoqda. Zero, Prezidentimiz o'zining asarlarida, nutqlari va maqolalarida mustaqillikni mustahkamlashning asosiy sharti yosh barkamol avlodni voyaga yetkazish, uni ma'naviy olamini yuksaklikka ko'tarish, bilimli va fidoiy qilib tarbiyalashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. I.A.Karimov asarlaridan keltirilgan quyidagi so'zlar buning yorqin ifodasidir: "Farzandlarimiz bizning kelajagimiz. Xalqimiz ertasining qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq, - deb uqtiradi yurtboshimiz.

Bugungi kunda milliy g'oya targ'ibotini amalgalashirish bevosita yoshlar bilan bog'liq ekan, bu albatta ta'lif tizimi bilan aloqador holda umalga oshiriladi. Ta'lif tizimida milliy g'oya targ'iboti va umuman targ'ibot-tashviqot texnologiyalarida bir qancha usullar mavjud bo'lib, ularidan biri - "Modelli mashg'ulot" usuli hisoblanadi. Ushbu usul ko'p ilmiy manbalarda "keys usuli" deb ham yuritiladi. Bu usulning umumiy manzarasi quyidagicha: mashg'ulot o'qituvchi va o'quvchi o'rtafigi ilmiy munozara usosida tashkil qilinadi. Bu jarayon davomida bir-birlarining(o'qituvchi va o'quvchi) fikrlari rivojiga ikki taraf ham motivatsion xatti-harakatlar bilan ta'sir o'tkazishadi. Bu jarayonlar, debat, munozara, fikrlar xilma-xilligi usosida amalga oshirilib, ikki taraf ham bir-birlaridan turli yangiliklarni o'zlashtiradilar va dars oxirida kerakli tavsiyalar berilgan holda xulosa qilinadi. Milliy g'oya targ'iboti davomida qanchalik turli g'oyalarga nisbatan mustaqil fikr yurita olish xususiyatini shakllantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Targ'ibot texnologiyalari ichida yana keng tarqalgan usullardan biri - "Sinkveyn" ya'ni axborotlarni yig'ish usuli hisoblanadi. Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilardagi tarqoq axborotli jarayonlar astasekin bosqichma-bosqich yo'naltirilgan axborotli jarayonga aylantirib boriladi. Ya'ni o'rganilmagan bilimlar mavzuni o'rganish davomida o'rganiladi, muayyan obyektiv voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Odatda, sinkveyn mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyatni yechish yoki alohida o'quv elementlarini mukammallashtirishda o'quvchi tafakkurini charxlash uchun tuziladi.

Milliy g'oya fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi va turli tazyiq va fikrlarni "ideallashtirish" kabi xususiyatlardan yiroq. Va me'yoriylik holati bilan alohida ajralab turadi. Uning mazmuni aksil targ'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uilib qolishiga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatçılık va takrorlanishlariga yo'l qo'ymasligi bilan ajralib turadi.

Milliy g'oya va milliy mafkura haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali – hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no – mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'n-u sharafi, or – nomusi, ishonch – e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidair.

Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt – saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu

muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidir.

Shu bilan birga, milliy istiqlol g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan jadal o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadryatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab – avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlanib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog'i zarur va shart. Hozirgi sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib – unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA VA UNING ZARURATI

Ruhiddin Ibrohimov,

*Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari ta'limi yo'nalishi 2-
bosqich 202-guruhi talabasi*

Ilmiy rahbar: t.f.n. T.Q.Qozoqov

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g'oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongida bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarga oq-qorani ajratish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tursa g'oyaviy tahdidlardan qo'rmasa, bunday millatni yengish mumkun emas. Aksincha, jamiyat ichida g'oyaviy parokandalik, bo'linishlar bo'lsa (bunga tariximizda misollar ko'p) dushmanlarga, ularning yot mafkuralariga yo'l ochib beradi. Bunday millatni yengish, mustamlaka qilish oson kechadi (bunga ham tarixda misollar ko'p).

Milliy istiqlol g'oyasi ezgulik va buniyodkorlik g'oyalariga tayanar ekan, ana shu g'oyalarga qaratilgan **tashqi** va **ichki tahdidlar** mavjud bo'lib, tashqi tahdidlar O'zbekistonga chetdan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa o'z Vataniga, vatandoshiga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya, fikr, xattiharakatlardir. Nosog'lom mahalliychilik, "Ma'naviy emigratsiya" (baxtni o'z Vatanidan emas, o'zga joylardan qidirish), ashaddiy millatchilik merkantelizm (olib-sotarlik), loqaydlik, o'zlikni anglamaslik kabilar ichki tahdidning ko'rinishlaridir. Ular qancha keng yoyilsa, millatimiz g'oyaviy birligiga shuncha ko'p zarar yetkazadi, parokandalik qiladi. G'oyaviy birligi mo'rt millatning davlat xavfsizligi ham mo'rt bo'ladi.

MILLIY G'OYA, MA' NAVIYAT VA MAFKURA

"Mafkuraviy immunitet - ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, imoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaktsion, buzg'unchi xarakterdag'i oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi", – deb ta'rif beriladi falsafiy qomusiy lug'atida. Immunitet, o'z nuybatida odamni to'g'ri yo'llidan "ozish"dan, turli yo'llarga adashib, keyin pushaymon bo'lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, purchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo'linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov "Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur" ligi haqidagi fikrni alohida ta'kidlaganlar.

Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishni emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlarni zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.

Mafkuraviy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishida milliy g'oya negizlari muhim rol o'yndaydi. Agar mafkuraviy tahdid sezilsa, nima qilish kerakligini o'ylab o'tirmay g'oyaga g'oya bilan javob berish amalda bajariladigan bo'lsa, mafkuraviy immunitet amaliy shakllanadi, deb hisoblash mumkin.

Milliy istiqlol g'oyalariga shaxsning mustahkam ishonchi, irodasi uning mafkuraviy immuniteti manba hisoblanadi. Bunday mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxs yot mafkuralar ta'siriga berilmaydi. Chunki, milliy g'oya mafkuraviy immunitetni shakllantirishda o'ziga xos imkoniyat va xususiyatlarga ega.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalliklariga bo'lgan ishonch asosiga quriladi. Bu ishonch esa ishontirish, tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston – dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat faoliyatining asosiy tamoyillari, afzalliklari uning diniy davlat bilan qiyoslaganda to'liq tushunchalar beradi. Bu esa dunyoviy milliy- demokratik tuzumning mohiyati va afzalliklarini anglab yetishga olib keladi.

Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani mafaatlari birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalaridir.

Insoniyat tarixida mafkuraviy ko'nikmani mustahkamash, bunga erishilmaganda bu qanday fojealarga olib kelishi mumkinligi haqida bitiktoshlarda qoldirilgan millatga ogohlantirish da'vatlarli mavjud. Mana shulardan biri: "Samimi, nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so'zini olmayin nom-nishonsiz ketding" (Kul tigin bitigi).

Bu kabi misollar mafkuraviy immunitetni sindirish, bo'shliq hosil qilib, o'z g'oyasini singdirib, xalqning ongini va qalbini egallah, o'z g'oyalalarini

ommallashtirishning juda ko'p namunalari uchraydi. Chunki mafkuraviy kurashlar tarixi juda olislarga borib taqaladi.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakldagi g'oyaviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oлади. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy profilaktikaning oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va vositalaridan foydalilanildi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holda doimiy va sobit qadamlik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Ta'lif - tarbiya va targ'ibot va tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi.

Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq mafaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklar-u dostonlar, qo'shiqlar-u raqslar, turli ko'rinishdagi va mazmunga ega bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shaklidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mafkuraviy profilaktika mafkuraviy immunitet tushunchalari uzviy aloqador bo'lib, muayyan bir yaxlitlikni o'zida ifoda etadi. Zero, targ'ibot va tashviqot ishlari va uning usul va vositalari mafkuraviy immunitetning shakllanishiga olib keladi.

Odamlarni u yoki bu maqsadga yo'naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon bo'lib, bunda targ'ibot sub'ektlari (targ'ibotchilar, TV, radio, matbuot) va targ'ibot ob'ektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi, bu esa o'z o'rnida profilaktika ishlarining samaradorligini belgilaydi. Targ'ibot va tashviqot samaradorligi xalq, jamoa siyosiy ongida **targ'ibotgacha** va **targ'ibotdan keyingi darajalar** orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi o'zgarishlar ilmiy yutuqlarga asoslangan holda olib borilsa, targ'ibot va tashviqot samarasini aniqlash va takomillashtirish mumkin bo'ladi.

Mafkuraviy profilaktika samaradorligi, eng avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan natija qanday bo'lishi kerak ekanligini aniq belgilanishiga bog'liq.

XXI asrda ham g'oyaviy ziddiyatlar va tortishuvlar to'xtamayapti, balki murakkablashmoqda. Shu bois xalqimizning mafkuraviy immunitetini ta'minlash g'oyaviy tabiyaning izchil, doimiy asosga qo'yilishini taqozo etadi.

Milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Prezident I.Karimov asarlarida ko'tarilgan siyosiy g'oyalalar, islohotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanadi. Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetni **besh darajaga** bo'lib o'rganish, baholash va shu asosda takomillashtirish mumkin. Bunda:

Birinchi, ya'ni mafkuraviy immunitetning quyi darajasi-shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas; buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga befarq, loqayd;

Ikkinci darajasi - bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, sistemalashmagan, shu sababli ularni buzg'unchi mafkuraviy g'oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas;

Uchinchi daraja – mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ular nazariy, shaxs, jamiyat ularni qo'llashga qiynaladi.

To'rtinchi daraja - asosiy bilimlarga ega, vaziyatni to'g'ri baholay oladi, ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immuniteti shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi.

Beshinchi – oly daraja - mukammal g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bermalol amalda qo'llab, buzg'unchi mafkuraviy, siyosiy g'oyalarni doimo hamma joyda faol fosh qila oladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'kis hayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioxalarni qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'uruning sustligi kabi noxush ko'rinishlar uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim.

Mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat uchun ko'ngilli, g'oyaviy asoslanib amalga oshiriladigan kundalik ishlarda namoyon bo'ladi. Bu faollik milliy birlik, ma'naviy yuksalishga xalaqit berayotgan sifatlar, yot qarashlar, milliy xavfsizligimizga, ichki va tashqi tahdidlarga ochiq va mardonqa qarshi turishni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, Elim deb, yurtim deb yashashning har bir kishida, jamoada, jamiyatda namoyon bo'lishini anglatadi. Bu esa milliy g'oyani amaliy kuchga aylantirish va buzg'unchi mafkuraviy ta'sirlardan aholini, yoshlarimizni himoya qilishning shartlaridan biridir. Zero "Fikr va so'z amaliyotga yo'naltirilganda, ularning har ikkisi ham moddiyatga – narsaga aylanadi".

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash xususiyatlari va mafkuraviy immunitetni hosil qilishning ta'sirchan hamda samarali usul va vositalarini yaqqol ko'rsatish lozimdir. Prezidentimiz I. Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganini qayd etish lozimki, ular qatorida "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy profilaktika" kabilar bor. Ana shu tushunchalarning mazmunini oydinlash-

tirishda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tessavur qilish imkonи tug'iladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va **birinchi unsuri**, bu **bilimdir**. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafдорлari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyating boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. **Ikkinchidan**, bu bilimlar o'z mohiyat-e'tiboriga ko'ra, Vatan, xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining **ikkinci asosiy qismi** ana shunday bilimlar asosida shakllangan **qadriyatlar tizimidir**. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur mafkuraviy immunitetning **uchinchi muhim unsuri**, ya'ni **ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi** bilan bog'liqdir. Ya'ni, har bir kishi kabi, xalq, davlat va jamiyatning ham aniq maqsadi bo'lishi shart. Shu bilan birga, bu maqsad anglangan, uni amalgalashirishda sobitqadamlik darkor. Ana shunday aniq tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy taziyqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Bunday mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yuqorida ta'kidlangani kabi mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u o'z mohiyatiga ko'ra, yet g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuuni o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalgalashiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuuni, bir so'z bilan aytganda, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'limgarbiya tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, kuchli mafkuraviy immunitetiga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

SHAXS MA`NAVIYATIDA OILANING O'RNI

M.Abdullayeva, N.Imomberdiyeva,

Namangan shahar 13-umumta'lim maktabining 1-toifali o'qituvchilari

Ma`naviyat bu taqdirning ehsoni yoki insoning tug`ma xususiyati emas, balki u insonga xos xususiyat bo`lib, uning jamiyatdagi hayotiy jarayonida shakllanadi.

Binobarin insoniyat jamiyat taraqqiyoti taqdirini ma`naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Ta`kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan barcha ma`naviy omillar avvalo insonning ijodiy tafakkurida shakllanadi, so`ngra ijtimoiy hayotga yo`nalish oladi. Pirovard natijada, ma`naviyat insonlarni hamkorlikka, hamjihatlikka, ahillikka, muloqatga chorlaydi. Bir so`z bilan aytganda u insonga barqarorlik bag`ishlaydi va uning irodasini mustahkamlaydi. Ma`naviyat shaxs va jamiyat faoliyatida turli ko`rinishda namoyon bo`ladi. Jumladan, ma`naviyat, madaniyat, ma`naviy kamolot, an`anaviy meros, ma`naviy ehtiyoj, ma`naviy sog`lomlik va boshqalar.

Yuksak ma`naviyatimiz kamol topishida milliy kadriyatlar, an`analarimiz qatorida ilm ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs va jamiyat ma`naviy kamolotini yanada yuksalishida ta`lim-tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Ma`naviyat xalqning, shaxsnинг axloqi, odobi, barcha va ma`suliyat tuyg`usi, ilmi, amaliy mehnati va ijod manbasi, iste`dod va qobiliyati, iymoni, e`tiqodi, vijdoni, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlari tizimining yahlit birligidir.

Farzand tarbiyasida qo`ni-qo`shnilar ta`siri va mahalladagi muhitga bog`liqligi sababli o`zbeklar barcha davrlarda jamoatchilik fikriga tayanganlar. “Hovli olma, qo`shni ol”, “Qo`shning tinch bo`lsa, sen ham tinchsan”, degan maqollar ijtimoiy muhitning inson va jamiyat hayotidagi o`rnini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalagan hikmatlardir.

Oilaviy tarbiya — bola rivojlanishi uchun eng qulay shart – sharoitlarni yaratishga yo`naltirilgan, uni ijtimoiy hayotga tayyorlashga, har tamonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan oila faoliyatidir. Oila tarbiyasi bolaning tug'ilgan kunidanoq boshlanadi va ularning to`la mustaqil, individual va o`ziga xos bo`lgunicha uzlusiz davom etadi. Ota – onalar va oilaning yoshi katta a`zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish ko`p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo`lishi, ularning oila tarbiyasida birdamlik va tenglikka erishishi, kuch – g`ayratlarini birlashtirishiga bog`liq.

O`zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a`zolarining barchasi to`planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig`ini odob saqlab kutish, ota-onani o`rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko`rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ulug`-ajdodlarga, qo`ni-qo`shnilarga, xesh-aqrobalarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo`ladi. Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat`iy amal qilish, o`zidan kattalar, yoshi ulug`lar bilan hayo, odob-andisha asosida

so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betgachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik-bularning hammasi xalqimizda chinakam lutf-u nazokat hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi. O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolar-u otalarni, nuroniy onalar-u buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqur singdirilib boriladi. Otabobolarimiz an'analariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'i nazar, salom berishlari, yo'lدا ro'baro' kelganda birinchi yo'l berishi, ular bilan samimi y munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamasliklari lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir insonning ma'naviy kamolotida oilaning o'rni beqiyosdir. Insonning oilada olgan tarbiyasi uning ma'naviyatida yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois ota-onalar oila doirasida o'z farzandlarining tarbiyalariga e'tibor berib borsalar shu bilan ta'lim sifatining oshishiga ham amaliy yordam ko'rsatgan bo'ladilar.

"O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN" TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Jahongir Qodiraliyev,

Namangan tumani Axborot texnologiyalari va servis kasb-hunar kolleji 2-bosqich o'quvchisi

Rimma Zamilova, ilmiy rahbar

Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda. «O'zbekiston - yagona Vatan» tushunchasining g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini anglab olish uchun, avvalo Vatan, vatanparvarlik tushunchalarini yoritish lozim. Vatan aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anlatadi. Shu ma'noda O'zbekiston o'zbek xalqining vatani, sajdagoh kabi muqaddas makonidir. Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir.

O'zbekistonning mustaqillik yillarda bosib o'tgan zafarli yo'li, beqiyos ulkan yutuqlari xalqimizning ming yillik tarixining qonuniy mahsulidir.

Sog'lom, aqli va yuragida o'ti bor har bir fuqaro, hech shubhasiz, Ona-Vatanni jon dilidan sevadi. Vatanga muhabbat ko'r-ko'rona bo'lishi mumkin emas, buning uchun o'zlikni anglash, demakki, o'zi mansub bo'lgan xalqning kechmishini, kindik qoni tomgan tuproqning tarixini bilish, dilda iftixor tuyish, shu zamin, shu xalq, shu Vatan bilan o'z qismatini bus-butun deb his qilish lozim. O'zbek xalqi barcha xalqlar singari asrlar mobaynida saqlanib kelgan milliy urf odati, rasm-rusumi, marosimi va an'analarini, yurish turishi, g'ururi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy dunyosiga ega.

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA MAFKURA

Ko'hna va navqiron o'zbek davlati Buyuk ipak yo'li, ya'ni savdo sotiq, madaniyat, turli dinlar kesishgan muqaddas zaminda joylashgan. Mashhur karvonsaroylarda doimo turli millat vakillarining turli tillardagi suhbatini eshitish mumkin bo'lgan. Tarixan bizning o'lkada yashagan aholi turli dinlarga e'tiqod qilgan. Ammo ularning o'zaro tinch-totuv va osoyishta turmush kechirishining eng muhim omili shu yashayotgan ona tuproqqa hurmat, sadoqat, muhabbat bo'lgan. Vatanparvarlik tuyg'usi barchani yagona Vatanda birlashtirgan.

Vatanimizning ko'p millatli xalqi ongida «O'zbekiston yagona Vatan» degan ulug' tushunchani qaror toptirish milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biridir. «Yagona Vatan» ruhidan ilhomlangan, el-yurt tinchligi va mustaqilligi uchun kurashgan Vatan fidoyilar To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur singari ulug' sarkarda va xalq qahramonlarining jasorati bugungi kunda ham vatandoshlarimizda faxr va g'ururlanish tuyg'usini kuchaytiradi.

Yagona Vatan g'oyasi, bir tomondan, O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk, ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat barpo etish uchun xalqimiz kuch-quvvatini jipslashtirishni, xalq irodasini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishni, ikkinchi tomondan esa milliy mustaqilligimizga xavf solayotgan mafkuraviy tahdidlarga zarba bera oladigan vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'z Vataniga, tavallud topgan zaminga yuksak hurmatda bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ismlari oxiriga tug'ilib o'sgan joy nomini unutmaslik uchun qo'shib aytganlar: Xorazmiy, Buxoriy, Farg'oniy, Termiziy, Marg'inoni, Farobi, Qoshg'oriy, Beruniy, Yugnakiy va boshqalar. Bu kindik qoni to'kilgan yerga bo'lgan azaliy sadoqat timsolidir. Biz milliy mustaqillik tufayli «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi ruhida tarbiyalanib, o'qib, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldik.

MILLIY MADANIYATIMIZ VA MILLIY G'OYAMIZDAGI MUSHTARAKLIK

Dilafruz Qodiraliyeva,

Namangan viloyati "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati "Fidoiy yoshlar klub'i" "Ma'naviyat va ma'rifat" yo'nalishi koordinatori

Rimma Zamilova, ilmiy rahbar

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug' vor rejalarни amalga oshirish uchun imkon vujudga keladi.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmisht ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida tiklana boshladи. Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burhoniddin Marg'inoni, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpox va boshqa "soviet davrida" hatto nomlarini eslash man qilingan

allomalarimizning asarları birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga yetib kela boshladı.

Ulug' bobomiz Imom Buxoriyning «Jome' as-sahih» kitoblari islom dunyosi ulamolari tomonidan yakdillik bilan Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas kitob deb e'tirof etilishi va umuman, Qur'oni Karimdan keyingi islom dinimizning asosini tashkil etgan oltita hadis to'plamidan to'rtasining ona-Vatanimiz Turkiston zaminida yaratilganligi ajdodlarimiz an'analarining naqadar ulug' va samarali bo'lganligi dalolatidir.

Mustaqillik sharoitida boy o'tmishimiz va milliy madaniyatimiz xolisona, ilmiy asosda o'rganila boshlandi, ularga to'g'ri yondoshuv va munosabatlар yuzaga keldi. Chunonchi, Eron ahmoniyalariga qarshi Shiroqning, makedoniyalik Iskandarga qarshi Spetamenning, mo'g'ul istilosiga qarshi Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Mahmud Torobi va boshqalarning, ayniqsa adolatparvar, ma'rifatparvar hukmdor Amir Temurning sa'i-harakatlari, shuningdek, Po'latxon, Dukchi Eshon qo'zg'olonlari - bularning bari hech qanday «sinfiy kurash»ga aloqasi yo'q edi.

Bunday harakatlarni yuzaga keltirgan, unga kuch bag'ishlagan asosiy omil milliy g'oya bo'lib, uning mohiyatini yurt ozodligi, tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi tashkil etardi.

Kishi yaxshi inson bo'lib yetishishi uchun yaxshilar bilan suhbatdosh bo'lib, yaxshilarni qidiradigan, ularga ergashadigan bo'lishi lozim.

Agar kishi yaxshilar bilan hamfikr, hamqadam bo'lmasa, unday odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Kishi shirinso'z, muloyim bo'lishi, atrofidagi kishilarni qo'pol, qattiq so'z bilan bezdirmasligi lozim. Mana shu hayotiy g'oya, falsafiy xulosa buyuk shoirlarning asarlarida o'zining teran badiiy talqinini topgan.

Ajdodlarimiz merosi va ma'naviyatini o'rganish biz yoshlarda g'urur uyg'otib, aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan soha o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umumdaylat siyosati miqyosidagi vazifadir. Darhaqiqat yoshlarni milliy g'oyani anglashi, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi.

BARKAMOL INSONNING MA'NAVIY FAZILATLARI

*Umida Abdulboqiyeva,
Yangier qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji 1 bosqich 12-guruhan o'quvchisi*

Tohirjon Qozoqov, ilmiy rahbar

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonun va dastur davlatimiz taraqqiyoti, uning dunyo hamjamiyatiga

bozor tizimi orqali integratsiyalanishi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari safiga qo'shilishiga imkon yaratadi.

Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy fanlarning mohiyati, mafkuraviy jihatdan yangilanib zamonaviylashganligi va ko'pgina masalalarining eskirganligi bu sohaga yangi kuchlarning kirib kelishini yanada dolzarb masalaga aylantiradi. Sobiq sovet tuzumi dinimiz, tilimiz, milliy ursodatimiz, qadriyatlarimizni tahqirladi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi ziyyolilarimizni qatag'on qildi. Sho'rolar tuzumi davrida milliy madaniyatni mensimaslik, milliy, diniy qadriyatlarni buzishga qaratilgan siyosat natijasida ming yillar davomida shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan, o'ziga xos sharqona milliy ruh, ma'naviy barkamollik ko'p jihatdan zaiflashdi. Bu esa yoshlar tarbiyasi, xulqi, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir etishiga olib keldi. Ma'naiy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etish, yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglashni singdirish bu salbiy hodisalarining oldini olishga katta imkoniyat yaratadi.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergen barcha imkoniyatlar zamirida komilikka etishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo'nalgaligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o'rni beqiyosdir.

Masalan, birgina Yoshlar yilida yoshlar manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Fikrimizning dalili sifatida Qonunchilik palatasi tomonidan 2007 yil 23 noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 1 dekabrda ma'qullangan, 2008 yil 8 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunini ko'rsatishimiz mumkin.

Bu qonun 32 ta moddani o'z ichiga olgan to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, umumiylar qoidalari, bola huquqlarining asosiy kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari va yakunlovchi qoidalarga oid masalalar qonuniy tarzda ko'rsatilgan. Bu qonun o'zining maqsadi bilan, bola huquqlarining kafolatlari borasidagi munosabatlarini tartibga solishi bilan boshqa qonunlardan farq qiladi va o'zining ana shu jihatli bilan ahamiyatlidir.

YOSHLAR TARBIYASIGA AXBOROT HURUJLARINING SALBIY TA'SIRI

*Muqaddas Xojiboyeva,
Namangan tibbiyot kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи o'qituvchisi*

Globallashuv jarayoni hozirda butun dunyo hamjamiyatini qamrab oldi. Prezident I.A.Karimov aytganidek: "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega"¹⁶. Globallashuv yoshlar

¹⁶ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Manaviyat, 2008. - B. 113.

tarbiyasiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fan va texnika taraqqiyoti kun sayin rivojlanib borar ekan, bu rivojlanishni kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. Internet tarmog'ining jadal rivojlanishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirib yubordi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyasi, telefon, uyalı aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, uning imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlari ma'naviyatiga mafkuraviy ta'siri, xavf-xatarlari to'g'risida ham so'z yuritishga to'g'ri keladi. Muayyan kuchlar global tarmoqning axborotlarni tez, sifatli uzatish, tarqatish bo'yicha imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan urish, yoshlarni o'zлari targ'ib etayotgan buzg'unchi g'oya va mafkuralar tomon yo'naltirishga harakat qilishmoqda.

Shuningdek, bugungi kundagi salbiy ta'sirlardan eng ko'p kuzatilayotgani kompyuter o'yinlari hisoblanadi. Kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketish sog'liq uchun jiddiy zarar keltiradi. Shu bilan birga bolalarda mehr o'rniga qahr, shavqat o'rniga g'azab tushunchalari shakllantirib boradi. Hozirgi kunda shavqatsizlikni, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kompyuter o'yinlari deyarli 95% ni tashkil qilib, bolalarni kelajakda jinoyat yo'llariga o'zi bilmagan holda kirib borishiga sababchi bo'lib qolmoqda. Kompyuter o'yinlariga bir nazar tashlasak. Kompyuter qarshisida o'ynab o'tirgan bola hotirjam odamlarni otib o'ldiradi, zo'ravonlik qiladi, o'g'irlilik qiladi. Ushbu o'yinlar davomida bolalar har bir qilgan ishi uchun rag'batlantirilib boriladi. Ushbu g'oyalar yoshlari ongiga singib borar ekan ular kelajakda qanday inson bo'lib yetishiga kim oldindan kafolat bera oladi.

Kompyuter o'yinlari bo'yicha quyidagi ma'lumotni keltirib o'tish joiz:

- 1997 yil AQSh ning Kentuki shtatidagi maktablardan birida 14 yoshlari Maykl Kernal 3 nafar maktabdoshini otib o'ldirdi.

- 1999 yil Amerikaning Kolorada shtatidagi Litolt shahrida 12 nafar maktabdoshi va o'qituvchisini hayotiga zomin bo'lgan bitiruvchi o'quvchilar Erik Harris va Villad Klebold o'z jonlariga qasd qilishgan.

Yuqoridaq bunday holatlar kompyuter o'yinlarining ta'sirida amalga oshmoqda. Buning uchun yoshlarni kompyuterlardan emas kompyuter o'yinlaridan nazorat qilmoqlik lozim. Ularga kompyuterda til o'rgatuvchi dasturlar yoki aqliy tafakkurni rivojlaniruvchi yoshga doir matematik das-turlar, kompyuter grafikasi yordamida rasmlar chizish, internet kutubxonalaridan ishlatishga o'rgatish lozim. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "Microsoft" kompaniyasi asoschisi Bill Geytsning o'zi ham farzandlariga bir kunda ko'pi bilan 45 daqiqa, dam olish kunlari esa 1 soat-u 45 daqiqa kompyuterda shug'ullanishga ruxsat berar ekan¹⁷.

Sog'lom avlodni g'oyaviy tazyiqlardan himoyalash uchun quyidagi amaliy ishlarni amalga oshirmoq lozim:

- Bolalarni sport o'yinlariga keng jalb etish;

¹⁷ <http://maslahat.uz/>

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA MAFKURA

- Ularni rasm chizishga yoki badiiy kitob o'qishga qiziqtirish;
- Turli xil to'garaklarga qatnashishini nazoratga olish;
- Bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;
- O'zbekistonda zo'ravonlikka chorlovchi o'yinlarni o'ynovchilar va tarqatuvchilarga nisbatan qattiq jazo qo'llash;
- Kompyuter klublariga voyaga yetmagan bolalarni kirishini taqiqlash va kompyuter klublarini davlat organlari tomonidan doimiy nazoratga olish;
- Internet tizimida ishlovchilar uchun "Xavfsiz internet" dasturini ishlab chiqish va filtrlovchi dasturiy ta'minot yaratmoqlik lozim.

Demak xulosa qilinadigan bo'linsa, bugungi kunda yoshtar ongiga ta'sir qilayotgan axborot xavfsizligi muammolarini chuqurroq o'rganishni, noxolis axborotlarga nisbatan yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash jamoatchilik oldidagi dolzarb ahamiyatga ega vazifadir.

MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH OMILLARI

*Hurshidbek Boymirzayev,
Namangan DU "Tarix fanlari" kafedra magistranti*

Bugungi kunda jonajon Vatanimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi, unda yashayotgan har bir millat vakilining milliy g'ururini oshirdi, uning qaddini ko'tardi va unda o'z xalqi, ona zamini, avlod-ajdodlar oldidagi millat manfaatlarini himoya qilish buyicha mas'uliyatni his qilish ruhini shakllantirmoqda.

Istiqlolning yaratuvchisi hisoblangan milliy mafkura - muayyan jamiyatning tarkibidagi millatlarning o'z mustaqilligini, mustaqillik manfaatlarini himoya qilish, rivojlantirish yo'nalishidagi ichki intilishlari natijasida vujudga keluvchi tuyg'ulari, maqsadlari, xohish-irodalarini ifodalovchi g'oyalar majmuasidir. Milliy mafkuraning o'zagini milliy g'oya tashkil etadi. U jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta'minlaydi. Milliy g'oyaning asosiy tayanchi nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg'otuvchi kuchi ham milliy o'zlikni anglashdir. Millat o'zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamaguncha uning obro'yi, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg'urishi, milliy faxr va g'ururi uchun kurashishi mumkin emas. O'zlikni anglash xalqni g'aflatdan uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir².

Hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilayotgan bo'lsa, ko'plab milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarda qo'lga kiritilgan eng katta yutuq ham jamiyatda millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash bo'ldi. Barcha millat va elat vakillarining teng haq-huquq va imtiyozlarga ega bo'lishi, ular manfaatlarining Konstitutsion asosda muhofaza etilishi mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

² To'raev B., Ramatov J. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Toshkent: Ijod dunyosi, 2002.-36 bet.

Yurtimizda shakllanib, rivojlanayotgan milliy g'oya barcha millatlarning manfaatlariga mos. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik O'zbekistondagi barcha millat va elat vakillarining g'oyasi bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan milliy-madaniy markazlar xalqlar o'rtaсидаги do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlashga katta hissa qo'shamoqda. 30 dan ortiq davlatlar bilan do'stlik jamiyatlari tashkil etilgan bo'lib, ular ikki mamlakat o'rtaсидаги o'zaro hamkorlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'yamoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamiyat tashkilotlari bo'lib, dastlab 1989 yilda koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida tuzilgan. Hozirda ularning soni 140 dan oshadi.

O'zbekistonda yashovchi turli millat vakillarini Respublika ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatini muhim yo'naliшlaridan biridir. Jumladan, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy - ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish va Respublika baynalmilal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoa tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 13 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqilligimizning ilk kunlaridan o'z asar-larida, ma'ruzalarida, gazeta-jurnallar muxbirlari, ommaviy-axborot vositalari vakillari savollariga berayotgan javoblarida O'zbekistonni dunyoga tanitish yo'lida, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish, millatlararo totuvlikni ta'minlash yo'lida O'zbekistonda olib borilayotgan ishlarning ahamiyati katta ekanligini doimo takidlاب kelmoqda.

Milliy-ma'naviy tiklanish, millatlararo totuvlikni ta'minlashga erishish tarixiy zaruriyat ekanligini har bir fuqaroning qalbi va ongiga singdirishda milliy g'oyaning, milliy mafkuraning o'rni benihoya kattadir.

Millatlar sha'nini qadrlash zarurligini, millatlararo totuvlikka erishish muhimligini, milliy-ma'naviy tiklanishga erishmasdan turib oldimizda turgan maqsadlarga erisha olmasligimizni falsafiy tarzda idrok eta oladigan kishilar mamlakatimizda qanchalik ko'p bo'lsa, Prezidentimiz takidlاب o'tgan xavf-xatarlarini oldini olish, beqarorlikka yo'l qo'ymaslik imkoniyatlari yanada kengroq bo'ladi.

Milliy va ma'naviy tiklanishga erishishning omillari va vositalari xilma-xil bo'lishi mumkin. Mustaqilligimizni abadiy bo'lishi, yurtimizda tinchlik va

MILLIY G'OYA, MA`NAVIYAT VA MAFKURA

barqarorlikni ta'minlab berishda, xalqimizni farovon hayotga erishishini ta'minlab berishda asosiy omillardan biri millatlararo totuvlikka erishishdir.

OILANING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

*Mafstuna Rejabboyeva,
Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi yo'naliishi 303-guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: f.f.n. O.Mamatov

Oila jamiyatntng abadiyligini, avlodlarning davomiyligini taminlaydigan, urf- odatlarimizni, an'ana, axloqiy me'yor va qadriyatlarni mujjasam etgan kelajak avlod tarbiyasiga bevosita tasir ko'rsatadigan, insonlar o'rtasida o'ziga xos munosabat shakllanadigan ijtimoiy makondir. Xususan, yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda oilaning ro'li beqiyos. Insoniylikka xos bo'lgan xususiyatlarning barchasi oilada shakllanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida o'zbeklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy axloqiy sifatlarni tasvirlaydi va ular oilada yuzaga kelishini ko'zda tutadi. Bular: iymon va etiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqqiga hiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, ota-ona, aka-uka, qarindoshurug'lari mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfellik, shirinso'zlik, mardlik, xayolilik, odamiylik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

Sog'lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy va umuminsoniy ma'naviy boyliklar negizida amalga oshirishda oilaning ahamiyati benihoya yuqori. Binobarin, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "O'tgan avlod obidalari", Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Axloq fani", "Oila xo'jaligi", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Mahbub ul-qulub" asarlarida o'z ifodasini topgan.

Oila-jamiyatning bosh bo'g'ini. Vatanlar ichra muqaddas Vatandir. Yurtboshimiz I.A.Karimov "Qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan" deb bejiz aytmaganlar.

Darhaqiqat sog'lom muhitga ega bo'lgan oilada shakllangan shaxsnинг jamiyatda bo'layotgan voqeа-hodisalarni haqqoniy baholaydigan, har qanday munosabatlarni erkin bildira oladigan, ilg'or fikrlari namunasi bilan oila a'zolari, safdoshlari, jamoasiga tasir qila oladigan, ularni ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirish kuchiga ega, jamiyat, davlat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yadigan, fidokor, tashabbuskor, tadbirkor bo'lmog'i nazarda tutiladi.

Oilani boshqarish jamiyat hayotini boshqarishning kurtagi hisoblanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi yaqinlik, bog'lilik, ishonch, hurmat samimiylilik,

burch va mas'uliyatni his qilish, talabchanlik, muloyimlik, bolalar ichki dunyosini shakkantirishga ta'sir etadigan ruhiy omildir.

Jamiyat taraqqiy etgan sari ma'naviy omillarning o'rni va roli ham ortib boradi. Oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayadi. Bunday holatda muhim vazifa oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onaning farzandlar oldidagi, farzandlarni ota-ona oldidagi burch va mas'uliyatini kuchaytirishdir. Bunday muhitni yaratishda jamiyat, davlat, jamoatchilikning o'rni katta. Agar ularning ta'siri yetarli bo'lmasa oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni ham zaiflashadi.

Oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida A.Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunga kuchli va tartibli bo'ladi. Oilaviy munosabatlar zaif bo'lsa intizomsizlikka yo'l qo'yilsa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi"¹⁸.

Oilani mustahkamlash ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar katta hissa qo'shmaqdalar. BMT 1979 yil 18 dekabrda "Xotin-qizlar huquqlari kansitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya" qabul qilindi. Bu konvensiya jamiyatdagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish oilani ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini mustahkamlash yoshlar tarbiyasini yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatdir.

1998 yil may oyida Respublikamizda "O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi" qabul qilindi. Mazkur kodeks o'z mohiyati bilan mamlakatimizda ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga onalik va bolalik huquqlarimi himoya qilishga, yoshlar tarbiyasini yaxshilashga barcha imkoniyat va sharoit yaratishga qaratilgan.

Kodeksda qo'yilgan yana bir masala oila qurishda yoshlarning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, kelib chiqishi kansitilmasligidir.

Oila barqarorligiga asoslangan huquqiy, axloqiy mezonlar hamma davrlarda ham ay'nan bir xil bo'lgan emas. Ba'zi davrlarda oila barqarorligi zaif, ba'zi davrlarda mustahkam bo'lgan. Hozir bazi mamlakatlarda oila qurish xuddi o'yinchoqdek. Buning asosiy sababi oila munosabatlariga oid ma'naviy omillarning zaifligidir. Yoshlar hayotga yengil-yelpi qarab ba'zan ota-onalar bilan maslahatlashmay turmush quradilar. Oradan ko'p o'tmay ajrashadilar. Natijada ko'plab go'daklar yetim qolib, ota-ona mehridan mahrum bo'lmoqdalar. Yetimlar uyida bolalarni ko'payishi jamiyat hayotidagi ma'naviy inqrozni kuchayishiga olib keladi.

Avestoning "Yasno" 33 bobida aytilgan hikmatli, ibratli fikrga e'tibor berish kerak: "Yeb-ichmaydigan odamlarning toat-ibodat qilishga kuchi bo'lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvatlari yetmaydi..."

Yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat bolalariga ega bo'ladi...

¹⁸ Fitrat Abdurauf. O'la-Toshkent: Ma'naviyat, 1998.-8 b.

MILLIY G`OYA, MA`NAVIYAT VA MAFKURA

Xulosa o`rnida aytish joizki, oila jamiyatning ajralmas qismi sifatida, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma`naviy taraqqiyotda muhim omil bo`lib xizmat qiladi.

MA`NAVIY KAMOLOT OMILLARI

Yoqutxon Hamidullayeva

*To`raqo`rg`on tumani Shaxand kasb-hunar kolleji
Informatika yo`nalishi 2-bosqich 145-guruh o`quvchisi*

Ilmiy rahbar: f.f.n. O.Mamatov

Yuksak madaniyatli, ma`naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash muammosi insoniyat ma`naviy-axloqiy merosining eng ko`hna mavzularidan. U shaxs kamoloti va barkamol insonning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ruhiy hamda axloqiy sohalari bilan bog`liq bo`lgan muammolar yechimini topish uchun harakat qilib kelgan.

Bashariyat tarixiga nazar tashlasak, inson va uning hayoti, ma`naviyati, axloqi, barkamollik darajasi odamlar o`rtasidagi turli xildagi ijtimoiy munosabatlar majmuasidan iborat ekan. Ijtimoiy hayot va jamiyatning barqarorligi, go`zalligi, sermazmunliligi, insonning ijodiy mehnat faoliyati, odobi, xatti-harakati bilan chambarchas bog`liq bo`lgan murakkab jarayondir. Shu jihatdan qarasak, insonni yuksak martabaga eltadigan vosita faqat mehnat va ijtimoiy faoliykgina bo`lib qolmasdan, balki uning odobi, axloqi, barkamolligi, kishilar o`rtasidagi o`zaro muloqoti bilan bog`liq ijtimoiy muhit hamdir.

Hozirgi bizning yangilanish jarayonini o`tayotgan jamiyatimizda ham hayotning hamma sohalarida hukm surayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy barqarorlikni ta`minlash muammosi hamda uning yechimini topish zarurati yuqorida qayd etilgan muammolar asosida vujudga kelgan.

Yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g`oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri. Zero, umuminsoniy qadriyatlarni barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonalarda ham ahamiyati cheksiz bo`lgan. U jamiyat ma`naviy ehtiyojini qondirish uchun zaruriyat bo`lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo`lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og`zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo`lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlarni tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo`lgan vosita deb bilganlar.

Qadriyatlarni inson ma`naviy kamolotining muhim omili, inson ma`naviy taoliyatining mahsuli, uning moddiy dunyoga bo`lgan munosabatining ifodasi bo`lish bilan bir qatorda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U kishilar tomonidan yaratilib, o`zlashtirilib, fuqarolar ongi, qalbi va e`tiqodiga angib, faoliyatiga asos bo`lgandagina katta ijtimoiy kuchga aylanadigan hodisa. U jamiyat ijtimoiy va ma`naviy taraqqiyotining zaruriy mahsuli.

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA MAFKURA

Shunga ko'ra, qadriyat hamma zamonlarda ham dolzARB mavzu bo'lib kelgan. Bu mavzu, ayniqsa, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblarga kishilar "ko'nikib" qolgan zamonlar o'zgarib borayotgan davrda dolzARB muammoga aylanadi. Bunday davrlarda fuqarolarning qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari o'zgaradi. Eski qadriyatlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmay qo'yadi. Bunda yangi qadriyatlarga ehtiyoj tug'iladi va uni shakllantirish zaruriyatga aylanadi. Qadriyat - qadr-qimmat degan tushunchani anglatadi.

"OMMAVIY MADANIYAT" – MA'NAVIY TUBANLIK TARG'IBOTCHISI

Ayubxon Orifxo'jayev

*Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari huquq
ta'limi yo'nalishi 1-bosqich 108-guruh talabasi*

"Tabiiyki, "Ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarni tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi."

(I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch).

So'nggi paytlarda televizor ekranlarida, kinoteatrлarda, internet tarmog'ida turli disk yozuvlarida ochiqchasiga zo'ravonlik, shafqatsizlik, axloqsizlik, ma'naviy qashshoqlik, behayolik, fahsh, ochko'zlik, boylikka hirs qo'yishlik, turli zararli odatlар, giyohvandlik, ichkilikbozlik, kashandalikni oshkora targ'ib qiluvchi badiiy fil'mlar, mul'tfil'mlarni namoyish etish ko'paymoqda. Shuningdek, bugungi yoshlar axborot globallashuvni zamonida "Internet" tarmog'idan turli ma'lumot va tasvirlarni ko'rish, o'qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomondan ijobiy holat bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishi, ularni axloqiy jihatdan tubanlashuviga, zararli g'oyalarni ta'siriga tushib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. G'arbdagi turli markazlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida har xil g'oyaviy zararli saviyasi past, ma'naviy tubanlikka yetaklovchi, animatsion va badiiy fil'mlar, rok-n – roll, pop, metallist yo'nalishlaridagi qulogni qomatga keltiruvchi, sharqona axloq-odobga xilof bo'lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e'tiboriga havola etishmoqda.

Bugungi kunda internet tarmog'ida to'qqiz mingdan ortiq o'z joniga qasd qilishni targ'ib etuvchi, to'rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdagi mavjud resurslarning o'n ikkki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta'lim-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzARB masala bo'lib turgan sharoitda yoshlarga bu

imkoniyatlardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yishni iloji yo'q. Biroq, bir vaqtning o'zida "ommaviy madaniyat" va turli yot g'oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda.

Respublikamizdagi umumta'lim maktablarini kompyuter texnikasi bilan ta'minlash darajasi 66,5 foizga to'g'ri kelyapti. Hammasi bo'lib 6509 ta maktabda zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlangan sinflar mavjud. 2012 yilning o'zida byudjet mablag'lari hisobidan yana 806 ta maktabda komp'yuter sinflari tashkil etildi.

Joriy yilda ham bu xayrli ish davom ettirilayotir. Shunga qaramasdan o'quvchi yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'sirlaridan muhofaza qilishga qaratilgan dastlabki katta amaliy ta'sir amalgalashirildi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari "ZiyoNET" tarmog'iga ulandi. "ZiyoNET" tarmog'i o'ziga xos fil'tr vazifasini ado etib, talaba yoshlarning zararli saytlarga kirishiga yo'l qo'ymaydi.

Shuningdek, talaba yoshlarning internet kafe, kompyuter klublaridan foydalanishni tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalgalashirilmoxda. Birinchi galda bu muassasalarini o'quv yurtlari, maktablar hududidan kamida besh yuz metr uzoqlikda joylashtirish taklif qilingan. Yoshlarning dars mashg'ulotlari paytida internet va kompyuter klublarida bo'lishi nazoratga olinayotir.

Bu borada o'quvchilar, ota-onalar uchun "Men komp'yuter va internetdan faqat bilim olish uchun foydalanaman" mavzusida davra suhbatlari o'tkazish, O'zbekiston televideniesida namoyish etilayotgan maxsus ko'rsatuvalar "Ehtiyyot bo'ling, multfilm", "Allo ogoh bo'ling", "Ekranadagi olabo'ji", "Suiqasd" kabi ko'rsatuv va fil'mlarni misol keltirish mumkin.

Talaba-yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatiini shakllantirish, huquqiy ma'naviyatni oshirish orqali huquqbazarlik va jinoyatchiilikni oldini olish, kitobxon madaniyatini yuksaltirish, "Kamolot" YoH boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish, oila – muktab – mahalla hamkorligini yaxshilash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini, ota-onalar mas'uliyatini oshirish yoshlar ongidagi bo'shliqlarni axloqiy fazilatlar bilan to'ldirish bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi dolzARB masalalardan hisoblanadi.

TA'LIM VA TARBIYADAGI MUSHTARAKLIK

Abdumalik Qo'ziyev

Namangan shahar 1-sonli DİMİ oliy toifali matematika fani o'qituvchisi

Mustaqil O'zbekistonda milliy tahlim tizimini jahon meyorlariga moslashtirish bo'yicha salmoqli islohotlar amalgalashirildi va bugungi kunda ularning dastlabki samaralari ko'zga tashlanmoqda.

O'quvchi yoshlar ongiga milliy g'oya va maskurani, mahnaviyatni singdirish bugungi kun tahlim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning markazida

turibdi. Bu maqsadga erishish yo'lida tahlim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda.

Mamlakatimiz tahlim tizimida interfaol usullardan foydalanishga katta ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda madaniy-mahrifiy tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy-mahrifiy tadbirlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadi, madaniy-mahrifiy tadbirlardan tahlim jarayonida foydalanish o'quvchi va talabalar faolligini keskin oshiradi. Bundan tashqari mashg'ulot o'tkazishning roli o'yin, xizmat o'yinlari singari shakllari, as mohiyatiga ko'ra, madaniy tadbirdir. Chunki, ular tahlim shakllari bilan sanha elementlarining qo'shilish ketishi natijasida vujudga kelgan.

Mashg'uilotlar davomida madaniy-mahrifiy tadbirlar elementlaridan foydalanish muayyan uslubiyat asosida amalga oshiriladi. Bu holat mazku tadbirlarni o'tkazishning umumiyligini xususiyatlari bilan bog'liq.

1997 yil 29 avgustda Res'ublika Oliy Majlisining IX sessiyasida I.A Karimovning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" ma'ruzasi asosida yangi tahrirda «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Res'ublikasining Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, ushbu sessiyada "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ham qabul qilindi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari huzurida tashkil etilgan akademik litseylar yoshlarga o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot olish uchun yanada chuqur bilim egallash, kollejlar esa maxsus fanlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan har bir bitiruvchi yigit-qizga o'z qobiliyatini yuzaga chiqarish va jamiyatda munosib o'rin to'ish uchun 2-3 mutaxassislik bo'yicha o'rta malakali kasb egallash imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida 2009 yilgacha bo'lgan davrg'mo'ljallangan maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi ham amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilindi, bakalavr va magistrler tayyorlashning Yevro'a tizimiga o'tildi. Bugungi kunda mamlakatimizning 65 ta oliy o'quv yurtida 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingga yaqin talaba bilim olmoqda.

O'tgan yillar mobaynida zamонавија, har tomonlama jihozlangan o'quv yurtlarini bar'o etish uchun 5 milliard dollardan ortiq byudjetdan tashqar mablag'lar yo'naltirildi.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajm mamlakatimiz yal'i ichki mahsuloti tarkibida 12 foizdan ortadi. Holbuki, jahor tajribasida bu ko'rsatkich 3-5 foizdan oshmaydi.

Mana shunday barkamol avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz kelajagin tahminlash uchun O'zbekistonda tahlim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va tahlim ustuvorligi deb belgilandi. Bu omi davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli tahlimning yang modeli yaratildi.

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH – DAVR TALABI

B.A.Talapov,

*Nam DU Ijtimoiy – iqtisodiy fakulteti dekani, tarix fanlari nomzodi,
dotsent*

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining qariyb 35 foizini 16 yoshgacha bo'lgan bolalar, 60 foizdan ziyodini esa 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi yoshlarga bog'liq ekanligi o'z-o'zidan ravshan bo'ladi. Demak, mamlakatimiz aholisini deyarli 20 millionimi tashkil etadigan yoshlarning tarbiyasiga, ularning huquqiy madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi obyektiv zaruriyatdir. Shu boisdan ham, muhtaram Prezidentimizning biror bir nutqlari, ma'ruzalari yo'qki, yoshlar masalasiga, ularning jamiyatimizda tutgan o'rni va roliga qaratilmagan bo'lsin.

Darhaqiqat, mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartlari bular:

- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
- fuqarolarni qonunga itoat va hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Demak, bu jarayonlarda yoshlarning ishtiroki, ularning yuksak huquqiy madaniyatga ega bo'lishi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida fikrlarimizni mustahkmlagan holda shuni ta'kidlash joizki, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

Ma'lumki, inson tug'ilgandan boshlab to umrining oxiriga qadar turli tuman huquqiy jarayonlar, munosabatlar qurshovida bo'ladi, oddiy turmush kechirish davomida u turli huquqiy munosabatlarga kirishadi va shu boisdan ham unda hayotining dastlabki kunlaridan oq ijtimoiy ongning muhim shakli bo'lgan huquqiy ong asta - sekin shakllana boshlaydi. Huquqiy ongning bu shaklini "**oddiy huquqiy ong**" deb ataymiz.

So'ngra u ta'lim muassalarida tarbiyalanishi va ta'lim olish jarayonida, maxsus huquqiy fanlardan saboq olishi barobarida huquqiy bilimlar shakllanadi. Buni esa **ilmiy huquqiy ong** deb ta'riflaymiz.

Maxsus yuridik ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarida ixtisoslashgan huquqiy fanlarni o'qish va o'rganish natijasida to'plangan bilimlarni huquqiy muammolarni hal qilishga qo'llash asosida **kasbiy huquqiy ong** shakllanadi.

Hayot va ta'lim jarayonida orttirilgan emperik va nazariy bilimlar, hayotiy ko'nikmalarga amal qilgan holda insonlarda qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularga ongli ravishda itoat qilish shakllanadi, bu esa – insonlarda huquqiy madaniyatning shakllanganligini ko'rsatuvchi asosiy mezondir. Demak, **huquqiy madaniyat** bu – huquqiy ong, huquqiy bilim, huquqiy hayot va tarbiyaning yuqori va amaliy bosqichidir. Shu boisdan, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni – ko'p bosqichli, uzoq muddat davom etadigan murakkab, uzviy va uzliksiz mashaqqatli mehnat talab etadigan jarayondir.

Yuksak huquqiy madaniyat – demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy madaniyat – shaxsning o'z huquqlari, burchlari, manfaatlarini anglashi va faoliyatida qonuniylikka rioya qilishini anglatadi.

Huquqiy madaniyat – huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvafaqqiyatlari hal etilishini ta'minlaydi.

Shu boisdan, mamlakatimizda huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 25 iyundagi "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholi huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi, 1997 yil 29 avgustdagagi "Huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy Dasturi", O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" gi farmoyishi kabi qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ularga asosan, Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha ta'lim muassasalarida "Konstitutsiya saboqlari", umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4 sinflarida "Konstitutsiya alibosi", 5-7-sinflarda "Konstitutsiya olamiga sayohat", 8-sinfda "Davlat va huquq asoslari", 9- sinfda "Konstitutsiyaviy huquq asoslari", akademik litsey va kollejlarda "Huquqshunoslik" fanlari o'qitilmoqda. Mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarida "Davlat va huquq asoslari" va "Konstitutsiyaviy huquq" fanlari o'quv rejasiga kiritilgan, huquqshunoslik sohasiga ixtisoslashtirilgan oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida huquqshunoslikning 40 ga yaqin yo'nalishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari amalgalashmoqda.

Ayni vaqtida yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish o'quv mashg'ulotlaridan tashqari tashkil etilayotgan tadbirlar orgali ham amalgalashmoqda. Umumta'lim maktablarida har yili tashkil etiladigan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - inson huquqlarining kafolati" mavzusidagi, "Konstitutsiya - baxtimiz poydevori", "Prezident asarlarini o'rganimiz", o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimida o'tkazilayotgan "Balli huquqshunoslari", onlaysiz tarzda o'tkazilayotgan "Parlament bilimdoni" tanlovlari yoshlarimizda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ijobjiy rol o'yamoqda.

Biroq, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish borasida qator muammolar hali hanuz saqlanib qolmoqda. Bulardan biri yoshlar o'rtasida jinoymatchilik va huquqbazarlikning salmog'ining yuqoriligidir.

Masalan: 2011 yilda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoymatlar miqdori 2,8% ni tashkil etdi. Achinarlisi, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning yarmidan ko'prog'i (57,9%) o'quvchilar bo'lib, ularning 20,2% maktablarda, 37,7% esa akademik litsey va kollejlarda ta'lim olib kelayotgani, 5,8% mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgani qayd etilgan. Uyushmagan yoshlar o'rtasida jinoymatchilik ko'rsatkichi bundan ham yuqori.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rinish turibdiki, yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbazarlik hamda jinoyatlarni aniqlash, ularning sabab va sharoitlarini atroficha o'rganib, o'z vaqtida bartaraf etish hali hanuz dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu boisdan, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishni yanada yuksaltirish borasidagi quyidagi taklif va mulohazalarni e'tiboringizga havola etamiz:

-yoshlarda dastlabki huquqiy ong va bilimlar oilalarda shakllanishini e'tiborga olib, ota-onalar uchun, qolaversa, aholining keng qatlamlari uchun oddiy turmushda uchraydigan huquqiy vaziyatlarni yoritib beradigan kichik hajmdagi risola va broshyuralar chop etish;

-Respublika va viloyat televideniyesi orqali beriladigan ko'rsatuvlarda yoshlarning huquqiy ongi, savodxonligini oshiradigan ko'rsatuvlar salmog'ini oshirish;

-internet tarmog'i orqali yoshlarning qonunchilik va huquq borasidagi savollariga tezkor javob bera oladigan sayt yaratish;

-mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va ularga kiritilayotgan o'zgartishlarga nisbatan yoshlarning munosabatini shakllantirish, qolaversa, qonun loyihalari muhokamasida yoshlarning faol qatnashishlarini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim.

MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK VA OSOYISHTALIK UCHUN KURASHNING GLOBAL MUAMMOLARI

Ahmadjon Salmonov,

Farg'onan Davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Xalqaro vaziyatning bugungi kundagi keskin o'zgarib borishi, davlatlararo ziddiyatlarning kuchayishi, keskinlikning yanada ortib borishi, yet kurrasining turli hududlarida yangi nizo o'choqlarining paydo bo'lishi jahon jamoatchiligidagi katta tashvish va xavotir uyg'otmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbek xalqiga tinchlik va om'onlik kerak" nomli risolasi bugun insonparvar, ma'rifatparvar, turmushparvar kishilarning, butun jahon jamoatchiligining diqqat markazida turibdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunlardanoq "Tinchlik uchun kurashmoq kerak" degan mashhur shiorni ilgari surdi va buning uchun turmush kurashib dunyoning yirik davlat arboblari, taniqli siyosatchilari, dunyo tan olgan mashhur olimlar, adabiyot, san'at xodimlarining e'tirofiga ozvor bo'lib kelmoqda. "Biz uchun, yurtimiz uchun tinchlik va osoyishtalik hamma barsadan qadrlidir" degan siyosatni ischillik bilan olib bormoqda. I.A.Karimov shu nuqtai nazardan dunyoning nufuzli siyosiy ekspertlari va buqtig' ohimlari yurtboshimizni o'z yurti, mamlakatining mustaqilligi va turmushiyoti uchun kurashgan Maxatma Gandhi, Jamol Abdul Nosir, De-Gol, Bayonulal Neru, Ahmad Bembella kabi buyuk shaxslar qatorida e'tirof

etaryotganligi bejiz emas. O'zining yurti, Vatani, xalqining sog'-salomatligi, tinch-osoyishta, hayoti yurtboshimizning oqilona rahbarligi va rahnamoligi bilan bevosita bog'liqdir. Bu haqiqatni ona zaminimizda yashayotgan yosh-u-qari birday g'urur va iftixor bilan qalbidan o'tkazadi. Zero, "Tinchlik, barqarorlik, hamkorlik – O'zbekiston davlatining uchta ustunidir"² deydi Islom Karimov.

"O'zbekiston xalqiga tinchlik va omonlik kerak" risolasida bayon etilgan g'oya va siyosiy platforma (malagi) da O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosati faoliyat konsepsiysi va shu asosda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuni o'zining yorqin ifodasini topgan. Ushbu risolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yil 9 may kuni xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axbarot vositalari uchun bergen intervysi o'rın olgan.

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan o'tkazilgan marosimda I.A.Karimov Ikkinci jahon urushi qoldirgan mudhish oqibatlar haqida to'xtalib, bu haqiqatni hech kim hech qachon unutmasligi kerak. Ko'pni ko'rgan afg'on xalqining boshiga tushgan bunday ofatni hech kimga hech qachon ko'rsatmasin. Shundan ogoh bo'lisl, shundan xulosa chiqarish zarur, deb ta'kidladi. Prezidentimiz, bugungi kunda dunyoda tinchlik barqarorlikka raxna soluvchi kuchlarga barham berishning va Afg'oniston mojarosini bartaraf etishning yagona yo'li – siyosiy yo'l bo'lib, qanday qiyin bo'lmasin, qarama-qarshi kuchlarni muzokaralar orqali o'zaro kelishuvga olib kelishdir. O'zbekistonning Afg'oniston davlatiga nisbatan olib borayotgan siyosati aniq va ochiq, dedi mamlakatimiz rahbari. O'zbekiston Afg'onistonning ichki ishlariga aralashmaslik, Afg'onistononga qarshi qaratilgan turli harbiy-siyosiy birlashmalarda qatnashmaslik, Afg'oniston bilan aloqalarimiz va hamkorligimizni faqatgina ikki tomonlama asosda tashkil qilish, afg'on xalqi tanlagan hukumatni qo'llab-quvvatlash siyosatini o'ziga ma'qul topadi.

Shu bilan birga mamlakatimizning Tashqi siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Kimningdir "o'yin" lariga qo'shilmaslik;
- Qo'shnilarimiz bilan tinch-osoyishta yashash;
- El yurtimizning tinchligi va manfaatlarini himoyalash;
- Yaqin tariximizning saboqlari va boshimizdan kechirayotgan o'ta murakkab zamoning o'zi talab qilmoqda. Bularning barchasi 2012 yilda qabul qilingan O'zbekiston Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasida o'z ifodasini topgan. Afg'oniston bilan o'rnatilgan tashqi siyosat ham shu konsepsiya asoslanadi.

Prezidentimiz risolasi va unda ilgari surilgan tinchlik va osoyishtalik siyosatini jahon jamoatchiligi zo'r qiziqish va mammuniyat bilan qabul qilmoqda. Darhaqiqat, Islom Karimov Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq dunyoda, mintaqada tinchlik va osoyishtalikni saqlash

² O'sha asar... 28-bet.

va mustahkamlash uchun kurashib kelmoqda. Buning yorqin isbotini tarixiy haqiqat ko'rsatib turibdi:

- 1993 yil 28 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Afg'oniston mojarosini jahon hamjamiyati yordami bilan hal etishga chaqirdi. Shu sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti Markaziy Osiyonи yadro quroldidan xoli hududga aylantirish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbus tez orada Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qabul qilindi;

- 1995 yilda BMT Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida Afg'onistonga qurol-yarog' kiritilishiga qarshi xalqaro embargo qo'shish taklifi bilan chiqib, bu mamlakatning ichki ishlariiga tashqi kuchlarning aralashuviga chek qo'yish zarurligini ta'kidladi, Afg'onistonda koalitsion hukumat tuzish modelini taklif etdi;

- O'zbekistonning tashabbusi bilan 1997 yil 15 sentyabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo – yadro quroldidan holi hudud" mavzusida Xalqaro konferensiya chaqirildi va shartnomani tayyorlash uchun Mintaqaviy ekspertlar guruhi (MEG) tuzildi; hal etish uchun "6+2" muloqot guruhini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi va 1997 yili mazkur guruhning tashkiliy uchrashuvi bo'lib o'tdi;

- 2001 yilda I.A.Karimov BMT bosh kotibiga yo'llagan murojatida Afg'onistonni demilitarizatsiya qilish masalasini BMT ning Xavfsizlik Kengashi kun tartibiga qo'yish taklifini ilgari surdi;

- 2008 yilda NATO ning Buxarest sammitida BMT shafeligi ostida "6+3" muloqot guruhini tashkil etish taklifi bilan chiqdi. Bularning barchasi Markaziy Osiyoda, shuningdek dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash maqsadlariga qaratilgan edi.

Respublikamiz rahbari "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" degan konsepsiya asoslangan siyosiy yo'lni 2013-yil 13 sentyabr kuni Bishkekda bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHXT) majlisida so'zlagan nutqida ham qa'tiyy va ishonchli tarzda takidladi.

Prezidentimiz asoslab bergen siyosiy yo'lning eng muhim jihat shundaki, o'z xalqining xohish- irodasiga tayangan holda istiqlolimizning dastlabki kunlaridan oq Markaziy Osiyoda va butun jahonda tinchlikni mustahkamlash, ijtimoiy – siyosiy tuzilishidan qa'tiy nazar barcha mamlakatlar, ayniqsa qo'shni davlatlar bilan teng huquqli, do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqda.

I.A. Karimov jahon jamoatchiligi e'tiborini yana bir muhim va qaltis masalaga qaratdi. Yana bir bor ta'kidlamoqchiman, dedi Prezident, bugun turli siyosatchilar, kuzatuvchilar Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatishning qarama-qarshi kuchlar o'rtasida o'zaro kelishish, o'zaro muloqotni yo'lga qo'yishdan boshqa yo'l yo'q ekanini baralla aytmoqda. Haqiqatdan ham, qanday qiyin bo'imasin, orada qancha alam, adovat o'tgan bo'imasin, bunday kuchlarni bir joyga yig'ib, bu masalaning yechimi sizlarning qo'lingizda, urushni to'xtatishning baribir boshqa yo'li yo'q, deb butun jahon hamjamiyati, birinchi navbatda qudratli davlatlar mana shu pozitsiyada qat'iy tursa, men ishonaman muammoning yechimi topiladi.

Ammo sog'lom aql va mulohazaga zid ravishda NATO kuchlari AQSh, Yevropa davlatlarining rahbarlari Afg'onistondagi mana shunday og'ir va tahlikali vaziyatda AQSh va Yevropa davlatlarining AYSEF ya'ni tinchlik o'rnatish kuchlari deb nom olgan Harbiy qo'shinini Afg'onistondan olib chiqishni rejalashtirmoqda. Hozirdan boshlangan bunday siyosiy xatti - harakatni qanchalik xavfli ekanligini I.A. Karimov ochiq - oydin, xolisona baholab berdi. Ming afsuski, dedi mamlakatimiz rahbari, bu o'zgarishdan keyin Afg'onistonda o'zaro qarama - qarshi kuchlar o'tasidagi kurashning avjiga chiqishi, terrorchilik, qurol-yaroq savdosi, narkotrafik, turli diniy, millatlararo nizolar kuchayib borishining xavfi ortadi.

Bunday qaltis siyosiy yo'lning qanday oqibatlarga olib kelganligi tarix saboqlaridan ma'lum, ular hamma davrlarda salbiy natija bilan yakunlangan.

Dunyoda ayniqsa Markaziy Osiyoda tinchlik va osoyishtalik uchun kurashning tarafdori va yetakchisi bo'lган Prezidentimiz O'zbekistonda, shuningdek Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlashning garovi, bu "Afg'onistondagi vaziyat to'liq hal qilinmasdan turib koalitsiya kuchlarining bu mamlakatdan olib chiqib ketilishi Markaziy Osiyoda keskinlikni yanada oshiradi. Buning oqibatida mintaqqa davlatlari uchun xavf - xatar ortishi mumkin. Bu haqda men g'oyat tashvishlanib, afsus bilan gapiryapman. Bu hayot haqiqati, undan hech qayerga qochib bo'lmaydi" deb uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, davron kunlar, tinch osuda hayotning qadriga yetish, uni ko'z qorachig'idek asrab - avaylash barchanining dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda.

OILA MUQADDASLIGI ASOSI

*Ozodaxon Chuboyeva,
Nam DU "Huquqshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi*

*Azamat Qosimov,
Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 404-guruh talabasi*

Milliy odatlarimizda va diniy aqidalarimizda oila qadimdan muqaddas hisoblangan. Oila jamiyatning eng kichik va eng aziz debochasidir. Bu kichik, lekin ulug' birlik, oilaning mustahkam bo'lishi jamiyat va davlat butunligi uchun zamin hisoblanadi. Oila mustahkam bo'lishi uchun erkak va ayol o'z huquqlari va burchlarini o'z vaqtida anglab, vijdonan birga yashashga, solih farzandlarni barkamol qilib tarbiya qilishga harakat qilishlari lozim.

Allohnинг buyuk kalomi Qur'oni Karimda «Ey, insonlar! Sizlarni bir jondan (Odaman) yaratgan va undan juftini (Havvoni) vujudga keltirgan hamda u ikkovidan ko'p erkak va ayollarni tarqatgan Parvardigoringizdan qo'rningiz! Yana oralariningizdagi savol va javoblarda o'rtaga nomi solinadigan Allohdan qo'rningiz va qarindosh-urug'laringiz (bilan ajralib ketishdan saqlaningiz)! Albatta Alloh ustingizdan kuzatuvchi bo'lган

zotdir³»- deb ko'rsatilgan. Ushbu surada er-xotin o'rtasidagi aloqalar ularning bir-birlari oldidagi burchlari hamda er oilada boshliq ekani va bu huquqdan u qanday foydalanishi lozimligi haqida yo'l-yo'riqlar beriladi. So'ngra oila doirasidan jamiyat miqyosiga chiqib, jamiyat mustahkam bo'lishi uchun kishilar o'rtasidagi birdamlik va mehr-shafqat, xolislik va bag'rikenglik barqaror bo'lishi zarurligi o'ziga xos uslubda uqtiriladi⁴.

Bizning sabr va matonatli xalqimiz Allohning buyuk kalomini hamisha qalbiga saqladi. Hatto totalitar tuzum to'fonlari davrida Qur'oni Karimni va ma'naviy qadriyatlarimizni qatag'on qilingan davrda ham bu ulug' aqidalar ularning qalbida bo'ldi.

Mustaqillik millatimizga o'zligini qaytarib bergach, oila atalmish kichik jamiyat davlat miqyosida ulug'landi.

Asosiy qomusimiz oila uchun alohida huquqiy tayanch hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi uchinchi bo'limida alohida bob oilaga bag'ishlangan. Unda «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi», - deb ko'rsatilgan.

Oila nazariyasiga e'tibor qilinsa, u eng qadimgi insoniyat jamiyatida ham kichik ijtimoiy birlik sifatida qaralganligini tushunib yetamiz. Davlat va huquq nazariyasida berilgan tushunchalarda jamiyat turli ijtimoiy-siyosiy institutlarga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda turli ijtimoiy yoki siyosiy vazifani bajaruvchi tashkilotlar, organlar, muassasalar, birlashmalar mavjud bo'ladi. Arastu, Forobiylar aytganlaridek, insonlar ijtimoiy mavjudot bo'lganligi sababli kundalik turmushida, ya'ni, mehnat qilish, o'qish, yashashda o'ziga o'xshagan boshqa insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishib, turli ittifoq va tashkilotlarni obyektiv ravishda tashkil qiladilar.

Jamiyatning birinchi tabiiy bo'g'ini – oiladir. Oila tabiiy qonunga ko'ra tashkil topadi, qon-qarindoshchilik munosabatlari asosida amal qiladi. Urug' bir necha oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qilishi, umumiyligi, qarindoshchilik qoidalari asosida tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat taraqqiyotida bir necha urug'larning qo'shilishi bilan qabila, keyinchalik umumiyligi til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqdi⁵. Berilgan tushunchalardan ko'rinish turibdiki, oila - dastlabki jamiyat birliklari urug' va qabila shakllanishida ham millat shakllanishida ham o'ziga xos o'rinn tutgan.

Oila turli birliklarni vujudga keltirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lish bilan birga jamiyatning ijobiy va salbiy xarakterga ega bo'lishida ham muhim o'rinn tutadi. Oila tarbiya o'chog'idir. Chunki, oilada dastlabki tarbiya olinadi. Agar oiladagi muhit yaxshi bo'lsa, tarbiya farzandni solih, aql bilan

³ Qur'oni Karim. Niso surasi. Aloviddin Mansur tomonidan izohli tarjiması.-Toshkent: Cho'lpox, 1992.-53 bet.

⁴ O'sha joyda 52- bet.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2003.-12-bet.

⁶ Boboyev H. B. Davlat va huquq nazariyasi.-Toshkent, 2000.-50- bet.

ish tutuvchi, jamiyatga foyda keltiruvchi etib tarbiyalasa, bunday farzand mahallada, mehnat jamoasida o'z o'rniغا ega bo'lgan, davlat ravnaqiga hissa qo'sha oladigan inson bo'lib yetishadi. Agar oiladagi muhit janjalli, faqat o'zini o'ylashga asoslangan, bir-biriga humatsiz munosabatda bo'lismiga asoslangan bo'lsa, tarbiya olayotgan farzandga ham bu ta'sirini o'tkazadi. Bunday tarbiya olgan farzanddan butun mahalla, jamiyat aziyat chekadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatini rag'batlantiradi⁷» deb rahbarona qoida yaratgan. Ushbu qoida boshqa rivojlangan davlatlar qoidalardan kuchli ko'rsatma ekanligi mutafakkirlar tomonidan tan olingan.

Har bir ota – ona oldida o'z farzandini tarbiyalamoq farz ekanligi dinimiz ahkomlarida ham ko'rsatib o'tilgan.

A. Avloniyning bir jumlasini davlatimiz rahbari tomonidan ham qayo'etilgan, ya'ni, «tarbiya masalasi biz uchun yo-hayot, yo momot, yo najot, yo falokat, yo halokat, yo saodatdir», shuning uchun ham davlatimiz tomonidar bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor, ta'lim, ommaviy axborot vositalari tomonidan olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyatni davlat tomonidan huquqis asoslanishi orqali tartibga solinmoqda.

Keyingi vaqtarda yana bir an'ana huquq tartibot organlari xodimlar tomonidan o'z faoliyatlarini amalga oshirishda jamiyat bilan hamkorlikda ishslash, profilaktika ishlarini olib borish yo'lga qo'yilganligi kelajak avlodn tarbiyalash va oilani mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

GLOBALLASHUV VA DEMOKRATIYA

Farida Nishonova

NamDU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti

Falsafa kafedrasi o'qituvchisi

Hozirgi zamon siyosiy fanida "Globalashuv termini davlatlar, jamiyatlar o'rtasidagi kuchayib borayotgan o'zaro aloqa, bog'liqliklarning bir qato universal jarayonlari va rivojlanishini bildirish uchun ishlatalidi Globalashuv ko'p xil omillar orqali shakllangan ziddiyatli, murakkab dialektik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Globalashuv jarayoniga kim qanday (ijobiy yoki salbiy) munosabatda bo'lishidan qat'iy nazar bu jarayon hozirgi davrda sodir bo'lmoqda va tobor avj olmoqda, hamda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarda o'z ta'sirin ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan ham bir inson taqdirga tan berib, Stixiyal yashashi kerak emas, balki globalashuvning ma'no va mohiyati nimada,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: O'zbekiston, 2003.

insonlarga nima olib keladi va olib kelmoqchi, bu insoniyat kelgusida taqqdiriga qanday ta'sir etadi, globallashuvning mevasi bo'lgan umumbashariy tartibsizlanish (xaos) sharoitida inson, jamiyat, davlatlar to'g'ri yo'lni qanday topishi mumkin kabi savollarga tinimsiz javob izlashi zarur. Chunki, bu jarayon ham yaratish, ham vayronlik keltiradigan ziddiyatlari jarayon ekani endilikda yuzaki qarashdayoq ko'rinish turibdi.

Prezidentimiz I.Karimov aytganidek: "Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqr kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va boshqa mintaqalardan bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biror mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish anglash qiyin emas"⁸.

Globallashuv iqtisodiyot, siyosat madaniyat va ta'lim sohasida bir xil andozalar joriy qilinishi natijasida o'zaro mushtaraklik, bir xillikning kuchayishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonda katta-kichik xalq va davlatlar manfaatiga mos kelayotgan demokratiyaning kuchayib borishi, bu ikkala fenomenning yonma-yon yurishi ko'z oldimizda sodir bo'lmoqda.

Globallashuv jarayoni turli mintaqalarda ularning turli tarixiy an`analari madaniyati, siyosiy iqtisodiyoti, tegishli infrastrukturalari bilan, sanoat, ilmiy-texnik rivojining bir xil bo'limgan darajasi bilan, turli hamjamaliyat imkoniyatlari bilan ijtimoiy-siyosiy kuchlar, tashkilotlarning manfaatlari bilan, shuningdek, real vazifalarning qo'yilishi va erishilgan (qisqa, o'rta, uzoq muddatli) maqsadlari bilan turlicha namoyon bo'ladi.

Globallashuv – evolyutsion jarayon, uning jadalligi dunyoning turli geografik mintaqalarida bir xil emas, ushbu jarayonning alohida tashkil qiluvchilari ham bir xillikdan uzoq.

Demokratiyalashuv, ya'ni faoliyatning barcha turlarida demokratiya tamoyillariga rioya qilish o'ziga parallel holda globallashuv fenomenini kuchaytiradi. Chunki, bir xil tamoyillarga asoslangan davlatlar, millatlar, mintaqalar o'zaro yaqinlashishi, ular amaliyotida ko'plab o'xshash, tomonlarning qaror topishi umumiy qoidadir.

Agar biz globallashuvning manfiy va musbat jihatlarini bilishni istasak, unda madaniy, ma'naviy – axloqiy jabhaga murojaat qilishimiz lozim. Ma'lumki, ushbu soha ijtimoiy hayot va faoliyatining eng konservativ makoni bo'lib, undagi modernizatsiyalashuv jarayoni ancha murakkab va tasodiflarga boy kechadi.

Qaltis jihat shundaki, bugungi kunda, jahon ma'naviy muhitini G'arb andozalari asosida shakllantirishga zo'r berib urinish millatlar, xalqlar va

⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 111-bet.

sivilizatsiyalarda norozilikni shakllantirmoqda. Barcha sohalarda globalлаshuvni ro'kach qilib eng dahshatlisi undan qurol sifatida foydalanib, o'z maqsadiga bo'ybindirish globalлаshuvni emas, aksincha aksilglobalizmni kuchaytirayotganligi yaqqol ko'riniq qoldi. Quyidagi fikrlar bunga yaqqol misol bo'ladi: "Bugungi millatlar, xalqlar va oddiy insonlar ana shu siyosatning natijasi o'laroq kuchli informatsion bosim ostida yashashga majbur bo'lmoqdalar. Bu bosim turli shakl va uslublarda tashkil qilinmoqda. Jumladan, turmush tarzini "yuksak" demokratik qadriyatlarini, boshni aylantiruvchi, qulqoni garang qiluvchi qo'shiqlar, odamlarni o'ldirish, qirib tashlash, portlatishni namoyish etuvchi kinofilmlar televideniya, kompyuter, internet va uyali telefonlar orqali tashviqot hamda targ'ibot qilinmoqda".⁹

Ma'lumki, jamiyat tizim sifatida doimiy rivojlanish va takomillashish jarayonida bo'ladi. Har qanday ijtimoiy va siyosiy tizim elementlarining munosabatlari ularning individual rivojlanishi muayyan qonunlar hamda qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy voqelikka har xil modellarni zo'r lab tiqishtirish mumkin emas. Chunki, demokratiya har bir davlatning turmush darajasidan kelib chiqib, aql-idrokka tayanmog'i lozim.

Demokratiyaning universal modeli mavjud bo'lmasligi haqidagi nazariya milliy g'oyaning tarkibiy qismlardan biridir. Hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining dinamik xarakterga ega ekanligi ham universal ijtimoiy modellarning mavjud bo'lomasligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda shakllanayotgan demokratik jamiyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, bunda har qanday dogmalardan, universal modellardan holi sharqona demokratiya qaror topadi.

Demokratiya va globalлаshuvning O'zbekiston milliy xavsizligiga qaydarajada ta'sir etishini eslab o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Mamlakatimiz Prezidentining bugungi notinch, beqaror, shuningdek, umidbaxsh etuvchi dunyo taraqqiyoti haqida so'z yuritar ekan, O'zbekiston uchun milliy manfaatlarni to'laqonli ro'yobga chiqarishdan-da muqaddasroq, dolzarbroq vazifa yo'qligini alohida qayd etadi. Binobarin, biz uchun milliy manfaatlarimizni ta'minlash, xalqimiz farovonligiga xizmat qiladigan demokratiyani qabul qilish ma'qul. Globalлаshuv ham, o'z navbatida, milliy manfaatlarimizga yanada to'laqonli erishishimiz uchun zaruriy shart-sharoit hamda kafolat yaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, demokratiya ham globalлаshuv ham kimlarningdir tomonidan yo'naltirilgan tarzda ishlab chiqilgan va tarqatilayotgan andozalar emas, balki barcha xalqlar manfaatlariga xizmat qilishi zarur umumsay-yoraviy jarayondir.

⁹ Otamuratov S. Globalлаshuv va millat - Toshkent: Yangi asr avlod, 2008. - 45-bet.

JAMIYATNI YANGILASH VA MODERNIZATSIYALASHDA YOSHLARNING O'RNI VA ROLI

Qodirxon Inamov,

*Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa
kafedrasи o'qituvchisi*

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishdek strategik bosh maqsad – vazifani amalga oshiruvchi kuch yoshlardir. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliv maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak¹⁰, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa – 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etadi¹¹. Ular o'zlarining yoshiga xos xususiyatlari jamiyatda tutgan o'mi roli, ijtimoiy-ruhiy jihatlari bilan aholining boshqa guruh, qatlamidan ajralib turadigan sotsial-demografik guruhlardir. Universal biologik taraqqiyotning ma'lum bir tashkil etadigan yoshlik davri ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega bo'lib u har bir insoniyat jamiyatidagi ijtimoiy tuzum va unga mos bo'lgan sotsiallashuv qonunlariga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim olishning poyoniga yetishi malakaga ega bo'lish, mustaqil mehnat faoliyatining boshlanishi, turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va haq-huquqlaridan foydalanish, moddiy jihatdan ota-onalarga bog'liq bo'lmaslik, oila qurish va farzandlik bo'lish kabi jarayon faoliyatlarining birligi kishini to'laqonli balog'at yoshiga va unga mos maqomga erishishga olib keladi.

Yoshlar tarbiyasi va unga bo'lgan munosabat yuqorida qayd etilganidek jamiyatdagi mavjud ijtimoiy siyosiy tuzumga, jamiyatni o'z oldiga qo'ygan maqsad vazifalarini uddalay olish qobiliyatiga va eng muhimi davlatga va uning demokratik erkinlik haq-huquqlarini ta'minlay olish jarayoniga bog'liq. Aristotel ko'rsatib o'tganidek, barkamol inson deb barkamol fuqoro nazarda tutiladi. Barkamol fuqoro deb esa barkamol davlat nazarda tutiladi¹².

O'tgan davr ichida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati yoshlarning huquqiy ongi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi, tashabbuskorligini oshirish harakat a'zolarini kasb-hunarga o'rgatish kasbiy mahoratini oshirish ularning tadbirkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida yoshlarning faol ishtirok etishini ta'minlash borasida jiddiy ishlarni amalga oshirdi.

¹⁰ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.- 19 bet.

¹¹ Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'llini qat'iyat bilan davom ettirishdir //O'zbekiston ovozi.- 2007.

¹² Qaralsin: Asmyc B.Ф. Античная философия изд 2-е, дополн. Москва: Высшая школа, с 378.

Shu bilan birga "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ko'magida yosh tadbirkorlarga 2 milliard 500 million so'mlik mikrokredit, yosh oilalar uchun 1 milliard 800 million so'mlik ipoteka krediti, 1 milliard 100 million so'mlik iste'mol kreditlari, shuningdek, oliv o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ta'lim grantlari ajratilganini ta'kidlash lozim. Shular qatorida joriy yil mobaynida 195 ming nafar yigit-qiz ish bilan ta'minlangani bir qancha viloyat va tumanlarda yoshlar markazlari tashkil etilgani e'tiborga loyiq albatta¹³.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 65 oliv o'quv yurtlarida 850 ta yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha 300 minga yaqin talaba ta'lim olmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatimizning yoshlarga oid siyosati ularning jamiyatdagi boshqa guruh va qatlamlar bilan bo'lgan munosabatlarida ijtimoiyadolat me'yordari, tamoyillariga rioya qilish va eng muhim, ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar yoshlarning shunchaki hayot kechirishlari uchungina emas, balki ularning har tamonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

MILLATLARARO TOTUVLIKKA ASOSLANGAN FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Bobomurod Tillayev,

*Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari"
kafedrasи o'qituvchisi*

Davlatimiz rahbari aynan milliy va millatlararo munosabatlarga jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot omili sifatida katta e'tibor berib kelmoqda. «Ko'p millatli davlatda etnik guruhlар о'rtasidagi va millatlar о'rtasidagi munosabatlar milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan»¹⁴ biridir. XXI asr boshlanishida insoniyat uchun ahamiyati va istiqbollari aniqlab olinadigan muhim masalalardan biri millat va milliy munosabatlar masalasidir. O'zbekiston hozirgi zamon davlatlari orasida eng ko'pmillatlilaridan biridir.

Ko'p millatli O'zbekiston mustaqillikka erishgandan beri milliy masalaga, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi millatlar о'rtasidagi tinch totuvlikka juda ham nozik bo'lган milliy his tuyg'ularga, milliy, madaniy, ma'naviy ehtiyojlarni har tomonlama qondirishga nozik did, o'tkir farosat bilan yondoshmoqda. Mustaqillik masifikurasini shakllantirishda milliy o'ziga xoslik va baynalminallikning rivojlanishiga ya'ni, bir-birini boyituvchi manba bo'lishiga bunda asosan ijobjiy ahamiyatga ega bo'lган xususiyatlarga e'tiborni jalb qilish, millatchilik kabi salbiy elementlardan ehtiyyot bo'lishga da'vat etadi. I.A. Karimov o'z asarida qarab chiqqan milliy o'zligini qayta

¹³ "Kamolot" yoshlar tayanchi //Guliston.- 2006.- № 2.- 7 bet.

¹⁴ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - Toshkent: O'zbekiston, 1997.- 71-b.

tiklashga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish mustaqillik mafkurasini shakllantirishda muhim masalalardan biridir. Demokratiya va fuqarolik jamiyati tushunchalarining mazmuni ham shuni ifodalaydi. Bunday jamiyat milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'taradi. «Birga istiqomat qilayotgan millatlar tinch-totuv yashashi zarurligi muqarrarligi»¹⁵ mustaqillikning va uning mafkurasining eng katta yutug' idir. O'zbekiston hududida yashayotgan boshqa millatlar o'z milliy markazlarini tashkil etmoqdalar, ularning o'z tillarida bilim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mustaqillik davrda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan milliy-madaniy markazlar ishining yuqorida zikr etilgan tahlilidan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, eng avvalo bu davr shakllanish, yangi ish usul va yo'llarini tanlash bosqichi bo'ldi. Ko'plab milliy-madaniy markazlarning tashkil etilishi O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning takomillashuvida katta rol o'ynadi. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada kuchaytirdi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash omillaridan biriga aylandi. Shunga qaramay, "Miliy masala hamon o'tkirligicha qolmoqda"¹⁶, - deb yozgan edi I.Karimov. "Hozirgi konkret vaziyatda millatlararo munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolarga alohida e'tibor berish zarur"¹⁷.

Millatning tafakkur qobiliyati va salohiyati shuning uchun ham tarixda kam uchraydigan baqquvvat kuchki, millatga birlashgan minglar va millionlar bir tilda so'zlashib, yagona hududda istiqomat qilib, umumiyligiqtisodiy hayot asosida jipslashganlar. Ularning fikrlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari va an'analari o'zaro bog'langan, bir maqsadga xizmat qiladi. Insoniyat tarixida millat darajasida keng va chuqur asosda uyushgan birlik bo'lgan emas. Millat, bu faqatgina til, hudud, iqtisodiy hayot, madaniyat va urf-odatlar birligi bo'lib qolmay, u birinchi navbatda tafakkur, ong, maqsad birligidir.

Millat insoniyat tarixi jarayonida uning asrlar davomidagi tajribasi asosida shakllangan shunday birlikki, u jamiyat taraqqiyoti uchun eng qulay sharoitlarni yuzaga keltiradi, til va tafakkur egalarini yer bilan, hudud bilan, umumiyligiqtisodiy manfaatlar atrofida birlashtiradi, bunday birlik yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatish uchun umumiyligi madaniyat, urf-odat va mentalitet yaratadi.

Millatlarning tengligi va teng huquqliligi tamoyili xalqaro munosabatlarning eng asosiy tamal toshlaridan biri hisoblanadi. Teng huquqlilik tamoyili buzilgan joyda kuch, zo'ravonlik va adolatsizlik hukmron bo'ladi. Millatlarning teng huquqliliginini tan olish millatlararo munosabatlarning asosidir.

O'zaro har tomonlama yaqinlashuv-millatlar taraqqiyoti va gullab-yashnashining asosiy manbaalaridan birndir. Millatlarning istiqbolini ularning yaqinlashuvisiz faraz qilish mumkin emas. Ayni bir vaqtida o'zaro

¹⁵ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-75-b.

¹⁶ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-46-b.

¹⁷ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: O'zbekiston, 2011.-220-b.

va har tomonlama yaqinlashuv-millatlar ongingin, o'z-o'zini anglashining, milliy o'zligi va milliy iftixorining o'sishi, ma'naviyatining boyishi, mafkurasining shakllanishi va rivojlanishi uchun asoslardan biridir.

KONSTITUTSIYA-BAXTIMIZ QOMUSI

K.Xolmirzayev,

*Nam Du Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 206-guruh talabasi,
Ilmiy rahbar: M.Tojahmedova*

Mustaqillik-oliy ne'mat, sharaflı mas'uliyat va buyuk imkoniyatlar eshigi ekanligi bejiz emas. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'z oldida turgan bir qator mas'uliyatli maqsad va vazifalar ustida keng ko'lamlı islohotlar olib borila boshlandi. Ma'lumki mamlakatimiz huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan bormoqda, buning uchun har bir rivojlangan davlatlardagi kabi O'zbekiston Respublikasida ham asosiy qonun va boshqa qonun hujjatlarining mavjudligi va shu davlatda istiqomat qiluvchi har bir fuqaro ushbu qonun normalarini hayotga tadbiq qila bilishi katta ahamiyat kasb etadi. Bu sohada Prezidentimiz I. A. Karimovning yurtning asosiy tayanchi hissoblangan yoshlarga berayotgan e'tibori yuksak darajada, shunday ekan bu ezgu maqsadlar yo'lida biz yoshlardan chuqr bilim olish, tinimsiz mehnat va izlanish talab etiladi.

XX asning 90-yillarda O'zbekistonning siyosiy tizimida vujudga kelgan murakkab ijtimoiy munosabatlар rahbariyat zimmasiga jiddiy sinovlar olib keldi. Mustaqil davlatchilik siyosatini yuritish, jahon hamjamiatining e'tiborini qozonish, mamlakat ijtimoiy hayotining osoyishtaligini ta'minlash, millatlar va elatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy yuksalish poydevorini shakllantirish kabi masalalarga oydinlik kiritish, uning huquqiy asosini ya'ni, O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyasini yaratish masalasi dolzarb muammoga aylanib bordi. Bu say-harakatlar natijasida 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990-yil 20-iyundagi "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Konstitutsiyani yaratish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Albatta buning o'ziga xos xususiyatlari va sabablari bor. Ular o'zbek xalqining ozodligi, erki va mustaqillik yo'lidagi intilishlari, xalqning butun bor imkoniyatlari va salohiyatini ishga solish, jamiyatning barqaror rivojlanishni ta'minlash iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini demokratlashtirishdan iboratdir.

Har bir xalqning taqdirida muhrланib qolgan tarixiy sanalari, hujjatlari millat ravnaqi, davlatchilik poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. Bizning o'zbek xalqi tarixida ham keskin burulish yasagan, istiqlol uchun kurashlar samarasini bo'lgan ahamiyati

Jihatidan asrlarga tatigulik huquqiy hujjatlar qatorida asosiy qomusimiz Konstitutsiyani alohida ehtirom bilan tilga olamiz. Mustaqil davlatchiligidan biegisi bo'lmish Konstitutsiya, avvalo, millatning g'urur iftixori, xalqning riki, jumiyatimiz taraqqiyotining beqiyos asosidir.

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir luqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hoyotini, o'zining huquqlari va qonuniy imanfaatlarni himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Chunki, har bir shaxs kundalik hayatida Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojat qiladi hamda ushbu asosiy qonunga o'zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jumiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsyaning mazmun-mohiyatini chuqr anglab olishi hamda shaxsiy hayatida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Kezi kelganda muhim bir ma'lumotni ta'kidlamoq kerak. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega qonun, deb e'tirof etilsada, unga faqat "qonunlar qonuni" deb qarasak, Konstitutsyaning mohiyatini to'la anglamagan bo'lamiz.

"Fuqarolar – deb ta'kidlanadi Konstitutsyaning 48-moddasida, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarining huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar".

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har tomonlama yetilgan va inson faoliyatining turli jabhalarini bevosita yoki bilvosita tarzda aks ettirgan Asosiy qonun bo'lib hisoblanadi.

KONSTITUTSIYA – MUSTAQIL VA DEMOKRATIK DAVLATIMIZNING POYDEVORI

*Abdujabbor Qambarov,
Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi
o'qituvchisi*

Bugungi kunda Respublikamizda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jumiyatini shakllantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 1992 yilda mamlakatimiz Asosiy Qonunining qabul qilinishi mustaqil, suveren va demokratik davlat – O'zbekiston Respublikasining mustahkam huquqiy poydevori yaratilganligining yorqin ifodasi bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Konstitutsiyamizning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan beqiyos ahamiyati va tarixiy rolini, birinchi navbatda, biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan milliy davlatchilik va uning ijtimoiy-siyosiy tizimini yaratish, demokratik tamoyillar asosiga qurilgan siyosiy va iqtisodiy tizimni shakllantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy poydevorni aynan Asosiy Qonunimiz belgilab bergenida ko'ramiz"¹⁸.

¹⁸ Karimov I.A. Oliy maqsadimiz //Bunyodkorlik yo'sidan. T.4. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 107-bet.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning erkinlik sari uzoq yo'ldagi izlanishning natijasidir. Zero, birinchidan, Konstitutsiyani yaratishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanildi. Bugungi O'zbekiston qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniyalar, Amir Temur va Temuriyalar, o'zbek xonliklari, xalqimizning tarixiy an'analari va mustaqil davlat haqidagi ko'p asrlik orzusini mujassam etgan. Konstitutsiya loyihasini yaratishda o'zbek xalqining milliy davlatchilikka oid ko'p ming yillik g'oyalari, jumladan, "Temur tuzuklari"dagi davlatni idora qilishga doir muhim qoidalar ham asos qilib olindi. Loyiha puxta ishlovlardan keyin ikki marta umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Muhokamalarda 6 mingdan ortiq taklif-mulohazalar bildirildi, ular loyihaning ixcham, lo'nda, chuqur ma'noli va barchaga tushunarli bo'lishida asqotdi¹⁹. O'zbekistonning huquqiy davlat qurish doktrinasi eng avvalo Konstitutsiyaga tayanadi.

Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir, — deydi Islom Karimov "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" asarida. — Unda kommunistik mafkura, sinfiylik partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug' – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda "Fuqaro – jamiyat – davlat" o'rtaсидаги о'заро муносабатning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik"²⁰. Asosiy Qonunda mustahkamlangan qoidalar demokratiya "tarozi"sida o'lchanadigan bo'lsa, to'la ishonch bilan aytish mumkinki, u jahondagi eng demokratik Konstitutsiyalardan biridir. O'zbekiston Konstitutsiyasi – davlat, jamoat, ma'naviy – madaniy ehtiyojlar hamda barqaror konstitutsiyaviy rivojlanishning ijodiy birligidir. O'zbekiston Konstitutsiyasi shaxs – jamiyat – davlat qadriyatlari ustuvorligini belgilab beradi.

Shaxs – erkin, ongli, mustaqil fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismidir.

Fuqarolik jamiyat – o'zini o'zi tashkil etgan xalq – har qanday hokimiyatning haqiqiy egasi va manbasidir.

Davlat – suveren demokratik, dunyoviy, huquqiy – shaxs va jamiyat manfaatlarining himoyachisidir.

Shunga ko'ra, Konstitutsiya fuqaro, jamiyat va davlat hokimiyati o'rtaсидаги о'зига хос шартнома hisoblanadi²¹.

Davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq ekan, shakllantiruvchi ham xalq hisoblanadi. Xalq davlat hokimiyatini, ayniqsa, uning institutlarini o'z vakillari – Prezident, Oliy Majlis deputatlari, mahalliy kengash deputatlari orqali shakllantiradi. Aynan shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq irodasini, manfaatlarini ifoda etadi va xalqqa xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalq konstitutsiyasidir. Uni muhokama etish, to'ldirish va qabul qilish jarayonida xalqimiz faol ishtirok etgan, shuning uchun ham Konstitutsiyamizda Prezidentga, Oliy Majlisiga, sud hokimiyati va hokimiyat institutlariga berilgan vakolatlarni

¹⁹ Ibrohimov A. Konstitutsiya – farovon hayotimiz garovi //Huquq va Burch.- 2010.-B. 21-22.

²⁰ Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat //O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1-tom. -Toshkent: O'zbekiston, 2006.-124-bet.

²¹ Saidov.A. Mustaqil, suveren va demokratik davlatning huquqiy poydevori/ Hurriyat, 18 aprel 2012 yil.

xalq irodasi, xohishi, amri sifatida tushunmoq kerak. Xalq o'z ixtiyori bilan ulubu institutlarni boshqaruv ishlariga mas'ul deb bilgan va ularning to'lagonli ishlashiga ishongan ekan, demak bu o'rinda ixtiyorilik tamoyili amal qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamiz inson huquq va erkinliklarini humoya qilish hamda davlatimizning asosiy tayanchi hisoblanadi.

GLOBALLASHUV - YO SAODAT — YO FALOKAT MASALASIDIR

Xurshid Mirzahmedov,

*Nam DU, «Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari» kafedrasi
o'qituvchisi*

Sherzod Adashaliyev,

*Nam DU Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq
ta'lim yo'naliishi 4-bosqich 406- guruh talabasi*

Barcha tarixiy davrlarda ham yoshlar tarbiyasi, ularning dunyoqarashi va o'zligini anglashi masalasi mamlakat taraqqiyoti, mustaqilligi, kelajagini kafolatlovchi muhim omil sanalgan. Abdulla Avloniy aytganlaridek, "tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir". Yoshlar tarbiyasi masalasi, ayniqsa bugungi davrda, globallashuv jarayoni hayotimizning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitlarda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarix saboqlari jamiyat taraqqiyotida yosh avlodning tarbiyasi saviyasining o'rnini nechog'lik muhimligi har qanday davrda ham o'zining ma'lum darajada isbotini ko'rsatgan.

Eng avvalo, an'anaviy taraqqiyotdan zamonaviy hayotga o'tish yoshlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rnini beqiyos darajada o'sishiga olib keldi. Masalaning muhimligi Respublikamizning demografiyasida aholining o'rtacha yoshi 24 yoshga tengligi, mehnat zahiralarining asosiy qismini jamlashi, ularning mehnat faolligi va kasbga tayyorgarligi o'ta dolzarb muammoga aylanishi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-diniy xususiyatlari ko'ra, mintaqada aholining salmog'i va o'si-shining yuqoriligi tufayli o'ziga xoslikka ega bo'lib, keyingi yillarda millatning jiddiy yosharishi kuzatilmoxda²².

Yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-manaviy yangilashining muhim subyektlaridan bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim ro'l o'ynaydi. Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa, uning madaniy-ma'naviy, marifiy sohalarida sodir bo'layotgan sifat o'zgarishlari yoshlar ongi, dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday ekan mamlakat taraqqiyotida o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi o'ta muhim o'rinnegallaydi. Yoshlarimiz

²² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag' asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1997. -B. 254.

ma'naviyatini yuksaltirish, odobi, muloqot va kiyinish madaniyatida me'yorni saqlay bilish ko'nikmasini hosil qilish uchun milliylik bilan zamonaviylik uyg'unligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Ommaviy madaniyatni niqob qilib buzuqlik va zo'rovonlik singari insor shaxsini ruhan yemiradigan g'oyalarni targ'ib etadigan asarlarning haqiqiy madaniyatga hech qanday aloqasi yo'q... XX asrda texnika rivoji hamda turmush farovonligining o'sishi bilan iste'molchilik psixologiyasining yanada kuchayishi kino va televideniyada turli xil seriallar, audio va video disklar, ularni ommaviy tarzda ishlab chiqaradigan industriyaning paydo bo'lishiga olib keldi. Tabiatan bunday "mahsulot"larda xalqchilik, milliylik nihoyatda zaif. Ommaviy madaniyatga emas, balki ommaviy madaniyatni niqob qilib olgan aksilmadaniyatga, uning didsizligiga va axloqsizligiga, insonni haqratlovchi, tubanlashtiruvchi mahsulotlarga qarshi kurashish davr talabidir. Unutmaslik kerakki, ba'zi ijtimoiy qatlamlarning rivojlanmagan didiga ommaviy madaniyatda ko'p uchraydigan mazmunan sayoz, siyqasi jo'n mahsulotlarning mos kelishi va mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Global-lashuvning yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy ta'siri informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekomunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan "qadriyatlar" ko'p hollarda yoshlарimizni o'zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'ymoqda, boshqacha qilib aytganda o'ziga xos "ildizi yo'q individ"larning shakllanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik holatlarining kuchayotganligi va yanada tobora avj olayotganligi kuzatilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma'naviy yurish-turish andozalarining kinofilmilar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlарimizning ongini ma'lum ma'noda zaharlayotganligini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlarining oldida vaqtini o'tkazish, mazmunan sayoz bo'lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

Globallashuvning salbiy oqibatlarini, "ommaviy madaniyat" niqobidagi aksilmadaniyat va turli g'arazli, noxolis axborotlar xurujining ta'sirini mumkin qadar kamaytirish uchun aholi, ayniqsa, yoshlarning siyosiy ongini, huquqiy, axloqiy, estetik madaniyatini yuksaltirish talab etiladi. Prezidentimiz rahnamoligida yosh iste'dodlarni qadrlash, ularni har tomonlama qo'llab – quvvatlash borasida hamda ma'naviy-ma'rifiy sohada ko'rileyotgan ezgu tadbirlar amaliy samarasini beradi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol nashni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu nuqtai nazardan bola tarbiyasiga eng avvalo oilada ota – ona ko'magida ta'lif tarbiyani olib borish bolani yoshligidan milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash yaxshi xulqli odobli bilimli qilib tarbiyalash har birimizning burchimizdir²³.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mamlakatimizni taraqqi irish, yuksaltirishda yoshlarning tarbiyasi va salohiyati o'ta muhim obyektiv

²³ Karimov I. A. Barkamol avlod kelajak poydevori - Toshkent: Sharq, 1998. -B. 24.

SIYOSAT VA HUQUQ

qonuniyatdir. Endi faqat va faqat shu yurtni, shu elni sevuvchi, mamlakat rivojiga xizmat qiluvchi, uning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga hurmat ko'zi bilan qarovchi va ma'lum ma'noda uni targ'ib qiluvchi fidoyi vatanoshlarimizni tarbiya qilish mamlakatning har bir fuqarosining ayniqsa, pedagogika sohasida faoliyat ko'rsatuvchi fuqarolarimizning eng asosiy muqsadiga aylanishi o'ta muhim masaladir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI: IJTIMOIY HAYOT TARZINING HUQUQIY IFODASI

Abdujabbor Qambarov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi
o'qituvchisi*

Ma'lumki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimizning huquqiy poydevori yaratildi. Eng yuksak demokratik talablarga javob beradigan mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi - davlat va jamiyat hayotining Asosiy Qonuni qabul qilinganligi yosh davlatimiz chinakam mustaqilligining, yangi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar dunyoga kelishining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Hozir biz demokratik adolatparvar jamiyat, qudratli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan davlat qurish uchun vashayotgan va mehnat qilayotgan bir davrda bozor munosabatlariga qanday ma'naviy-ruhiy asosda o'tayotganligimizga befarq qaray olmaymiz. Aynan, bozor munosabatlarining fundamental huquqiy bazasi Konstitutsiyamizning 53-moddasida bayon qilingan: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma –xil shakldagi mulk tashkil etadi"²⁴. Shu tufayli Vatanimizda kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes kabi faoliyat turlari vujudga keldiki, bular bozor munosabatlarining rivojlanishiga oshishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyoti xalqimizning tarixiy an'analariga mos kelganligi mamlakatimizning jadal sur'atlarda rivojlanishiga qulay sharoitlarni vujudga keltirdi. Ushbu modda jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartirib yubordi, boshqacha qilib aytganda, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizim va tuzumning shakllaniishiga yo'l ochib berdi, erkin iqtisodiy faoliyat olib borishning huquqiy kafolati yaratildi. Turli xil mulk shakllariga ega bo'lgan jamiyatda ijtimoiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni boshqarishda, har bir toifaning manfaatlari hisobga olinsa, ularning jipsligi ortadi. Bobomiz Buyuk Temurning ham yengilmas davlat tuzishida har bir toifaning ruhiyatidan tortib, toki manfaatlari gacha hisobga olinganligi juda katta rol o'ynagan. "Sultanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Sultanatim qonun-qoidalarini ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifa sultanatim falakinining o'n ikki burji va davlatim korxonasingin o'n ikki oyi, deb hisobladi".²⁵

Konstitutsiyamiz mustahkamlab bergen mulkchilik munosabatlari ana

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.-B.11.

²⁵ Temur tuzuklari.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.- 64.

shu o'tmish turmush tarzini, mulkchilik munosabatlaridagi an'analarimizni chuqur tahlil qilish va eng ilg'or mamlakatlardagi mulkchilik munosabatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Shuningdek, yer, yer osti boyliklari, suv va boshqa tabiiy zahiralardan qadim-qadimdan umumxalq boyligi sifatida foydalanib kelganmiz va xalqimiz bu boyliklardan ayniqsa, yer va suvdan oqilonha, juda ham tejab-tergab, asrab-avaylab foydalanishga o'rgangan. «Avesto»da yer, suv, havoni bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik» ekanligi ta'kidlangan. Jamiyatimizda mulkchilik an'analariga suyangan holda ma'naviy axloqiy munosabatlar ham shakllanmoqda. Yerni ulug'-lash, avaylash, bu – Vatanni uning tuprog'ini avaylash demakdir.

Konstitutsiyada mamlakatimizni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning, ochiq fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Jahondagi mukammal konstitutsiyalar qatoridan joy olgani, insonparvarlik g'oyalarni o'zida to'la mujassam etgani uchun Donald Skarlayl uni "Karimov Konstitutsiyasi" deb nomladi. Prezidentimizning o'zi esa Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan, xalqimizning xohish-irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirgan Qomus, o'zbek xalqi tafakkur va ijodining mahsuli, deb atadi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekistonda fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishidek bu demokratik jarayon tobora kuchayib bormoqda. Prezident Islom Karimov O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish haqida to'xtalib "Biz quradigan jamiyat O'zbekiston xalqining munosib turmushini huquqlari va erkinliklarini kafolatli milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak", - deb takidlaydi.

O'z-o'zini boshqarish hamisha aniq bir makon (mehnat jamoasi, mahalla, muassasa, qishloq kabi) bilan bog'liq. Ushbu makonga taalluqli aniq muammolarni, vazifalarni bajarish fuqarolik institutlariga xosdir va ushbu xislat ularni aholi hayotiga, ehtiyojlariga, intilishlariga yaqin qiladi. Xatto shuni aytish mumkinki, fuqarolik institutlari keng xalq hokimiyatichiligining aniq bir ko'rinishi, shakli sifatida uning kundalik buyurtmalarini bajaradi. Shu nuqtai nazardan ham u xalq hokimiysi institutining xalqqa eng yaqin bo'g'inidir. O'z-o'zini boshqarish organlariga mutlaqlik maqomini berib, ularni siyosiy boshqaruvin o'rnini egallovchi, xatto professional boshqaruvin o'ringa kelib, davlat funksiyalarini qisqartiruvchi tashkilotlar sifatida talqin qilib bo'lmaydi. L.Boyko "O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatichiligining konstitutsiyaviy asoslari" kitobiga shunga monand fikr bildiradi. U o'z-o'zini boshqarishga nosiyosiy, davlatsiz, jamoat boshqaruviga olib kelish bosqichi sifatida qaraydi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi–ijtimoiy hayotning huquqiy ifodasi bo'lib, u davlat va xalq manfaatlari xizmat qiluvchi demokratik tamoyillarga rioya etadi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlarini oliy qadriyat hisobladi va insonning demokratik huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

JAHON MAMLAKATLARI TARAQQIYOTIDA GEOSIYOSIY
VAZIYATLARNING O'RNI

Bekzod Rahimov,

*Nam DU Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'lif yo'nalishi 3-
bosqich 302 guruhi talabasi*

Kishilik jamiyatni taraqqiyoti davomida milliy chegaralarda davlatchilikni rivojlanishi natijasida qator mamlakatlarni qaror topishiga olib keldi. Mamlakatlarni paydo bo'lishi bilan ular o'rtaida hamkorlikning turli shakllari yuzaga keladi. Mamlakatlar o'rtaсидagi hamkorlik esa ularning iqtisodiy-iжtimoiy va siyosiy taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mamlakatlararo hamkorlikni tartibga solish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida turli shakldagi xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishiga ehtiyoj tug'iladi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvni, mamlakatda demokratik jamiyatni qurish va boshqa jiddiy o'zgarishlar siyosiy va harbiy geografik tadqiqotlarni ham dolzarb masalalar sirasiga qo'shdi. Bunday izlanishlar, eng avvalo, iqtisodiy masalalar bilan uzzviy aloqadorlikda olib borilishi kerak. Zero, har qanday siyosat, ayniqsa, «siyosiy siyosat» iqtisodiyotining davomidir. Binobarin, siyosiy geografiya iqtisodiy bilan chambarchas bog'liq va ular birgalikda yagona ijtimoiy geografiya fani tizimiga kiradi.

Tarixan siyosiy geografiya va geosiyosat bir-biri bilan bog'liq holda vujudga kelgan. Siyosiy geografiyaning vatani Germaniya bo'lgan, bu to'g'risida dastlabki kitobni («Siyosiy geografiya») nemis olimi F.F.Rattsel 1897 yilda nashr ettirgan. Ayni paytda u antropogeografiya yo'nalishini ham asoschisi bo'lgan. Albatta, F. Rattselning ushbu g'oyasi o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. U avvalambor, o'zining vatandoshlari – I. Kantning (1724-1804) «Antropologiyasi» va V.Gegelning «Absolyut g'oya» haqidagi ilmiy ishlarini chuqur o'rgangan.

Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir.

Bu jarayonni xoh u progressiv, xoh reaktsion bo'lsin uni geosiyosat deb atay boshladilar.

«Geosiyosat» tushunchasi o'zida («geo» - «yer», «siyosat» esa - «davlat» va «ijtimoiy ish», boshqaruv san'ati ma'nosida) ma'nolarini anglatadi. «Geosiyosat» atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko'rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlari tizimi, unga bo'lgan yondashuv uslublari, vositalari u yoki bu davlatning hududiy joylashUVi, salohiyatiga bo'lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

«Geosiyosat» uzoq tarixga ega bo'lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R.Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasi va fanlarida keng qo'llanilmoqda. 1945 yilda

BMT asoschilarasi xalqaro dunyoning ochiq hamkorlikka asoslangan tizimini yaratgan edilar. Bu tizim global so'zini hayotiy haqiqatga aylantirdi. Shuning oqibatida biz hozir global dunyoda yashamoqdamiz. Hozirgi yangi dunyoda guruuhlar, ayrim odamlar xatto davlatlar chegara orqali davlatlarning ishtirokisiz hamkorlik qilmoqdalar. Keyingi asr mobaynida beqiyos iqtisodiy yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lsada, biroq haligacha 1,2 milliard odam kuniga bir AQSh dollaridan 2,8 milliard kishi 2 AQSh dollari qiymatidan kam hisobiga kun kechirmoqda. Qariyb 1 mlrd odam savodsiz, 840 million odam ochlik iskanjasida yoki oziq-ovqat yetarli emas. 5-yoshgacha barcha bolalarning uchdan bir qismi qorinlari to'ymaslikdan azob chekadilar. Yer kurrsasi aholisining beshdan bir qismi (20%) katta daromad olishi mumkin bo'lgan davlatlarda yashamoqdalar. Bu davlatlarning hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 86% to'g'ri keladi. Dunyoning 3 ta eng boy kishisining sarmoyasi jahonning eng kambag'al 48 mamlakatining birqalikdagi yalpi ichki mahsulotidan ortiqdir. Har qanday mamlakatning yalpi ichki mahsulotlarining 1% o'shining kambag'al 20% aholi daromadining ko'payishiga olib kelishi mumkin. 4 millionga yaqin odam qochoqqa aylangan. Pokiston va Eronda 1989 yildan buyon 2.6 million qochoq yashagan. 2000 yilgacha 34.3 million odamga SPID kasali yuqqan. Shundan 18.8 millioni hayotdan ko'z yumgan jumladan 3.8 million bolalar hayotdan ko'z yumdilar. Keyingi yillikda urushlar natijasida 5 milliondan ortiq kishi hayotdan ko'z yumdi. Geosiyosat ko'p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o'zida mujassam etadi.

Shu o'rinda musulmon mamlakatlarida diniy aqidaparastlikning kuchayishiga sababchi bo'layotgan omillar haqida to'xtalsak: birinchidan, G'arbning musulmon mamlakatlariga tazyiq ko'rsatishga asoslangan siyosatining kuchayishi; ikkinchidan, ko'pgina musulmon mamlakatlarida siyosiy vaziyatning keskinlashuvi va iqtisodiy ahvolning og'irlashuvi; uchinchidan, mavjud taraqqiyot darajasidan qoniqmaslik natijasida o'zining tarixiy, madaniy-diniy ildizlariga qaytishga intilish; to'rtinchidan, Arab dunyosi, musulmon mamlakatlarida uzoq vaqtdan beri hal bo'lmayotgan turli mintaqaviy, diniy, hududiy muammolarning hal etilishiga ishonchsizlikning kuchayishi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, bir qancha islomiylar xalqaro tashkilotlar xalqaro hayotga, undagi iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal etishga jiddiy ijobjiy ta'sir ham ko'rsatmoqda. Masalan, 1969 yilda tashkil topgan "Islom konferensiyasi tashkiloti" ga 50 dan ziyod davlat a'zo bo'lib, uning asosiy maqsadi musulmon davlatlari o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy birdamlikni mustahkamlash, davlatlarning mustaqilligi, milliy huquqlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning iqdisodiy taraqqiyotini ta'minlashdan iborat. Islom taraqqiyot banki bu tashkilotning yordamchi idorasidir.

Shuningdek, 1926 yilda tashkil topgan qarorgohi esa Pokistonning Karochi shahrida joylashgan "Umumjahon Islom kongressi", 1962 yilda Saudiya Arabistonining Makka shahrida tashkil topgan "Umumjahon Islom ligasi" kabi tashkilotlar xalqaro hayotning barcha muhim masalalarini tinch yo'l bilan hal etish tarafdiridir.

**O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARI FAOLIYATIDA
"JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR" TEXNOLOGIYALARINI
QO'LLASHNING AYRIM MASALALARI**

Z.U. Haydarov,

*Nam DU "Ijtimoiy madaniy faoliyat" kafedrasi mudiri, tarix fanlari
nomzodi B. B. Inatullayev,*

NamDU "Ijtimoiy madaniy faoliyat" kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar ijtimoiy qatlama va guruhlarning maqsadlari, manfaat va g'oyalarini ifodalash; saylovlarni vositasida hokimiyatni shakllantirish; jamoatchilik fikrini shakllantirish; siyosiy ong va siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilish; fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish; o'z vakillari vositasida parlament va hukumatga ta'sir ko'rsatish; mamlakat taraqqiyotining muqobil dasturlarini ilgari surish kabi turli vazifalarni bajaradi.

Bu vazifalarni ado etish siyosiy partiyalardan aholi bilan doimiy muloqotda bo'lishni, o'z tarafдорлари va xayrixohлари safini muntazam kengaytirib borishni talab etadi. Siyosatshunos olim M.Qirg'izboevning ta'kidlashicha: «Partiyalar fuqarolarning siyosiy manfaatlarini ilg'ab, ularning o'zaro o'xshash manfaatlarini birlashtirib, ularning har bir oila va mahalla hududida «sochilib» yotgan tabiiy siyosiy harakatlarini partiyaviy doiraga jamlab, o'z a'zolari va xayrixohlarini siyosiy jarayonlarga safarbar etuvchi, shuningdek, fuqarolarni bu jarayonlarda faol ishtirot etishga yanada kengroq undash uchun ularni rag'batlantirish, «ko'nglini ko'tarish», intilishlarining doimiyligini ta'minlash vositasidir».

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar haqida gap ketganida, ularning aholi bilan muntazam muloqot qilishi talab etiladi. Bu haqda tadqiqotchi Sh.Qudratxo'jayev shunday yozadi: «Partiyalar omma bilan ishslashning ilg'or texnologiyalarini o'zlashtirishlari va shu orqali o'z saflarini imkon qadar kengaytirib borishga intilishlari lozim. Ochig'ini aytish kerakki, mamlakatimiz fuqarolari siyosiy partiyalar haqida faqat saylovlardan oldin ma'lumotga ega bo'ladilar. Aniqrog'i, ular haqidagi axborotni eshitadilar. Vaholanki, siyosiy partiyalar nafaqat saylovlarni chog'ida, balki o'zining kundalik faoliyati davomida fuqarolar bilan, a'zolari bilan muloqotda bo'lishlari lozim»².

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy partiyalar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ularning partiyaviy raqobat, hokimiyat uchun kurash va fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish borasidagi vazifalarini yengillashtiradi.

¹ Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyat: nazariya va xorijiy tajriba. – T.: Yangi asr avlod, 2006. – B. 11.

² Qudratxo'jayev Sh.T. O'zbekistonda professional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojanishi istiqbollari. – Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya. – Toshkent, DJQA.-2004. – B. 124.

Ta'kidlash joizki, siyosiy partiylar faoliyatida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish ikki jihatdan – saylovoldi kurashida va asosiysi, dasturiy vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy partiylar tomonidan saylovlar davrida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish qator xususiyatlarga e'tibor qaratishni talab etadi.

Birinchidan, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llash kishilarning elektorat fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishdan boshlanadi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarining vazifasi ana shu asosiy omillarni e'tiborga olgan holda nomzodning, siyosiy partyaning saylovda g'alaba qozonishini ta'minlashdan iborat.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari siyosiy kurashlarda to'plangan amaliy tajriba va ilmiy asoslangan bilimlar uyg'unligiga asoslanadi. «Saylovoldi kurashida, - deb yozadi A.Solovyov, - sinovdan o'tgan usullarni qo'llay bilishdan tashqari, konkret texnologiyalar natijasida qozonilgan g'alaba yoki mag'lubiyatning asl sabablarini ham o'rganish muhim o'r'in tutadi. Chunki, jamoatchilik fikrini zaruriy o'zanga yo'naltira olishlari uchun kampaniya tashkilotchilar sharoitni to'g'ri baholab, kishilar ongi va kayfiyatlaridagi «og'riqli nuqtalar»ga ta'sir o'tkaza olishlari lozim»³. Bu vazifani ado etish quydagi ketlikda amalga oshiriladi:

➤ Saylovlardan avval okrugdagi aholvoni har tomonlama o'rganish. Bu davrda okrug (aholi soni, aholining etnik va ijtimoiy tuzilishi, asosiy diniy birlashmalar, qishloq xo'jaligi va sanoat tizimi, yirik korxonalar va moliyaviy muassasalar, ta'lim muassasalari, o'rta va kichik biznes va h.k) va uning aholisi (qiziqishlari, qadriyatları, manfaatlari, qanday nomzodni ma'qul ko'rishi va h.k) haqida tegishli ma'lumotlar yig'iladi. To'plangan axborotni chuqur tahlil qilish asosida saylovoldi kompaniyasining strategiyasi ishlab chiqiladi.

➤ Boshlangan saylov kampaniyasini axborot bilan ta'minlash bilan bog'liq. Har qanday boshqaruv subyekti o'z faoliyatining qanchalik samarali ekanligini bilish uchun qilinayotgan ishlar kishilarga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu saylovoldi kurashini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Saylov kampaniyasini tahliliy axborot bilan ta'minlash natijasida ikki tomonlama, bir tomondan – nomzod, ikkinchi tomondan – saylovchilar o'rtasida o'ziga xos muloqot o'rnatiladi. Bu muloqot subyektga o'z harakatlarini tartibga keltirishda, paydo bo'lgan muammolarni zudlik bilan hal qilishda qo'l keladi.

➤ Saylov kampaniyasining tashkilotchilar uchun muhim axborotlar turli yo'llar bilan olinishi mumkin – okrugdagi iqtisodiy o'sish, aholining demografik tarkibi, turmush darajasi, ilgari bo'lib o'tgan saylov natijalari, statistik hujjatlarni o'rganish yo'li bilan; aholi o'rtasida sotsiologik so'rovlar o'tkazish yo'li bilan. Raqiblarning harakatlarini kuzatish va ularning

³ Соловьев А. Политология, политическая теория, политические технологии. - Москва: Аспект-Пресс, 2000. - С.401.

ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT

chiquishlarini tahlil qilish yordamida axborot to'planadi. Bularning barchasi saylov kampaniyasini to'g'ri tashkil etish, siyosiy texnologiyalardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llashdagi muhim huquqchi – axborotni qabul qilib oluvchi maqsadli guruhlarni ajratib olish saylov kampaniyalari davrida muhim ahamiyat kasb etadi.

Majoritar saylov tizimi shakllangan mamlakatlarda nomzod saylov kampaniyasida asosiy o'rinni egallaydi. Demak, saylovchilarining nomzod huquqchi fikrlari, tasavvurlari unga ovoz berish yoki bermaslik uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, siyosiy partiyalar tomonidan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo'llashdan ko'zlangan yana bir maqsad ushbu partiya tomonidan vakillik organiga nomzod qilib ko'rsatilayotgan shaxs haqida saylovchilarda ijobjiy tasavvur tug'dirishdir. Bunday tasavvur, bu so'z bilan aytganda, «imij» deb yuritiladi. Ta'kidlash joizki, imij, ya'ni insonlarning muayyan shaxs, guruh, partiya, tashkilot haqidagi tasavvurlari huqat saylovlar davridagina ahamiyatli bo'lmay, balki turli partiyalar, jamoat tashkilotlari, hattoki davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham imij haqida quyq'urishga majbur bo'ladir.

Imij siyosat subyektlarining ta'sirchanligini oshirishga, jamoatchilik tekrorini shakllantirishga, tarafdorlarni ko'paytirish va boshqa turli maqsadlarga xizmat qiladi. «Imij» so'zi aslida lotincha «image», ya'ni, ko'rinish, qiyofa, obraz so'zidan olingan bo'lib, kishilarining muayyan hodisa, shaxs, tashkilot, davlat haqidagi tasavvurlari yig'indisidir. Professor U.Qoraboev imijga shunday ta'rif beradi: «Imij atrofdagilarning shaxs haqidagi billurlashgan tasavvuri asosida paydo bo'ladi. Aniqrog'i, insonning diqqatga sazovor tomonlari, qobiliyati faoliyati mahsuli ko'pchilik tomonidan tan olinganidan so'ng paydo bo'ladi»⁴.

Nomzodning imiji saylovchilarining nomzodga ijobjiy munosabatiga sabab bo'ladigan axborotlarni tarqatishni nazarda tutadi. Bunda tarqatilayotgan axborotlar qator maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi: - jamoatchilik ongida nomzod haqida avvaldan shakllangan tasavvurlarni kuchaytirish, nomzod tomonidan saylovga qadar qilingan ijobjiy ishlarni ko'rsata bilish;

- saylov orolig'idagi muammolarni aniqlash va nomzodning asosiy maqsadi ushbu muammolarni hal qilish ekaniga saylovchilarni ishontirish;

- saylovchilar tomonidan nomzodga qo'yilgan talablarga uning to'la mosligini ko'rsatib berish (yoshi, millati, jinsi, dini, oilaviy ahvoli, bilim darajasi, yashash joyi, ma'lumoti, sog'lig'i, xarakteri va h.k.);

- nomzodning belgilangan saylovoldi strategiyasini amalga oshira olishiga insonlarni ishontirish (nomzod bu strategiyani shiorlar, reklamalar, nutqlar, uchrashuvlar orqali saylovchilarga yetkazib bera olishi lozim).

Saylov kampaniyasi davrida «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan foydalanish siyosiy partiyaning saylovoldi dasturini saylovchilar ommasiga jozibali tarzda yetkazishda ham samara beradi. Saylov

⁴ Qoraboev U. Imij va imijeologiya //Jamiyat va boshqaruv. – 1999. – № 1-2. – B. 47.

kampaniyalari bo'yicha tadqiqot olib borgan F.Il'yasovning ta'kidlashicha: «Saylovoldi dasturini ishlab chiqishda muhim omilni yoddan chiqarmaslik zarur – saylovchilarning ko'pchiligi bu dasturlarni o'qimaydilar. Saylovoldi dasturi – saylov kampaniyasining ramziy belgisi, xolos. Biroq, bu dasturlarni raqiblar diqqat bilan o'qiydilar. Demak, saylovoldi dasturi mamlakatda yechimini kutayotgan (ijtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy) muammolarni hal qilish haqidagi fikrlardan iborat bo'lmoq'i lozim. Bu dastur shunday tuzilishi kerakki, toki u hamma masalani qamrab olib, raqiblar tomonidan kamroq tanqidga uchrasin»⁵.

Xulosa qilib aytganda, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridan saylov kampaniyalari davrida foydalanish boshqa siyosiy partiylar bilan samarali raqobatni ta'minlaydi. Saylov kampaniyasi raqobatli jarayon bo'lib, bu raqobat shafqatsiz kurashga, keskin ziddiyatlarga aylanib ketmasligi uchun saylov jarayonini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan. Ayrim mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, nomzodlarning bir- birini tanqid qilishlari ochiqdan-ochiq obro'sizlantirish, tuhmatga aylanib ketadi. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari axborotning oshkoraliqi, to'g'riliqi, xolisligi va haqqoniyligi tamoyiliga tayanar ekan, saylovoldi raqobatni ham axloqiy me'yorlar asosida tashkil etishda qo'l keladi. Saylovoldi kurashining huquqiy me'yorlar va axloq qoidalariga mos bo'lishi O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarbdir.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH MASALASI

Bobomurod Tillayev,

*Nam DU "Milliy g'oya a'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi
o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi davlat siyosatiga aylanib ulgurgan. Chunonchi, bunga Oliy ta'lim muassasasida shartnoma asosida o'qishga qabul qilingan yoshlarga imtiyozli kredit olish, muddatli harbiy xizmatni o'tagan yoshlarga imtiyozli ravishda Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish imkoniyatini yaratilganligini ta'kidlash o'rinnlidir.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlar uchun:

- tibbiy xizmat;

- ta'lim olish;

- sport-sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnash;

⁵ Ильясов Ф. Политический маркетинг: искусство и наука побеждать на выборах. - Москва: ИМА-Пресс, 2000. - С.113.

-uy-joy qurish, ro'zg'or buyumlari sotib olish uchun imtiyoziy kreditlar berish;

-dastlabki mehnat faoliyati uchun ish joyi bilan ta'minlanish yoki amaldagi qonunlarga muvofiq moddiy kompensatsiya olish huquqi; ijtimoiy infrastruktura obyektlarini loyihalash va qurish chog'ida yoshlarning talab-echtiyojlarini hisobga olish;

-o'quvchilar, talaba yoshlar va voyaga yetmagan fuqarolar uchun transportda yurish imtiyozlari;

-voyaga yetmaganlarga kompensatsiya to'lovlarini kafolatlovchi ijtimoiy ta'minlanish minimumi belgilanadi.

Voyaga yetmaganlarni, yosh fuqarolarning ayrim toifalarini (nogironlar, ny bekalari, bolalar uyida tarbiyalanayotgan va tarbiyalanib chiqqanlar, o'quvchilar, talabalar, harbiy xizmatni o'tab qaytgan harbiy xizmatchilar, zahiradagi harbiy xizmatchilar va shu kabilarni) ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar, shuningdek ularning huquqlarini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilandi.

Bugungi kunda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlardan jismoniy va ma'naviy barkamollik ham talab etilishi tabiiy. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlar katta va shijoatli kuchdir. Bu kuchni mamlakatning chinakam suyanchi va tayanchiga aylantirish uchun yoshlarga g'amxo'rlik va e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biri bo'lib kelmoqda. "Bu borada uch bosqichli uzlusiz "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqlarini ham muhim ahamiyatga ega".⁶

Maktab hayotidan to katta hayotga qadam qo'yishgacha bo'lган uzlusiz davrni qamrab olgan bu sport o'yinlari yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularni turli sport to'garaklariga jalb etishda asosiy vosita hisoblanadi. Prezident I. A. Karimovning «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan, yangi turmush tarzini boshlayotgan yoshlar uchun munosib rag'bat bo'ldi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarini tamomlab, ish bilan ta'minlanayotgan yosh mutaxassislarini imtiyoziy ravishda uy-joy bilan ta'minlash;

- mamlakatimiz yoshlarini ish bilan ta'minlash jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida muttasadi vazirliklar tomonidan mavjud ish o'rinalarini inventarizatsiyadan o'tkazish, bo'sh ish o'rinaligiga yoshlarni joylashtirish chora-tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz;

⁶ Nurmatova M. Yoshlar mamlakat tayanchi //Jamiyat.-2007.-28 sentyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir, qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3878 sonli Farmoni. 2007 yil 18 may.

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston Respublikasida bugun yangicha fikrلaydigan, o'z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, davlat taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hisse qo'shayotgan yangi avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi, davlat tomonidan yoshlarga alohida e'tibor qaratilayotgani va mamlakatni modernizatsiyalash, kelajagi porloq O'zbekiston rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning roli va mas'ulligi oshib bormoqda.

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Gulnoza Rafiqova,

Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasи o'qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan fuqarolarimizning, ayniqsa yoshlarimizning siyosiy madaniyati bilan bog'liqdir. Har qanday jamiyatdagi siyosiy munosabatlar shu jamiyat siyosiy madaniyati tub aholisining tashkil etuvchi millat madaniyati ta'sirida shakllanadi⁸.

Bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni davlatning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga jalb qilish uchun sharoit yaratishdir.

Fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan bo'lgan nodavlat ijtimoiy tashkilot va harakatlarning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining manfaatlari muvozanatini muvofiqlashtirish, uni eng maqbul yo'nalishga yetaklashdan iboratdir. Jamoat tashkilotlari va harakatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz rioya qilgan holda, mustaqillikni mustahkamlashning barcha sohalariga doir o'zlarining muqobil dasturlarini ishlab chiqishlari va bu jarayonlarga o'z hissalarini qo'shishlari lozim.

Ma'lumki, har qanday mamlakatda ham kuchli fuqarolik jamiyat - undagi jamoat tashkilotlari va partiyalarning faol faoliyat olib borishi bilan rivojlanadi. Prezident I.Karimov ta'biricha, «Jamiyatni demokratiyalash

⁸ Tangriyev L. Yoshlar – siyosat subyekti. s.f.n.i.d. olish uchun tayyorlangan diss. avtoref.-Toshkent: 2001.

ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT

Jumiyoni siyosiy isntitutlar - partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlarini holiyatini mustahkamlash va rivojlantirish bilan bevosita bog'liq»⁹.

Bu esa jamiyatni rivojlantirishning siyosiy omillaridan biridir. Xalqning, jumladan, yoshlarning siyosiy ongini, siyosiy madaniyatini shakllantirish, siyosiy faolligini oshirish aynan shu siyosiy institutlar faoliyatiga bog'liqdir. Siyosiy partiyalar har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotidan munosib o'r'in egallab, hokimiyatning saylab olinayotgan organlaridan o'r'in olish uchun kurashishi, jamiyat manfaatlarining uyg'un tarzagi muvozanatini ta'minlashi va himoya qilishi, sog'lom muqobil kuch surʼatida adolatni mustahkamlashi va qonun ustuvorligiga erishish uchun kurashishlari lozim.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagagi faolligi, davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Chunki, yoshlar habiatan o'zgarishlar yaratishga qodir buniyodkor kuch bo'lib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga katta hissa qo'shadilar. Aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil qiladigan O'zbekiston uchun bu omil ayniqsa muhimdir.

Yoshlarni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish, ular tafakkurida boshqaruv mexanizmini shakllantirishdir. Zero, o'z-o'zini anglash darajasi yoshlarda intelektual salohiyatning o'sib borishiga bog'liq. Yoshlar o'zining hayotdagagi ijtimoiy o'rnini bilishi (kasb tanlash, dunyoqarash, oila qurish, istiqbolni belgilash va boshqalar) muhimdir. Ommaviy axborot vositalari, demografik rivojlanish, yangi sohalar va texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir vaqtida o'zining ijtimoiy o'rnini egallash ancha murakkablik tug'diradi.

Nodavlat jamoat tashkilotlari va ijtimoiy harakatlarsiz aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ijtimoiy manfaatlarini to'liq himoya qiladigan fuqarolik jamiyatni qurishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyatni tashkilotlari davlat tomonidan bajariladigan ishlarni to'ldiradi, chunki o'z miqdori, moslashuvchanligi va ommaviyligi tufayli ular yuzaga kelayotgan mahalliy muammoni aniqlash va davlat tashkilotlarining imkoniyati cheklangan o'rnlarda-mahalliy darajada harakat qilishi mumkin. Lekin hozirgi davr iqtisodiyotida yoshlarning nodavlat tashkilotini tashkil qilish, tajribasini orttirish, shuningdek, yoshlar tashabbusi bilan tuzilgan tashkilotlarning siyosiy hayotga ta'sir eta olishiga ishonchszilikni yengish lozimdir.

Mustaqil demokratik, erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan insonlar barpo etadi. Shuning uchun erkin fuqaro ma'naviyatini, asosan yoshlar ma'naviyatini

⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O'zbekiston, 2000.- 63-64 betlar.

shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksaltirish, barkamol yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

President I.Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida «Jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, «Ijtimoiy jamg'armalar», «Nodavlat notijorat tashkilotlari» to'g'risida, «Xayriya faoliyati to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilish tashabbusini o'rta ga tashladi.¹⁰

Hukumatimiz tomonidan qo'yilgan eng muhim maqsad xalqimizning azaliy an'analariga, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan urfatlar, tili, dini, ruhiyatiga, tafakkuriga asoslangan tamoyillari yurtimiz kelajagi, ravnaqi yo'lida yoshlar masalasi eng birinchi masala qilib qo'yilishi – davr talabidir.

Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, «Hech bir millatga xos bo'limgan sharqona madaniyat, o'zbekona andisha, mehr-muruvat, ibo, mulozamat tamoyillari asosida shakllanadigan barcha boshqa insoniy sifatlar bugun yangi davr kishisi ruhiyatini to'g'ri yo'sinda shakllantirish, uni kelajakning munosib vorisi bo'lishga imkon beradi. Demak, demokratik jamiyat qurishdagi milliy o'zligimizni anglash, o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limizni belgilashimizda ilg'or g'oyalargina mash'al bo'lishi mumkin»¹¹.

Bugungi kundagi mavjud yoshlar tashkilotlari va yoshlar harakatlarining istiqbolli masalalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlarini rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- yoshlar tashkilotlarini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va marifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish.

Yoshlar oldida, mustaqillikning yangi talablari ko'payayotganligini, yangi jamiyat qurish, ilm-fanni egallash bilan bog'liq katta imkoniyatlar paydo bo'lganligini to'liq anglab yetmoqdalar. Buni-yoshlarga nisbatan olib borilgan davlat siyosatining muhim yutug'i, deb bugun e'tirof etsak bo'ladi.

Bu asosan, quyidagi yunalishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda:

- rivojlangan mamlakatlarning ilm-fan sohasida erishgan yutuqlarini

¹⁰ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatasi asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari //Adolat.-2002.-30 avgust.

¹¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997.-98-90 betlar.

o'rganish;

- buning uchun eng zarur bo'lgan xorijiy tillarni o'rghanishga bo'lgan intilish;

- davlat va jamiyat qurilishi bilan bog'liq yangi yo'nalishlarni, tezkorlik bilan ijtimoiy hayotimizga singib borayotgan turli fan sohalarini egallashga bo'lgan intilishdir.

Bugun O'zbekiston yoshlari jahon maydoniga chiqib, eng baland martabali turli anjuman va musobaqlarda, keskin kurashlarda tengsiz g'alabaga erishib, ulug' ajdodlarimizga munosib vorislar ekanini qayta-qayta namoyon etayaptilar. Bu o'z navbatida ularga ko'rsatilayotgan q'amxo'rlikning, yosh avlod istiqboli yo'lida amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning yorqin samarasidir.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Mohira Mo'ydinova,

Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasi o'qituvchisi

Iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston mustaqillik yillarda rivojlanishning yuqori cho'qqisi tomon ilgarilab, Markaziy Osiyoda, MDHda yetakchi davlatga aylandi. Har sohada bo'lgani kabi bugungi kunda qishloq iqtisodiyotida ham katta yutuqlarga erishib, qishloqlarimiz taraqqiy ettirilmoqda. Qishloq xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini asosiy tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar qishloqlarimizni yanada gurkirab yashnashi, rivojlanishi uchun xizmat qilyapti. Ayniqsa yurtboshimiz tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berilishi natijasida bugungi kunga kelib eng chekka qishloqlarda ham o'z imkoniyatlardan kelib chiqqan holda tadbirkorlikning turli sohalari, tarmoqlari rivojlantirilmoqda. Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni ajralmas qismi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati - shakli va sohasidan qat'iy nazar soyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir¹².

Bundan tashqari tadbirkorlik aniq maqsadni ko'zlab tadbir asosida olib boriladigan faoliyatdir.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi milliy iqtisodiyotimizning taraqqiy etishiga katta zamin yaratdi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz

¹² Shodmonov Sh., G'ofurov U. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. -Toshkent, 2005 y.

tomonidan bir qator qonun va qarorlarni qabul qilinishi mamlakatimizda tadbirkorlar uchun e'tibor kuchaytirilganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda ayollar faolligini ta'minlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda ayollarning munosib xissasini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda aholining 51 % ni faol mehnat resurslarini esa 45, 1 % ni ayollar tashkil etadi. Zero, bugungi kunda ayollarning iqtisodiy faolligini yanada oshirish oila daromadini ko'payishiga imkon yaratса, oilalarimiz to'q va farovon hayot kechirsa, hamjihatlikda faoliyat olib borsa jamiyat, davlat taraqqiy etadi va yuksaladi.

Bugungi kunga kelib tadbirkorlar tomonidan kichik biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rnlari tashkil etilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali 700 mingdan ziyod respublika miqyosida yangi ish o'rnlari tashkil etildi. Ayol tadbirkorlar tomonidan maishiy xizmat va kasanachilik sohalari yanada kengroq rivojlantirilmoqda. Kasanachilik faoliyatini rivojlantirish orqali 300 mingdan ortiq yangi ish o'rnlari tashkil etilib, ishsiz ayollar ishga jalb etildi. Qishloq joylarida servis xizmatlari ko'rsatilayotgan va 200 mingta ish o'rinni ta'minlagan xizmatlar jadal ravishda rivojlanmoqda. Boshqa viloyatlarda bo'lgani kabi Namangan viloyatida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish tez sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Yangi ish o'rnlarini yaratish, aholini ish bilan ta'minlash, turmush darajasini oshirishga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barcha bosqichlarida alohida e'tibor berilgani va bu yo'nalishdagi vazifalarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirilganligi yurtimizda ishsizlik darajasini oshib ketishini oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekistonda mayjud barcha banklar tomonidan berilayotgan imtiyozli kreditlar asosida tadbirkorlar o'zlarining imkoniyatlarini, salohiyatlarini namoyon etmoqdalar. "Obod turmush yili" davlat dasturiga asosan eng chekka joylarda tadbirkorlikni, ayniqsa oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish, sanoatni qishloqlarga olib kirish natijasida qishloq ayollarini ish bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Imtiyozli kreditlar asosan sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, maishiy xizmat, kasanachilikni rivojlantirish, qishloqlarda yirik sanoat korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan.

Kasanachilik aholini ish bilan ta'minlash va daromad topishning qo'shimcha manbaiga aylandi. Kasanachilik xotin-qizlarni, ko'p bolali ayollarini, yordamga muxtoj nogironlarni va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda mehnat faoliyatining bu turini rivojlantirishga yu'mxo'rlik va e'tibor samarasida 2013 yilda kasanachilar tomonidan 34 miliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan va xizmatlar ko'rsatilgan. 2013 yilning 1-choragida korxonalar va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish evaziga qo'shimcha ravishda 50 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan.

Bundan tashqari boshqa hududlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, kam ta'minlangan, kam daromadli, boquvchisini yo'qotgan, oilada nogiron farzandlar bor oilalarni daromad manbaalarini shakllantirishga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, joriy yil uchun oilaviy tadbirkorlik yo'naliishida 3550 nafardan ziyod ayollar ish bilan band qilindi. Yangi ish o'rinnarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishda xizmat ko'rsatish va kichik biznes eng qulay vositadir.

Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlar uchun yaratilgan shart sharoitlar va imkoniyatlar tadbirkorlarimiz tomonidan kichik biznesni rivojlantirilishi yangi korxonalarning ishga tushirilishi natijasida qishloqlarda aholini ish bilan ta'minlash imkoni yaratilmoqda.

"Obod turmush yili" davlat dasturi asosida amalga oshirilgan ishlar ham aholini ayniqsa ayollarni ish bilan bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari O'zbekistonni keljakda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi uchun zamin yaratmoqda.

JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH MARKAZLARI

B. B. Ibrohimov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasini
o'qituvchisi*

Abrorjon Mamadaliyev,

*Nam DU Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari yo'naliishi 2- bosqich
talabasi*

Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda favqulodda muhum ahamiyatga egadir. Axborot xavfsizligini samarali ta'minlash esa jamoatchilik fikri fenomenini chuqur anglashni taqazo qiladi.

Jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy-siyosiy holat, turmush tarzi, iqtisodiy o'zgarishlar xususida umumiyligi yoki bir necha xil munosabatlarga, mavjud holatlarning kelib chiqish sabablari harakatlanuvchi kuchlar muammoning yechimiga xilof bo'layotgan omillar borasida esa mutlaqo qarama-qarshi hamda o'zgaruvchan qarashlarga ega bo'ladi.

Jamoatchilik fikrining tez o'zgaruvchan tabiatи ham ijtimoiy ongning faol qismi sifatida xarakterlanadi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning hosilasi jamiyatning turli tabaqalarining fikr-qarashlari munosabatlarining real va umumlashgan ifodasidir.

Jamoatchilik fikrini o'rganish bugungi kunda erkin fuqorolik jamiyatini hamda adolatli demokratiyani qaror toptirish yo'lidan borayotgan O'zbekiston uchun juda muhum hisoblanadi. Chunki jamoaning fikrini o'rganish hamda mavjud bo'lishi mumkin bo'llgan muammolarning hal etilishida muhum ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamoatchilik fikrini chuqur anglashni taqazo etadi.

Jamoat fikrini o'rganish bir tomondan davlat va jamiyat tuzilmalarini demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tomondan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy mushohadalash, nazariy qayta ishslash, sintezlash holatlariga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan birortasi bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni demokratik uslublarda shakllantirish ham samarali kechmaydi.

Bugungi kunda jamoatchilik fikrini o'rganuvchi maxsus mutaxassislar ham, alohida muassasalar ham faoliyat olib bormoqdalar va ularni ishlarini tashkil etish esa aniq rejalar asosida yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi kunda ana shunday uslubda ya'ni jamoatchilik fikriga rejaviy tarzda bevosita ta'sir o'tkazish amaliyoti Xitoy, Janubiy Koreya, Kuba, Iraq va boshqa bir qancha davlatlarda saqlanib va amalga oshirilib kelinmoqda. Rivojlangan g'arb va sharq mamlakatlarda jamoatchilik fikrining bilvosita uslublari keng qo'llanib kelinmoqda. Bu uslub demokratiya tamoyillariga asoslangan bo'lib ularni o'rganish asosan ommaviy axborot vositalari, sotsiologik tadqiqotlar, huquq tartibot organlari, kamolot yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlari reklama, norasmiy liderlar ta'siri, shou dasturlar va boshqa omillar vositasida amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki axborot xavfsizligini ta'minlash niqobi ostida axborot xurujini globallashtirishga intilishdan iborat shovunistik harakat ham avj olmoqda. Masalan, jamoatchilik fikrini boshqarish deb ataluvchi (PUBLIT RELATION)deb nomlanuvchi tizim orgali AQSH da jamoatchilik fikrini maxsus shakllantirish borasida 200 ming kishidan ko'proq kishi doimiy faoliyat yuritib keladi. Birgina AQSH mudofaa vazirligi faoliyatini targ'ib etish bo'yicha 15000 mutaxassis ishlaydi.

Bugungi kunda jamoatchilik fikrini o'rganuvchilar asosan sotsiolog va psixologlar hisoblanadi. Bular aynan shu masala bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar hisoblanadilar. Ular jamoa orasidagi mavjud muammolarni o'rganib chiqadilar, ularni hayotiga tatbiq etilayotgan qarorlar, qonunlar, farmonlar ijrosi yuzasidan tug'ilayotgan muammo va e'tirozlarni o'rganib ularni oldini olish va bartaraf etishda bevosita-mas'uliyatlari shaxslar hisoblanadi. Psixoglarning ham bu boradagi ishlari va mas'uliyatlari benihoya katta bo'lib, jamoa psixologiyasiga kuchli ta'sir etadilar. Ular

jumoaning ruhiyatida yuz berayotgan salbiy o'zgarishlarni kelib chiqish subabi va ularning ruhiyatini ko'tarish, salbiy holatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadilar.

Jamoatchilik fikrini o'rganish bilan nodavlat jamoat tashkilotlari, partiyalar, ilmiy muassasalar, sotsiolog markazlar shug'ullanib boradilar. Xo'sh yuqorida muassasa va tashkilotlar jamoatchilik fikrini o'rganish bilan shug'ullansa, uning o'rganish usullari ham mavjudmi? degan savol tug'iladi. Albatta, jamoatchilik fikrini o'rganish usullari ham mavjud bo'lib, ularga: anketa, intervyu, tajriba, suhbat, test va boshqalar kiradi.

Jamiyatimizda axborot hurujini oldini olishga katta e'tibor berilmoqda. Lekin shuncha sa'y-harakatlarga qaramay ularni faoliyati natijasi ko'zga tashlanmayapti. Hozirda Respublikamizda 507 ta gazeta, 157 ta jurnal ro'yxatga olingan. 5 ta telekanal, 30 dan ortiq tahririyat orqali ko'rsatuvalar tuyyorlanmoqda. Viloyatlarda 10 ta telestudiya faoliyat yurityapti. Butun hudud radio to'lqinlari bilan qamrab olingan, ta'lim sohasida 3000 dan ortiq o'qituvchi pedagoglar, 3000 dan ortiq injenerlar hamda oliy ma'lumotli qishloq xo'jaligi mutaxassislaridan iborat ziyorolar armiyasi mavjuddir. Barcha viloyat va tuman hokimliklari qoshida «Ma'naviyat va Ma'rifat» markazlari ishlab turibdi. Aslida shular jamoani ichida bevosita bo'ladilar, ularning orasida ish olib borishlari va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishlari mumkin. Lekin ularning jamoa fikri bilan qiziqishlari ancha pastligi ko'zga tashlanmoqda. Ikkinchidan esa, o'rganilgan ijtimoiy voqelik, jayonlar to'g'risidagi ijtimoiy fikri operativ tarzda O.A.V hamda televideniya orqali muntazam berib borilmasligidadir.

Sotsiologik tadqiqotlar vositasida o'rganilgan jamoatchilik fikrining dahlsizligi masalasining nechog'li muhimligini teran anglash va uni qadriyat darajasida ham ko'rish muhimdir.

Bugungi kunda jamoatchilik fikrini o'rganuvchilar sotsiologlar hisoblanadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari esa ularga yordam berish, targ'ibot ishlarini olib borish bilan shug'ullanadilar. Bugun biz yoshlarning ham vazifamiz nafaqat jamoat fikrlarini o'rganish, mavjud muammolarni hal qilish balki, ularning targ'ibot qilish yosh avlodlarda shaxsiy fikr va g'oyalarini shakllantirish, o'z fikrlarini ochiq va oshkora aytaladigan qilib tarbiyalash va ma'naviyatli, sog'lom fikrlaydigan kadrlar yetishtirishga hissa qo'shishdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov jamoatchilik fikri omiliga jiddiy e'tibor qaratib mazkur sohaning, fuqarolik jamiyatini barpo etish va bu jamiyatni erkinlashtirish borasida ulkan imkoniyatlari borligini ta'kidlaganlari bejiz emas. Ayniqsa, jamoatchilik fikrini maqsadli shakllantirish, aholi turli tabaqalari ongini ezgulik g'oyalarini ruhidha tarbiyalash, ma'naviyat, ma'rifat, odob-ahloq tamoyillarini ustuvor mavqelarga ko'tarishda sotsiologyaning ahamiyati va roliga bejiz urg'u berilmadi.

Hozirda jamoatchilik fikrini o'rganish va shakllantirish markazi, muassasalarining va bu sohadagi mutaxassislarining ham, shu bilan birga

barchaning oldida turgan maqsadi bitta: sog'lom fikr, sog'lom dunyo-qarashni, sog'lom avlodni kamol toptirish, ozod va obod jamiyat barpo etish ishlariiga qat'iy qaror, azm-u shijoat bilan kirishishga da'vat etishidan iborat. Buning uchun esa ko'pgina masalalar yechimi o'zimizga bog'liq ekanligini teran anglashimiz, kuchli shijoat, g'ayrat bilan kirishmog'imiz lozim.

SURXON VOHASIDA TIBBIY XIZMAT MADANIYATNING YUKSALISHI (1991-2000 YILLAR)

*Abdusalom Xo'janazorov,
Termiz Davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi*

Mustaqillikning dastlabki yillarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida muhim ishlar amalga oshrilib, tibbiyot sohasi uchun zarur moddiy- texnik ta'minot yaratilib, zamonaviy dovalash komplekslari paydo bo'ldi. Ushbu amalga oshirilga islohatlar tufayli Surxondaryo viloyatda bir qator tibbiyot muassasalari qurib foydalanishga topshirildi. Jumladan, shifoxonalar qurilishi jadal sur'atlar bilan olib borilmasada, 1990-99 yillar mobaynida Surxondaryo viloyatida 2210 o'rinni kasalxonalar, ambulatoriya-poliklinika maskanlari foydalanishga topshirildi. Shunigdek, 1990-2001 yillarda bir smenada 8500 kishi qatnashi mumkin bo'lgan dovalash o'rinnari, ayniqsa, 1996 - 1997 yillarda bu boradagi ishlar faol olib borildi va tegishli ravishda, bir smenada 1810 va 1955 kishi qatnash quvvatiga ega bo'lgan ambulatoriya-poliklinika maskanlari qurib bitkazildi.

Bozor munosabatlariiga o'tish davrida, birinchi navbatda, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga alohida e'tibor berildi. Yangi qurib foydalanishga topshirilayotgan muassasalarini zamonaviy tibbiyot jihozlari va uskunlari, dori-darmonlar bilan ta'minlash borasida ham katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, keyingi yillarda (90-yillar o'rtalariga kelib), yuqumli kasalliklarning oldini olish borasida olib borilgan keng ko'lamli ishlar natijasida birgina Surxondaryo viloyatida yuqumli kasalliklardan poliomielit, qorin tifi, qoqshol, kuydirgi va o'ta yuqumli kasalliklar (vabo, o'lat va boshq.) uchramadi. Salomonellyoz - 42 foizga, ichburug' kasalligi – 1,8 martaga, virusli gepatit - 1,6 marotabaga kamaydi. Bunda emlash tadbirlari katta ahamiyat kasb etdi va deyarli 100 % ga yetdi¹³.

Bundan tashqari, viloyatdagi ko'plab shifoxonalar moslashtirilgan, talabga javob bermaydigan binolarda joylashgan. Birgina, Surxondaryo viloyati shaharlaridagi (90-yillar o'rtalarida) tibbiyot muassasalarining 60 foiz moslashtirilgan binolarda joylashgan, shuning uchun muolaja ishlarini to'laligicha tashkil etish imkoniyati cheklandi¹⁴.

¹³ SVH JA. Viloyat Kengashining I/VI sessiyasi materiallari. - 1997. - 10 yanv. - B. 8.

¹⁴ Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. 1991-2005 y. Toshkent. 2006 y. 261 b.

Viloyat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining moddiy-texnik bazasi tishlab darajasida emas. Ba'zi hollarda chetdan olib kelingan qimmatbaho uskunalar ishlatalmasidan yaroqsiz holatga tushib qolmoqda. Buning sababi ularni ishlata biladigan mutaxassis kadrлarning yetishmasligidir. Respublikamizda ona va bola salomatligening muhofaza qilinishiga katta e'tibor berilmoqda. Davlatning bu siyosati negizida «Sog'lom avlod uchun» degan oly maqsad yotibdi. Respublika hukumatining bu siyosatini hayotga tatbiq etish borasida joylarda maxsus dasturlar ishlab chiqildi.

Viloyatda 1996-2005 yillar davomida 149 ta qishloq vrachlik punktlari va 1 ta shahar vrachlik punkti barpo etildi. Shulardan 97 tasi yangi qurilish va 53 tasi mayjud davolash-profilaktika muassasalarini qayta ta'mirlash hisobiga barpo etildi. Davlat dasturi rejasiga asosan 2005 yili viloyatda 11 ta qishloq vrachlik punktlarini barpo etish uchun davlat tomonidan 278 million so'm mablag' ajratilib, qurilishi ishlariga 296 million 500 ming so'm mablag' sarflandi. Shundan 7 million 500 ming so'mi asbob-uskunalar, qattiq va yumshoq jihozlar sotib olish uchun sarflandi, bundan tashqari «Aktet» Xalqaro tashkiloti tomonidan 18 million 100 ming so'mlik ta'mirlash ishlarini bajarildi. Jumladan, Angor tumani «Mustaqillik» qishloq vrachlik punktidagi 6 million 200 ming so'mlik, Sherobod tumani Poshxo'rt qishloq uchastka shifoxonasida 4 million 700 ming so'mlik ta'mirlash ishlarini bajardi. Viloyat aholisiga hozirgi kunda 85 ta shifoxona xizmat ko'rsatmoqda, ushbu shifoxonalarda o'rinalar soni 8625 tani tashkil etdi¹⁵.

Viloyat hokimining 2000 yil 5 maydag'i 90-F farmoyishi bilan Markaz va uning filiallari uchun 20 ta «DAMAS» tez tibbiy yordam mashinasi ajratildi. Shoshilinch tibbiy tez yordam markazi uchun 2003 yil 2 ta «DAMAS» avtomashinasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan berildi. Germaniya davlati tomonidan homiylik yordami tariqasida 12 turdag'i zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar keltirildi. Shoshilinch tibbiy tez yordam klinikasi Termiz filialiga Germanianing Termiz shahridagi havo kuchlari mutaxassislarini tomonidan 1 million Amerika dollari miqdoriga teng bo'lgan Rentgen (Filips firmasi), 3 ta markaz apparati (Drayger firmasi), 4 ta monitor, 1 ta defibrlektor, 4 ta infozumat (shprits-nasos) va bir qancha anjomlar hamda ushbu anjomlarning o'rnatilishi va ishlatish uchun ketadigan materiallar olib kelindi.

2005 yilga kelib, viloyatda tibbiyot muassasalarining soni 90 tani tashkil etib, ushbu muassasalarining 87 tasi byudjet va 8 tasi nodavlat mablag'lar hisobidan faoliyat ko'rsatdi. Viloyat kasalxonalarida bemorlarga xizmat ko'rsatish uchun 84,25 bemor o'rni soni bo'lib, har 10 ming kishiga 43,7 ta bemor o'rini to'g'ri kelgan. Shuningdek, 2005 yil viloyatda 360 ta vrachlik

¹⁵ C.N.Tursunov va boshqalar. Surxondaryo tarixi. –Toshkent: Sharq, 2004. 584-bet.

ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT

ambulatoriya, poliklinika muassasalari va 190 ta qishloq vrachlik punktlari aholi sog'ligini saqlashga xizmat qildi¹⁶.

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimiga qarashli davolash profilaktika muassasalarida 2005 yilda 4020 nafar shifokor, 18073 nafar o'tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 587 nafari olyi toifal mutaxassislardir. 2005 yilda sog'liqni saqlash muassasalarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish maqsaddida 1 mlrd 92 mln so'mlik tibbiy asbob-uskunalar va apparatlar keltirildi.

Qumqo'rg'on tumanida sog'liqni saqlash masalasida muhim tadbirla amalga oshirilib, zamonaviy usulda xizmat ko'rsatish tashkil etildi Viloyatdagi Markaziy shifoxonasi to'liq qaytadan ta'mirlandi. Tibbiy asbob uskunalar, qattiq va yumshoq manbalar bilan jihozlandi. Jami sarflangai 296 mln so'mning 78 mln so'mi homiyilik mablag'lari hisobidan amalg' oshirilgan.

Mustaqillik yillarida mazkur tizimda ham muhim o'zgarishlar amalg' oshirildi. Ushbu xayrli ishlar zamirida voha ahlining salomatligini saqlash kelajak avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashdek xayrli niyatla mujassamlashgan. Vohà sog'liqni saqlash tizimi xodimlari ishlarni amalg' oshirishda alohida fidoyilik ko'rsatib, tinimsiz mehnat qilmoqdalar¹⁷.

SURXON VOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH VA UNING AMALIY AHAMIYATI

*Dildora Eshmurodova
Termiz axborot texnologiyalar va maishiy xizmat ko'rsatish kollej
o'qituvchisi*

Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqlol hamda mamlakatimizda amalg' oshirilayotgan qator islohotlar tufayli yosh avlodga ta'lif va tarbiya berishning ko'plab ijodiy usullari milliy ongimizga va imkoniyatlarimizga hamohanq bo'lgan tizimi qaror topa boshladi. Jamiatning qanchalik darajada rivojlanganligini shu jamiatda istiqomat qilayotgan yoshlarga berilayotgar ta'lif va tarbiyaning qay ahvolda ekanligi bilan belgilanadi. Chunki, ha tomonlama rivojlangan yoki rivojlanishni o'z oldiga qo'ygan davlat avvalc bo'lg'usi avlodning yuksak darajada malakaga ega bo'lishi uchun ha tomonlama g'amxo'rlik qilmog'i lozim. Xalqimiz qo'lga kiritgan istiqlo sharofati bilan Respublikamiz xalq ta'limi tizimi ham har tomonlama yangilanish jarayonini o'z boshidan kechirmoqda. Chunonchi, o'tgan o'n yi davomida xalq ta'limi va tarbiya berishning yangi-yangi usullari ishlab chiqilit hayotga tadbiq etildi. Yosh avlodni jahon jamoatchiligi talablariga javot beradigan darajada qilib tarbiyalash borasida qator ishlar amalg' oshirildi Ta'lif-tarbiya maskanlarining miqdor va sifati o'zgardi, umumiyl maktablar

¹⁶ Surxondaryo viloyat iqtisodiyot boshqarmasi joriy arxiv, 4 kitob, 2006 yil, 114 bet

¹⁷ C.N.Tursunov va boshqalar. Surxondaryo tarixi. -Toshkent: Sharq, 2004. 585-bet.

litsey va gimnaziyalar tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi qonunni hayotga izchil jalb etayotgan viloyat xalq ta'limi xodimlari ham keyingi yillarda qator yutuqlarga erishdilar.

Xususan, ana shu davr oralig'ida yangi, zamonaviy hamda jahon talablariga mos tarzda yoshlarga ta'lim beradigan o'quv dargohlari bunyod etildi. Ana shunday o'quv dargohlaridan litsey, gimnaziya va chuchurlashtirilgan maktab-internatlarning ochilishi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Mana, bir necha yildirki, Al-Hakim at-Termizi nomidagi viloyat yosh matematiklar va fiziklar maktab-internati murabbiylari yoshlarga aniq fanlarni samarali usullar asosida o'rgatayotgan bo'lsalar, Termiz iqtidorli bolalar litseyi murabbiylari esa viloyatning yuzlab ilmga chanqoq bolalariga jahon tili hisoblangan ingliz tilini, informatika asoslarini hamda iqtisodiy bilimlarni o'rgatishda qator yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Mustaqillik sharofati ila jahonga yuz tutayotgan yuritimiz uchun o'zga xalqlar tillarini, hususan jahon tili bo'lmish ingliz tilini o'z ona tili singari chuqur biladigan yoshlar nihoyatda zarurdir.

Buni his etgan holda O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikda Toshkentda tuzilgan «Ta'lif va til o'rganish bo'yicha Amerika hamkorlik tashkiloti» (AKSELS) vakillari viloyatda ham bo'lib, ingliz tilini puxta o'rgangan bolalardan zehnlilarini sinovdan o'tkazib, Amerikaga turli muddatlarga o'qishga jo'natmoqdalar. Jumladan, 1994 yili viloyatda o'tkazilgan ana shunday ko'rikda atigi 3 nafar o'quvchi o'tgan bo'lsa, 1995 yilga kelib bu bellashuvda qatnashuvchilar va ulardan muvaffaqiyatli o'tuvchilarning soni anchaga ortdi. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi hamda «Ta'lif to'g'risida»gi qonunlarini bajara borish, shuningdek, yosh avlodni har tomonlama yetuk, jismoniy jihatdan baquvvat qilib tarbiyalash maqsadida viloyatda 17 ta maxsus sport maktabi mavjud bo'lib, ularda 8000 ga yaqin o'quvchi tarbiyalanadi. 1995 yilning birinchi yarmiga qadar o'tgan davr mobaynida ushbu sport maktablarining ishtiroychilari xalqaro musobaqalarda ishtiroy etib, ular orasida bir nafari sport ustasi, 25 nafari sport ustaligiga nomzod va 100 nafari birinchi razryadli sportchi bo'ldi. Viloyat xalq ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar natijasida qator litsey va gimnaziyalarning ham soni yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda viloyat Xalq ta'lim boshqarmasida 18 ta litsey-internatlar va 3 ta gimnaziya faoliyat ko'rsatmoqda, ularda 2500 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Termiz Davlat pedagogika institutining 1992 yildan e'tiboran universitetga aylanishi munosabati bilan bu dargohdagi o'quv va tarbiyaviy ishlarning har tomonlama ijobjiy tomonga qarab yuz tutishiga imkon yaratildi. Ma'lumki, viloyat iqtisodiyotida agrar soha muhim o'rinni egallaydi. Qishloq xo'jaligini zamon talablari asosida isloh qilish vazifasi avvalo ushbu soha uchun malakali mutaxassislar yetkazib berishni inobatga olgan holda Termiz Davlat Universitetida tayyorlangan mutaxassislarini joylardagi ehtiyoj va talablar asosida tayyorlash maqsadida qator yangi ixtisosliklar tashkil etildi. Jumladan, universitetning tashkil etilishi bilan bevosita xalq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan

mutaxassislar tayyorlash maqsadida qishloq xo'jaligini mexani-zatsiyalash, agrokimyo va tuproqshunoslik, ekologiya kabi bo'limalar ochildi. Bugungi kunda Termiz Davlat Universitetining mayjud 13 fakulteti hamda 50 ga yaqin kafedrasida 25 dan ortiq fan doktorlari, professorlar, 150 dan oshiq fan nomzodlari va dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda. Universitet qoshida 1993 yili aspirantura bo'limi tashkil qilindi. Aspirantura bo'limida fanning Lazerlar fizikasi, Gelmentologiya, Geografiya, Vatan tarixi, Analitik kimyo, Ekologiya, Qiyosiy adabiyotshunoslik va Tilshunoslik kabi sohalarida tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Universitet olimlari viloyat xalq xo'jaligini rivojlantirishda o'zlarining amaliy hamda nazariy yordamlarini ayamasdan uning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga o'z hissalarini qo'shamoqdalar. Qisqa davr oralig'ida ko'plab ilmiy asarlar yaratildi va yaratilyapti. Viloyat xalq ta'limi muassasalari respublika miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadalari, turli xil ko'rik-tanlovlari va musobaqalarda ham faol ishtirok etmoqdalar. Yangilanayotgan jamiyatimizni har tomonlama yetuklikka olib chiquvchi asosiy omillardan biri bu ma'naviyatdir. Ma'naviyatning boyligi kelajak poydevorining mustahkamligi dan dalolat beradi. Bugungi istiqlol damlarida ezgu qadriyatlar va an'analaramiz asosida yaratilayotgan mustaqillik mafkurasi ham boy ma'naviyatimizning bir tomoni yoki bir ustunidir. Mafkura va ma'naviyatni boyitishda xalqimizning asrlar osha asrab va boyitib kelingan boqiy an'analari va qadriyatlarining ham o'ziga xos munosib o'rni bor.

Shuning uchun ham Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu masalada to'xtalib: «Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini, odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, halollikni, mardlikni va sabr-bardoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim», -deb ta'kidlagan edi. Bu davorda viloyatda o'tmishda yashab ijod etgan ko'plab allomalarning hayoti merosini o'rganish, ularning asarlarini tahlil qilish, va nashr ettirish maqsadida ham qator ishlar olib borildi. Yurtimiz o'tmishini o'rganishga bo'lgan chanqoqlikning oshganligi sababli olim va adiblar tashabbusi bilan o'tmishda o'tgan o'nlab vohadoshlarimizning nomlari xalqqa yetkazilib, nashr qilina boshladi. Ana shunday allomalardan biri Alouddin Attordir. 1994 yil 10 iyunda Denov shahrida Naqshbandiya yo'naliishing buyuk namoyandalaridan biri Bahouddin Naqshband (1318-1389)ning birinchi shogirdi, kuyovi va halifasi Xoja Alouddin Attor hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjuman bo'lib o'tdi. 1992 yilda viloyat kasaba uyushmalari kengashi ulkan shoir Adib Sobir Termiziy nomini abadiylashtirish hamda viloyatda ijod qilayotgan qator ijodkor va san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Adib Sobir Termiziyy» nomli mukofot ta'sis etdi. Ushbu mukofot har yili mustaqillik bayrami arafasida joriy yil davomida viloyat televideniesida namoyish etilgan ko'rsatuv, gazetalarida e'lon qilingan maqola

hamda teatrda o'ynalgan asar yoki viloyat tarixi, adabiyoti yoritilgan risola va kitoblar uchun bo'ladigan tanlov g'oliblariga beriladi. 1993 yili mukofotning birinchi sohiblari sifatida viloyatning yirik adibi Mengziyo Safarov, rassom Tursunpo'lat Uzoqov hamda baxshi Shoberdi Boltayevlar taqdirlandilar. 1994 yilda esa vohalik shoir Nizomjon Parda, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, «Surxon tonggi» gazetasining ma'sul kotibi Muhammadjon Azimov (hozirda shu gazetaning bosh muharriri), O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevlar Adib Sobir Termiziy mukofotining sovrindori bo'ldilar.

Mustaqillikning o'tgan o'n yili davomida viloyat madaniyati va adabiyoti bilan bir qatorda san'ati ham jadal rivojlanish jarayoniga o'tdi. Hususan, ana shu davrda viloyatning qutlug' san'at dargohlaridan biri Mannon Uyg'ur nomidagi musiqali drama teatrining repertuari rang-barang mavzudagi va janrdagi qator dramatik asarlar bilan boyidi. Teatr jamoasi o'z ishini yangi davr talablari asosida ijro qilayotgan asarlarining ko'proq milliy bo'lismiga, xalqning ruhiyatiga, orzu va istaklariga hamohang bo'lismiga harakat qilmoqda. Juda katta ijodiy kuchni o'z bag'riga olgan teatr jamoasi o'z repertuarini voha ijodkorlarining asarlarini sahnaga olib chiqish orqali ham anchagina boyitib bormoqda. Viloyat musiqali drama teatrinda taniqli jurnalist Norqul Hayitqulovning «Yulduz so'ndi», Isomiddin Otaqulning «Qamashgan ko'zlar», Xurram Maqsadqulovning «Sadoqatli arvoh» kabi pesalarining sahnalashtirilishi yuqoridaagi fikrimizning yorqin isbotidir.

TIBBIYOT XIZMATIDAGI AMALGA OSHIRILIGAN DASTLABKI ISLOHATLAR SAMARASI

*Abdusalom Xo'janazorov,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi*

Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlarida bo'lganidek, tibbiyot sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Respublikada mustaqillik yillarida tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan e'tibor o'sdi. Sobiq Ittifoq hukumati davrida Respublikaning ijtimoiy sohasiga, shuningdek, sog'liqni saqlashga yetarli miqdorda mablag' ajratilmaganligi natijasida tibbiyot xizmati qoniqarli xolda emas edi. Ittifoqda iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi va sog'liqni saqlash masalalariga e'tiborning susayishi, davlat byudjetida sog'liqni saqlash ulushining kamayishiga, uning moddiy-texnik bazasini yangilash, yangi dorilar va davolash usullarini o'zlashtirish jarayonlarining pasayishiga olib keldi. Ko'pgina kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar va dorixonalar ixtisoslashmagan binolarda joylashib, asosiy qismida kanalizatsiya va issiq suv yo'q edi. Bu holatlar ayniqsa, qishloq joylarda nihoyatda achinarli tarzda edi. Respublikamizda sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'ning kamligi kasalxona va poliklinikalarни zamonaviy texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1980. yillarda shifoxonalardagi o'rinnar sonini oshirishga zo'r berilib, har bir o'rinni uskunalar bilan ta'minlashga

...da hisobida to'rt ming so'm satflangan bo'lsa, bu ko'rsatkich Surxondaryo obyektiida 10 ming so'mm tashkil etdi. Ilmiy tadqiqotlar davrida surxondaryo yohasida ekologik ahvolning nihoyat darajada yomonlash-
moddalar ko'plab tarixiy manbalar asosida ilmiy jihatdan tahlil qilishga
to'g'ri keldi. Tojikiston Respublikasining Tursunzoda shahri hududida 1975
yilda ushbu tushshirilgan Alyuminiy zavodidan chiqayotgan zaharli kimyoviy
moddalar aholining sog'liq va salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganligi
antiplandi.

Biroq Sobiq Sovet davrida Alyuminiy zavodning zaharli kimyoviy
moddalar tarqatayotganligi, Surxondaryo viloyati shimoliy tumanlarda
aholining ushbu zahardan ko'plab kasalliklar paydo bo'lib, ayniqsa
bolalarning nogiron tug'ilayotganligi hususida ko'plab takliflar, arizalar va
shikoyatlar tushishiga qaramasdan, ushbu salbiy holatni oldini olish
masalasida biron bir jiddiy chora ko'rinnaganligi asosli tarzda tarixiy
jihatdan ilmiy tahlil etildi. Jumladan, 1980-1984 yillarda Sariosiyo tumanida
tug'mu kasallar soni 200 foizga oshib, tug'ilgan 7 ming boladan, 227 nafari
tug'mu kasal bo'lib, Sariosiyoda Alyuminiy zavodini zaharli kimyoviy
moddalarni tarqalishi oqibatida ob-havoni zaharlanish darajasi 4,8 baravar,
bolalar kasallanishi 2,8 baravar, kattalarning kasallanishi 2,2 baravar,
go'daklarning sut tishi chirishi kasalligi 2 baravar, yengil fegozora kasallikka
chalinishi 8,8 baravar o'sganligi qayd etildi¹⁸.

Masalan, viloyatning ayrim joylaridagi aholining ijtimoiy sharoiti
og'irligi tufayli ko'plab yuzaga kelayotgan sil kasalligiga qarshi kurash
qoniqarli darajada uyuşhtirilmagan. Natijada bu turdag'i kasalliklarning faqat
51 foizni aniqlash imkoniyati bo'lgan¹⁹. Boshqa turdag'i o'tkir yuqumli
kasalliklar borasida ham viloyat og'ir ahvolda bo'lib, 1990 yilda viloyat
bo'yicha ichterlama kasalligi qariyb 2,5 martaga, qizamiq 26 foizga, difteriya
va quturish kasalliklari bir necha baravarga oshgan²⁰.

Buning boisi, hatto kasalxonalar sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash
borasida ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Viloyat bo'yicha jami
kasalxonalar, ambulatoriya va poliklinikalarning faqat 55 foizda toza
ichimlik suvi bor edi. Bu boradagi eng yomon ahvol Qiziriqda (27 foiz),
Bandixon tumanida (22 foiz), Muzrabetda (38 foiz) bo'ldi²¹. Bu esa, o'z
navbatida, nafaqat yuqumli kasalliklar, balki boshqa turdag'i kasalliklarning
ham ko'payishiga, buning natijasida, o'lim ko'rsatkichining ortib borishiga
va, ayniqsa, ona va bolalar o'limining avj olishiga katta zamin yaratadi.

Tibbiyat sohasida yuqorida qayd etilgan hamda boshqa nuqson va
kamchiliklarga barham berish maqsadida, viloyat hokimining «Viloyat
sog'liqni saqlash ishlarining samaradorligini oshirish hamda tibbiy yordam

¹⁸“Yosh Leninch”, 1990 yil, 16 mart, 2-varaq.

¹⁹SVH JA. Viloyat Kengashining XXI/XIII sessiyasi materiallari. - 1992. - 20 yanvar. - B. 17.

²⁰SVH JA. Viloyat Kengashining XXI/XIV sessiyasi materiallari. - 1993. - 2 fevral. - B. 21.

²¹SVH JA. Viloyat Kengashining XXI/XIII sessiyasi materiallari. - 1993. - 15 may. - B. 13.

sifatini yaxshilash to'g'risida»gi 1993 yil 27 fevralb qarori asosida bu sohada bir qator dolzarb vazifalar belgilandi²². Unga asosan, aholining sog'lig'ini saqlash borasida miqdor ortidan quvish emas, balki tibbiy xizmatning pirovard natijasiga qarab harakat qilish; ambulatoriya-poliklinika muassasalarining moddiy-texnikaviy zaminini mustahkamlab, ularning nufuzini oshirish; aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarga chalinishning oldini olish maqsadida, dispanserizatsiya sifatini har taraflama yaxshilash; aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida, barcha mutasaddi idoralar xodimlarining ko'magida tadbirlar ishlab chiqish; eng muhimmi, bu sohada mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimining sifatini oshirish kabi vazifalar belgilandi.

Tojikiston Respublikasining Alyuminiy zavodi tarqatayotgan zaharli moddalarning yildan-yilga ko'payib borishi natijasida, Uzun, Sariosiyo, Denov tumanlarida aholining kasallanishi ko'payib borsada, ushbu kasallikni oldini olish hamda davolash uchun zarur tibbiyot asbob-uskunalarini va dordarmonlarini yetkazib berishga sobiq Sovet hukumati amaliy ishlarni bajarish o'rniiga ushbu masalani "sirli" gicha saqlab qolishga doimiy tarzda harakat qildi. Natijada Surxondaryo viloyatida aholini umumiylashtirish nihoyatda ko'payib, xalqning noroziligiga sabab bo'ldi. 1988 yil Sariosiyo rayonida 8 ming bola tug'ilgan bo'lsa, shuning 500 tasi tug'ma kasal, 82 tasi o'lik bola tug'ilganligi qayd etilgan. Shuningdek "Aybdor yigit", "Aybdor kelinchak" tushunchasi paydo bo'lib, yosh avlodning jismoni va ruhiy jihatdan o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumotlar asosida tarixiy-ilmiy tahlil Sariosiyo tumanida ushbu kimyoviy zararli ob-havo ta'sirida 1980 yilda 11 nafar, 1989 yilda 30 nafar bola nogiron holda tug'ildi. SHuningdek 1980 yil 549 ta tug'ilgan bolaning 15 nafari o'lik, 1989 yil 446 nafar bola sepsiz, chala shomollagan nogiron holda 134 nafar bola chala tug'ildi. Ushbu Alyuminiy zavodini to'xtatish, zaharli kimyoviy moddalarni oldini olish bo'yicha mutaxassislar fitorli vodorod konsentratsiya, har bir metr havoda 0,004 milligramni tashkil etganligini va Alyuminiy zavodi 700 ming kishi vashayotgan hududga xavf solayotganligi haqida ma'lumotni taqdim etildi.

Mustaqillikni dastlabki davridan Alyuminiy zavodi taraqatayotgan zaharli kimyoviy moddalarni tarqatishni to'xtatish, uni oldini olish hamda Surxon vohasi aholisini ushbu zararli gazdan himoya qilish masalasiga jiddiy kirishildi. Tojikiston alyuminiy zavodining ta'siri tufayli Surxondaryo viloyatidagi Sariosiyo, Uzun, Denov, Oltinsoy va Sho'rchi tumanlarida ekologik muhit inson salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Alyuminiy zavodi ta'sir qiladigan hududda 600 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. '005 yilning 6 oyi davomida (yanvar-iyuny) 32232 ta tug'ish yoshidagi xutun qizlardan 22050 nafari, ya'ni 67,5 foizda turli xil ekstrogenital kasalliklari aniqlandi. Aniqlangan kasalliklalar asosiy qismini kam qonlik-

27,1 foiz, 5,3 foizda burak va endokrin tizimida, 4,3 foizda ovqat qili²³ organlari kasalliklari va boshqa kasalliklar bilan og'iganlar 5,3 foizni tashkil qildi. Uzun tumanida 26 nafar ayolda xomilaning bevaqt tushish xolat aniqlandi²³. Ushbu ekologik vaziyatni yaxshilash hamda aholi sog'lig'i saqlash, turli kasalliklarn olibini olish masalasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar amalga oshirilib, endokrin, nafas olish azolari kasalligi, ayollar va bolalarda immunitet tanqisligi oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 avgustdagい 282 farmoni asosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar amalga oshirildi. 2005 yilda yuqorida qayd etilgan tumanlardagi aholi to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, qo'shimcha 20 mln so'mlik dori-darmonlar bilan ta'minlandi.

²³Xurramov SH.X., O'tashev SH.P. Talofat. –Toshkent, 2007. “Niyozov A”, 18 varaq.

OILA TARIXIDA IJTIMOIY HAYOTNING AKS ETISHI

*Adhamjon Ashirov,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, tarix fanlari
doktori, professor*

Oila nima? Ijtimoiy hodisa sifatida nimani anglatadi? Birgina oila degan oddiy so'zda xilma-xil ma'no bor.

Oila ijtimoiy hayotni ravnaq toptiruvchi eng asosiy milliy istiqlol tushunchasini insonlar qalbi va ongiga singdirishda oilaning o'z o'rni va nufuzi bor. O'zbek oilasining o'ziga xosligi, fayzu-barakotga boyligi unda unib o'sgan farzandlarning komil inson bo'lib voyaga yetishi, xalqimizning turmush tarzi tarixidagi ma'naviy merosi, milliy qadriyatları bilan bog'liq holda shakllanib kelgan.

Besh jiddlik «O'zbek tilining izohli lug'ati» uchinchi kitobida bu so'zning arabchaligi ta'kidlanib, uning besh ma'nosini farqlanadi. Dastlabki va bosh ma'nosini: «Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlardan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonardon». Ikkinchisi – ko'chma ma'noda: «Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko'p kishilar, xalqlar, mamlakatlar». Uchinchi ma'nosini: «O'simliklar va hayvonlar sistemasida tuzilishi jihatdan bir-biriga o'xshash, kelib chiqish jihatdan ham o'zaro yaqin bir necha urug'ni o'z ichiga olgan guruh: Dukkaklilar oilasi. O'rdak tumshuqlilar oilasi». To'rtinchi ma'nosini: «Qardosh tillar guruhi: Oltoy tillar oilasi. Som-xom tillar oilasi». Beshinchi ma'nosini jonli so'zlashuv tilida: «Rafiqo, xotin. Oilam mакtabda o'qituvchi»¹. Bu jihatdan M.Fasmerning «Rus tilining etimologik lug'ati»da bu so'zga berilgan izohi ajralib turadi. U «semya» so'zi ukraincha «xotin» ma'nosini anglatuvchi «Samtsa» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aslida «urg'ochi – samets» ma'nosini anglatganini, nihoyat er va xotin qo'shiluvi asosidagi birlashuvini anglata boshlaganini qayd etadi². Arabchada xotin «zavja» deyilib, uning erkak bilan qo'shiluvidan bola-chaqa dunyoga kelib, ayolmandlik yuzaga kelishi oqibatida, oila shakllangan. Oilaning ibridoiy ko'rinishlari sanaluvchi qon-qardosh oila, undan keyingi bosqichda esa punual oila, ya'ni bir guruhga mansub opa-singillarning boshqa jamoa guruhidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlab oiladan iborat demografik birliknigina anglatgan. Kishilik jamiyatining ilk ibridoiy bosqichidagi poligam oiladan monogam oilaga o'tish jarayonida yuzaga kelgan endogamik nikoh, ya'ni ibridoiy urug'chilik tuzumida qabila ichidagi guruhiy nikohdan bir qabilaga mansub erkak va ayol nikohidan chetlanish, aniqrog'i, o'zga qabila qizi bilan nikohlanishga asoslangan ekzogamik nikohga o'tish insoniyatda nomus tuyg'usini anglash naqadar uzoq davom etgan jarayon bo'lganini ko'rsatadi.

«Oilaning kelib chiqishi ibridoiy jamoa tuzumining avvalida tartibsiz jinsiy aloqalar hukm surgan va u vaqtida oila hali bo'lмаган. Bu aloqalar o'rnini guruhiy nikoh egallagan, so'ngra esa mazkur jamiyat oilasining asosiy

¹O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildi.-Toshkent: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007.-97 bet.

² Фаслир Ж. Этнологический словарь русского языка:- Том 3. Москва. "Прогресс", 1971.800-бет.

formasi sifatida juft oila paydo bo'lgan, deb hisoblashmoqda mutaxassislar.³ Bu oila er va xotin urug'i bazasida (otalik davri, onalik davri) yashagan va qarindoshlikni ota tomondan ham, ona tomondan ham hisoblab borgan, degan xulosaga olib keldi». ³ Bu qarash qay bir nuqtada Odam Ato va Momo Havolarning ilk oila bunyodkorlari bo'lganliklariga oid islomiy aqidalarga hamohang fikr uyg'otadi. Biroq «jamoa va urug'ning rivojlanishi va buzilishi juft oilaning avvalida kattakon ota (patriarxal) oilasiga, keyin esa monogamiyaga (yakka nikohlikka) asoslangan kichikroq ota oilasiga ham aylanishini belgilagan. Monogamianing qaror topishi bilan ayollar erkaklar tomonidan asoratga olingan. Ayol asta-sekin o'z eri – xo'jayininining mulkiga, quliga aylana bordi. Boylik orttirish va uni qonuniy vorislarga berish oilaning asosiy maqsadi bo'lib qoladi». ⁴ Demak, oilaning paydo bo'lishida onalik muhim rol o'ynagan. Xuddi shu mantiqqa asoslanib, oila so'zi yuqoridagi izohda ko'ringanidek, xilma-xil ma'nolar kasb ega borgan. Oila tarixiy kategoriya sifatida, qomusiy adabiyotlarda qayd etilganidek, «kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, bola tug'ish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onha va bolalar o'rtasidagi mehr-muhabbat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi» bo'lib, uning xilmaxil shakllari va ko'p qirrali vazifalari mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga, jamiyat ma'naviyati va madaniy taraqqiyotining darajasiga bog'liq holda yuzaga kelgan.⁵

Aslida oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi. Bir erkakning o'zi yoki bir ayloning o'zi oila bo'la olmaydi. Oila - avvalo, voyaga yetgan o'g'lon va qizning biologik-fiziologik ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi birligidir. Garchi ibtidoi oila faqat shu maqsadda yuzaga kelgan bo'lsada, davrlar osha bu maqsad o'zgarib borib, nasl qoldirish, surriyotni davom ettirish asosida, insoniyatning davomiyligini ta'minlashdan iborat ijtimoiy ma'noga aylandi. Natijada qiz va yigit o'rtasidagi jinsiy munosabat o'z-o'zidan ularning bir-birlarini tanlab, sevib-sevilish, ichki ma'naviy ehtiyoj zamiriga aylanadi.

Tabiiyki, oila eru xotindan tashqari yana erving ota-onasi, ya'ni qaynota va qaynonalar, farzandlar, uka va singillardan iborat ko'p bo'g'inli xonodon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega bo'lgan holda shu oilaning ichki intizomiga bo'y sunib yashaydi. Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bo'lib, bunda minglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbatini sinovdan o'tadi. Natijada oila tarixida ijtimoiy xayotga moslashuv yuzaga keladi. Oilaviy xayot kurish davomida sinov jarayonida ular bir-birlarini chuqurroq tushuna boradi. Bir-birlarini qadrlashni o'rniga qo'yadigan bo'ladi. Er-xotin uzoq vaqt umrguzaronlik qilib bir-birlariga nisbatan kechirimli bo'lib, xayot kechiradilar.

Er – otaga, xotin – onaga aylanadi, farzandlarni tarbiyalab elga qo'shadi,

³ Falsafa lug'ati.-Toshkent: O'zbekiston, 1973.-355-bet.

⁴ Falsafa lug'ati.-Toshkent: O'zbekiston, 1973.-355-bet.

⁵ Safarov O., Afzalov M. Oila ma'naviyati.-Toshkent: Ma'naviyat, 2009.-17-bet.

orzu-havas ko'radi. Shu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi. Jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi. Bi xotin o'rtasidagi totuvlik, o'zaro xamkorlikni amalga oshirilishi farzandlarning ahloqli tarbiyali bo'lib voyaga yetkazadi.

Oila a'zolarining ijtimoiy xayotga moslashib umrguzaronlik qilishlarida ajdoddardan qolgan pandnomalar, mlliy qadriyatlarini puxta bilishlariga ham bog'liq. Jamiyatimizning negizi hisoblangan ma'naviy barkamollikni ta'minlashda sharqona udum va marosimlarni mukammal holda yoshlar qalb shuuriga singdirish ham muhim ahamiyatga ega. Aynan shu jihatlar oila jamiyatning negizi sifatida rivojlanishning asosiy omili sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda oila baxti, eng avvalo oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muxitning ijobiyligi, ota onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatlarining yuksakligidir. Ma'naviy tarbiya asosini farzandlarning har tomonlama yetuk, yurtsevar, vatanparvar, barkamol, komillikka intiluvchi inson bo'lib yetishlari bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida, oilaning barkamolligi, bardavomiyligini belgilovchi asosiy jihatlaridan hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekistonimizda istiqomat qilayotgan oilalar jamiyatimizning asosini tashkil qiladilar. Hozirgi kunda farovon hayot kechirayotgan oilalar o'z go'shalarini azizu mukarram bo'lib, oila sha'nini saqlab, komil farzandlarni voyaga yetkazmoqdalar. Kelajak sari dadil qadam qo'yishda oila "yo'lchi yulduz"dir. Oilada ota-onal birga bergan ta'lim tarbiya farzandlarni nurafshon yo'lga boshlaydi. Ularning istiqbolini porloq bo'lishiga asos soladi. Shu jihatdan oila ijtimoiy hayot ko'zgusi hayotimiz asosidir.

SURXON VOHASIDA BOG'DORCHILIK

*E. O. Qobilov,
Termiz Davlat Universiteti, professor*

Surxon vohasi tog'oldi va tog'larning quyi yaruslarida sug'oriladigan yerlar kamliyi va lalmi ekinlar ekish uchun ham noqulay bo'lganligi sababli mazkur hududda yashovchi o'troq aholi bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar.

XIX asrning 40-yillarda Buxoroda bo'lgan rus sayohi N. V. Xanikov qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bog'dorchilikdir deb ta'kidlaydi. Bog'larida kumushrang terakdan boshqa bironqa mevasiz daraxtni uchratmadim. Bog'larda uzum, anor, anjir, o'rik, olma, nok, olcha, jiyya kabi daraxtlar o'sadi. Surxon vohasi bekliklarida ham bog'dorchilikka alohida e'tibor berilgan. Dengiz sathidan 1700 metr balandlikda joylashgan Sangardak qishlog'i ham bog'dorchilikda katta tajribaga ega bo'lgan. Bahorning kelishi bilan sangardakliklar qishloqni tark etib, o'z chor-bog'lariga ko'chib o'tadilar. Bunday bog'lar jumlasiga Totumdara, Navxunak, Xo'jaipesh, Oqqon, Tovkon, Bog'xoyibolo, Cholog'on, Yusuf, Terak, Katta ko'l, Kichik ko'l, Abzayid, Archamozor kabilarni kiritish mumkin.

Bu bog'larda olma yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Buxoro amirligi bog'larida olma daraxti parvarishiga e'tibor qaratilib, ularning navi ko'paytirib borilgan. N. V. Xanikov Buxoro bog'larida olmaning sakkiz turini sanab o'tadi: talxi sib – katta dumaloq; jau – nozik, kichkina sariq,

shirin; hoji-xoni – musht kattaligida, oq; raxsh – oq va qizil; sibi tursh – asosan 3 nav, sariq; mushkin sib – musht kattaligida, xushbo'y sariq; max-tobi-sibi – tursh kattaligida, oq; sibi surx – qizil, unchalik katta emas⁶. Sangardak bog'larida olmaning o'nlab turlari mavjud. Xuboni, boyqori olma (erta pishar), javpazak (arpa pishig'ida yetiladi), qirmizak (payvandi, erta pishari), bo'rivoy (yozgi), xosakampir (ertapishar, qizil), samarqandi (qishki payvandi). Qolaversa, olmurutning ham bir necha navlari bo'lgan. Jumladan, husayni murut, toshmurut, yovvoyimurut, to'rmurut, chilgi murut, yozmurut va h. k. Bu yerda olmadan yuqori hosil olingan. Yaxshi hosilga kirgan olma 350-400 kg gacha meva bergen.

Denovbekligiga qarashli Dashnobod qishlog'i aholisi yetishirilgan anorlari bilan nafaqat Buxoro amirligida, balki O'rta Osiyoda ham mashhur bo'lgan. Dashnobod anorlari haqida Mayev shunday yozadi: "Dashnobod katta va boy qishloq, u o'zining shirin ta'mli anorlari bilan mashhur. Dashnobod anorlari butun Buxoro xonligi bo'ylab tarqaladi. U bilan faqat yirik va shirin Shahrisabz anorlari tenglasha oladi"⁸. Shahrisabz anorlari danaksiz bo'lib, ayniqsa uning "bedona" turi mashhur bo'lgan⁹. Buxoro amirligidagi bog'dorchilikning muhim tarmoqlaridan biri uzumchilikdir. Buxoroda bog' termini uzumzorni anglatadi. Uzumzorlarda uzumning xalimi, xalimi safid, husayni, shakar angur, kishmish, jaus, masko, anguri safid, bihishti, saxibi, toypi, shibirg'oni, anguri siyah kabi 13 turi parvarishlanadi.

Surxon vohasi bekliklarining tog' va tog'oldi qishloqlarida ham uzumchilikka alohida e'tibor berilgan. Hisor tog' etaklaridagi Denovbekligining Hovuz, Sina, Vaxshuvor, Boysun bekligidagi Pasurxi, Sherobod bekligidagi Qorabog' Zarabog', Novbog' qishloqlari uzumchilikning markazi sifatida mashhur bo'lgan.

Tog'li aholi bog'-rog'larni xush ko'rgani sababli ularning qishloqlari nomiga bog' ham qo'shib ishlatalig'an: Qorabog', Zarabog', Novbog' va h. k. Bu qishloqlarda uzumning voha iqlimiga mos turlari yetishtirilgan. Husayni, oq kishmishi, qora kishmishi, nahol, qora baxtiyori, allaki, toypi, sultoni, avaq, shuvurg'oni, kampir uzum, beshqadoq, sopidak, qizil Surxon, gov, Surxon, oq gov Surxon, chilgi, ot bag'ri surxak, mildir uzum, dil kaptar, eshvoy, sabzak, qanyorug', tuyatish, oboki, kelinbarmoq va h. k. Hovuz, Vaxshuvor va Sina qishloqlari dehqonlari mayizlarni Qorliq, Denov va Yurchidan tashqari, Boysunga, hatto Ko'lobga, gazarakliklar esa Qorabog', Hisor, Qorateginga olib borib sotishgan. Hattoki Rossiya bozorlarida ham mayiz o'z xaridoriga ega bo'lgan. Mayizdan kiyimliklar va chorva mollari qatori kelin qalini sifatida ham foydalanilgan.

⁶ Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 129 – 130.

⁷ Dala yozuvlari. Sarosiyu tумани Sangardak qishlog'i, 2001 yil.

⁸ Маев Н. Очерки Бухарского ханства //Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. – СПб., 1879. – С. 186 – 187.

⁹ Agzamova G. A. Buxoro amirligi: qishloq xo'jaligi va uning ayrim xususiyatlari //O'zbekiston dehqonchilik madaniyatining ildizlari va zamonaviy jarayonlar. Akademik Yah'yo G'ulomov nomidagi Respublika ilmiy seminarining materiallari. – Toshkent. 2006. – B. 94.

Buxoro amirligi Sharqiy hududi tabiiy o'simliklarga boy bo'lmasada¹⁰, Denov va Boysun bekliklarining Bobotog' etaklarida archa va pistazor o'rmonlar bir necha kilometrga cho'zilgan¹¹. Pista tog' xalqining asosiy daromad manbalaridan biri sanalgan, pista hosili yaxshi bo'lgan yillari 4 – 5 pudgacha pista terish mumkin edi. Savdogarlar pistaning har funtini 7 tiyindan sotib olib, chet davlatlarga, xususan, Rossiya bozorlariga olib borib katta foyda ko'rishgan. Odessada 1 funt pista 60 tiyin – 1 rublacha sotilgan.

Umuman, Buxoro amirligi qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i sanalgan bog'dorchilik mahsulotlari eksportda alohida o'ringa tutgan. N. Xan'yikov bu haqida yozadi: "Abrikos quritilib, o'rik nomi bilan Rossiyaga jo'natalidi. 1 nav o'rikning bozor bahosi boshida 8 tanga, keyin har botmoni 4 tangadan sotiladi. Rossiyaga o'rik boshida har botmoni 15 tangadan, keyin 1 tillagacha sotiladi"¹².

Xullas, kichik tog' irmoqlari, soy, koriz suvlari yordamida dehqonchilik qilinadigan yerlarda bog'dorchilik sohasida katta tajriba to'plangan.

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG'ONA VODIYSIDA YOG'-MOY SANOATINING VUJUDGA KELISHI

*A.Sharafiddinov,
Far DU, tarix fanlari nomzodi, dotsent*

*D.Umrzaqov,
Far DU, o'qituvchisi*

Podsho Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining asosiy sabablaridan biri – o'zining to'qimachilik sanoatining paxta xom ashysi bilan ta'minlashdan iborat edi. Shu sababli ham XIX asrning 70-yillaridan boshlab tobora o'sib borayotgan sanoatning paxtaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida nafaqat arzon, balki sifatli va uzuksiz ravishda xom ashyo bilan ta'minlash maqsadida Turkistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan choralarни amalga oshirib bordi. Bu sohada, ayniqsa, Farg'ona vodiysida muhim ishlar qilindi. O'zbek paxtasini rus to'qimachilik sanoatining talablariga moslashtirish va daromadni oshirishni ko'zlab, Amerika paxta navini o'lkada iqlimlashtirishga harakat qilganlar.

Farg'ona vodiysida, 1879 yilda birinchi marta yangi navlar Namangan uyezdining Chust qishlog'ida ekip ko'rildi. Bu yerda ko'rgazmali tajriba uchastkasi tashkil qilindi. Amerika navlarini rivojlantirishda tashkil etilgan urug'chilik va ko'rgazmali tajriba uchastkalari katta rol o'ynadi. 1880-1900 yillar oralig'ida Namangan uyezdida Ko'l, Chust, Qizil ravot, Andijon uyezdida Jalolobod, Oyim, Amirkbek, Marg'ilon uyezdida Kirmachi, Arab-mozor, Qo'qon uyezdida Ultarma kabi agronomiya tajriba plantatsiyalari

¹⁰ Туркестанский сборник. Т. 404. – С. 10.

¹¹ О'зР МДА. 2-jamg'arma, 1-ro'yxat, 351-ish, 2-varaqning orqa tomoni.

¹² Ханыков. Н. В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 128.

tashkil etilgan edi¹³.

Ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan chora-tadbirlar Farg'ona vodiysida paxtachlikni o'sishiga olib keldi.

Natijada, Farg'ona vodiysi XIX asrning 90-yillari oxirlariga kelib Rossiyaning assosiy paxta bazasiga aylandi. U Turkiston viloyatlari ichida Rossiyaga paxta va xom-ashyo yetkazib berishda salmoqli o'rinni egalladi.

Xullas, Farg'onaning yalpi paxta xom-ashyosi 10 yil ichida Sirdaryo va Kaspiy orti viloyatlariga nisbatan 52 marta, Samarcand viloyatiga nisbatan 21 marta o'sgan. XIX asr oxirlarida Rossiyaning to'qimachilik sanoatiga o'rtacha har yili 19800000 pud paxta sarflangan bo'lsa, shundan 8800000 pud paxtani Turkiston o'lkasi yetkazib berardi¹⁴. Farg'ona vodiysi esa Turkiston paxtasining 75-80 foizini tashkil etgan. Paxtachilikni eng rivojlangan davri 1915 yilga to'g'ri keladi. Bu vaqtida paxta barcha yaroqli yerlarga ekilgan. Boshqa ekinlarga solishtirganda paxtaning tutgan o'mi yanada oydinalashadi: bug'doy 317762, sholi 14117, tariq 9626, makkajo'xori 46961, mosh 1951, bog'dorchilik ekinlari 13391, arpa 40810, jo'xori 41084, suli 2410, beda 63053, kanop va kunjut 2790 desyatina yerga ekilgan. Demak, paxta sug'oriladigan umumiy yer maydonining yarmiga yaqin qismini qoplagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Farg'ona vodiysi o'lkada eng ko'p paxta yetishtiradigan hudud hisoblangan. Paxta yetishtirishning yildan yilga ortib borishi paxta tozalash va yog'-moy sanoatini shakllanishi va ko'payib borishiga omil bo'ldi.

Ma'lumki, mahalliy aholi qadim davrlardan boshlab zig'ir, kunjut, ko'knori, kanop hamda chigitdan moyjuvoz yordamida yog'ni ajratib olish bilan shug'ullanib kelgan. Bu juda oddiy va mashaqqatli mehnat talab qilivchi usul ot yoki tuya vositasida bajarilar edi. Moyjuvozda 14 soat mobaynida 3 pud chigitdan 20 qadoq yog' olinib, ketgan harajat kuniga 1,20 tiyinni tashkil etgan. Boshqacharoq aytganda, bir pud yog' tayyorlash uchun 2,40 tiyin sarflangan. Muhalliy usulda yog' ishlab chiqarish keng tarqalib, bu ish bilan minglab kishilar band bo'lishgan. 1894 yilda Farg'ona vodiysida 2911 ta moyjuvozda 226725 so'mlik mahsulot tayyorlangan¹⁵.

Biroq, XIX asrning 80-90 yillariga kelib, ko'plab paxta tozalash zavodlarining qurilishi, buning natijasida chigitning to'planishi yog' zavodlarining shakllanishiga olib keldi. Paxta tozalash sanoati va paxta savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalar paxta yog'idan olinadigan daromadni ham qo'lga kiritish maqsadida yog' zavodlari qura boshladilar.

Tadbirkor S.I.Laxtin tomonidan birinchi yog' zavodi Qo'qon shahrida ishga tushirildi¹⁶. Zavod sekin-asta kengayib, texnik jihatdan jihozlanib borildi. 1888 yilga kelib zavodda ikkita gidravlik press, bitta kunjara maydalaydigan mashina mavjud bo'lib, yillik ishlab chiqarilgan mahsulot

¹³ O'zRDA. 19-fond. 1-ro'yxat. 92-ish. 12-varaq.

¹⁴ Азиатская Россия.-Т.2. СПБ. 1914. С.341.

¹⁵ Ziyoev H. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida.-Toshkent: Sharq, 2006.-B.235.

¹⁶ O'zRDA. 47-fond, 1-ro'yxat, 75-ish, 308-varaq.

qiymati 6000 so'mni tashkil etardi¹⁷.

Sanoat yo'li bilan tayyorlangan yog'ni mahalliy xalq tomonidan xarid qilish juda sustkashlik bilan ketdi. Chunki sovuq usulda (moyjuvozda) tayyorlangan yog'ni ist'emol qilib o'rgangan kishilar uchun issiq atmosfera bosimida ishlab chiqarilgan yog'ning qo'lansa hidi bo'lganligi sababidan xarid qilinmay kelindi. Shu sababdan dastlabki yillarda yog'-moy korxonalarini qurish sohasida siljish, rivojlanish yuz bermadi.

1901 yilda moskvalik savdogar Konstantin Solovyov Chust shahrida o'ziga qarashli paxta tozalovchi zavodda chigitdan yog' ishlab chiqarish uchun maxsus mashinalar o'rnatdi¹⁸. Shuningdek, 1901 yilda Besharaqdagi V.G.Omelchuk va Marg'ilon uyezdida Ibrohim Sarimsoqov yog' zavodi ochdi¹⁹.

1902 yilda Namanganda K.M.Solovyov, Zigel Reynstagen savdo uyi tomonidan 2 ta yog' zavodi ishga tushirildi. Oqibatda bu 2 ta zavod 14 mln so'm mablag' bilan aktsiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

1907 yilga kelib, Andijonda "K.M.Solovyov i K" firmasi tomonidan o'llkada yirik eng yangi texnika vositalari bilan jihozlangan paxta tozalovchi va yog' ishlab chiqaruvchi zavod qurildi. Zavod Andijon stantsiyasi yaqiniga joylashgan bo'lib, temir yo'l shoxobchasi orqali stantsiya bilan bog'langan hamda ishlab chiqarilgan yog'ni uzoq masofalarga eltish uchun 150 shaxsiy vagon – tsisternalarga ega bo'lgan²⁰.

Demak, aytish mumkinki, XX asr bosqlariga kelib yog' ishlab chiqarish sanoatning yirik tarmog'iga aylanib bordi. 1906 yilda Farg'ona yog' ishlab chiqarish shirkati tomonidan bitta press va 14 plita bilan jihozlangan zavod ochildi. Qo'qonda R.Sh.Potelyankovga qarashli zavod ishlay boshladi. Shuningdek, M.Mirmuhammedov, A.A.Azizxo'jayevlarning zavodlari qurildi. 1907 yilda Andijon shahrining Tilla-xo'ja kvartalida "Farg'ona shirkati" firmasi tomonidan ikkinchi yog' zavodi qurildi²¹.

Chunonchi, "K.M.Solovyov i K" firmasiga qarashli paxta tozalash, yog' zavodi texnik va jihozlanish jihatidan boshqalarga nisbatan durusti hisoblangan. Paxta zavodida 8 djun mashinasi ishlab, bir sutkada 5600 pud paxtani qayta ishlagan hamda 10 ta yog' ishlab chiqaruvchi mashina sutkasiga 1800 pudgacha yog' ishlab chiqargan. Zavod to'la elektr energiyasi bilan yoritilgan. Buning uchun zavod qoshida 3600 amper quvvatiga ega bo'lgan maxsus elektr stantsiyasi qurilgan. Shunisi xarakterlik, zavodda hamma qulayliklarga ega bo'lgan (slesarlilik, tokarlilik, temirchilik, degezlik) ustaxonalarini bo'lib, barcha ta'mirlash ishlari zavodning o'zida bajarilgan²².

1911 yilga kelib, viloyatda ishlab turgan 14 ta yog' zavodida 50

¹⁷ Sankt-Peterburg. MDTA. 1396-fond. 1-ro'yxat. 71-ish. 50-varaq.

¹⁸ O'zRDA. 1-fond. 12-ro'yxat. 396-ish. 4-varaq.

¹⁹ Zioyev H. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. Toshkent: Sharq, 2006. B. 237.

²⁰ Путеводитель по Туркестану и железным дорогам Средне Азиатской и Ташкентской. СПБ. 1912. С. 155.

²¹ Копотко С.Р. Туркестанский край. II-е издание. Ташкент. 1912. С. 155.

²² Sharafiddinov A. XIX asr oxiri – XX asr bosqlarida O'zbekiston sanoati tarixidan (Farg'ona oblasti materiallari asosida) //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. -1978. -B.42.

gidravlik press kuchi bilan 12000000 pud chigitdan 1800000 pud yog' 4000000 pud kunjara, 600000 pud sheluxa va 150000 pud linter (paxt chiqindisi) olingan. Chigitdan oziq-ovqatga ishlatalidigan yog' bilan bi qatorda sovun, margarin va chiroq yoqishga sarflanadigan "kerosin" olingan Sheluxa esa qoramollar uchun to'yimli ozuqa hisoblangan, uning tolasidár qog'oz ham ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, u o'tin o'mida harr ishlataligani. Chigit yog'ini kunjut, danak, qovun urug'i, yong'oq, kungaboqai va boshqa shunga o'xshash narsalar bilan qorishtirilgan holda shifobaxsh yog' tayyorlangan²³.

Shunday qilib, paxtachilikning rivojlanishi, olingan hosilni ortishi Turkiston o'lkasida, shuningdek, asosiy paxta yetishtiruvchi huduc hisoblangan Farg'ona vodiyisida paxta tozalash hamda yog'-moy sanoatin shakllanishiga zamin yaratdi.

OTASHQALB TARAQQIYPARVAR

Tohirjon Qozoqov

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasini katta o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

Farg'onalik yana bir otashqalb taraqqiyparvar Ashurali Zohiriy-Muhammadzohirovdir (1885-1937). U 1885 yilda Qo'qon shahar atrofidagi Oyim qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qondagi Madalixon madrasasida boshlang'ich ta'limni olib, 1907 yilning mart oyidan Qo'qon rus-tuzem maktabida o'zbek tili va adabiyotidan dars bera boshlaydi²⁴.

Zohiriy 1910 yildan boshlab gazetalarda o'z asarlari, zamon ruhiga mos maqlolari bilan qatnasha boshladi. Uning bu maqola va asarlari o'zbek tili masalalari, mакtab hayoti, o'quv-tarbiyaviy ishlarga bag'ishlanib, tut mohiyati bilan xalqqa maorif tarqatish ruhida yozilgan. Zohiriyning bi asarlari «Sadoyi Farg'ona», «Sadoyi Turkiston» va «Turkiston viloyatinining gazeti»da chiqib turdi. Mazkur maqlolalarning ruhiyatida kishilarda milliy va diniy imyon-e'tiqod, vatanparvarlik xislatlarini tarbiyalash g'oyasi yotar edi. Maqlolalar Zohiriy siyosiy qarashlarining ko'zgusi edi. Uning maqlolalar boshqa taraqqiyparvarlar maqlolalariga nisbatan milliylikka ko'proq urg'i berilishi bilan ham ajralib turadi. Jumladan, «Sadoyi Farg'ona» gazetasida e'lon qilingan «Ona tili» maqlolasida ma'rifatparvar kishilarni chet tillarni ham yaxshi o'zlashtirishga da'vat etgan holda, o'z ona tilini ham mukamma egallashga chaqiradi: «...qachonki o'z tilimizni yaxshilab bilmadikmu boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Shuning birla na oni bilurmiz va buni!...»²⁵.

Zohiriy o'tkir tilshunos va jurnalist, iste'dodli adabiyotshunos, bilimdo'i tarjimon, ajoyib tashkilotchi, sahovatli murabbiy bo'lgan. U o'z ona tilida tashqari arab, fors va rus tillarini ham yaxshi bilar edi. 1916 yil «Imlo» nomli

²³ Ziyoev H. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida -Toshkent: «Sharq». 2006.-B. 238

²⁴ Madaminov A., Tojiboev R., Valixonov M. Ma'rifat charog'boni //Adabiy meros.-1985.-B.28.

²⁵ Zohiriy A. Ona tili //Sadoyi Farg'ona.-1914.-13 apr.

kitob yozib, uni Qo'qondagi «G'ayrat» kutubxonasi orqali nashr ettiradi. 1925 yilda u ikki jildli «Ruscha-o'zbekcha lug'at» ni tuzdi va nashr ettirdi²⁶.

«Sadoyi Farg'ona» gazetasi idorasida Zohiriyy musahhihlik vazifasini bajardi. Bu haqida Bokuda chiqadigan «Yangi Iqbol» gazetasi quyidagicha xabar beradi: «...Muhtaram Ashurali afandi Zohiriyy va boshqa bir qancha g'ayratli ganchlarimizning g'ayrat va ijтиҳодлариila, g'azita g'oyat nafis ya milliy ihtiyojlarimiz haqqinda yozilmish maqolalari ila to'lub chiga boshladi...»²⁷.

Ma'lumki, zamonaliviy milliy kadrlar tayyorlash jadidlarning diqqat markazida turgan. Zohiriyy Turkiston xalqlari hayotidagi har bir ijobji yangilikni zo'r quvonch bilan kutib oldi. Jumladan, uning «Turkistonda birinchi yurist» nomli maqolasi Toshpo'latbek Norbo'tabekovga bag'ishlangan bo'lib, milliyligini yo'qotmagan holda, sharq va g'arb tillari, madaniyat va bilimlarining sohibi bo'lib yetishib chiqqan birgina shaxsdan naqadar faxr qilishini yashirmaydi: «...milliy, ijtimoiy ming xil ishlarmizda oning yordamig'a tayanub, iftihor etmoqimiz ila barobar tabrik etamiz...»²⁸.

Zohiriyy mustamlaka Turkistonning ayanchli ahvolini o'sha paydayoq ochiq ayta olgan dovyurak inson edi : «...biz Turkiston musulmonlari borgan sari parchalanmoqda, boylar, hunarliklar ozoyub, umuman deyarlik faqir zillatg'a tayyorlanmoqdadurlar...»²⁹.

Zohiriyy barcha jadidlar qatori xalqni ma'rifatli qilishda matbuotning o'rnni beqiyos deb bildi. Shu maqsad yo'lida 1916 yilning oxirlaridan e'tiboran, Qo'qonda milliy tildagi jarida nashrini tashkil qilish uchun harakat qila boshladi. U 1916 yilning 23 oktyabrida Farg'ona viloyat harbiy gubernatori nomiga milliy tilda jurnal chiqarishga ruxsat so'rab ariza yozadi. Ma'murlar tomonidan arizachining siyosiy qarashlari mufassal tekshiriladi. Biroq, 1917 yilning yanvar oyi o'talarigacha ham mahkamadan javob xati kelmaydi. Shundan so'ng, Zohiriyy Qo'qon uyezdi mahkamasiga borib arizani surishtiradi. Ma'lum bo'ladiki, ariza viloyat mahkamasiga yuborilmagan ekan. 1917 yilning yanvaridagina ariza viloyat mahkamasiga yuboriladi. Lekin yana javob kelmaydi. Shundan so'ng, arizachi ushbu masala yuzasidan viloyat harbiy gubernatori bilan shaxsan borib uchrashadi. Atoqli ma'rifatparvar faqat fevral inqilobidan keyingina «Yurt» deb nomlangan jaridani chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Jurnalning 1-soni 1917 yil 1 iyun kuni Qo'qon shahrida chiqadi³⁰.

Bu davrda Zohiriyy ham Turkiston hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarda qizg'in ishtirok etdi. 1917 yil aprel oyida bo'lib o'tgan o'lka musulmonlarining birinchi quriloyida Turkistonni Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida muxtor jumhuriyat bo'lishi haqidagi qarorni yoqlab chiqdi. Turkiston musulmonlari o'lka Sho'rosining Farg'ona viloyati

²⁶ Uzoqov H. Ashurali Zohiriyy //Guliston.-1968.-№10(22).-B. 28.

²⁷ Turkiston maktuboti //Yangi Iqbol.-1915.-24 noyab.

²⁸ Zohiriyy A. Turkistonda birinchi yurist //Sadoyi Farg'ona.-1914.-15 may.

²⁹ Zohiriyy A. Yordam o'nig'a bizlar bir-birimizni ezishamiz //Sadoyi Farg'ona.-1914.-8 iyun.

³⁰ Tojiboev R. Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz //Jamiyat va Boshqaruv.-1997.-№2.-B.61.

faoliyatini yo'lga qo'yishda g'ayrat ko'rsatdi³¹.

Uning siyosiy qarashlari maslak jihatidan Validiy, Munavvar qori, Obidjon Mahmudov fikrlari bilan mos tushar edi. A. Z. Validiy ham o'z xotiralarida Zohiriy bilan yaqin aloqada bo'lganligini ta'kidlab o'tadi³².

Zohiriy sovet tashkilotlarida faoliyat ko'rsatgan chog'larida ham milliy mustaqillik g'oyasidan voz kechmadi. O'z taqdirini millat taqdiri bilan uzziy bog'liqlikda ko'rди. Tarixchi olim Qahramon Rajabovning bergen ma'lumotlarga qaraganda, Zohiriy Munavvar qori, Miyon Buzruk Solihovlar bilan birga Farg'ona qo'rboşhilarining qurultoyida qatnashganlar³³.

Zohiriy sovet davrida ham o'zbek milliy pedagogikasini rivojlantiruvchi namoyandalardan biri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Atoqli ma'rifatparvar 1917 yil Qo'qonda «Dorilmuallimin» maktabini tashkil etdi. Bu maktab 1922 yilgacha o'z faoliyatini davom ettirdi. 1922 yil Farg'ona shahrida ikkinchi bosqich yangi usul maktabi tashkil etilgach, «Dorilmuallimin» bunga birlashtirilib, Pedagogika texnikumi tashkil topdi. U texnikumda o'zbek tilidan dars berdi. U 1923 yilda «Mehnat qahramoni» deb e'lon qilindi³⁴. 1930 yilgacha Pedagogika va neft texnikumlarida va «Yangi Farg'ona» gazetalarida ishladi. Zohiriy bu davrda ham xoh yashirin, xoh oshkor bo'lsin Vatan va millat istiqlolli yo'lida kurash olib bordi. 1929 yil o'z qishlog'da «Gap» deb nomlanuvchi tashkilot tuzadi va uning faoliyatini boshqaradi. Ushbu tashkilot a'zolarini sovet hukumati siyosatidan norozi bo'lgan milliy ziyojilar guruhi tashkil etar edi. «Gap» keyinchalik respublika miqyosidagi «Botir gapchilar» yashirin tashkilotiga ko'plab a'zolar yetkazib berdi.

1930 yil 30 yanvarda Ashurali Zohiriy siyosiy ayblar bilan tergovga tortildi va 10 yil muddatga qamoqqa hukm qilindi. Muddatidan ilgari qamoqdan qaytgan isyonkor ma'rifatparvarni ko'p o'tmay 1937 yil yana qamoqqa oldilar. «Uchlik» komissiyasining 1937 yil 4 dekabrdagi sud hukmi bilan otildi³⁵.

ANTIFONT NOTIQLIGINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

B.B.Ibrahimov,

NamDU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasini
o'qituvchisi

Antifont aristokrat oilasida tug'ilgan bo'lib, notiqlik san'ati bo'yicha yoshligidanoq maxsus ta'lim oladi. Shuningdek, u notiqlik san'atining antik asoslaridan birini tashkil etgan yuristpridentsiya qonunlarini ham puxta o'zlashtirgan va agar hozirgi kun talabi nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, Antifont yurist notiqlar jumlasiga, sud notiqligiga mansub yirik

³¹ Tog'ayev T., Ashurali Zohiriy-jadidchilik harakatining faol kurashchisi. O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologik muammolar.- Toshkent: Akademiya, 1998.-B.190.

³² A. Z. Validiy. Xotiralar //Sharq Yulduzi.-1993.-№7-8-9.-B.164, 170.

³³ Rajabov Q. Jadidlar-istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.-Toshkent: Eldinur, 1998.-B. 15.

³⁴ Madaminov A., Tojiboev R., Valixonov M. Ko'rsatilgan manba, B.80.

³⁵ Uzoqov H. Er kishi bitta gapiradi.-Toshkent: Cho'pon.-1996.-B.32,39.

siyodir.

Antifont aristokrat bo`lganligi tufayli siyosiy qarashlari jihatidan o`z sinfiga xayriox, mustabidlarga yaqin edi. Shuning uchun ham uning dunyoqarashi, notiqlik faoliyati biz uchun qimmatli emas. Ammo uning notiqlik mahorati, nazariy pedagogik qarashlari o`rganish ob`ekti bo`lishga sazovor.

U taxminan miloddan oldingi 480yillarda tug`ilgan. Fukididning ma`lumotlariga qaraganda 411yildagi antidemokratik to`ntarishda faol ishtirok etgan. Natijada Afinada tuzilgan «to`rt yuzlar Kengashi»ga a`zo bo`lgan. Ammo bu to`ntarish bir yilga yetar yetmas zarbaga uchrab yana demokratik kuchlar tantana qiladi, «to`rt yuzlar Kengashi» tarqatilib, shu Kengashdagi eng reaktsion unsur sifatida Antifont ham quvg`inga uchraydi. Uning molmulki musodara etilib, hatto, uyjoyining o`rnidagi tuproq ham olib chiqib tashlanadi. O`zi esa, o`ligini ham Attika tuprog`iga qo`ymaslik sharti bilan qatl etiladi.

Antifont chindan ham o`z zamonasining eng zabardast notiqlari darajasigacha ko`tarildi. Aks holda u «to`rt yuzlar Kengashi»ga a`zo bo`lib kirolmagan ham bo`lardi. Uning notiq sifatidagi ustunligi esa davlat arbobi sifatida faoliyat ko`rsatishiga ham sabab bo`lgan.

Uning professional notiqlik san`ati bilan muqum shug`ullanishi 421 — 411yillarga to`g`ri keladi. Biroq ana shu qisqa muddatli notiqlik faoliyati davomida anchagina ishlar qildi.

Antifont birinchi bo`lib nutq teketlarini nashr ettirgan notiqlar jumlasiga kiradi. Shuning uchun, uning oltmishtacha nutq matni bizgacha etib kelgan. Bu esa Antifont mahoratini o`rgaish uchun eng asosiy manbalardan biri bo`lib xizmat qiladi.

Afmaning bu ulkan notig`i shu san`atning nazariyasi bilan ham ancha izchil shug`ullanganligi ehtimoli bor. Har holda, u qo`llanma sifatida namunaviy matnlar majmuasini nashr ettiradi va bu qo`llanmada Korak va Tisiy kabi barkamol notiq va nazariyotchilarring ritorikasiga xos bo`lgan argumentatsiyalar sistemasini keltiradi. Antifontning bu xrestomatiksofistik qo`llanmasi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan risoladir.

Antifont bu qo`llanmasida barcha notiqlar va notiqlik san`ati asoslarini egallashga bel bog`laganlar uchun namuna vazifasini o`tovchi nutq matnlarini jamlaydi. Bu matnlar umuman abstrakt tarzdagi nutqlar bo`lib, saqat o`quv quroli, o`rganish uchun shablon sifatida qimmatlidir. Tematik jihatdan esa, bu nutq matnining ko`pchiligi qotillik mavzuida bo`lib, epideyktik mavzuda birorta ham nutq yo`q.

Antifont notiqligiga xos quyidagi fazilatlarni qayd etish mumkin:

1. Antifont notiq sifatida g`oyat jiddiylikni xush ko`rvuchi sohibi suxan bo`lgan. Uning nutqda jiddiyligini Periklga nisbat berish mumkin. Chunki, xuddi Perikl kabi u ham nutq matnida, talqin chog`ida hazil mutoyibaga, yumorga va shu mayldagi narsalarga o`rin bermagan.

2. Notiq nutq matnlarining g`oyatda pishiq ishlanishiga alohida e`tibor bergen. Nutqlariga lingvistik va badiiy jihatdan shu qadar sayqal berganki, bu nutq matnlarini hozirgi kunga qadar badiiy asarni o`qigandek huzur bilan

o'qish mumkin.

3. Nutq matnlari ustida ishlaganda dadil va favqulodda obrazli ifodalarr qo'llar, kutilmagan stilistik oborotlarni ishga solardi. Jumladan farzandsizli yoki farzanddan ayrilish dog'ini bayon qilish uchun bunday jumla tuzad «Farzandsizligim tufayli men tiriklay qabrdaman».

4. Uning nutqlarida ritorik va nutqiylar (undov, yalinish, g'azal qaytariq, zid qo'yish) deyarli mutlaqo uchramaydi. Ya'ni ayrim notiqlard mavjud bo'lganidek, nutqni tabiiy, hayotiy qilish uchun bo'lgan urinis ko'rinxaydi. Shu ma'noda Antifontning nutq matnlaridagi bayon xususiya deyarli bir xil.

5. Antifont nutqlarida, gapni aylantirib o'tirmay, to'g'ridan-to'g' tinglovchiga murojaat etish xususiyati mavjud. Bu usul antik notiqlikd patos, deb ataladi. Teatr san'atida ham hanuzgacha analogik hol, ya'r to'g'ridan-to'g' ri tomoshabinlarga murojaat etib gapirish usuli mavju bo'lib, bu usulga «apparat» deyiladi. Antifont esa, notiqlik jarayonida an shu prnyomni keng qo'llab, uni barqarorlashtirgan so'z san'atkorigidir.

6. U nutqda etopeya, ya'ni personajlar xarakteriga moslab gapirish so'zlovchining individualisixologik xususiyatlarini hisobga olish usulidan mutlaqo voz kechadi. Natijada, uning «Gerod qatlch» nutqidagi yosh yig' bilan «Xorevt ishi» dagi bir qari chol deyarli mutlaqo bir xil tilda gaplashadi.

7. Antifont nutqlari o'z kompozitsyasni mustahkamligi bilan xarakterlanadi. Bu tushuncha antik notiqlikda ekonomiya termini bilan ifodalanib, bunday nutqlarning, xusan, Antifont nutqining ekonomiyasi ya'ni, kompozitsiyasi quyidagicha:

Kirish. Bu qismda qisqagina so'zlanib, so'zlovchi o'zining g'aribligi, nochorligi, bechoraligini bayon qiladi.

Ishga oid kirish. Bu maxsus kirish so'zi bo'lib, so'zlovchi ishdan kuzatilgan maqsad, uning asosiy mazmuni, yo'nalish kabi masalalar bilan tinglovchilar va sud hay'atini tanishtiradi. Shuningdek, bu qismda shart-sharoit, voqeа bo'lib o'tgan joy, vaziyat kabi omillar bilan tanishtiriladi.

Asosiy voqeа va faktlar talqini. Bunda masalaning mohiyati yoritiladi.

Argumentatsiya. Bu qismda tinglovchilar va sud hay'atini ishontiruvchi dalil va hujjalarni keltirilib, Antifont nutqlarida avval eng zo'r argumentlar, so'ng ikkinchi va uchinchi darajaliklar keltariladi. Nutqning oxirgi qismi uchun kuchli zarb bo'lib xizmat qiladigan biror hujjat — argument olib qolinadi.

Epilog. Bu qismda barcha gaplarga xulosa yasalib da'vogar sud hay'atidan adolat qilishlarini va raqibiga tegishli jazo berishlarini talab qiladi.

ROSSIYA IMPERIYASIDA XIX ASRNING 60-70 YILLARIDA SHAHAR DUMALARINI TASHKIL ETILISHI JARAYONLARI

Yo. T. Boltaboyev.

NamDU "Tarix fanlari" kafedrasi katta o'qituvchisi

Rossiya imperiyasidagi shahar dumalari va mahalliy boshqaruv organlari o'ziga xos, uzoq yillik rivojlanish hamda taraqqiyot xususiyatlariga ega. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya imperiyasida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar natijasida mahalliy boshqaruv organlarini yanada kengroq isloq qilish zaruriyati yuzaga kelgan.

Podshoning eng yaqin amaldorlari va yuqori tabaqa vakillari saylab qo'yiladigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – shahar dumalariga mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish huquqini berilishiga va davlat boshqaruv vakolatlarini berilishiga qattiq qarshilik qilganlar. Uzoq yillar mobaynida qudratli, kuchli uyushgan, katta mablag'larga ega, jon jaxdi bilan podshoning samoderjavie tuzumini saqlab qolish uchun harakat qilgan podsho tarafdlari shaharlarni o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etilishiga qattiq qarshilik qilishgan.

Rossiya imperiyasining 1853-1856 yillardagi Qrim urushida Turkiyadan mag'lubiyatga uchrashi, Pol'sha va Finlyandiya hududlarida ko'tarilgan dehqonlar qo'zg'olonlarini kuchayishi, Yevropa qit'asidagi buyuk davlatlar bilan munosabatlarni yomonlashuvi va yakkalanib qolishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda Yevropa davlatlaridan orqada qolayotganligini yaqqol ko'rsatib bergen. Shaharlarni o'zini o'zi boshqarish organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi masalalari olimlar, jamoat va davlat arboblari o'rtasida qizg'in muhokamalarga sabab bo'lgan. Olimlar, jamoat va davlat arboblarini mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga munosabatlari turlicha bo'lib, ayrimlari mahalliy boshqaruv organlarini jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi lozim, ayrimlari esa davlat tomonidan nazorat qilinishi kerak deb xisoblashgan. Masalan: V.N.Lushkov jamoatchilik boshqaruvi tarafdoi bo'lib, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati davlat boshqaruv organlaridan mustaqil bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha: "Mahalliy boshqaruv organlari xalqqa tegishli bo'lib, ular faqat xalq ommasi oldida javob berishlari lozim"³⁶.

Mahalliy hokimiyat organlarini davlat tomonidan boshqarilishini tarafdlari, o'zini o'zi boshqarish organlari davlat boshqaruv muassasalari tizimiga kiritilishi lozim va ular davlat hokimiyyati organlari bilan mustahkam aloqada faoliyat olib borishlari zarur deb xisoblaganlar. A. Gradovskiyning fikricha: "O'zini o'zi boshqaradigan mahalliy boshqaruv organlari ichki boshqaruvni amalga oshirar ekan va davlat o'zining ayrim vakolatlarini mahalliy boshqaruv organlariga berar ekan, ular davlat hokimiyyati organlari nazorati ostida faoliyat olib borishi lozim"³⁷ degan g'oyani ilgari surgan.

³⁶ Общественная и государственная теории местного управления и их влияние на земские и городские реформы во второй половине 19 века в России //История государства и права.-Москва, 2007 -№ 10.-С.19.

³⁷ О.Ю. Общественная и государственная теории местного управления и их влияние на земские и

Rossiya imperiyasida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, turli tabaqalar o`rtasidagi qarama-qarshiliklarni kuchayishi, inqilobi yarakatlarining avj olishi podsho hukumatini shahar boshqaruv tizimini qaytadan tashkil etishga va burjuaziya tabaqasi vakillariga yon berishga majbur qilgan. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini isloq qilish va huquqiy jihatdan muvofiqlashtirishda, 1861 yil 19 fevralda krepostnoy xuquqning bekor qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Mahalliy boshqaruv organlarini isloq qilish jarayonlari «yuqoridan», ya`ni podsho hukumati tomonidan tayyorlangan. Bu islohotlar eski boshqaruv tuzumini butunlay tugatish masalasini o`z oldiga qo`ymagan, balki o`zini o`zi boshqaruvchi mahalliy boshqaruv organlarini Rossianing kapitalistik taraqqiyoti talablariga moslashtirishdan iborat bo`lgan. Krepost`noylik huquqini bekor qilinishi, shaharlarning aholisi sonini o`sishi, shaharlarning kengayishi va shahar xo`jaligining rivojlanishi shahar boshqaruv tiziimini isloq qilinishini talab qilgan. Shahar boshqaruv organlarini isloq qilish uchun tayyorgarlik ishlari 1862 yildan boshlangan. Shu yili Rossianing 509 ta shahrida bulg`usi isloxotni yo`nalishlarini ishlab chiqish uchun, barcha tabaqa vakillaridan iborat komissiyalar tashkil etilgan. Shahar Dumalarini tashkil etish va faoliyati masalasi 8 yil davomida muxokama qilinganidan so`ng, shaharlarni o`zini o`zi boshqarish organlari to`g`risida 1870 yilning 12 iyunida «Shahar nizomi» qabul qilingan³⁸.

Rossiya imperatori Aleksandr II tomonidan tasdiqlangan “Shahar nizomi” shahar va zemstvo boshqaruv organlarini isloq qilish dasturi bo`lib, markaziy davlat hokimiyatini markazdan boshqaruv ta`sirini kamaytirish, mahalliy boshqaruv organlarini mustaqil faoliyat ko`rsatish tamoyillarini rivojlantirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan edi. Shaharlarni o`zini o`zi boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishda ushbu nizom katta ahamiyatga ega bo`lgan. “Shahar nizomi”ga ko`ra, shahar dumasi-qonunlar chiqaruvchi, shahar boshqarmasi-ijro etuvchi hokimiyat organlariga aylangan. Shahar Dumalari faoliyatini nazorat qilish general gubernatorga topshirilgan. Shu nizomga ko`ra, Shahar dumalari shaharlardagi mahalliy ahamiyatga molik masalalar bilan mustaqil shug`ullanish va hal etish huquqiga ega bo`lganlar.

Shahar boshqaruv organlari o`z huquq va vakolatlariga ko`ra mustaqil faoliyat ko`rsatish imkoniyatiga ega bo`lib, hukumatning mahalliy ma`muriyatiga buysunmagan bo`lsalarda, o`z faoliyatlarini ichki ishlar vaziri yoki general gubernatorlar rahbarligidagi davlat markaziy boshqaruv organlarini nazoratida amalga oshirishga majbur bo`lganlar. “Shahar nizomi”ga muvofiq har bir gubernyada gubernator rahbarligida amaldorlardan shahar dumasi va shahar boshqarmasi faoliyatini nazorat qiladigan gubernya kengashlari tuzilgan. Gubernya kengashlari shahar dumalari va shahar boshqarmalari faoliyati ustidan tushgan shikoyatlarni

городские реформы во второй половине 19 века в России. История государства и права. Москва 2007. № 10.-С.20.

³⁸ Большая Советская Энциклопедия. БСЭ. Москва. 1952 г. 12 т. 213 стр.

ko'rib chiqish bilan bir qatorda, ularning xo'jalik sohasidagi faoliyatini ham nazorat qilgan.

1870 yil 12 iyun'da qabul qilingan "Shahar nizomi"ga muvofiq tashkil etilgan shahar Dumalari va shahar boshqarmalari zimmasiga ma'muriy va xo'jalik masalalari bilan shug'ullanish vazifalari yuklatilgan. Shahar dumalari va shahar boshqarmalari shahar obodonchiligi, bozorlar faoliyati, transport xizmati, ko'chalarning yoritilishi, isitish tizimi, suv ta'minoti, trotuarlar va ko'priklar qurilishi va ta'mirlanishi, savdo-sotiq, sanoat rivojlanishiga xomiylik qilish, aholiga kreditlar berish, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash, yong'inni oldini olish, xayriya ishlarini tashkil etish va boshqa ko'plab sohalar bilan shug'ullanishlari belgilab qo'yilgan.

"Shahar nizomi"ga ko'ra shaharlarning daromadlarini asosini mahalliy soliqlar: sanoat korxonalaridan, savdo-sotiqdan, transport tarmog'idan, ekipaj egalaridan, ot va uy hayvonlari egalaridan, bozorlardan, hammomlardan, boj soliqlaridan, auktsionlar o'tkazishdan, xususiy korxonalardan olinadigan soliqlar tashkil etgan. Shahar dumalari zimmasiga shahar politsiya mahkamasi, o't o'chirish xizmati, shahar qamoqxonasi, xarbiylar kazarmasini moliyaviy ta'minlash masalalari qo'yilgan. Yuqoridagi muassasalarни moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun shahar dumasi byudjetini 20 % dan 60 % gacha mablag'i sarflangan. Ayrim shaharlarda surʼ harajatlar shahar dumasi byudjetidan oshib ketib, kamomadni keltirib chiqargan.

Shaharlarni o'zini o'zi boshqarish organlari soliq to'lovchilar tomonidan 4 yil muddatga saylab qo'yilishi ko'zda tutilgan. Shahar dumasiga saylovlar 3 turdag'i saylov s'ezdlari orqali: 1. Yirik miqdorda soliq to'lovchilar. 2. O'rtacha miqdorda soliq to'lovchilar. 3. Mayda soliq to'lovchilar tizimi orqali, teng miqdordagi vakillar saylash orqali amalga oshirilgan³⁹.

Shahar dumasiga saylanganlar glasniylar-vakillar deb atalgan. Duma faoliyati tinch va bir maromda davom etishi uchun, glasniylar-vakillar soni oldindan cheklab belgilab qo'yilgan. Shahar dumasi glasniylari soni shaharlarning katta yoki kichikligiga qarab 30 nafardan 70 nafargacha belgilab qo'yilgan. Faqatgina ikkita shahar bu qoidadan mustasno bo'lib, Peterburg shahar dumasida 250 nafar, Moskva shahar dumasida 180 nafar glasniy-vakil saylanishiga ruxsat berilgan.

Oqibatda shahar dumalari bir guruh mulkdor tabaqalar: yirik savdogarlar, zavod va fabrika egalari, yirik uy-joy egalari va katta ko'chmas mulkka ega bo'lgan dvoryanlar qo'liga o'tgan. Shahar dumalariga o'tkazilgan saylovlarda kichik mulkdorlar, turli lavozimdagi intiligrantsiya vakillari, ishchilar, ijara yashovchilar, shahar kambag'allari umuman ishtirok etishmagan. Masalan: Moskva shahar aholisining 97 % shahar dumasiga o'tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega emas edi⁴⁰. Koreya shaharlarida kapitalistik xo'jalikning rivojlanishi shahar boshqaruv o'rnatnari faoliyatiga: vrachlar, huquqshunoslar, yer o'lchovchilar, texniklar,

³⁹ Ермаков Н.Н. История государственных учреждений дореволюционной России. Москва 1983 г. Гл. 111.

⁴⁰ Болшевая Советская Энциклопедия. БСЭ. Москва. 1952 г. 12 т. 215 стр.

liberallar va boshqa tabaqa vakillarini ham jalb qilish masalasini kun tartibiga qo'yan.

Shahar dumasi a'zolaridan ijro etuvchi hokimiyat organi Shahar boshqarmasi saylangan. Shahar boshqarmasi boshqarma boshlig'i va boshqarma a'zolaridan iborat bo'lgan. Shahar boshqarmasi a'zolari soni eng kamida ikki nafarni tashkil etishi shart bo'lgan. Shahar boshqarmasi boshlig'i ayni vaqtida shahar dumasi raisi bo'lib, shahar boshqarmasini boshqargan va ularni faoliyatini muvofiqlashtirgan.

1860-1870 yillarda amalga oshirilgan Shahar boshqaruvi sohasidagi islohotlar o'zining cheklanganligiga qaramasdan, Rossiyaning kapitalistik taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shahar dumalari va shahar boshqarmalari zarur mahalliy boshqaruv vakolatlari ega bo'lmanalar, aksincha chiqargan qarorlarini qonunga muvofiqligini nazorat qilish ichki ishlar ministirligi va mahalliy gubernatorlarning nazorati ostiga olingan. Ana shunday yo'l bilan shahar dumalari ustidan podsho hukumatining nazorati o'rnatilgan. Shahar boshqarmasining boshlig'i gubernya shaharlarida ichki ishlar ministri tomonidan, qolgan shaharlarda esa general gubernator tomonidan tasdiqlangan. Bu davrda shaharlarning o'zini o'zi boshqarish organlari amalda mahalliy hokimiyat organi bo'lman, aksincha podsho hukumatining mahalliy xo'jalik masalalari bo'yicha ko'makchi hokimiyat organi bo'lgan. Yuqoridaqilarga qaramasdan podsho hukumati saylab qo'yiladigan shahar boshqaruv organlarini Rossiya imperiyasining barcha xududlarida joriy qilishdan qo'rqqan. Masalan: Rossiyaning Pol'shadagi gubernyalarida, O'rta Osiyoda va Finlyandiya xududlarida o'zini o'zi boshqaradigan shahar boshqaruv organlari tashkil etilmagan.

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI

Alisher Jo'rayev,

NamDU "Tarix fanlari" kafedrasi o'qituvchisi

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda birinchi marta bosma kitob nashr etila boshlandi. Bu g'oyat muhim tarixiy voqeа edi. Lekin O'rta Osiyoning markaziy shaharlarida bosmaxonalarning tashkil etilishini mustamlakachi ruslarning o'lkaga ko'rsatgan "marhamati" sifatida qabul qilish kerak emas.

Birinchidan, noshirlik jahon mamlakatlarida keng tarqalib bo'lgan edi.

Ikkinchidan, Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat rus hukumatidan bu erda mustamlakachilikka qarshi kurash avj olib ketishini bartaraf etish uchun muayyan jihatdan mahalliy ijtimoiy talablarga yon berishni talab qilar, bu borada bosmaxona kabi ijtimoiy dunyoqarashga ijobjiy ta'sir ko'rsatdigan, lekin mavjud mustamlakachilik siyosatiga hajmi bermaydigan siyosiy vositalardan foydalanishga majbur etardi.

Uchinchidan, bosmaxonalar Turkiston o'lkasidagi kitobga bo'lgan yuksak talabdan kelib chiqib, iqtisodiy foyda olishni ko'zlagan holda tashkil etilgan, bu o'rinda Turkistonga sehrli o'lka sifatida qaragan rus burjuaziyasining nafsi ham yaxshigina rol o'ynagan edi. Bosmaxonalarniig tashkil etilishiga, ayniqsa, oxirgi sabab katta turki berganini bu o'lkadagi noshirlik korxonalarining, asosan rus muhohirlari tomonidan tashkil etilib boshqarilgani ham tasdiqlaydi.

Lekin bu siyosiy jarayonlar O'rtta Osiyo xalqlarining savodini chiqarish, madaniy merosiga hissa qo'shish, ilm-ma'rifatni oshirish, qo'shni mamlakatlar xalqlari madaniyati bilan tanishtirish, jahonda yuz berayotgan o'zgarishlardan voqif qilish yo'lida olib borilgan harakatlar sifatida baholanishi haqiqiy siyosiy maqsadlarni niqoblash uchungina edi, xolos. To'g'ri, bundan o'lka xalqlariga hech qanday foyda bo'lmadi, deyish xato bo'ladi. Ammo siyosatga berilgan ta'riflardan birida sadaqa berib quldek ishlatisch aynan siyosatdagi ifloslik, ya'ni manfaat yo'lida vijdon va axloqni ifloslikka bo'yundirish, deya ta'riflanadi.

Ruslarning Turkistonga ko'rsatgan yonbosishlari xuddi mana shu ta'rif mohiyatiga muvofiq kelar edi. Xullas, Turkistonda rus zodagonlarining manfaatlariga, qolaversa, o'sha mafkuraviy tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi ma'naviy qurol sifatida bosmaxonalar tashkil etildi. Bu ayni vaqtida o'zbek madaniyatida kitoblarni bir vaqtning o'zida ko'plab nusxada nashr etilishining boshlanishini bildirar edi⁴¹.

Turkistonda dastlab ish boshlagan bosmaxonalarda avvalo dunyoviy ilm-fan — geografiya, tarix, ma'danshunoslik, bog'dorchilik, dehqonchilik, tabobat, aniq fanlarga oid Yevropa mamlakatlari va Rossiya ilmiy hamda ommaviy jamoatchiligiga noma'lum bo'lgan asarlarga katta e'tibor qaratilgan. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bu manbalarga talab va ehtiyoj kattaligi e'tiborga olingan. Samarqand universitetining kutubxonasida o'sha vaqtida nashr etilgan bunday kitoblarni ko'plab ko'rish mumkin. Jumladan, 1830 yilda Tohir ibn Qozi Abu Saidxo'ja Samarqandiy tomonidan fors tilida yozilgan Samarqandning buniyod etilish tarixi, shaharning "Samarqand" deb atalishi sababi, jug'rofiy holati va XIX asrning uchinchi choragiga qadar saqlanib qolgan osori-atiqalari, shuningdek, masjid va madrasalar, ko'shklar va mozorlar to'g'risida ma'lumotlar beruvchi "Samariya" asari ham mavjud. Nodir qo'lyozmalar bo'limida saqlanmayotgan she'riy arifmetika jamlanmasi muallifi matematik, shoir, tilshunos, XIX asrda yashagan samarqandlik Boboyor Mirzaqulovdir. U geometriya darsligini o'zbek tiliga tarjima qilib, matematik grafika haqida turhuncha bergen, shuningdek, raqamlar turkumini 46 matematik belgiga o'natgan. Muallif qadimiy o'zbek qabilalarining 92 nomini birinchi bo'lib hisoblab chiqqan edi⁴².

Turkistonda kitob bosish Rossiya imperiyasining o'z hukmronligini

⁴¹ Abdiazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genezis va evolyutsiya). Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 68

⁴² Dadixonov F. Nodir qo'lyozmalar xazinasasi //Jamiyat. – Toshkent, 2008. – №5. – B. 8.

o'rnatishi bilan keng rivoj topdi. Toshkentda 1868 yilda birinchi bosmaxona harbiy okrug shtabi huzurida tashkil qilindi. Bu bosmaxona dastlabki davrdá yaxshi jihozlanmagan edi. Shu sababli bu yerda turli blankalar, ish qog'ozlari bosilgan. Mazkur bosmaxona gazeta nashr qilishga moslashmagani uchun 1869 yilda boshqa bosmaxona tashkil etilgan. Bu erda ishslash uchun Rossiyadan harf teruvchilar ham chaqirildi. Ushbu bosmaxona 1870 yildan arab harfi shriftiga ega bo'ladi.

XIX asr 70-yillardan boshlab o'zbek tilida ham kitoblar nashr etila boshlanadi. 1872 yili nashr etilgan Shohimardon Ibrohimovning "Kalendar" kitobi ularning dastlabkisi edi. Kitob 500 nusxada, 17x13,5 santimetr o'lchamda, muqovasiz chiqarilgan⁴³.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda xususiy bosmaxonalar paydo bo'la boshladi. 1877 yilda S.I. Laxtin tashkil etgan bosmaxona shularning dastlabkisidir. Mazkur bosmaxona litografiya jihozlariga ega bo'lib, mahalliy tilda kitoblar nashr qilgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, Turkistonda, garchi bosmaxona kech tashkil topgan bo'lsada, lekin litografiya yo'li bilan kitob nashr qilish ancha rivojlangan edi. Bunga sabab shuki, litografiya texnikasi uncha murakkab bo'lmay, bosmaxona uskunalariga nisbatan birmuncha arzon edi. O'rta Osiyoda birinchi litografiya Xiva shahrida 1874 yili vujudga keldi. Uning tashkilotchisi Otajon Abdalov edi. U eronlik ustozи Ibrohim Sulton rahbarligida Xivada toshbosma tashkil etishga muvaffaq bo'ldi. Shu paytdan boshlab u "Otajon bosmachi" (matbaachi) degan nom oldi. Biroq, bu ish uzoqqa cho'zilmadi. Xonlikdan moddiy yordam bo'lmagach, uning faoliyatni to'xtab qoldi. Keyingi davrlarda tashkil etilgan litografiyalar mahalliy burjuaziya vakillaridan iborat ayrim shaxslar qo'lida edi. Temir sotuvchi Esonboy Husayinboev ham dastlabki o'zbek nashriyotchilaridan biridir. Uning litografiyasi Toshkentda 1883 yilda ishga tushirildi. Mazkur litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiyadan 50 dan ortiq tuyada keltirilgan. Ma'rifat yo'lida jon kuydiruvchisi bo'lgan o'zbek nashriyotchisi kitoblarni o'z ona tilida chiqara boshladi. 1888 yilning oxirida Toshkentda S.A. Portsev tomonidan yana bir bosmaxona ishga tushirildi. Umuman, 1868 yildan 1898 yilga qadar Turkistonda matbaa korxonalarining soni 15 ga etdi. Ulardan 6 tasi bosmaxona bo'lib, qolganlari litografiya yoki tipolitografiyaga ega bo'lgan bosmaxonalardir⁴⁴.

1893 yilda Otajon Abdalov yangidan toshbosma tashkil qilishga kirishdi. U o'z hisobidan 200 so'mga toshbosma sotib olib, nashriyotchilik faoliyatini davom ettirdi. O.Abdalov tarixiy asarlarni, Xorazm mumtoz adabiyoti namoyondalaridan Munis, Ogahiy kabi shoirlarning asarlarini toshbosmada ko'paytirib, omma orasiga keng tarqatadi.

Keyinchalik litografiyalar Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon va boshqa shaharlarda paydo bo'la boshladi. Litografiya uchun asbob-uskunalar Rossiya, Hindiston, Eron, Misr va boshqa mamlakatlardan keltiriladi.

⁴³ Ernazarov T., Akbarov A. Turkistonda vaqtli matbuot. – Toshkent: O'zdavnashr, 1959. – B. 10.

⁴⁴ Ernazarov T., Akbarov A. Turkistonda vaqtli matbuot. – Toshkent: O'zdavnashr, 1959. – B. 8.

Ilk davrlarda matbaa korxonalari texnika jihatidan qoloq, mahsulot ishlab chiqarish jihatidan sifatsiz edi. Matbaa sanoati korxonalarida ishlayotgan xodimlarning tarkibi ham o'ziga xos edi, xususan mahalliy millat vakillari 72 kishi bo'lib, bularidan 16 kishigina malakali xodim edi. Bosmaxona va litografiyada ishlayotgan ishchilar orasida birgina ayol bor edi, xolos. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, dastlabki davrdayoq kitob bosish uchun moddiy-texnika bazasi yaratildi. Rus burjuaziyasi tomonidan siyosiy maqsadlarda ko'rsatgan tashabbusi tez orada mahalliy ziyolilarning uni o'z qo'llariga olishlariga imkoniyat yaratdi. Mahalliy nashriyot vujudga kelishi Turkistonning o'sha davrdagi madaniy hayotida g'oyat katta voqeа bo'ldi.

Kitob nashr qilish yangi ishlab chiqarish munosabatlарining mahsuli bo'lib, uning kashf qilinishi burjua jamiyati vujudga kelishiga muhim shart-sharoit yaratgan edi. Binobarin, Turkistonda kitob bosishning kech rivojlanishi uning iqtisodiy va texnik jihatdan nisbatan qoloqligi natijasidir. Ruslarning joylardagi ma'murlari kitob nashr qilishdan manfaatdormidi? Albatta, manfaatdor edi. Ular kitob nashr qilishdan mustamlaka hokimiyatni mustahkamlash, Turkiston general-gubernatorligining obro'sini oshirish, ruslarning mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish uchun foydalananardilar. Buning evaziga ular katta sarmoya ham to'playdilar.

O'lkadagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, xarbiy hamda iqtisodiy shart-sharoit kitob nashr qilishga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo'ldi.

Shunday qilib, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida kitob bosish keng yo'lga qo'yildi. Natijada, Rossiya imperiyasi hukumati o'z oldiga qo'yan muhim vazifalarni hal qilish imkoniyatiga erishdi⁴⁵.

Bundan tashqari, Sharqda kitob nashri Evropadagiga qaraganda, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, kitoblarning asosiy qismi litografiya usuli bilan chop etilar edi. Matbaa usuli bilan chop etish harf terishni, turli shriftlar, bosma mashina va boshqa texnik vositalar singari rivojlangan matbaa bazasini yaratishni talab qilar edi. Shu bilan birga, joylarda nashr ishlari mutaxassislarini tayyorlash muammosini yuzaga keltirdi, harflarning murakkabligi anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Rus xukumati o'z ehtiyojidan kelib chiqib, kitob nashri uchun moddiy-texnik baza yaratdi. Nashr ishlaringin yo'lga qo'yilishi kitoblarni aholi orasiga chuqurroq kirib borishiga yo'l ochdi, yurtimizda matbuot ishi rivojlanishiga turki bo'ldi, fan-madaniyatdagi ilg'or, shuningdek, yot g'oyalarning tarqalishiga yordam berdi.

Turkiston o'lkasini mute yurtga aylantirish maqsadida uning tabiiy sharoiti, iqtisodi, ishlab chiqarish kuchlari, mahalliy aholi turmush tarzini tadqiq etgan rus olimlarining kitoblari dastlabki bosma nashrlari hisoblanardi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida "Turkiston to'plami" ("Turkestanskiy sbornik") nomli g'oyat qimmatli majmua saqlanadi. 594 jilddan iborat bu kitoblar majmui O'rta Osiyo, asosan,

⁴⁵ Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1972. – B. 26.

Turkiston tarixi uchun katta ilmiy ahamiyatga ega. Fidoyi rus bibliografi V.I. Mejob tomonidan 1867 yildan 1888 yilgacha “To’plam” ning 416 jildi tuzilgan. 1888 yildan 1907 yilgacha mablag’ etishmaganligi sababli uni tuzish to’xtab qolgan. U “To’plam” ni Sankt-Petsrburgda tuzib, Toshkentga – Turkiston ommaviy kutubxonasiiga jo’natib turgan. 1907–1916 yillar mobaynida bibliograf va sharqshunos olimlar: N.V.Dmitrovskiy, A.A.Divayev, A.A.Semyonov, Yu.F.Bonch-Smolovskiy, I.I.Geyer va Turkiston ommaviy kutubxonasi direktori I.P.Zikov tomonidan 175 jildi tuzilgan. Faqatgina, 1939 yili respublikadagi kutubxona xodimi E.K.Betger tomonidan qolgan 3 (592, 593, 594) jildini tuzadi. “To’plam” salkam 11000 ilmiy maqola va kitobni o’z ichiga oladi. Majmuani bibliograf A.G.Qosimova o’zining “Turkestanskiy sbornik” (1985) kitobida quyidagicha ta’riflaydi: “Turkiston tarixi, etnografiyasi, arxeologiyasi, iqtisodi, jug’rofiyasi va bu o’lka xalqlari madaniyati to’g’risidagi maqola va kitoblardan tashkil topgan bu “To’plam” Oktyabr’ inqilobigacha bo’lgan O’rta Osiyoni o’rganishda ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi”⁴⁶.

Turkiston to’plamining noyobligi shundaki, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya va boshqa mamlakatlarda rus, frantsuz, ingliz, nemis, italyan, ispan va lotin tillarida chiqqan gazetalar, jurnal hamda kitoblarning faqat Osiyo, asosan, Turkiston o’lkasi haqida yozilganlari bu yerga to’planib, shunday nodir majmua yaratilgan. Bu haqda “Golos” gazetasini 1878 yildagi 5-sonida shunday yozadi: “To’plamda faqat rus matbuotidagina emas, balki boshqa xalqlar matbuotida ham Turkiston haqida yozilgan maqolalar va yirik asarlar yilma–yil, izchil yig’ib to’plangan”⁴⁷. Shu bilan birga, “To’plam” da Hindiston, eron, Afg’oniston, Xitoy, Mo’g’uliston tarixiga oid manbalar ham mavjud.

“To’plam” ning 8, 40, 53, 58, 67, 77 va boshqa jiddlariga ruslarning Toshkent, Farg’ona, Samarqand, Buxoro, Xivaga qilgan harbiy yurishlari va mahalliy xalqlarning bosqinchiligi dushmanga ko’rsatgan qarshiliklari haqida manbalar kiritilgan. Mazkur manbalar ko’p tillarda yozilganki, bu hol “To’plam” ning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi⁴⁸.

V.I. Mejobning “Turkiston to’plami” nodir kitob bo’lib, juda katta bibliografik ahamiyat kasb etadi. Unga O’zbekiston bibliograflari tomonidan maxsus adabiyotlarda keng sharh berilgan. “Turkiston to’plami” o’lka haqida barcha ma’lumotni bilmoqchi bo’lgan birinchi general-gubernatori graf K.P. fon Kaufman farmoyishi bilan boshlangan. “Turkiston to’plami” ning S.I. Idarov tomonidan tuzilgan besh jildi ham bor.

Shunday qilib, ayrim kamchiliklarga qaramay, “Turkiston to’plami” XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida Turkiston o’lkasi va O’rta Osiyo tarixini o’rganuvchilar uchun muhim manba hisoblanadi.

⁴⁶ Abdauazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1917 y.y.). – T.: Akademiya, 2000. – B. 35.

⁴⁷ Abdauazizova N.A. Milliy jurnalistika tarixi (Genesiz va evolyutsiya). Birinchi jild. – T.: Sharq, 2008. – B. 73.

⁴⁸ Kurahmedov A. “Turkiston to’plami” da Samarqand //O’zbekiston adabiyoti va san’ati.– 1996. – №3. – B. 14.

SOVET DAVLATI SIYOSATI VA IJTIMOIY HAYOTDA AYOLLAR MAVQEINI O'ZGARISHI: SABAB VA OQIBATLAR

N. Ismoilova,

*Nam DU O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti,
Falsafa kafedrasi o'qituvchisi*

Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish kabi murakkab ish 1919 yil 12 noyabrda RKP(b)ning Turkiston o'lka qo'mitasida xotin-qizlar bo'limining tashkil etilishi bilan boshlangan edi. Keyinchalik, 1921 yilda u Turkiston Markaziy Qo'mitasi xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi⁴⁹. Ayni paytda joylarda xotin-qizlar bo'limlarini tashkil etish ishiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. 1919 yil noyabrda Toshkent, 1919 yil 19 dekabr Samarqand, 1919 yil fevralda Farg'onada, 1920 yil mart Sirdaryoda so'ngra Andijon, Kattaqo'rg'on, Kogon va boshqa joylarda ham xuddi shunday bo'linmalar ochila boshlandi. Umuman 1920 yilga kelib bu yerda 40ga yaqin xotin-qizlar bo'linmalari faoliyat ko'rsatdi⁵⁰.

O'zbekistonda xotin-qizlar ozodligiga amalda erishish, ular ijtimoiy faolligini oshirish masalasida yana qator kamchilik, xatolarga yo'l qo'yildi. Bunday xatolarning eng asosiysi esa O'zbekistondagi an'anaviy urf-odatlar, o'zbeklar ruhiy-psixologik holatini o'rganilmaganligidadir. O'lkada xotin-qizlar masalasini hal etishda erkaklar psixologiyasini o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etishi mumkinligi e'tiborga olinmadni. Natijada asrlar davomida imtiyozli o'ringa ega bo'lgan erkak o'zgargan vaziyatni tasavvur etolmadni. Xotin-qizlar masalasini hal etishda yana bir muhim omil, din masalasi e'tibordan chetda qoldi. To'g'ri qabul qilingan qaror, ko'rsatmalarda din bilan hisoblashish lozimligi ta'kidlandi. Ammo real hayotda esa diniy, diniy rasm-rusumlar inkor etila boshladi. Uning e'tiborga olinmasligi esa xotin-qizlar masalasini hal etish chog'ida ularni qatag'on qilish jarayoni bilan qo'shilib ketdi⁵¹.

Yigirmanchi yillarning 2-yarmi xotin-qizlar ozodligi yo'lida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Moskvaning 1927 yil fevraldag'i ko'rsatmasiga asosan bu davrda "eski tuzum"ga qarshi jiddiy hujum boshlandi. Bu narsa dindorlar, an'anaviy hayot tarafdorlari bilan xotin-qizlar harakati tarafdorlari o'rtasida kuchli kurashning boshlanganligidan dalolat berardi. Bunday sharoitda xotin qizlar haq huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, ularni ijtimoiy turmushini yangilash maqsadida ayollarni sud, tergov organlariga kengroq jalb etish, ulardan xalq maslahatchilari tarkibini tashkil qilishga katta e'tibor berila boshlandi. Agar 1926-27 yillarda O'zbekiston bo'yicha 5642 xotin-qizlar xalq maslahatchilari bo'lgan bo'lsa, 1928 yilda ular soni 10450 taga yetdi, yoki 41 foizga oshdi.

⁴⁹ Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30 yillar tariba va oqibatlar). Tarix fan. nomzodi. ilmiy. dar. olish uchun yozilgan diss.si. -Toshkent: 1998. -B.30.

⁵⁰ O'zb R Prezidenti huzuridagi arxiv. 60-fond, I-ro'yxat, 305-ish, 3-5-sahifa.

⁵¹ Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30 yillar tariba va oqibatlar). Tarix fan. nomzodi. ilmiy. dar. olish uchun yozilgan diss.si. -Toshkent: 1998. -B.37.

1928 yilgi ma'lumotga binoan Farg'ona okrugida 1680 xotin-qiz maslahatchi sifatida faoliyat ko'sratdi. Biroq shu narsaga e'tibor berish lozimligi, yuqorida zikr etilgan raqamlardan bor-yo'g'i bittasigina olyi ma'lumotli edi, xolos. Hech qanday xat savodi yo'q xalq maslahatchilar esa 911 tani tashkil etardi. Bunday vaziyatda, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan muhofaza qilish ishini sifatlari amalga oshirish mumkin emasdi. Bunday hol, xususan, Xorazm okrugida ayniqsa, yaqqol ko'rindi⁵².

Xiva, Gurlan, Hazorasp tumanlaridagi xalq maslahatchilar faqat qog'ozda bor edi, xotin-qizlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar bo'yicha qayerga murojaat etishni bilmasdilar⁵³.

Xotin-qizlar burchagi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

- 1) tashviqot-tushuntirish va chuqur targ'ibot ishlari orqali paranji va zulmatga qarshi kurash olib borish;
- 2) tegishli to'garaklar tashkil etish va madaniy-tarbiyaviy ishlarni olib borish orqali mehnatkash ayollar ommasining siyosiy saviyasini oshirish, kooperatsiyalar, kasaba uyushmalari va ijtimoiy tashkilotlarda jamoatchilik ishlariga saylangan xotin-qizlarga alohida e'tibor berish;
- 3) xotin-qizlar faollarining baynalmin-siyosiy tarbiyasini amalga oshirish va ularni jamoat ishiga, kasaba uyushmasi hamda kooperativ ishlarining har xil tarmoqlariga ko'tarishda yordam berish⁵⁴ va hokazolar.

Xotin-qizlar madaniy-oqartuv muassasalarining muhim shakllaridan yana biri qizil choyxonalar edi. Bunday choyxonalarga xotin-qizlar taklif etilar va ular orasida siyosiy-mafkuraviy tadbirlar o'tkazish ustivor tavsiyaga ega edi. O'zbekistonda birinchi qizil choyxona Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan 1920 yillar boshida Shohimardoncha ochildi. Choyxonada xotin-qizlarning ozodligi, dinga qarshi kurash masalalari bo'yicha suhbatlar uyushtirildi. Biroq xotin-qizlar madaniy-oqartuv muassasalari dastlabki paytlardanoq kommunistik mafkura g'oyalarni amalga oshirishning tayanch nuqtalariga aylana bordi. Masalan, ta'lim komissarligining instruktori tomonidan uning Toshkent viloyati bo'yicha safari hisobotida yozilishicha, xotin-qizlar madaniy oqartuv muassasalarida faqatgina madaniy tadbirlar o'tkazishni istaydi. Uning ta'kidlashicha, instruktor kontsertdan oldin 30 minutlik siyosiy ma'ruza qilganda ayollar, "Bu kontsertmi yoki miting?" deb tanbeh bergenlar⁵⁵.

20-30 yillarda o'zbek xotin-qizlarini ta'lim tizimiga jalb etish va ularning madaniy darajasini oshirish borasida olib borilgan ishlarni o'rganish, ilmiy tahlil etish asosida quyidagi xulosalarga kelishlari mumkin:

⁵² O'z R MDA 86-fond, I-ro'yxat, 4450-ish, 24-sahifa.

⁵³ O'zb R Prezidenti huzuridagi arxiv. 58-fond, 5-ro'yxat, 815-ish, 70-sahifa.

⁵⁴ Nishonboyeva Q.V. O'zbekistonda xotin-qizlar masalasini hal etishning madaniy jihatlari (20-30 yillai tajriba va oqibatlar). Tarix fan. nomzodi. ilmiy. dar. olish uchun yozilgan diss.si. -Toshkent: 1998. -B.53
Минеев В.Н. Становление и развитие культурно просветительной работы среди женщин-Узбекистана. -Т., 1990. -С.61.

⁵⁵ O'zR MDA. R-fond, 1-ro'yxat, 184-ish, 37-39 sahifalar.

1. Xotin-qizlarni umumta'lim maktablariga jalb etish, ularning savodsizligini tugatish, oliv va o'rta maxsus ta'lif joriy etish, ayollar ma'naviy hayotini takomillashtirish borasiga ma'lum ish olib borildi. Natijada ko'plab o'quv yurtlari, maktablar, madaniyat maskanlari tashkil etildi, xotin-qizlar savodsizligini bartaraf etishda ma'lum siljishlar yuz berdi.

2. Ayni paytda, bunday hol o'zbek xotin-qizlari madaniyatini oshirishda xolislik bo'Imaganligidan, aksincha, madaniy jabhadagi barcha o'zgarishlar ma'muriy-buyruqbozlik tizimining siyosiy maqsadlarini amalga oshirish, itoatkor, sovet qurilishi uchun "vafodor" ittifoqchi qidirish asnosida yuz bergenligidan dalolat beradi.

3. Xotin-qizlarni madaniy sohalarda ishtiroy etishini ta'minlash jarayonida ko'zlangan maqsadning bo'lak tomoni hukmron siyosiy kuchning o'z iqtisodiy muammolarini hal etishga bo'lgan harakati bilan bog'liq edi. Natijada, o'zbek xotin-qizlari ijtimoiy hayoti, ma'naviy turmush tarzida salbiy o'zgarishlar ruy bera boshladи, mahalliy millat ayollari ruhiy-psixologik holatida faqat xotin-qizlarga xos bo'lgan nozik tabiat, iffat-andisha, mayinlik va mehribonlikning yo'qolishi, uning o'rniغا ma'muriyatçilik sifatlarining, dag'alik kabi noan'anaviy holatlarning yuzaga kelishi yuz berdi.

4. Xotin-qizlar madaniy-ma'naviy jahhaga jalb etishda son ko'rsatichlari bo'yicha olg'a siljishlar yuz berdi. Ammo masalaning mazmuniy tomonlarida salbiy jihatlar ko'zga ko'rindi. O'zbek ayollarining ayrimlari "sotsialistik turmush tarzi" ning "ohangrabosi"ga uchib, madaniyatdagi milliylikni inkor etib, rus madaniyatiga asoslangan soxta baynalmilallikni qo'llab-quvvatlash yuz bera boshladи.

Shunday qilib, 20-30-yillar o'zbek madaniyati siyosiy iskanjada bo'lib, hukmron kommunistik-bolshevistik mafkura uni maqsadlari yo'lida foydalanuvchi vositaga aylantirishga harakat qildi. Shunday paytda xotin-qizlar ma'naviyatini rivojlantirish, ularning jamiyatda tutgan ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlashdan iborat murakkab vazifalar ham hech shubhasiz, bolshevistik madaniy siyosat qoidalari asosida olib borildi.

Rezyume: Ushbu maqolada O'zbekistonda sovet tizimidagi jamiyatning stratifikatsiyasida ayollar, sovet davlati siyosati va ijtimoiy hayotda ayollar mavqeini o'zgarishi: sabab va oqibatlar masalasi yoritilgan.

MAHMUD IBN MUHAMMAD UMAR AL-CHAG'MINIY VA UNING TABIIY-ILMIY FALSAFIY QARASHLARI

*Rayhana Xolboyeva,
Nam DU Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa
kafedrasi o'qituvchisi*

Tariximizda ko'plab buyuk olimlar, shoirlar, sarkardalar o'tganlar. XIII-asrda yashab, ijod etgan astronom, matematik, tabobat ilmining mashhur vakili Mahmud ibn Muhammad ibn Umar Chag'miniy ana shular jumlasidandir.

Uning hayoti va ijodi haqida juda kam ma'lumot saqlangan. Ayrin manbalarda Chag'miniy Xorazmning Chag'min degan joyida tug'ilgani vi 1221-yilda vafot etgani qayd etiladi hamda Chag'min degan laqab uning tug'ilgan joyi nomi bilan yuritiladi, deb ko'rsatiladi.

Juda taniqli bo'lishiga qaramay hayoti haqida mumtoz va hozirg manbalarda yetarlicha ma'lumot yo'q. Astronomiya sohasida muvaffaqiyatl faoliyati, ilmiy asarlari tufayli unga Al-munajjim laqabi berilgan.

Uning o'limi haqida ham qarama-qarshi fikrlar mavjud. Manbalard Chag'miniy hijriy 618-yilda, milodiy 1221-yilda vafot etgani ko'rsatilgai bo'lsa, undan keyin hijriy 745-yilda, milodiy 1344-yil vafot etgan boshqa bi Chag'min ismli hakim haqida ham ma'lumotlar bor⁵⁶.

Mahmud Chag'miniy o'sha vaqtgagi yirik olimlar kabi fanning biro sohasi bilan emas, balki astronomiya, riyoziyot, tabobot, jug'rofiya va boshqa sohalarda ham juda sermahsul ijod etgan.

Uning bizgacha "Qonuncha", "Mulaxxas fi-l hay'a" asaridan tashqari "Saylanma", "To'qqiz sonining riyoziyotdagi o'mni haqid risola" (رسالة الحساب التسع), "Merosni bo'lish masalalarida riyoziyot usullariga sharh" (شرح ترقيق الحساب في مسائل الورصى) va boshqa qator asarlari mavjud.

Chag'miniyning bizgacha yetib kelgan asarlari orasida eng yirik asar bu "Mulaxxas fi-l hay'a" (الملخص في الهيئة) asari bo'lib, bu asa astronomiyaga oid asardir. Bu asarda osmon jismlarining tuzilishi, harakati bir-biri bilan o'zaro joylashuvni haqida ma'lumotlar berilishi bilan birligida shorliq haqida ham qimmatli, muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarning falsafiy sharhlari ham mavjud.

Chag'miniy o'zining yuqoridaq asarining kirish qismida shunda fikrlarni aytib o'tadi:

"Tabiatdagi mavjud barcha narsalar 2 guruhga bo'linadi: Ulardan birinchisi tabiatning to'rt unsuri hisoblangan tuproq, suv, olov, havodir. Ularning ikkinchisi esa osmon jismlaridir. Barcha osmon jismlari sharsimoi shakldadir".⁵⁷

Bundan ko'rilib turibdiki, Chag'miniy olamning manzarasi haqid shunday deydi:

"Barcha qobiqlar va yer yuzidagi barcha narsalar olamning umumi manzarasini tashkil etadi. Dunyo manzarasining figurasi kontsentrik xalqadu iborat. Unda bir unsur (element) og'ir, boshqasi esa yengil bo'ladi.

Agar tuproq bilan suvni solishtirsak, eng og'iri tuproq bo'lib chiqadi. Chunki, tuproq ham suv ham Yer qobig'ida joylashgan".⁵⁸

Chag'miniy osmon jismlari haqida fikrini davom ettirib, shunda ma'lumotlarni berib o'tadi: "Quyosh barcha sayyoralar ichida eng yorug'i idil Quyoshni nur taratuvchi sayyoralarining markazi deyish mumkin. Unda

⁵⁶ Qarang: Islem ensiklopedisi. Yonetim Isam Turkiye, Diyanet Vakfi Islam Arastir Markezi, Istanbul, 1993.- 182,183.

⁵⁷ Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане 2-е изд. Под. Ред. Муминов И.М. и Хайруллаев М.М. -Ташкент: 1976, стр.378.

⁵⁸ Из истории точных наук на средневековом Ближнем и Среднем Востоке Под.Ред. Сирожиддинов Х.С. О научном творчестве Чагмини.-Ташкент: Фан, 1972, стр. 203-204.

tashqari o'zidan nur taratuvchi sayyoralariga quyidagilarni kiritish mumkin: Oy (Qamar), Yer (Arz), Merkuriy (Atorud), Venera (Zuhro), Mars (Mirrix), Yupiter (Mushtariy), Saturn (Zuhal) va boshqa yana bir qator sayyoralaridir. Ularning hammasi birgalikda Borliqni tashkil etadi.

Chag'miniy osmon jismlari haqidagi fikrlarini davom ettirib, shunday deydi: "Oy o'z nuriga ega emas. Kechayu kunduz oy nur taratib turadi. Lekin bu nur Quyoshnikidir. Oy ham o'z qobig'iga ega. U Yer atrofida aylanma harakatda bo'ladi. Barcha sayyoralar o'zining aylanish qobig'iga ega. Ular aylanish davomida bir-biriga xalaqit qilmaydilar. Chunki, ular bir-biridan aniq bir uzoqlikdagi masofada harakatlanadilar".

Chag'miniy o'zining astronomiyaga oid "Mulaxxas fi-l hay'a" kitobida borliqni elementar substantsiyasida fazoviy tuzilishini bayon etadigan ma'lumotlarni berib o'tadi. Buning asosida oliv yaratuvchi kuch yotadi. "Borliqni shakllari haqida gap ketganda, uning sanog'i, sifati, holati va ularning har biriga harakat xosligini ko'ramiz. Biz bu yerda elementar substantsiyaning quyi jismlari (masalan, Yer) va uning boshqa qobiqlar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz"⁵⁹.

Chag'miniy tabiattdagi unsurlar suv, tuproq, havo, olovni ham Borliqdagi o'rnnini tushuntirib beradi. Masalan, u "Tuproq bilan suv birgalikda Yer sharini tashkil etadi" degan fikrni bildiradi.

Chag'miniy osmon jismlari va sayyoralar birgalikda Borliqni tashkil etishini ta'kidlab o'tgan.

Chag'miniy o'zining tabiiy- ilmiy qarashlarida tabiat qonuniyatlarini asosida tushuntirishga harakat qilgan. "Barcha osmon jismlari,-deydi u,- o'zlarining umumiyligi tabiatiga egadirlar va ular doimiy ravishda harakatdadirlar"⁶⁰.

Chag'miniy yuqoridagi o'zining asarida osmon jismlari va ularning harakatlari haqidagi qarashlarini bayon etish barobarida borliq va uning attributlari haqidagi falsafiy fikrlarni bayon etganligi muhim ahamiyatga egadir.

Umumiy xulosa qilib, shuni ta'kidlash lozimki, Mahmud Chag'miniy XI asrlarda Movaraunnahrda erishilgan tabiatshunoslik va tabobatga doir fan yutuqlarini, ya'ni Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino erishgan yuksak ilmiy sulohiyatni Ulug'bek maktabigacha – XV asrlar o'rtalarigacha yetkazib berishda ko'priq mavqeini egalladi.

"BUYUK IPAK YO'LI" CHORRAHASIDA JOYLAGHAN SHAHAR

*Kamoliddin Toshov, Anvar Malikov,
Termiz Davlat universiteti magistrleri*

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan eski Termiz shahrining aholisi qondungi davrdanoq quruqlik va suv yo'llari nafaqat qo'shni mamlakatlar hulki sharq va g'arb davlatlari bilan ham qizg'in savdo – sotiq olib borgani

⁵⁹ Китоб йиде Руми Комментарии на Компендиум об астрономии Чагмини.-Ташкент: 1993, 40-б.

⁶⁰ Сироиков Х. Махмуд ибн Умар ал-Чагмини ал-Хорезми-великий ученый средневековья.-Навои Каракалпакского филиала АН УзССР, 1967.- №3-4.- стр. 29-30.

tarixdan ma'lum.O'zbekiston Respubliasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek "Bu yerda savdo yo'llari tutashgan tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir -birini boyitish jarayoni jadal kechgan bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin sharqdan Osiyo Tinch okeani mintaqasiga olib borilgan yo'llar shu yerda kesishadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik va suverentetni qo'lga kiritgandan keyin bu aloqalar jonlanib ahmiyati yana ham oshdi. Darhaqiqat, O'zbekiston umumjaxon bozoriga tobora faol tortilyotgan bugungi kunda uning qo'shni davlatlar bilan olib borilayotgan savdo-sotiq aloqalarini yanada yuqori darajada rivojlantirish uchun yaqin o'tmishdagi savdo yo'llarini va ularning yo'nalishlarini aniqlash bu borada o'tmish tajribasidan unumli foydalanish muhim ilmiy ahamiyatga moillik dolzarb vazifalardan biriga aylandi". Kushon podsholigining ilk bosqichining ko'hna dunyo mamlakatlari va xalqlar tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Qit'alaroro savdo yo'li "buyuk ipak yo'li" to'liq shakillangan. Bu davrda Termiz shahri ham asosiy savdo yo'li va uning ko'plab shaxobchalari betinim faoliyat ko'rsatib kelgan Balxdan shimolga qarab yo'l olgan karvon Oks daryosidan kechuv joylari orqali Tarmita ya'ni (Termiz) ga kirib kelgan. Undan so'ng karvonlar Angor, Sherobod vohalari va Sherobod daryo havzasi yoqalab "temir darvoza"ga yo'l olgan shimoliy Baqtriyaning ichki aloqalari mahalliy savdo yo'llari ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarmitadan ilk kushon davridan boshlab sharqqa qarab bir necha savdo yo'li shakllangan bularning biri Pattakesardagi kechuv joyi orqali Oks daryosi yoqalab Qo'bodiyonga qarab yo'nalgan bo'lsa ikkinchisi Chag'onrudning o'ng qirg'og'i bo'ylab borilgan. Termiz aholisi Sug'd, Xorazm, Parfiya bilan bir qatorda Chimo chin shimoliy Hindiston va O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan yaxshi savdo aloqalari olib borganlar.

O'zbekistonning arxeologik olimlari A.Asqarov, Sh.Shaydullayev va T.Annayevlarning fikricha Termiz va uning atrofidagi Koratepa, Fayoztepa va boshqa joylardan topilgan ashyoviy dalillar hozirgacha qad ko'tarib turgan Zurmala, Al-Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat tarixiy me'moray inshootlari Termiz shahri ham "Buyuk Ipak yo'li"da joylashganidan dalolat beradi.

Termizda kulollar mahallasi bir necha gektarni tashki etgan. Bu shaharda kulolchilik ustaxonalari mahallasi bilan bir qatorda temirchilik mahallasi, shishasozlar mahallasi bo'lgan paxtachilik asosida to'qimachilik taraqqiy etgan. Chag'yonning Darzanch qishlog'i to'qimachilik sanoatning markazi hisoblangan.

Termiz kulollari o'rta asrlarda simob ko'zalar yasashda ham mashhur bo'lganlar ular yasagan simob ko'zalar nafaqat Movarounnahr bozorlarida, balki Xorazm, Xuroson, Iroq va Hindiston bozorlarida ham sotilgan.

Shu davrda Termizda hunarmandchilikning boshqa sohalari ham taraqqiy etgan. Bu borada kemasozlik, sovun tayyorlash sohalarini qayd etish mumkin shaharda tayyorlangan katta kichik kemalar Amudaryo bo'yida joylashgan shaharlar o'rtasida qatnab turgan. Manbalarda qayd etilishicha, Termiz kemasozlari yirik shohona kemalar ham yasashgan. Bu kemalarda Termizga kelgan shohlar, sultonlar daryoda suzib hordiq chiqarishgan.

Aholining ko'payishi tufayli shahar hududi kengaydi. Ko'plab ma'muriy

binolar, madrasa va masjidlar, karvonsaroy va hammomlar qurilib foydalunishga topshirilgan. Bu davrda Termizni obodlashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Shunday qilib buyuk ipak yo'lida joylashgan Termiz shahrida savdo – sotiq, to'qimachilik, hunarmandchilik sohalari taraqqiy topdi. Shuningdek, o'z mahalliy mahsulotlari bilan ichki va tashqi bozorni ta'min etishga muvaffaq bo'lishgan.

QO'QONLIK FIDOKOR JADID

Lutfullo Usmonov,

Qo'qon Davlat pedagogika instituti "Umumiy tarix" kafedrasi magistranti

Farg'ona taraqqiyparvarlarining yirik namoyandalaridan biri Qo'qonlik jadid, maorif jonkuyari, qatag'on qurbanbi Abdulvahhab Ibodiyyidir. U o'z davrida Farg'onaning mashhur jadid muallimlaridan edi.

Abdulvahhab Ibodiyy O'zbekistonda xalq maorifini rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan, ko'plab taniqli ziyolilarni yetishtirib chiqargan insondir.

Ibodiyy 1877 yil Qo'qon shahrining Eski aravabozor mahallasida kosib oilasida dunyoga keladi. Maktab yoshiga yetgach, mahalla mакtablarida ta'lim oladi. So'ngra, uni 14 yoshida madrasaga o'qishga berishadi. Keyinchalik Mulla Shoazim (No'g'oy domla) ning yangi usul maktabini tamomlagan Mulla Abdulvahhab 1901 yil o'zi ham So'fi Badal Eshon Xonaqohida «Maktabi Vahobiya» nomli yangi usul maktabini ochadi.

H. H. Niyoziyning o'z kundaliklarida qayd etishicha, o'sha kezlarli Qo'qon ma'rifatparvarlari tomonidan tashkil etilib turilgan ittifoq majlislari (Jamiyat Hayriya)larda shaharning mashhur muallimlari, ilm-fan fidoiylari ishtirok etganlar. Jumladan, ular orasida Raimjonhoji, Ashurali Zohiri, Mahmudjon qori va boshqalar bo'lib, bular qatorida Abdulvahhab Ibodiyy ham bo'lgan⁶¹.

Ibodiyy, H. H. Niyoziy, I. Davron kabi bir qator ma'rifatparvar va millatparvar yoshlarni Qo'qonlik Solijonboy 1914 yil musulmonchilikdag'i besh farzdan birini bajarish uchun muborak haj safariga jo'natdi. Abdulvahhab yo'l - yo'lakay qo'shni sharq mamlakatlari, xususan, Turkiyadagi o'quv tizimi bilan yaqindan tanishadi. Qo'qonga qaytib kelgach, safar jarayonida orttirgan tajribalariga asoslangan holda o'zi ochgan maktabda faoliyatini davom ettiradi. Keyinchalik, ya'ni 1914 yildan e'tiboran, Abdulvahhab o'zi ochgan yangi usul maktabini «Urfon» nomi bilan atay boshlaydi⁶². Ushbu maktab 1919 yili okrug xalq maorifi sho''basining qaroriga muvofiq, birinchi namuna o'zbek maktabiga aylantiriladi⁶³.

Farg'ona jadidlari tomonidan 1914-1915 yillarda chop etilgan «Sadoyi Farg'ona» gazetasida uning bir necha maqolalari bosilib chiqqan. Abdulvahhab Ibodiyy ayni paytda mazkur nashrning tashkilotchilaridan biri

⁶¹ Hasanov S. Adibning kundaliklaridan //Toshkent Haqiqati.-1990.-6 mart.

⁶² Usmonov Islom. Qanoat va qanoat.-Toshkent: Sharq, 1996.-B.83.

⁶³ Olimov A. Noyob sur'at tarixi //Guliston.-1989.-№4.-B.31.

bo'lgan⁶⁴.

Gazetaning 1914 yilgi sonlarining birida Ibodiyni «Turkiston ahli nima uchun inqirozga yuz tutdilar?» nomli maqolasi bosilgan bo'lib, unda muallif asosiy e'tiborni maktab, madrasalar va darsliklarning islohiga qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, o'lkamizdag'i ma'rifat maskanlarida rivojlangan xalqlarning ilm-fan sohasidagi yutuqlaridan foydalanib, ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish kerakligini uqtirib o'tadi.

Bizga ma'lum arxiv ma'lumotlariga ko'ra Farg'ona vodiysidagi usuli savtiya maktablarida Ibodiy tomonidan tuzilgan darsliklardan foydalanilgan. Farg'ona vodiysidagi yangi usul maktablarida Fotih Karimov, Munavvar qori Abdurashidxonov, Said Rasul Azizov va boshqalar tomonidan tuzilgan darsliklar bilan bir qatorda Ibodiyning ilmiy meros sifatida qolgan 1912 yil Toshkentda chop etilgan «Tashil ul-alifbo» darsligi, Toshkentda 1913 yil chop etilgan, ilohiyot Fani bo'yicha va diniy tarbiyaga oid «E'tiqodoti Islomiya» asarlaridan keng foydalanilgan.

«Tashil ul-alifbo» kitobi 48 sahifadan iborat bo'lib, bugungi kunda uning bir nushasi O'zR FA Sharqshunoslik Instituti fondida 673-raqam ostida saqlanmoqda. O'z vaqtida bu kitob boshlang'ich maktablarning birinchi sinf o'quvchilari uchun usuli savtiya alifbo darsligi vazifasini o'tagan. Kitob so'nggida Ibodiy darslik yozishdan maqsad va muddaosini bayon etgan holda, o'z muallimlik faoliyati haqida shunday deydi: «...Va ham faqir muddat 12 yildan buyon muallimlik xizmatidadurman. Bir - ikki ming yosh sabiy bolalar va bir mavhum besavod qolgan katta odamdin ahli savod bo'lub qoldilar...»⁶⁵

Ibodiy 1921-1923 yillarda «Qo'shchi» ittifoqida oziq-ovqat tayyorlov idorasida mudir bo'lib ishlaydi. Lekin shu paytda ham u madaniy-ma'rifiy ishlarni davom ettiradi. 1923 yil maorif sho'basi Ibodiyga ikkinchi bosqich o'zbek maktabini tashkil qilish vazifasini topshiradi. Bu ishni u muvaffaqiyat bilan bajaradi⁶⁶.

Ibodiyning mакtab va maorif sohasidagi 36 yillik xizmatlarini inobatga олган holda, O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti 1936 yil 14 oktyabrdagi qarori bilan uni «Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlaydi va shaxsliy nafaqa ta'sis etadi. Bu unvonga u birinchilardan bo'lib sazovor bo'lgan edi. Lekin 30-yillarning mudhish voqealari maorif jonkuyarini ham chetlab o'tmadi. Fidoiy inson «xalq dushmani» tamg'asi bilan 1937 yil 10 sentyabrdagi hibsga oлindi. Hibsga olinish arafasida u Qo'qondagi 1-bolalar uy internatining direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlar edi.

Hibsga olish uchun unga qo'yilgan ayblar quyidagilar : 1914 yil Istanbul shahriga borib, turk siyosiy arboblari bilan uchrashgan, buning uchun u panturkist sifatida qoralangan. Turkiston Muxtoriyati davrida millat taqdiri, manfaatlari haqidagi qarashlardan iborat adabiyotlarni tarqatish uchun «Hayrat» jamiyatini tuzgan, buning uchun u burjua millatchisi del

⁶⁴ Qozoqov T. Millatparvar muallim edi... //Qo'qon sadosi.-1999.-8 avgust.

⁶⁵ Til taraqqiyot omili "Salohiyat" ilmiy maqolalar to'plami. 2013. -B. 18-21

⁶⁶ Raimova G. Ma'rifat fidoyisi //O'qituvchilar gazetasi.-1989.-4 fev.

qoralangan. «Ta'mimi maorif»(«Sho'roi Islomiya» ning bir bo'lagi) aksilinqilobiy tashkilotining a'zosi bo'lganligi, bolsheviklar ta'rifiiga ko'ra, «eskilik sarqiti» deb yo'q qilinishga kirishilgan madrasa, masjid, diniy ulamolar to'planadigan binolarning tugatilishiga qarshi chiqqanligi, bu harakatlarga keskin norozilik bildirganligi, sovet hokimiyatining siyosati o'zbek xalqining moddiy ahvolini yomonlashishiga olib kelganini e'tirof etganligi, O'zbekistonning sofdir va fidoiy insonlarini qamoqqa olishmoqda, deb haqiqatni oshkora ta'kidlagani tufayli «sovietlarga qarshi tashviqot» yuritishda ayblangan⁶⁷.

1937 yil 27 noyabrdan O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «Uchlik» komissiyasi A. Ibodiyni o'n yil xat olmaslik sharti bilan mehnat tuzatish lageriga jo'natish yuzasidan hukm chiqardi.

Ichki Ishlar Xalq Komissarligining 1947 yil 25 fevraldag'i xabarnomasida Abdulvahhab Ibodiyni 1942 yil 3 iyulda vafot etganligi qayd etilgan.

Farg'onan viloyat sudining 1956 yil 16 oktyabr qarori bilan O'zbekiston SSR IIXK «Uchlik» komissiyasining 1937 yil 27 noyabr qarori bekor qilindi. Ma'rifat fidoyisining nomi qayta tiklandi. Bugungi kunda Qo'qon shahridagi № 12 sonli bolalar uyi uning nomi bilan yuritilmoxda.

MUSTAQILLIK BUYUK NE'MAT

Izzatillo Omonov,

*Nam DU Tarix yo'nalishi 401-guruh talabasi
T.Q.Qozoqov, ilmiy rahbar, tarix fanlari nomzodi*

Darhaqiqat, o'zbek xalqi mustaqillikka tinch yo'l bilan erishgan bo'lsada, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib tuqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o'rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma'naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to'siqlar bilan xalqdan ajratib qo'yishdek illatga barham berildi.

«...O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'limas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...»-ligini I.A.Karimov, alohida ta'kidlab o'tdi.

Milliy istiqlol yo'lida ming-minglab vatan yurt fidoiylari aziz jonlarini qurban qildilar. Milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish, mushkul vazifa. Har qonday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegarlarini doxsizligi-o'sha mamlakat fuqarolarini o'z yurtiga, mehr-muhabbatli qilib turbivalanganliklari vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo'lsa, jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek olivjanob fazilatga ega bo'leshlariga bog'liqdir. Bu fazilatlarni yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlar uniga qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

TARIX VA ETNOGRAFIYA

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiylar davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomilashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga ma'lum.

Mustaqillikka erishish, ajdodlarimizning boy milliy-ma'naviy merosini tiklash, milliy-ma'naviyatimizni yuksaltirish doimo xalqimizning asriy orzularidan bo'lib kelgan.

Ma'lumki, qadimiylar Turkkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiy mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, hasadu havasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtahalarini avj oldirib kelgan. Bu yurtga, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchil galalar bostirib keldi va xalqini asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. Har safar bu yerning vatanparvar xalqi o'z vatanini mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiylar boshlab dushmanlarga qarshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosini, Eron shohlari va Yunon-makedon, Eftalitlar, arablar va mug'ul – tatar bosqini, Chor Rossiyasi, Sovet davlatining istilochilik harakatlarini eslab o'tish kifoyadir.

Dushmanlarga qarshi olib borilgan kurashlar haqida gapirganda, Kayxusrav boshchiligidagi Eron bosqinchilariga qarshi kurashda ayol bo'lsada, xalqi uchun mardlik va qahramonlik ko'rsataolgan dovyurak To'marisni eslamay ilojimiz yo'q. Hech narsadan tap tortmay, o'z xalqini himoya qilgan, yurti, ona tuprog'ini har narsadan ustun qo'ygan, dushmanning makrhiylasini ziyraklik bilan sezgan bu ayol qahramonligi tarix sahifalarida abadiy muhrlangan.

Vatan takdiri, ona yurt tuprog'ini muqaddas bilish, uning ozodligi, istiqboli uchun kurash tuyg'usi xalqimizning qon-qoniga, ruhiyatiga chuqur singib ketgan. Ular qullikdan ko'ra, istiqlol uchun, hur yashash uchun, Vatanning ozidligi uchun jon fido qilishni afzal ko'rib yashashgan.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladidi. Milliy ong uyg'ondi. Millat o'tmishi va istiqlol bilan bog'liq madaniy boyliklariga nisbatan munosabat o'zgardi. Ajdodlarimizning tarixi, ularidan meros bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy ma'daniyat, urf-odat qadriyatlarni o'rghanishga, ularni zamon talabi asosida qayta tiklashga kirishildi.

Bugungi kun yoshlarining asosiy vazifalari mustaqillikning qadriga yetib, uni ulug' ne'mat sifatida bilib, asrab avaylashdan iboratdir.

TOLSTOV – QADIMGI XORAZM TILSIMINI OCHIGAN OJIM

*Jahongir Tojiboyev, 2-sonti DİMİT u'qituvchisi
Dönlövorchek Kratnuy,
Nam DU tarix yo'nallishi 2-kurn tatalanai*

1873-yil 23-mayda chor Rossiyasi qo'shini Xiva xonligini zabit etdi. Fon Kaufman bu o'lkada g'alaba nashidasini surayotgan damda, Germaniyadan dunyoni lol qoldirgan shov-shuv tarqaldi: "Shlemen Troya qal'usini topdi", "Uch ming yillik nodir qurol-aslahalar Turkiyadan Berlinga keltirilib museyga qo'yildi"... Bunday xabarlar Xorazmdagi bosqinchi amaldorlarni ham xuddi Shlemen singari nodir topilmalarni topishga undadi...

Chor hukumati Turkistonda ham shu kabi ishlarni amalgalashishni, topiladigan bor moddiy, ma'naviy buyumlarni Peterburg, Moskvaga tashishni istab qoldi. Shu niyatda Fon Kaufman topograf, etnograf, geograf olim-ofitserlardan qadim qal'alar aks etgan tarixiy va jug'rofiy ma'lumotlar xaritasini tayyorlab berishni iltimos qildi. Ammo "yarim poshsho" Fon Kaufman, ilm-fan masalalarini harbiy va siyosiy masalalar kabi "bir zarb" bilan hal qilish mumkin emasligini anglamadi. Zero, necha ming yillik qal'a va makonlarni qum barxanlari ostidan izlab topishdek ishni bajarish uchun, mustahkam e'tiqod, xudo bergen iqtidor, fan yo'lidagi fidoiylik zarurligini bosqinchi chor generali o'ylab ham ko'rmasgandi. Shu bois fon Kaufmanning orzusi armon bo'lib qoldi.

Oradan yillar o'tib esa, qadimiy Xorazm qal'alarini sirini ochib, Genrix Shlemendek dovrug' taratish Fon Kaufmanga nisbatan butunlay boshqacha dunyoqarashdagi yana bir russiyalik kishiga nasib etdi. Ana shu buyuk shaxs Sergey Pavlovich Tolstov edi.

S.P.Tolstov 1907-yil 25-yavnarda Peterburgda oliy kazak ofitseri oilasida tug'ilgan⁶⁸. Tolstoving 3 ta ukasi bo'lgan. Ota-onalari vafotidan so'ng ular 2-Peterburg kadet korpusida, 1917-yil voqealaridan keyin Orenburg kadet korpusida ta'lim-tarbiya olishgan⁶⁹. Keyinchalik, Moskvadagi mehribonlik uyida tarbiyalanganlar.

1923-yilda S.P.Tolstov Moskva Davlat Universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi. So'ngra o'qishini 1930-yilga qadar antropologiya ixtisosligi bo'yicha tarix-etnologiya fakultetida davom ettirdi⁷⁰. U inqilobgacha bo'lgan davrning mashxur antropologi va etnologi professor D. N. Anuchindan ushbu ilmning sirlarini o'rgandi. Ustozi kompleks arxeologo-ethnologik ekspeditsiyalar uyushtirib turardi. Tolstov ham ekspeditsiyalarda faol ishtiroy etardi. Bunday ekspeditsiyalardan biri 1925-yil turli xalqlar yashaydigan, aholisi musulmon va xristianlardan tarkib topgan Volgabo'yida

⁶⁸ Bekmuhammad Umid. Xorazm tarixidan sahifalar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. – B.182.

⁶⁹ Germanov V. A. S. P. Tolstov: maître, docteur, commandeur, ou l'histoire à travers l'archéologie et l'ethnographie //Cahiers d'Asie Centrale. Karakalpaks et Autres Cens de l'Aral. Centre Rivages et déserts. Tachkent – Aix-en-Provence, 2002. – P. 193-216.

⁷⁰ O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 8 – jild. Solnoma – To'ytepa /Tahrir hay'ati A. Azizzo'jayev, M. Aminov, T. Damirov va boshq. – Toshkent, 2004. – B.488.

joylashgan Nijniy Novgorod hududida bo'lib o'tdi⁷¹. O'shandayoq Tolstovda musulmon madaniyatiga nisbatan qiziqish uyg'ongandi.

1929-yilda Tolstov birinchi marta Xorazm vohasida P.Preobrajenskiy boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiyada qatnashdi. Ular 24 ta turkman qabilalaridan biri bo'lgan yovmud qabilasi o'rtasida ilmiy izlanishlar va kuzatuv ishlarini olib bordilar. Bu ekspeditsiya tarkibida sobiq SSSRdagi bosh etnologlardan biri Sergey Alekseyevich Tokarev ham bor edi⁷².

Tolstov Xorazm vohasida ishlashda davom etdi va 1932-1934-yillarda sobiq SSSR xalqlari etnografiya muzeyi ekspeditsiyasiga boshchilik qildi. Bu davr nafaqat tarix va madaniyat, balki fanning ko'plab sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ham qiyin edi. 1929-yilda mamlakatda Stalin diktaturasi o'rnatilgandi. 1930-1933-yillarda 120 ga yaqin xalqlar kolxoza lashtirish va jamoalashtirish qurbaniga aylandilar. 1933-yilda butun mamlakat miqyosida o'lkashunoslikni o'rganish bo'yicha ilmiy va madaniy muassasalar o'rtasida aloqa uzib qo'yildi⁷³. Shunday bo'lsa-da Tolstov o'qib izlanishda davom etgan. 1929 – 1936-yillar davomida sobiq Ittifoqning "Xalqlar do'stligi" muzeyida ishladi⁷⁴.

1935-yilda S.P.Tolstov Buxoro hududida bo'lgan 586-yilgi ijtimoiy kurashga bag'ishlangan nomzodlik dessertatsiyasini yakunladi⁷⁵.

Shaxsga sig'inish avjga chiqqan 1937-yil bahor fasli boshlarida Tolstov boshchiligidagi ekspeditsiya Amudaryoning janubiy sohillari bo'ylab Xorazm vohasiga kirib keldi. Ekspeditsiya ixtiyorida o'ttiz to'rt nafar ilmiy xodim, bitta mashina, o'n to'rtta tuya, yigirmata ot, eshaklar va boshqa kerakli asbob - uskunalar bor edi⁷⁶.

U arxeologiyada birinchi bo'lib toporafik suratga olish ishlarida samolyotdan keng foydalandi. Olib borilgan dastlabki tekshirishlaridayoq topilgan ashyoviy dalillar Tolstovning ilmiy farazlari to'g'riliqi qadim qal'alar qum barxanlariga o'z sirlarini bekitib olganini ko'rsatdi. Shu taripa 1937-40 yillarda ekspeditsiya ko'plab qal'alarni o'rgandi. Ammo...

Ammo 1941-yilning iyunida boshlangan urush ishni orqaga surdi. Sergey Tolstov ham ko'ngilli bo'lib urushga jo'nadi. Og'ir artilleriya kapitan S.Tolstov Moskva atroflaridagi janglardan birida oyog'idan yaralangan, Xorazmga qaytib keldi. Ekspeditsiya oz sonli kishi bilan ham tadqiqotlarini davom ettirdi. Urush tugagach esa, Sergey Pavlovich tarix ummonligi butunlay sho'ng'ib ketdi.

⁷¹ Qarang: Жданко Т. А., Итина М. А. Сергей Павлович Толстов (1907-1968) // Советская этнография. – 1977. № 2. – С. 16-18.

⁷² Итина М.А. Проблемы археологии Хорезма (К 90-летию Хорезмской экспедиции) //http://turklib.ru/?action=search&author=&catid=0&postdate=&search=Tolstov http://www.edenhell.net/en/persons/detail/60052/

⁷³ Yatsenko S. A. The Biggest Expedition Studying the Ancient Iranian World (Chorasmian Expedition of S.P. Tolstov) // Transoxiana. Número 12 (Ed. by Paola Raffetta). Roma, 2007 // http://www.transoxiana.org

⁷⁴ Утенов Н. Исследователь древней истории народа // http://museum-s.info

⁷⁵ Qarang: Жданко Т. А., Итина М. А. Сергей Павлович Толстов (1907 - 1968) // Советская этнография.1977. – № 2. – С. 16-18.

⁷⁶ Bekmuhammad Umid. Xorazm tarixidan sahifalar.-Toshkent: Yangi ast avlod, 2009. 111

Sergey Pavlovich Xorazm o'lkasiga kelib, bu yerda ilmiy tadqiqotlari olib borishini "Xorazm madaniyatini izlab" asarida quyidagi sabablar bilan izohlaydi:

Birinchidan, XIX asrning mashhur olimlaridan biri bo'lgan Elize Reklyuning asarlaridan ilhomlangan holda, ya'ni uning asarlarida keltirilgan qadimiy mayyalar yaratgan Yukatan va Gvatemala barpo etilgan dabdabali obidalar, Janubiy Afrikaning Limpopo daryosi sohilidagi Zimbabvening sirli xarobalari, Angkorvat (Hindi-Xitoy) va Borabudur (Indoneziya) saroylari va ibodatxonalarini vayronalari hamda boshqa ko'pgina yodgorliklarga bag'ishlangan satrlarni qunt bilan o'qigach, o'zining qalb tubiga o'sha davrda juda kam o'rGANILGAN O'rta Osiyo etnografiyasini va arxeologiyasini, shu jumladan, Xorazmning mutlaqo o'rGANilmagan sivilizatsiyasini o'rganishni tuyib qo'ygandi.⁷⁷

Ikkinchidan, talabalik yillarda Volgabo'y'i xalqlari etnografiyasi bilan shug'ullangan davrda bu xalqlarning moddiy va ma'nnaviy madaniyatlarini o'rganish jarayonida bu madaniyatning talaygina elementlari qadimgi zamonlarda uning O'rta Osiyo bilan aloqalari bo'lganligidan dalolat bergen. Shu sababli ham u O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda tadqiqot olib bordi.

Uchinchidan, S. P. Tolstovning Xorazmga qiziqishini sababi o'sha davrda Sharq tarixi haddan tashqari chalkashtirilib yuborilgan edi. Shu boisdan ham u G'arb xalqlari singari Sharq xalqlari ham murakkab progressiv taraqqiyot yo'llini bosib o'tganliklaridan, ular ham o'sha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarni boshlaridan kechirganliklaridan, tarix Sharq boshqa - yu G'arb boshqa degan gapni bilmaslidan dalolat beruvchi rad qilib bo'lmaydigan hujjatlar topishi kerak edi. Bu vazifani amalga oshirishda Xorazm materialiga ko'p umid bog'lagan edi.

Asarda keltirilishicha, Tolstov ilk bor Xorazmda 1929-yilda bo'lgan⁷⁸. To 1936-yilga qadar Xorazm vohasi va unga chegaradosh joylarning aholisi hayoti bilan mashg'ul bo'lib, asosan etnografiyaga oid ma'lumotlar to'plagan.

Professor Nikolay Ivanovich Matveyevning Sergey Tolstov oila a'zolari tikridan kelib chiqib aytishicha, 1976- yil 28-dekabrda Moskvada hayotdan ko'z yumgan arxeolog vafotidan bir kun oldin Xorazm qovunini so'ragan, jisudini Xorazmga dafn etishni iltimos qilgan ekan⁷⁹. Ammo, afsuski, Xorazm tarixiga, san'ati va madaniyatiga bir umr muhabbat qo'ygan olimning bu ikki istagi ham amalga oshmadidi.

S. P. Tolstov va uning ekspeditsiyasi tomonidan qilingan izlanishlar hozirgi kunda Xorazm, balki O'rta Osiyo tarixini ham yoritishda muhim o'rین tutmoqda.

⁷⁷ Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964. – B.6.

⁷⁸ Сагунаев А. , Абдуллаев У. История Хорезма в свете исследований С. П. Толстова (эпоха бронзы и раннего железа) //O'zbekiston tarixi. –2007. – № 4. – Б. 4 – 10.

⁷⁹ Muhammed Umid. Xorazm tarixidan sahifalar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. – B.186.

FARG'ONA VILOYATI BOSHQARUV TIZIMIDA MAHALLIY BOSHQARUV TARTIBLARI (XIX ASR OXIR XX ASR BOSHLARI)

*Xushnudbek Mamadaliyev,
Nam DU "Tarix fanlari" kafedrasi o'qituvchisi*

O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi tomonidan asosan Farg'ona vodiysini o'zida birlashtirgan Qo'qon xonligi tugatilgandan so'ng ushbu mintaqada asrlar davomida shakllanib, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalar bilan chambarchas bog'lanib ketgan mahalliy boshqaruv tizimi rejali ravishda, imperiya manfaatlaridan kelib chiqilgan holda o'zgartirildi.

Farg'ona viloyatining tub joy aholisi Rossiya imperiyasining mustamlakachilikka asoslangan ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimiga kiritiladi. Buning natijasida tub joy aholining tarixiy boshqaruv qoidalari o'rniga imperiya va uning mustamlakalariga mos ravishdagi tartib qoidalari joriy qilinadi.

Bosib olingan hududlarning ma'muriy-hududiy jihatdan bo'linishida mustamlakachi hukumat eng avvalo oson va qulay boshqarilishi, nazorat qilinishi, soliq va to'lovlar to'liq yig'ib olinishi, ko'chmanchi aholini orasidagi urug'chilik munosabatlарини tugatish, o'troq aholida katta mulkdor, hurmat va obro'ga ega kishilar, ruhoniylar, ko'chmanchi aholida urug'boshliqlari, boylar mavqeiga zarba berishni maqsad qilgan edi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida dastlab o'troq aholida xonlik davridagi hukmdorlarni, ko'chmanchi aholida esa sulton va urug'boshliqlarini yo'q qilish vazifasi turgan⁸⁰. Mustamlakaga aylantirilgach, viloyat tub joy aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida mavjud shariat qonunchiligi asosida faoliyat olib boradigan, aholi tomonidan katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan qozikalon lavozimi tugatiladi.

Viloyatda mustamlaka hukmronligi o'rnatilgandan so'ng viloyat uyezd-larga, uyezdlar volostlarga, volostlar o'troq aholi yashaydigan hududlarda qishloqlarga, ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlarda esa ovullarga bo'lindi. Boshqaruv tizimining quyi bosqichida volost boshligi, qishloq oqsoqoli, ovul boshlig'i, xalq sudyalari va ularniig yordamchilari, ariq oqsoqoli, mirob, o'nboshi, ellikboshilar kabi lavozimlarda yerli aholi vakillari ish olib borgan. Oqsoqol jamoaning ichki ishlarini hal qilishda ham muhim o'rinn tutgan. U to'y marosimlari, har xil aholi o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilgan. Oqsoqol hashar kabi ommaviy tadbirlar kunini belgilab, uni uyuştirgan. Kambag'allarga jamoa mablag'i hisobidan qishloqqa tegishli daraxtzorlardan foydalanib, hashar yo'li bilan uylar qurib berilnshini tashkil qilgan, Oqsoqolsiz biron bir to'y, marosim, tantana, tadbir o'tkazilmagan. Oqsaqollar alohida imtiyozlardan foydalanmas, shaxsiy qo'riqchilarga yega bulmasada xonlik davrida oqsoqollar saylov muddatini beklar aniqlagan. Saylangan oqsoqollarni beklar tasdiqlagan. 1867 yilgi «Nizom» loyihasiga

⁸⁰ Sharafiddinov A. Farg'ona viloyati tarixidan lavhalar.-Farg'ona, 2013.-50 bet.

muvofig esa saylangan oqsoqollar 3 yil muddatda faoliyat olib borishlari belgilab qo'yilgan⁸¹.

Oqsoqollar aholidan soliqlarni asosan ekinzorlarda hosil yig'ib-terib olingandan keyin to'plaganlar. Soliqlarni to'plaganlarga maxsus chek berilgan va soliqni volost boshlig'iga topshirganlar. A.Pisarchikning ma'lumotida oqsoqollarning vazifasi aholidan turli soliqlarni yig'ish bo'lgan. Bunda unga 20 mirshab yordam bergan⁸².

Volost boshlig'i uch yil muddatta saylanib, 1867 yilgi «Nizom» bo'yicha yiliga 300 rubl miqdorda mablag' bilan ta'minlanishi ko'rsatiladi⁸³. Volost boshlig'i ish faoliyati davomida uyezd boshlig'i tomonidan beriladigan bronza nishonini ta'qib yurgan. Ularning xar biri o'z muhriga ham ega bo'lib, nishon va muhrning shakli general - gubernator tomonidan belgilangan. Nishon va muhr o'lka ma'muriyati mablag'i xisobidan tayyorlangan. Faoliyat olib borishni to'xtatganlar nishon va muhrni uyezd boshlig'iga o'zidan keyingi kishi foydalanishi uchun topshirgan. Volost boshlig'i o'z volostida boshqaruv va politsiya ishlarini olib borgan. Volostdagi aholini tinchligi, soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilgan. U volost bo'yicha uyezd boshlig'ini barcha topshiriqlarini bajargan.

Mahalliy boshqaruv vakillari o'rtasida ellikboshi alohida mavqeni egallagan. Ellikboshi - qishloq yig'inida saylangan, qishloq jamoasidagi 50 ta xo'jalikka boshchilik qilgan. Bu miqdor ba'zan ortiq yoki kam ham bo'lishi mumkin bo'lgan. Ba'zi qishloqlarda faqat ellikboshi bo'lgan. Har bir mahalada ellikboshi saylangan. A.Pisarchikning ma'lumotiga qaraganda XX asrning boshida Qo'qon uyezdida 140 ta ellikboshi bo'lgan⁸⁴.

Mahalliy boshqaruv tizimida «Oqsoqollar kengashi» muhim ahamiyat kasb etgan. Oqsoqollar kengashiga qishloq jamoasini nazorat qilish vazifasi yuklangan bo'lib, ularning tarkibi qishloq yig'inida saylangan. U nizolarning oldini oluvchi, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi bo'g'in hisoblangan.

Oqsoqollar kengashi hasharlarni tashkil etish, jamoa uchun kerakli mablag'lar yigish, to'y, yer-suv, ijtimoiy turmush va boshqa masalalarda vujudga kelgan muammolarni hal qilish bilan shugullangan. Kengash qishloq turmushiga oid muhim qarorlar chiqargan. Kengash tarkibiga oqsoqol, mirob, yoshi ulug' kishilar kirgan. Kengash a'zoligiga nomzodlar qishloq yig'ini tomonidan muhokama qilinib, ochiq ovoz berish yo'li bilan saylangan. Kengashning biror a'zosi keksayib yoki kasal bo'lib qolganda unga munosib nomzod topilsagina, bu a'zo almashtirilgan. Kengash majlisi choyxona, masjid, mehmonxonalarida o'tkazilgan, yoz oylarida bog'larda va hovuz atrofidagi supalarda o'tkazilgan. Kengash a'zolari moddiy jihatdan rag'batlantirilmagan.

XIX asrning 90-yillaridan boshlab podsho hukumati viloyatda o'z

⁸¹ Abdurahimova N.A., Ergashev F.R. Turkistonda chor mustamlaka tizimi... – B.219.

⁸² История Коканда. – Ташкент: Фан, 1984.- С. 9.

⁸³ Bakirov F. Chor Turkistonda sud, shariat va odat. – Toshkent: Fan, 1967.-B. 44.

⁸⁴ История Коканда. – Ташкент: Фан, 1984.- С.10.

hukmronligini o'rnatib olgandan keyin boshqaruv sohasidagi tartiblar kuchaytirishdan iborat bo'lgan siyosatning ikkinchi bosqichi boshlangan. O'tgan o'n yildan ortiq davr mobaynida viloyat hayoti o'rganilib, yerli aholining turmush tarzi va yashash xususiyatlari bilan tanishilgach, boshqaruvning quyi bo'g'ini mustamlaka manfatlariga yanada moslashtirishga, uni to'liqroq bo'yisindirishga jadal kirishilgan.

Yangi joriy etilgan boshqaruv tizimi amal qilinayotgan an'analarga to'g'ri kelmagani uchun qonun buzilishlari yuzaga kelgan. Boshqaruv tizimining quyi bo'g'ini va podsho hukumati o'rtasidagi tushunmovchilik natijasida ma'muriy o'zboshimchalik bilan tayinlangan yoki saylovlarda adolatsizlik bilan ko'p ovoz olgan mansabdor shaxslarning poraxo'rliги vujudga kelgan va avj olgan.

Mahalliy boshqaruvning sun'iy ravishda joriy etilgan shakllari samarasizligi muammosi bilan duch kelgan mustamlakachi ma'muriyat bundan so'ng an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xosligini hisobga olishga majbur qilgan. Lekin bu borada podsho hukumati aniq amaliy chora ko'rmaydi.

Joriy qilingan boshqaruv tizimi qonunlari yerli aholining mahalliy an'analari asosida tashkil qilingandek ko'rinsada, aslida uning zamirida mustamlakachilik manfatlarini himoya qilish, yerli aholi vakillari ishtirot etadigan boshqaruvning mustamlakachi hukumatga itoat etishi tamoyillari yotadi. Bizga ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarida azaldan halol, aqli, jasur va to'g'ri so'z odamlar hurmat qilib kelingan. Xuddi ana shu odamlar aholi tomonidan asrlar davomida rasmiy ravishda saylanmaydigan, tayinlanmaydigan, maosh olmaydigan jamoat boshqaruvchisi (qishloq va mahalla oqsoqollari) lavozimiga saylanib, ular mahalla, qishloq, ovul, urug'larni boshqarib kelganlar.

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona viloyatidagi boshqaruv tizimida mahalliy idoralarning o'rni va ularning asosiy funktsiyasi asriy an'analarga asoslangan edi. Mustamlakachi hukumat o'zbek xalqi va boshqa tub yerli xalqlarning mavjud boshqaruv tartibini o'zgartarish uchun qat'iy harakat qilsa ham, o'z maqsadiga erisha olmadi.

QO'QON VA XIVA XONLIKHLARI O'RTASIDAGI SAVDO ALOQALARI

*Iqboljon Orziyev,
Nam DU Tarix yo'nalishi 401-guruh talabasi*

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan.

Qo'qon xonligining Xiva bilan savdo aloqalari asosan Buxoro xonligi bozorlari va bu davlat hududidan o'tgan karvon yo'llari orqali olib borilgan. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi hududlarining kengayib borishi natijasida qozoq dashtlari orqali ikki xonlik chegaralari tutashib ketgan va to'g'ridan-

to'g'ri savdo aloqalarini olib borish imkoniyati paydo bo'lgan. Biroq, bu hududdan o'tgan karvon yo'llarining uzoqligi, noqulay sharoiti va savdogarlar hayoti uchun xavfliligi savdo munosabatlarining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, Buxoro xonligi orqali o'tgan yo'llar vositasida Qo'qon – Xiva savdosini amalga oshirish o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

O'rta Osiyo xonliklarida bo'lib turgan o'zaro urushlar tabiiy ravishda savdo va madaniy aloqalarning taraqqiy etishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Buni XIX asr 20-yillarda O'rta Osiyoda bo'lgan Ye.K.Meyendorf quyidagicha izohlaydi: "Qo'qon va Xiva xonliklari yaxshi munosabatda, ular o'zaro savdoni rivojlantirishni xohlaydi. Biroq, bunga Buxoro bosh qo'shishi kerak. Qo'qon xoni Buxoro hukmdori bilan ehtiyyot bo'lib harakat qiladi"⁸⁵. Shu bilan bir qatorda ikki davlat savdo karvonlaridan Qo'qon, Buxoro va Xiva xonliklarida boj olinishi mahsulot tannarxining ortib ketishi olib kelgan. Bu esa Qo'qon – Xiva savdosiga salbiy ta'sir etgan.

Qo'qon – Xiva savdosida Oqmasjid qal'asi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu Qo'qon qal'asi Xiva chegarasidan 45 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, uning bozorida Xiva savdogarları Qo'qon savdogarları bilan oldi-sotdi munosabatlarını amalga oshirganlar. Xususan, A.K.Geyns 1865 yil 16-20 avgust oralig'ida Oqmasjiddan xivalik va buxorolik savdogarlar rus, qozoq mollarini olib qaytayotganligi haqida ma'lumot bergen⁸⁶. Bundan tashqari, Qo'qon – Xiva savdo aloqalari Qo'qon xonligiga qarashli Yangiqo'rg'on, Chimqo'rg'on va Qo'shqo'rg'on qal'alari orqali ham olib borilgan⁸⁷.

Xiva xonligida ham Qo'qon ipagi va ipak gazlamalariga talab katta bo'lgan. Xivalik savdogarlar Buxoro bozorlaridan ipakdan tayyorlangan gazlamalarni ko'plab xarid qilganlar. Xususan, Xiva bozorlarida Qo'qon ipak matosi – shoyi yuqori baholangan va xivalik savdogarlar tomonidan ko'plab olib ketilgan⁸⁸. Mashhur Qo'qon qog'ozi O'rta Osiyoning turli hududlari kabi, Xiva xonligigacha olib borilgan⁸⁹.

Xiva xonligining Xitoy va Qashqar bilan savdo aloqalarida Qo'qon tranzit shahar vazifasini bajargan. Qashqar va Xitoy mollari qo'qonlik savdogarlar tomonidan Buxoro va Xiva bozorlariga yetkazilgan. Ch.Ch.Valixonov, Xitoydan Qo'qonga keltirilgan choy, chinni buyumlar, kumush yombi O'rta Osiyo shaharlariga, xususan, Toshkent, Samarcand, Buxoro va Xivagacha olib borilgan, – deb yozgan. XIX asr 30-yillarda Buxoroda bo'lgan P.I.Demezon va I.V.Vitkevichlar ma'lumotiga ko'ra, Buxorodan Xivaga keltirilgan mollar orasida, Qo'qon orqali Qashqardan keltirilgan ko'k choy – "tuqtachoy" (g'isht choy) alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, XIX asr 60-yillariga qadar Qashqardan

⁸⁵ Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва: Наука, 1975. – С. 141.

⁸⁶ Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычества /Собрание литературных трудов. Том II. – СПб.: Тип. М.Стасюревича, 1898 – С. 245.

⁸⁷ Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari. – Toshkent – Namangan, 1994. – В. 28.

⁸⁸ Sagdullayev A., Mavlton O., Aminov B., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism. – Toshkent, 2000. – В. 246.

⁸⁹ Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства писчей бумаги // Поздне-феодальный город Средней Азии. – Тошкент, 1990. – С. 163.

Qo'qon va Buxoro orqali Xivagacha karvonlar borgan hamda keltirilgan mollar orasida choy asosiy o'rinni egallagan⁹⁰. Xitoy chinnisiga O'rta Osiyoning turli hududlari kabi Xiva xonligida ham talab katta bo'lgan va u Qashqar va Qo'qon xonligi orqali Xivagacha olib borilgan bo'lib, bu yo'l Xitoydan Xivaga keladigan eng yaqin va qulay yo'l bo'lgan.

Xivadan Qo'qon xonligiga oz miqdorda Xiva choponlari, bo'z, po'stin, ot, tuyu, xo'kiz terilar, yarim ipak mato, gilam, arg'umoq otlar va Mashhad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan. Xiva O'rta Osiyoda chopon tayyorlashning yirik markazlaridan bo'lib, bu yerda tayyorlangan choponlar o'zining sifati va ko'rinishi bo'yicha boshqa hududlarda tayyorlangan choponlardan ajralib turgan va qo'shni hududlarda mashhur hisoblangan. Qo'qon xonligiga keltirilgan Xiva choponlari mahalliy aholi orasida xaridorgir hisoblangan⁹¹. XIX asr 60-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan M.Mixaylov ma'lumotlariga ko'ra, Namangan bozorlarida Buxoro sallalari va qo'y terisidan tayyorlangan Xiva telpaklariga talab katta bo'lgan va ular bozorlarda yuqori narxlarda sotilgan. Qo'qon va Xiva xonliklarining savdo aloqalarida turkman arg'umoq otlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Qo'qon – Xiva savdo aloqalariga turli tabiiy va su'niy to'siqlar bo'lishiga qaramay ular o'rtasidagi savdo bir maromda davom etgan va ikki mamlakat uchun ham samarali bo'lgan. Ikki xonlik savdo aloqalarida Toshkent va Buxoro bozorlari muhim ahamiyat kasb etgan.

ROSSIYANING KO'CHIRISH SIYOSATI VA UNDA TEMIRYO'L TRANSPORTINING TUTGAN O'RNI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI-XX ASR O'RTALARI)

*Bahromjon Jalolov,
Nam DU tadqiqotchisi*

Bugungi kunda tarix fanining asosiy vazifalaridan biri, podsho Rossiysi va sovet mustamlakachiligi davri tuzumlarining salbiy oqibatlarini aniqlash, xolisona tahlil qilish, tarix fanidagi sobiq mafkuraviy andozalar va eskicha tafakkur ko'rinishlarining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik va barham berish, jamiyatning ma'naviy-ahloqiy shakllanishida tarix fanining ta'sirini kuchaytirish zarurligi kabi masalalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu ijtimoiy muhim vazifalardan kelib chiqqan holda og'ir mustamlakachilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan ayanchli sahifalariga bugungi kun nuqtai nazaridan qayta baho berish alohida ahamiyat kasb etadi. Mustamlakachilik O'zbekiston siyosiy-ma'naviy hayotida ikki xil davrda chuqur ildiz otib, ya'ni chor Rossiysi mustabid hukmronligi va totalitar sovet tuzumining zo'ravonligi ko'rinishlarida salbiy iz qoldirdi.

Podsho Rossiysi va sovet hukumatining o'lkamizda olib borgan mustamlakachilik siyosati, aksariyat hollarda, bir-birini takrorlab, chuqurlashtirilib, yanada ayanchli tus oldi. Ana shunday tadbirlardan biri o'zbek

⁹⁰ Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. – Москва, 1959. – С. 287.

⁹¹ Кустарные промислы в быту народов Узбекистана XIX – XX в.в.-Ташкент, 1986.-С. 51.

xalqining milliy-madaniy turmush tarziga putur yetkazgan va o'zidan og'ir asoratlarni qoldirgan jarayon ko'chirish siyosatidir. XIX asr o'rtalariga kelib, jahoning qudratli davlatlari Britaniya, Frantsiya, Germaniya qatori Rossiya ham sayyoramizning katta-katta sarxadlarini istilo etib, o'z hukmronligini o'rnata boshladi. Yevropa davlatlari boshqa qit'alardagi o'lkalarni bosib olishga uringan bo'lsalar, Rossiya ulardan farqli ravishda atrofidagi qo'shni hamda zaif davlatlar(XVI asrdan boshlab)ni, xususan Sibir, Kavkazorti, Boltiqbo'y, O'rta Osiyo va boshqa yerlarni qurol kuchi bilan bosib oldi.

Agar Rossianing Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va uninng maqsadlarini tahlil qiladigan bo'lsak Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgan zahotiyoy, ko'chirish siyosatiga ustivor masala sifatida qaragan va o'sha davrda Rossiya davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A.V.Krivoshein⁹² bu haqda shunday degan edi:" bu markaziy masalada uch lavha mavjud. Agar birinchisida yarqirab turgan yozuv "Paxta" bo'lsa, ikkinchisida "Sug'orish" va nihoyat uchinchisida uncha ko'zga tashlanib turmagan bo'lsa ham, aslida hammasidan muhimi "ruslarni ko'chirib keltirish" yozuvi turibdi". Podsho vaziri Rossianing Turkistondagi mustamlaka siyosatining asosiy yo'nalişlarini juda lo'nda, muxtasar tarzda qisqa tarzda "paxta", "sug'orish", va "ruslarni ko'chirib keltirish" kabi uchta so'z bilan ifodaladi⁹³. Chor Rossiyasi ko'chirish siyosati orqali o'z hukmronligini barqarorligini ta'minlash, iperianing ichki hududlaridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashuvi oldini olish va bu muammolarni Turkiston hisobiga hal etish kabi maqsadlarni ko'zлади.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil topishi bilan rus aholisni ko'chirib keltirish boshlandi. Qo'qon, Andijon, Namangan va Samarcand shaharlarining ichida va atrofida ruslar uchun "slobodka" (ma'nosi "shahar atrofidagi qishloq")lar qurildi. Mahalliy aholi tomonidan keyinchalik bu joylar "islobodka"-“islovotxona” deb ataldi⁹⁴. 1869 yili Yettisuvdag'i dehqonlar manzilgohlari to'g'risida qoidalar ishlab chiqildi va bu yerga rus dehqonlarini ko'chib kelishiga qulay sharoit yaratildi. Bu hududda 1869 yildan 1982 yilgacha 25 ming kishilik aholisi bo'lgan 29 ta rus qishlog'i, Sirdaryo viloyatida esa 1300 kishilik aholisi bo'lgan 19 ta rus qishlog'i tashkil etildi⁹⁵. 1886 yil 12 iyunda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida" nizom qabul qilinib, o'lkaga rus aholisini ko'chirib keltirishga siyosiy tus berildi va imperianing qora tuproqli markaziy guberniyalaridagi yer taqchilligidan qutulish va Turkistonda boyish niyatida rus dehqonlarini oqib kelishini ta'minladi hamda mahalliy aholining yerlarini tortib olishida asosiy dastak bo'lib xizmat qildi⁹⁶.

1906 yili 9 noyabrda Rossiya Vazirlar Kengashining raisi P.A. Stolipin⁹⁷

⁹² Krivoshein Aleksandr Vasilevich (1857-1921) 1908-1915 yillar Rossiya Vazirlar Kengashi a'zosi.

⁹³ O'zbekiston yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob.-Toshkent: Sharq, 2000.-B 216.

⁹⁴ Ibrohimov A. Vatan tuyg'usi.-Toshkent: O'zbekiston, -B 253.

⁹⁵ Bobobekov H. O'zbekiston tarixi.-Toshkent: Sharq, 2000. -B 184.

⁹⁶ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida...-B 216.

⁹⁷ Stolipin Pyotr Arkadeyvich. (1862-1911) 1905-1911 yillar Rossiya bosh vaziri.

tashabbusi bilan “dehqonlarni ko’chirish to’g’risida”, 1911 yil 29 mayda “majburiy yer tuzilishini kuchaytirish to’g’risida” qarorlar chiqdi⁹⁸. Qarorlarni asosiy maqsadi, Rossiya guberniyalaridagi yer tanqisligini yanada yengillashtirish va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchayib ketishini oldini olishdan hamda rus bo’limgan xalqlarni bo’ysundirib turishda ommaviy baza sifatida foydalanishdan iborat edi. Ushbu qarorlar natijasida 1910 yilga kelib, Turkistonning Samarqand, Sirdaryo, Farg’ona viloyatlarida 124 ta rus qishloqlari tashkil etilib⁹⁹, rus ma’murlari ularni qurollantirishga kirishdilar. Qurollantirilgan ruslar mahalliy aholidayan o’zlarini himoya qilish va ayni paytda mustamlakachilar uchun zahiradagi qo’shin hisoblanardilar. Rus dehqonlariga hokimiyatdan berilgan qurollar mahalliy aholiga sotish taqiqlangan bo’lib, 1913 yilda ana shunday dehqonlar posyolkasi rus qo’shlari safiga 31 ming askar hozirlab berishga tayyor edi¹⁰⁰. 1914 yili Turkistoniga 1.950000 rus, ukrain va boshqa millatlarga mansub xalqlar ko’chirib keltirildilar¹⁰¹. Rossiya ko’chirish siyosatini qo’llab-quvvatlash va ruslarni Turkiston o’lkasiga qiyinchiliksiz joylashtirish uchun quyidagi choratadbirlarni ishlab chiqdi:

-kam yerli va yersiz rus dehqonlariga Turkistondagi “bo’sh yotgan erkin yerlar”dan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratdi va turli qonunlar bilan kafolatlandi;

-1905 yili ziroat va davlat mulklari vazirligi tarkibida “ko’chiruvchilik boshqarmasi” tuzildi va ko’chib boruvchilarga amaliy yordam ko’rsatildi¹⁰².

-1906 yili Turkistonda “Sirdaryo ko’chiruvchilik rayoni” tashkil etilib, mahalliy aholidayan tortib olish kuchaytirildi va Turkiston dehqonlari uchun yerga soliqlar miqdori oshirib tashlandi. Natijada aholi o’z yerlarini sotishga undan voz kechishga majbur bo’ldilar.

O’z manfaatini o’ylagan Rossiya 1896-1906 yillarda ruslarning chet o’lkalarga ko’chirilishi uchun 2,5-3 million, 1907 yilda 13 million, 1912 yili 26 million 481 ming oltin so’mda xarajat qildi¹⁰³. Podsho hukumatining ko’chirish siyosati o’lkada ruslarni ko’payishiga va mahalliy aholi bilan ziddiyatlarni keskinlashuviga, iqtisodiy hayotda ruslarni mavqeい oshirilib, tub yerli aholining qashshoqlashuviga xizmat qildi.

1919 yil o’rtalarida rusiyabzon xalqlardan tashqari, Volgabo’yi va Uraloldi hududlaridagi tatar-boshqirdlardan ham Turkistonda boshqaruva masalalarida foydalanish maqsadga muvofiq deb topilib, 18 yoshdan 40 yoshgacha bo’lgan tatar komunistlarining umumiy sonidan 5 foizini o’lkaga ishlash uchun safarbar qilishga qaror qilindi. 1920 yil 20 sentyabrdan 1 noyabrga qadar Rossiya ichki guberniyalaridan 201 kishi, shu yilning iyul oylaridan so’ng Samaradan 6000 ta ishchi yoki Tataristonning o’zidan 1921 yil yanvar-avgust oylarini o’zida turli yo’nalishlarda ishslash uchun 57 ming

⁹⁸ Sovetskaya entsiklopedicheskiy slovar.- Moskva: Sovetskaya entsiklopediya. 1990.-S 1289.

⁹⁹ O’zbekiston tarixi...-B 184.

¹⁰⁰ Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida...-B 228.

¹⁰¹ Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. -Toshkent: Cho’lpon, 1994.-B 36.

¹⁰² Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida...-B 221.

¹⁰³ Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun...-B 98.

622 kishi Turkistonga jo'natilgan edi¹⁰⁴.

1920 yili Turkistonda "oliy ta'limgi tashkil qilish" bahonasida Markazdan 106 ta mutaxassis oilalari bilan¹⁰⁵, 1920-1923 yillarda boshqaruvni yanada nazorat qilish uchun 1396 maxsus vakil va shu bilan birga 200 mingdan oshiq harbiy kuch Turkiston, Buxoro va Xorazm yerlariga ko'chirildi va saqlanib kelindi. 1923 yili Turkiston rahbarlaridan biri Turor Risqulov ko'chirish oqibatlari to'g'risida shunday degan edi: "Turkistonda ishlatalgan yerlarning 55 foizi o'ris kelgindilarining qo'liga o'tdi"¹⁰⁶.

1920-1921 yillarda Rossiyada "harbiy kommunizm siyosati"ning joriy etilishi oqibatida ichki guberniyalarda, ayniqsa Volgabo'y'i va Uraloldi ocharchilikni kuchayishiga hamda minglab ochlarni Turkistonga qarab yopirilishiga sabab bo'ldi. 1921 yil 19 sentyabr holatiga ko'ra, Markaz ko'rsatmasi bilan, 320 ming och qolganlarni Turkistonga ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilindi¹⁰⁷. Bolsheviklarning olib borgan zo'ravonlikka asoslangan ko'chirish tadbirdi o'lkada iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib, milliy kamsitishlarga olib keldi va Turkistonni o'zida ham ocharchilikni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. 1919 yilni o'zida Turkistonni o'zida och qolganlar 1million 200 ming nafar deb ko'rsatilgan va vaziyat ancha murakkablashgan bo'lib, uning oqibatlari uzoq vaqt davomida saqlanib kelindi.

1926 yilga kelib, sanoatlashtirish, qishloq ho'jaligi sohalarida xizmat ko'rsatishga 1.718.489 kishi, 1929 yili ma'muriy boshqaruv idoralariga esa 2932 nafar rus safarbar etildi¹⁰⁸.

O'zbekistonda ana shu maqsadlarda 1933-1938 yillarni o'zida 650 ming kishi yuborildi. Ishchilar orasida mahalliy kadrlar, xususan o'zbeklar soni 1926 yili 50,4% ni tashkil etgan bo'lsa, 1936 yilga kelib 36,5%ga tushib qoldi¹⁰⁹.

1937 yili 21 avgustda sobiq SSSR XKS ning Uzoq Sharq o'lkasidagi chegara tumanlarda yapon ayg'oqchilagini kirib kelishini oldini olish maqsadida koreys xalqini ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga muvofiq, 16307 koreys oilasi (74ming kishi) O'zbekistonga ko'chirildi¹¹⁰. 1941 yil 28 avgustdagি sobiq SSSR Oliy Sovet Prezdiумiga qaroriga ko'ra Volgabo'y'i nemislari hamda boshqa hududlardagi nemislardan 15 oktyabrga qadar 749613 kishi yashayotgan joylaridan ichki rayonlarga surgun qilindilar. 1941 yil 1 oktyabrdan boshlab, sobiq Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) ko'rsatmasiga muvofiq, O'zbekiston hududiga 100000 nafar polyak millatiga mansub fuqorolarni joylashtirish ko'zda tutilgan edi. 1944 yil martida sobiq

¹⁰⁴ Rasulov A. Turkiston va Volgabo'y'i, Uraloldi xalqlari orsidagi munosabatlar. Toshkent: O'zbekiston, 2005 -B 101.

¹⁰⁵ O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. Toshkent: Sharq, 2000.-B 148.

¹⁰⁶ Ibrohimov H. Vatan tuyg'usi...-B 253.

¹⁰⁷ Rasulov A. Turkiston va Volgabo'y'i, Uraloldi xalqlari orsidagi munosabatlar...-B 106.

¹⁰⁸ Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun...-B 36.

¹⁰⁹ Mustabid tuzumming O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. Toshkent: Sharq, 2000 -B 94.

¹¹⁰ Ген М. Основные факторы политики депортации корейцев с дальнего Востока России в Узбекистан (1937,1938 годы) //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2011.№1-2. –С 97-98.

Ittifoq Davlat Mudofaa Qo'mitasi qaroriga ko'ra, Qrimdan 151424 qrim tatarlari, Gruziyadan esa 110 mingga yaqin mesxeti turklari O'zbekistonga ko'chirildilar. Ana shunday tarzda, 1943 yil noyabrda 68327 qorachoylar, 1944 yil fevrlida 496460 chechen-ingushlar, mart oyida 37406 balqarlar, may oyida 12422 bolgarlar, 15040 greklar, va boshqa millat vakillari majburiy ravishda ko'chirildilar¹¹¹.

1944 martdan 1945 yil oktyabrga qadar sobiq Ittifoqda 2.230.500 kishi maxsus ko'chirilgan¹¹².

Namangan viloyatining Pop, Mingbulloq, Uchqo'rg'on tumanlariga joylashgan koreyslar sholi yetishtirish bilan shug'ullana boshladilar¹¹³.

O'zbekistonda ko'p yillik migratsiya oqibatida sanoat ishlab chiqarishi ko'proq joylashgan shaharlarda mahalliy aholining salmog'i 30-35 foizdan ortmadi.

SURXON VOHASIDA QAROMOL BILAN BOG'LIQ MAROSIMLAR

*Hulkar Suyunova,
Termiz Bank kolleji o'qituvchisi*

Xalqimizning milliy urf-odatlarni o'rganish asosida madaniyati-mizni yangi manbalar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega bo'lib chorvachilik an'anlari boy ma'naviy merosni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqi marosimlarga boy bo'lib, chorvasi bor xo'jaliklarda sut-qatiq mahsulotlari iste'mol qilinganligi sababli bozordan sog'in sigir xarid qilib, uyg'a olib kelgandan «shu qozonning qaynab turishi senga bog'liq» deb, o'choq atrofidan uch marta aylantirilgan¹¹⁴.

Sherobod tumanida sigirlarni beshikast tug'dirib olish, ularni yomon ko'zdan asrash, yuvosh qilishga qaratilgan, irim-sirimlar amalga oshirilib, dala tadqiqotlari davrida Chag'otoy, G'urin, Bobotepa, Gilambop qishloqlarida sigir buzoqlasa Zangi boboga atab is chiqarilgan, oq bulamiq qilib berilgan, namozi shomda o't yoqib hazorisband tutatilgan. Birinch'i yig'ilgan qaymog'idan yupqa yoki qaymoqli patir qilib qo'shnilar qilib berilgan, namozi shomda o't yoqib hazorisband tutatilgan. Angor tumanidagi Qorasuv, Tallimoron, Zang qishloqlarida sigir buzoqlashidan oldin «Zangi bobo»ga atab, is chiqarilgan va 7 dona cho'zma (so'zma) qilib tarqatilgan. Bandixon, Qiziriq, Muzrobod tuman qishloqlaridagi dala tadqiqotlar jarayonida sigir tug'ayotganda begona kishilar uning oldiga yaqinlashtirilmagan, Yangiobod, Beshquton qishloqlarida agarda egiz buzoqlasa, uning bittasi pirga hadya qilingan. Sigir buzoqlayotganda yot kishilar qo'yimasligi bilan birga, uydagilardan ham quvuch (kiyimining biror ipi yoki parchasi) olib, isiriq bilan tutatilgan¹¹⁵. Zotdor, ko'p sut

¹¹¹ Sh'o'ro tuzumining 30-50 yillardagi qatag'onlik siyosati va usullari...-B 98.

¹¹² O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida ...-B 462.

¹¹³ Abdullayev O. Namangan viloyati.- Namangan: 1995.-B 57.

¹¹⁴ Снесарев Г.П. Реликты домусультманских верований и обрядов у узбеков Хорезма... -С 117

¹¹⁵ Dala yozuvlari, Sherobod tumani Poshxurd qishlog'i. 2001y.

beradigan sigirlarni yomon ko'zdan asrash, ya'ni suxlanmasin^{*} degan maqsadda, ular shoxlariiga tumor taqib qo'yilgan. Chunki qadimiy e'tiqodga binoan bunday sigirlar ko'zga yaqin bo'lib, tez ko'zikib qolar va natijada ular kasallika chalinar yoki sut bermay qo'yarkan. Boysundagi Chilonzor, Munchoq, Tillakamar qishloqlarida sigirlar shoxiga taqiladigan tumorlar hech qachon bezak vazifasini bajarmagan. Ular ajdodlarimizning fetishistik qarashlari bilan bevosita bog'liqidir¹¹⁶. Bunday odatni qozoq xalqida ham ko'ramiz. Boysun tumani Chrobog', To'da qishloqlarida aholi «ko'zli», «suqli» (suxli) odam uyg'a kelib qolsa, sigir va boshqa uy hayvonlarini ehtirot qilish maqsadida, o'sha odamning kiyimidan quvuch yoki kovu-shining patagidan ozroqni sezdirmasdan olib, hazorisband bilan birga tutatilgan¹¹⁷.

Chorvador qishloq aholisi mabodo sigir uchinib (elini kasallanadi, ya'ni toshday qattiq bo'lib qoladi yoki yara toshib ketadi), sog'dirmay qo'ygan taqdirda davolovchi amallar bajarilgan. Jumladan, Sherobod tumanining Sariq, Xitoy, Saidobod qishloqlarida hazorisband tutatilgan va rapida kiyib sigir yeliniga uch marta «imi-dimi shu bo'l'sin», deb haplangan bo'lsa, Vandob, Zarobog', Poshxurd, Maydon qishloqlarida sigir sog'dirmay qo'ysa, yeliniga qora kuya surlig'an va isiriq tutatilib, ko'chiriq qilingan. Shu tumanning tog' oldi qishloqlarida sigir yeliniga butun non bilan urilgan va nonni sindirib, sadaqa qilishgan. Shuningdek, birinchi marta sog'ilayotgan sigir shoxiga ham butun nonni urib sindirib, so'ngra sadaqa qilingan.

Boysun tumani Sho'rob va To'da qishloqlarida sigir uchinsa, pichoqni olovda qizdirib, sigirning sog'ilgan suti «ko'zdan bo'lsa kesdim, suxdan bo'lsa kesdim» deb, pichoq bilan kesilgan¹¹⁸. Bunday amallar afsungarlik bilan bog'liq bo'lib, respublikamizning boshqa hududlarida ham kuzatiladi. Vodiylar qipchoqlarida sigir yelini kasallansa, murdasho'yning qo'lqop'i yoki qayroqtosh bilan silab tekkizish orqali davolashgan¹¹⁹. Yelini uchinib kasallanishi qo'y va echkilarda ham uchrab turgan. Masalan, qozoqlarda qo'y-echkilarning yelini kasallanmasligi uchun o'ziga xos sehriy amallarni bajarganlar. Ular otardagi birinchi qo'zilagan qo'yni sog'ish bilan bog'liq udum o'tkazgan. Cho'pon uning sutini bo'rining kalla suyagiga sog'ib, qo'tonning tepasiga ilib qo'ygan. Doim qo'ton tepasida iluvli turgan bo'rining kalla suyagi qo'y-echkilarni yomon ko'zlardan saqlab turar va ularning kasal bo'lishini oldini olar ekan.

Qadimda sut sotish gunoh bo'lgan, u sigiri bor qo'shnisidan so'ralgan. Sut va sut mahsulotlari kun botgandan keyin birovg'a berilmagan. Chunki kun botganda osmondan shaytonlar tushadi va sigir yelini kasallanib, xonardon og'ligi hisoblangan sut-qatiqning barakasini qochiradi, degan irim saqlanib qolgan. Bu irimga faqat Surxon vohasi aholisigina amal qilmay, balki, butun

^{*}Kasallanish begona shaxsning yaxshi zotdor molga suxlanib qarashi orqali kasallanishi.

¹¹⁶Ashurov A. O'zbek xalqining qadimgi e'tiqod va marosimlari.-Toshkent: 2007.-B.194.

¹¹⁷Dala yozuvlari, Boysun tumani Didarkom qishloqlari. 2004y.

¹¹⁸Dala yozuvlari, Boysun tumani Sho'rob va To'da qishloqlari. 2002y.

¹¹⁹Ashurov A. O'zbek xalqining qadimgi e'tiqod va marosimlari...-B.156.

Markaziy Osiyo xalqlarida bo'lgan¹²⁰. Bordi-yu, sut yoki qatinqi kechasi berish zarurati tug'ilib qolsa, sigir va buzoqni kasallikka chalinmaslikka qaratilgan magik amallar bajarilgan. Boysun tumani Didarkom qishlog'ida berilayotgan oqlikka qozon qorakuyasidan ozgina solingan bo'lsa, Sariosiyo tumani Sangardak qishlog'ida idish ichiga gugurt cho'pi yoqib tashlangan va yerga qo'yib so'ngra uzatilgan¹²¹. Bu kabi irimlar qo'shni Qashqadaryo vohasida ham amalga oshirilgan hamda ko'z tegmasin, sut ko'paysin degan maqsadda sut sog'ish uchun ishlatiladigan xurmaning qulog'iga oq paxta bog'lanib, qorakuya surtilgan. Sutli, oqlik taomlarning rahnamosi Bibi Fotima bo'lgan,-deydi. Shuning bilan birga tojiklarda oqlik taomlarni begonalarning ko'zi tushishidan saqlashgan. Ayniqsa, qaymoqni u uydan bu uyg'a olib o'tayotganda erkaklarning nazari tushishidan ehtiyyot bo'lishgan¹²².

Vohaning boshqa ko'plab qishloqlarida ham shu kabi udumlar saqlangan. Denov tumani qishloqlarida ertalab yuzni yuvmasdan oqlik taomlarga qaramagan va seshanba kunini omadsiz kun hisoblab oqlik taomlarni birovg'a berishni irim qilishgan¹²³. Bundan tashqari, sigirning sutiga begonaning ko'zi tushmasin, u ko'zikadi degan maqsadda sigir erta tongda sog'ilgan¹²⁴. Sariosiyo tumani Telpakchinor qishlog'i qariyalarining aytishicha sog'in sigir tepag'on bo'ladi, erta suttan chiqib ketadi, deb sutning yerga to'kilishiga yo'l qo'yishmagan, idish-tovoq yuvindisini ham oyoq bosmaydigan yerga to'kishgan¹²⁵. Mabodo ehtiyyotsizlik qilib sut yerga to'kilib ketsa, o'sha joy qirib, tozalab olinib, suvga yoki chekka joyga tashlangan¹²⁶.

Vohaning o'zbek, tojik, turkman millatlariga mansub chorvador aholisi, shuningdek, qo'ng'irot, juz, qatag'on, qoraqalpoq etnik guruhlari chorvador xonardonlarida sut mahsulotlaridan turli xildagi taomlarni tayyorlash usullari uzoq tarixga ega.

JADIDCHILIK HARAKATINING SIYOSIY VA IJTIMOIY- IQTISODIY ZAMINI

Tohirjon Qozoqov,

*Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi katta
o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi*

1876 yilning 19 fevralida imperator Aleksandr II ning farmoni bilan Qo'qon xonligi tugatiladi va uning o'rnidida Farg'ona viloyati tashkil etildi.

Farg'ona viloyati iqtisodiy va mehnat resurslari jihatidan Turkiston general-gubernatorligidagi yetakchi viloyat hisoblangan. U besh uyezd (Qo'qon, Namangan, Skobelev, Andijon va O'sh) dan tashkil topgan bo'lib,

¹²⁰Qarang: Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып.11. -С.220.

¹²¹Dala yozuvlari, Boysun tumani, Didarkom qishlog'i, Sariosiyo tumani Sangardak qishlog'i. 2001y.

¹²²Кисляков Н.А. Семья и брак у таджиков.-Москва: Наука, 1959.-С.45.

¹²³Dala yozuvlari, Denov tumani Zahartepa qishlog'i. 2000y.

¹²⁴Пещерева Е.М. Молочное хозяйства горных таджиков и некоторые связанные с ним обычай.-Ташкент: 1927.-С.9.

¹²⁵Dala yozuvlari, Sariosiyo tumani Telpakchinor qishlog'i. 2001y.

¹²⁶Bo'riev O. va boshq. Ko'rsatilgan asar. -B.77.

uning tarkibida 91 volost yoki 613 qishloq jamoalari mavjud edi¹²⁷.

1898 yilgi xalq qo'zg'oloning shafqatsizlarcha bostirilishi, mahalliy aholidan qattiq o'ch olinishi kishilarni irodasini buka olmadi. Aksincha, xalqning mustamlakachilarga bo'lgan qahr-g'azabini oshishiga sabab bo'ldi, xolos.

Mustamlakachilar uchun Farg'ona vodiysi paxta yetkazib beruvchi asosiy baza hamda ijtimoiy, iqtisodiy va milliy zulm ob'ektiga aylandi¹²⁸. Bu zulmni amalga oshirishda, o'lka boyliklarini talashda temir yo'llar muhim vosita bo'ldi.

Dastlabki temir yo'l Farg'ona vodiysiga 1899 yil kirib keldi. 1911-1913 yillarda Qo'qon-Namangan, 1916 yilda Namangan-Jalolobod temir yo'llari qurildi. Natijada, vodiylar metropolianing oshkora sur'atdagi xom-ashyo bazasiga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozoriga aylandi. Shundan so'ng, paxta ekin maydonlari kengaydi va u asosiy ekin turiga aylandi.

Farg'ona metropoliya uchun nafaqat xom-ashyo, balki, davlat hazinasi uchun soliq daromadlarining ham manbasiga aylandi. Farg'ona vodiysida yildan-yilga soliq zulmi ortib boraverdi. Faqatgina 1900 yilda Farg'ona aholisi davlat xazinasiga yer solig'idan tashqari 4 581 620 rub. 70 kop. mablag' topshirdilar. Huddi shu yil viloyat aholisi 399 467 rub. 34 kop. miqdoridagi mahsulot solig'ini ham bajardi. Bunday rasmiy soliqlardan tashqari, volost kotiblari, oqsoqol va boshqa amaldorlarning ta'minoti uchun «jamoat tushumi» deb ataluvchi soliqlar ham yig'ib olinar edi. Natijada mahalliy aholining bo'ynidagi qarzlari miqdori yil sayin oshib borar edi. Masalan, paxtakorlarning davlat va xususiy banklardan 1912 yildagi qarzlari 156 mln. 712 ming rublni tashkil etdi. Shundan 80 mln. 979 ming rubl pul Farg'ona viloyati paxtakorlari zimmasiga tushgan edi¹²⁹. Bu holat paxtakor dehqonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi.

Mehnatga haq to'lash borasida ham keskin ijtimoiyadolatsizlik hukmronlik qilar edi. Bir xil malaka va tajribaga ega bo'lgan o'zbek ishchisining maoshi rus ishchisining maoshiga nisbatan 40-50 foizga kam bo'lar edi. Masalan, savdogar F. I. Polinskiyning paxta tozalash zavodida rus ishchisi 70 rubl maosh olgan bir paytda, o'zbek ishchisi 11 rubl o'spirin esa 6 rubl haq olar edi. Vadyayevlar zavodida esa 1912 yil rus ishchisi bir kuniga 2 rub. 80 kop. haq olgan bo'lsa, o'zbek ishchisi esa, 70 kopeekdan 1 rublgacha olar edi¹³⁰.

Mustamlaka sharoitida Farg'ona vodiysida nafaqat dehqonlarning, balki o'n minglab hunarmand-kosiblarning ham ahvoli ayanchli holatga tushib qoldi. Bunga Rossiya sanoati ishlab chiqargan uy-ro'zg'or ashylari, ayniqsa,

¹²⁷ Касымбеков К. Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX-начале XX века.-Ташкент: Фан, 1978.-С.10.

¹²⁸ Умаров А. И. Культурная жизнь Ферганской долины во второй половине XIX начале XX в.в.: Автореф. Дис. к. и. н.-Ташкент, 1985.-С.13.

¹²⁹ Жуев Н. Turkistonda Rossiya tajovvuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-Toshkent: Sharq, 1998.-В. 400-401

¹³⁰ История Коканда (С момента присоединения Средней Азии к России до настоящего времени).-Ташкент: Фан, 1984.-С. 35.

yengil sanoat mahsulotlari bilan o'lka bozorlarining to'ldirilishi sabab bo'ldi. Bu mahsulotlar bozorlardagi mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mollarni siqib chiqara boshladи. Natijada hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu esa qashshoq aholi sonining ortib borishiga sabab bo'ldi.

Miriy hunarmandlarning xonavayron bo'lishini Hamza Hakimzoda Niyoziy «Sadoyi Turkiston» gazetasidagi maqolalarining birida bunday ta'riflaydi: «...va ba'zilari yetushdura olmay butun bu hunarlaridan kechub boshqa bir yo'l va kuyg'a kirub ketmakdadurlar...har bir kasb ahli shundog'dur...Mana bu razolat, xirachilik va xo'rlik na yerdan keldi?...Oh, hunarlarimiz! Qaysi tarafg'a va kimsar qo'lig'a asir bo'ldi? Pul va mollarimiz qaysi tarafg'a hijrat etmakdadur?...Bu ho'rliklarning ilmsizlikdan kelganidan shoyad uyalgan va aqlga solib qaragan kishi bilur»¹³¹.

Iqtisodiy qiyinchiliklar xalqning zulmga qarshi ko'tarilishlarining kelib chiqishiga turki bo'ldi. Jumladan, 1902-1904 yillarda viloyatning Pomirbo'yi tumanlarida dehqonlarning chiqishlari, 1903 yil yanvar-aprel oylarida Qo'qon uyezdining Isfara, Ganjiravon volostlarida, Marg'ilon uyezdining Avval va Chimyon volostlarida mahalliy hokimiyat zulmiga qarshi xalq chiqishlari bo'ldi.

Podsho hukumati o'lkada o'ziga tayanch yaratish maqsadida Turkiston yerlariga rus aholisini ko'chirish siyosatini o'tkazdi. Paxta ekilmaydigan hududlardagi mahalliy aholining yerlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi. Buning natijasida ko'chirib keltirilgan 2635 xonadonning qo'lida 1914 yilda 53 594 desyatina yer to'plandi, ya'ni har bir xo'jalikka 13 desyatinden yer to'g'ri kelgani holda mahalliy dehqon xo'jaliklarining har biriga bir desyatinden ham kam yer to'g'ri kelar edi¹³².

1916 yil 25 iyundagi Podsho Nikolay IIning front ortidagi ishlar uchun yerli aholidan mardikorlikka olish haqidagi farmoni butun Turkistondagi kabi Farg'ona viloyatida ham mahalliy aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi. Bu noroziliklar ommaviy g'alayonlar, kichik amaldorlarning uylariga o't qo'yish va o'ldirishlarda o'z ifodasini topdi.

Birinchi jahon urushining salbiy ta'siri Turkiston xalqlari boshiga ko'plab azob-uqubatlarni soldi. Paxta yakkahokimligini zo'r berib kuchay tirish, paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi oqibatida o'lkada g'alla yetishtirish va chorvachilik orqaga qarab ketdi.

Butun o'lkada bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham don taqchilligi yuzaga keldi. 1916 yili Farg'ona viloyatining odatda oladigan g'allasi 12-14 pudga kamaydi. Marx-navo keskin oshdi. Ilgari 50 so'm turadigan otning narxi 80-85 so'mga chiqdi. G'alla va nonning narxi ham oshib ketdi¹³³.

Podsho hukumati aholi faolligining oshib borayotganligidan cho'chib, Turkiston xalqlarini jahon taraqqiyotidan uzib qo'yish maqsadida musulmon davlatlaridan o'lkaga kirib kelayotgan ilg'or nashrlarni ta'qilash choralarini

¹³¹ Niyoziy H.H. Faqirlik nimadan hosil bo'lur? //Sadoyi Turkiston.-1914.-10 avg.

¹³² Yoqubov B. Farg'ona vodiysida Sovet hokimiyatini o'rnatish uchun kurash.-Toshkent: Qizil O'zbekiston, 1954.-B.5.

¹³³ Ziyoev H. Ko'r satilgan asar, B.402.

ko'rdi. Shunday bo'lishiga qaramay, birmuncha taraqqiyotga erishgan musulmon mamlakatlaridagi inqilobiy voqealar tafsilotlariga bag'ishlangan adabiyotlarning bu yerga kirib kelishi to'xtamadi.

Viloyatda milliy matbuot yuzaga kelgunga qadar Bog'chasaroyda chiquvchi «Tarjumon», Qozondan chiqadigan «Vaqt», «Yulduz» va boshqa gazeta va jurnallar Farg'ona jadidlari faoliyatida o'zining sezilarli ta'siriga ega edi. Ushbu nashrlar orqali taraqqiyparvarlar dunyo xalqlarining milliy uyg'onish g'oyalari bilan tanishib borganlar. Masalan, Farg'onganing peshqadam taraqqiyparvarlaridan Ishoqxon Ibrat ham 1883-1885 yillarda Qo'qonning Tunqator madrasasida ta'lif olib yurgan paytlarida «Tarjumon» gazetasi bilan muntazam ravishda tanishib borgan. Adabiyotchi olim U. Dolimovning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Ibrat tomonidan tashkil etilgan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjumon» gazetasining hatto 1884 yilgi boyqlamlari ham bo'lgan¹³⁴.

Xulosa qilib aytganda, o'lkadagi ijtimoiyadolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog'ida, qashshoqlikda qoldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan chorizmning mustamlakachilik siyosati mahalliy xalq ilg'or fikrli ziyoililarining tabiiy ravishda noroziligin keltirib chiqarar edi. Farg'ona Rossiyaning bevosita mustamlakasi bo'lganligi bois markaziy hududlardagi siyosiy o'zgarishlar bu yerkarda ham sezilarli ta'sirini o'tkazar edi.

TURKISTONDA TA'SIS MAJLISIGA TAYYORGARLIK ISHLARINING OLIB BORILISHI

R. Akbarov,
Farg'ona Davlat universiteti

Bizga ma'lumki, 1917 yil fevral inqilobi sobiq Rossiya imperiyasida demokratik erkinliklarga yo'l ochdi. Fevral inqilobidan keyin tuzilgan Muvaqqat hukumat mamlakatning butun hududida bo'lajak Rossiyaning davlat tuzumini belgilab beruvchi Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi.

Ta'sis Majlisi haqida ma'lumot berish maqsadida dastlab Toshkentda "Общедоступный очерк о гражданской свободе, демократической республике и об Учредительном Собрании" nomli risola nashr etiladi. Mamlakatda demokratik davlat qurish uchun avvalo fuqarolar birinchi navbatda siyosiy huquqlarga ega bo'lishlari kerakligi, konstituttsiya joriy etilishi, jamiyatning bir bo'lagi bo'lgan insonlarga "...1)shaxsiy va daxlsizlik, 2)diniy yoki vijdon, 3)so'z va matbuot, 4)yig'ilishlar, 5)ittifoq va 6)namoyishlar" o'tkazish kabi erkinliklar berilishi lozimligi aytib o'tilgan.

Fuqarolarning bunday huquq va erkinliklarga ega bo'lishlari faqatgina demokratik respublika sharoitidagina amalga oshishi mumkin edi. Mamlakat demokratik rivojlanish yo'liga o'tganda qonun chiqaruvchi (Davlat Dumasi), sud va ijro etuvchi hokimiyyat (Ministrler Kengashi) xalqqa tegishli bo'lishi ta'kidlangan.

¹³⁴ Dolimov Ulug'bek. Ishoqxon Ibrat.-Toshkent: Sharq, 1994.-B.11.

Risolada Ta'sis Majlisiga quyidagicha ta'rif berilgan: "...Rossiya uchun maxsus Davlat boshqaruv tizimini tanlashdir, Rossiya uchun yangi, butun xalqning haqiqiy hohishini aks ettiruvchi qonunlar ishlab chiqadi"¹³⁵. Ta'sis majlisini shakllantirish uchun saylov huquqiga alohida e'tibor berilishi kerak edi. Risolada bu masalaga ham alohida e'tibor berilgan bo'lib, saylov huquqi umumiy, teng, to'g'ri, yashirin kabi tamoyillardan iborat bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Hatto savodsiz kishilar ham yoshi yetgan bo'lsa saylov huquqiga ega bo'lislari uchun maxsus byulletenlar tayyorlanishi, nomzodlar maxsus belgi va rang orqali farqlanishi, shu yo'l bilan ular ham saylov huquqlarini bekamu-ko'st amalga oshirishlari mumkinligi aytib o'tilgan.

Endi savol tug'iladi. Kimlar saylov huquqiga ega bo'ladilar? Muvaqqat Hukumat tomonidan tasdiqlangan "Ta'sis Majlisiga saylovlar haqidagi qonun"ga ko'ra, jinsidan, irqidan, dinidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar saylov kunigacha 20 yoshga yetgan har bir fuqaro saylov huquqiga ega bo'ladi. Harbiylar ham 18 yoshga yetgan bo'lsa saylov huquqiga egadirlar¹³⁶. Aqli zaiflar, kar-soqovlar va sud hukmi bilan turli muddatga jazolanganlar saylov huquqidan foydalana olmaydilar.

Har qanday qonun chiqaruvchi organ kabi, Rossiya Ta'sis Majlisiga a'zolari soni 800 kishidan iborat deb belgilangan. Saylov qoidalariga ko'ra, har 200 ming fuqaro bir deputat saylanishi¹³⁷, jami musulmonlardan 75 tadan 100 tagacha, Turkiston o'lkasidan esa 32 vakil saylanishi belgilangan¹³⁸.

Endigi vazifa saylov ishlarini okrug va uchastkalarda to'g'ri tashkillash edi. Ta'sis Majlisi saylovi uchun tuzilgan okrug komissiyalari quyidagi vazifalarini amalga oshirish kerak edi: 1) butun hududda, ya'ni shaharcha, qishloq va volostlarda saylov kunini aniqlash, bu yerdagi saylovchilar ro'yxatini tuzish; 2) uyezd komissiyalarida saylovga tayyorgarlik ishlarini nazorat qilish; 3) saylovga oid barcha ma'lumotlarni barcha okruglarga tarqatish; 4) saylovchilar ro'yxati va konvertlarni tayyorlanishiga mas'uliyat bilan yondoshish; 5) barcha okrug saylov komissiyalarida Ta'sis Majlisiga siyosiy partiyalardan ko'rsatiladigan nomzodlar ro'yxatini tuzish, ular haqida ma'lumot tayyorlash va tasdiqlash, va nihoyat; 6) saylov kuni nomzodlarga berilgan ovozlarni sanash, ular ma'lumotlari asosida okrug saylov komissiyalarining ma'lumotlarini tayyorlash

Muvaqqat Hukumat Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik ishlari olib boruvchi Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyalar vakillaridan, jamoat tashkilotlari va turli millatlardan tuzilgan bo'lib, 15 kishidan iborat bo'lsa, joylardagi ya'ni, shahar, shaharcha va volostlardagi saylov komissiyalari tarkibi esa quyidagicha tartibda bo'lishi kerak edi: komissiya raisi va kotibi, ikkita a'zo, shu bilan birgalikda, nomzod qo'yilgan partiyalardan bittadan vakil kiritilishi mumkin edi¹³⁹.

¹³⁵Общедоступный очерк о гражданской свободе, демократической республике и об Учредительном Собрании.-Ташкент: 1917. С. 11.

¹³⁶ Ulug' Turkiston, 1917 yil, 12 avgust

¹³⁷ Знамя свободы. 1917.-19 октябрь.

¹³⁸ Ulug' Turkiston, 1917 yil, 12 avgust

¹³⁹ Знамя свободы. 1917.-19 октябрь.

Joylardagi saylov komissiyalarida saylovchilarning ro'yxati alfavit tartibida tuziladi. Ro'yxatga kishilarning uning ismi, familiyasi yoki taxallusi, otasining ismi, yoshi, yashash manzili va kasbi yozilishi kerak edi¹⁴⁰.

Deputatlilikka nomzod ro'yxatini shakllantirish esa quyidagi tartibda amalga oshirilar edi: siyosiy partiyalar yoki guruhlar Ta'sis Majlisi deputatligiga nomzod ko'rsatmoqchi bo'lalar, saylovdan 30 kun oldin okrug komissiyasiga nomzodlari haqidagi ma'lumotlarni berishlari kerak. Bir nomzodning familiyasi turli okruglarda qo'yilishi mumkin, faqatgina bir nomzodning familiyasi maksimal 5 ta okruggedagi qo'yilishi mumkin. Deputatlilikka nomzod o'z nomzodi ko'rsatilgan okruggedagi yashashi shart emas.

Nomzodning haqiqiy bo'lishi uchun, nomzodi ko'rsatilgan joyda kamida 100 kishi imzosi bilan xat tayyorlanishi kerak. Bir saylovchi ikkita nomzodni qo'llash imkoniyatiga ega emas. Bir saylovchi ikki shaxsning nomzodligi uchun imzo chekadigan bo'lsa, u haqiqiy deb hisoblanmaydi.

Ro'yxatga albatta nomzodning o'z nomzodligiga rozi bo'lganligi haqidagi xati ilova qilinishi shart.

Ro'yxat va xatga nomzodning qaysi guruh yoki siyosiy partiyadan ekanligi haqidagi ma'lumot qo'shib qo'yilishi mumkin. Ro'yxat va xat tegishli joyga topshirilgach, okrug saylov komissiyasi tomonidan nomzodga Ta'sis Majlisiga saylov nomzodi ekanligi haqidagi tilxat topshiriladi.

Agar nomzodlar ro'yxatida xatolik bo'ladigan bo'lsa, ushbu xatolar saylovga 24 kun qolgunga qadar to'g'rilib qo'yilishi shart¹⁴¹.

Saylovga tayyorgarlik ishlari yakunlangach esa saylov kuni belgilanadi. Saylov qoidalari ko'ra, saylovlar uch kun mobaynida o'tkaziladi. Birinchi ikki kunda saylovlar 12 soat mobaynida (soat 8.00 dan kechqurun 20.00 gacha qishloqlarda, soat 9.00 dan kechqurun soat 21.00 gacha shaharlarda), uchinchi kuni esa soat kunduzi 14.00 gacha belgilangan¹⁴².

Butunrossiya Saylov komissiyasining 1917 yil 9 oktyabrdagi xabariga ko'ra, mamlakatning Yevropa qismida saylovga tayyorgarlik ishlari deyarli tugallangan, lekin Osiyo qismida esa tayyorgarlik ishlari hali ham davom etmoqda. Shuning uchun ba'zi bir okruglarda saylovni o'tkazishning imkoniy yo'q¹⁴³. 1917 yil sentyabr oyi oxiriga kelganda Muvaqqat Hukumat tomonidan Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik uchun 6 million byulleten tayyorlangan. Kievdagi saylov okrugi "Ta'sis Majlisiga saylov qoidalari"ni ukrain tiliga, Orenburgda qirg'iz tiliga, Petrogradda esa 10 tilga tarjima qilingan¹⁴⁴.

Keltirilgan faktlardan ko'rindiki, Ta'sis Majlisiga tayyorgarlik ishlari Muvaqqat Hukumat tomonidan sust olib borilgan. Bu bolsheviklarning davlat to'ntarishini amalga oshirishlariga, Ta'sis Majlisining chaqirilishini kechiktirilishiga sabab bo'ldi. Hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar 1918 yil yanvar oyida kech bo'lsa-da, chaqirilgan Ta'sis Majlisini tarqatib yubordilar.

¹⁴⁰ Знамя свободы. 1917.-20 октября.

¹⁴¹ Знамя свободы. 1917.-24 октября.

¹⁴² Знамя свободы. 1917.-22 октября.

¹⁴³ Знамя свободы. 1917.-21 октября.

¹⁴⁴ Знамя свободы. 1917.-28 сентября.

O'TMISHDA OLIY TA'LIM

*Abdug'ani To'xtayev,
Termiz Davlat Universiteti tarix fanlari nomzodi*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, barcha sohalarning o'rjanila boshlangani kabi Vatanimizda oliv ta'lismiz tizimi tarixi, uning chuqur va teran ildizlarini o'rjanish imkoniyatlari ham vujudga keldi. Chunki, sovet hukumati davrida o'tmishdagi oliv ta'limimizning tarixi haqida so'z yuritish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Ana shunday tushuncha va aqidalar tufayli faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham e'tirof etilgan ulug' allomalarimizni yetishtirgan ta'lismiz tizimi, xususan oliv ta'lismiz tizimi o'rjanilmay kelindi. Vaholanki, xorijiy mamlakatlarning allomalarini jumladan Adam Mets (Shveytsariya), Akmaliddin Ehson o'g'li (Turkiya), doktor Nurilloh Kisoi (Eron) va boshqalar arab o'lkalari, Turkiya hamda Erondagi ta'lismiz tizimida madrasalarning tutgan o'rni bo'yicha o'zlarining nuqtai nazarini bayon etganlar¹.

XX – asrning 1960 - yillarida esa Vatanimizning ayrim olimlari ham bu masalaga doir o'z fikr va mulohazalarini bildirgan bo'lsalar-da, ammo ularga "Madrasalar – diniy ta'lismiz maskani" – deb ko'p e'tibor berilmasdan kelindi. Mustaqillik yillarida oliv ta'lismiz tizimida o'rta (madrasa) va oliv (madrasai oliya) ta'lismiz dargohlarining tutgan o'rni haqida keng mulohaza yuritish, bu sohadagi tadqiqotlarning ilk natijalarini nashr ettirish imkoniyati yuzaga keldi.

Mavjud manbalardagi ma'lumotlarni ko'zdan kechirish shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda ta'lismiz tizimi, xususan, oliv ta'lismiz maskanlari bizning yurtimizda qadimdan faoliyat ko'rsatgan. VIII – asrdan so'ng bu ta'lismiz dargohlari uch bosqichda – boshlang'ich (maktab), o'rta (madrasa) hamda oliv(madrasai oliya) o'ziga xos nizomi, ta'lismiz dasturlari, qo'llanma va darsliklariga ega bo'lib, o'quv jarayoni ham ta'lismiz bosqichlari xususiyatlariiga mos qonun – qoida va nizom asosida tashkil etilgan. Bular tarkibiga Buxoro, Samarqand va Xorazmdagi madrasa va madrasai oliyalarda ham amal qilingan.

Haqiqatan ham Surxon vohasida IX – XII va keyingi asrlarda bir nechta obidalar (IX – asrning oxirida Termiz juda katta ilmiy markazga aylanayotgan edi) bo'lgan. Afsuski, hozirgi kungacha ulardan yetarlicha foydalanimaslik oqibatida vayrona holiga kelgan edi. Ammo, ana shu obidalarda ta'lismiz olgan ularda mudarrislik qilgan alloma va adiblardan ayrimlarining nomlari bizgacha saqlanib qolgan. Masalan, Ahmad Usturlobiy², Samon Ashur(uning to'la ismi Ashur ibn Hamza al – Hofuz ibn Samon ibn Sodot ibn Hasan, ibn Ali

¹ Valixo'jayev Boturxon. Olyi ta'lismiz tizimining teran ildizlari //Ma'rifat. - 2001.-19 dekabr.

² Xo'jamshukurova Gulsum. Ahmad Usturlobiy kim bo'lgan? //Surxon tongi. -2003.-29 iyul.

ibn Abu Toliyb ibn Umar ko'proq Kokildor ota nomi bilan mashhur)³. Ruhaydai Davron (Abdul Varroq Termiziyning qizi), Hurayda binni Al - Hakima (Hakim at Termiziyning qizi)³ va boshqalar.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu obidalarda faqat Mavarounnahrdagina emas, balki xorijiy mamlakatlardan kelgan talabalar ham tahsil olganlar. Masalan, IX – asr olimlaridan biri Ahmad Usturlobiy as-Sag’oniy at – Termiziyning “Ilm un – nujum” asari (asar 27 bobdan iborat) nafaqat o’zining 36 nafar munajjim shogirdlari balki IX –X asrlarda ijod qilgan zamondoshlari va shogirdlari ilmiy qarashlari bilan birga Qirqiz qal’asida ilm olgan olimalarni, shogirdlarining qaysi yurtdan kelganligi va ularning borib ijod qilgan joylari xaritasini ham o’zida aks ettirgan ilmiy asardir.

“Ilm un – nujum” asarining “Chil duxtaron” bobida yozilishicha, Termizdagı Qirqqiz qal’asida turli millat, turli shaharlardan ilm istab kelgan qizlarga, Qirqqiz qal’asi rahbari olma Ruhaydai Davron ularning diniga, tiliga, millatiga, irqiga qarab emas, aqliy qobiliyatiga va zehni o’tkirligiga ko’proq e’tibor qaratgan. Shuningdek, asarda bu yerda ilm o’rgangan talaba qizlarning ismlari, ularning qaysi yurtdan kelganliklari (Bibisora (G’azna), Bibirobiya (Ardobil), Mariya (Yaman, Baylakon) va boshqalar jami – 40 nafar) sanab o’tilgan⁴. Qirqqiz qal’asida tahsil olgan olma qizlarning ayrimlari o’zlaridan ko’plab qo’lyozma asar qoldirganlar. Bu kitoblar orasida bugungi kunimizda ham, hayotda ham inson va uning sog’lig’i uchun eng zarur kitoblar: Ruhaydai Davronning “Tabobat ul zan”(Ayollar tabobati”), “Ilkmat ul zan” (“Ayollar hikmati”), “Ilm at tolibi zan” (“Ilm oluvchi ayol), Hurayda binti al – Hakimaning “Sharhi ilmi at – tib al Hakimiya,” “Kimiyo ilmi tat – tib al Hakimiya,” Botuz shahridan Qirq qiz qal’asiga kelib ilm o’rgangan Chehra ismli olma “Denov bilan Balx” nomli asarlarini qalamga olganlar.

Qirq qiz qal’asida tahsil olgan bu olimalarga keyinchalik o’z yurtlarida hum shunday ilm maktablari tashkil etishlariga fatvo berilgan va ular o’z yurtlarida madrasai oliyalar tashkil etishgan. Masalan, Eronning Isfaxon shahrida IX – asrda qurilgan “Chil duxtaron” qal’asi Termizda tahsil olgan Feruza ismli qiz sharafiga qurilgan ekan⁵.

Termizda dunyoviy ilm bilan birga diniy ta’limot ham ancha taraqqiy qildi. Illohiyot ilmining hakimiya tariqatiga aynan Termiz shahrida asos solindi. Uning sardaftari esa al Hakim at Termiziyy edi. Bu jihatlari bilan tasavvuf ilmi rivojida (hakimiya) Termiz shahri ko’prik vazifasini o’tadi. Sababi, Termiz shahri Mavarounnahr va Xuroson so’fiylik tariqatlari uchun

³ Samion Ashur. “Shajarai Hofiziya,” Xo’jamshukurova Gulsum, Jovliev M. Kokildor ota kim bo’lgan? //Xalq yo’li.-2004.-24 may.

⁴ Xo’jamshukurova Gulsum. Qirq qiz yoki Surxon diyorida bundan ming yildan ko’proq vaqt avval ayollar akademiyasi bo’lganligi ayni haqiqatdir //Xalq yo’li.-2005.-6 mart.

⁵ Xo’jamshukurova Gulsum Termizda “Qirq qiz” akademiyasi bo’lgan //Adolat tarozisi.-2006.-10 fevral.

chorraha edi. Termizda bu davrda hadis ilmi ham rivoj topdi. Muhaddis Abu Iso at Termiziy bu sohadagi ishlari bilan jahonga mashhur olti nafar allomalar qatorida turadi.

Termiz tasavvuf ilmi va hadis ilmi sohasida katta ahamiyat kasb etuvchi shahar sifatida ajralib turadi. Buning asoslaridan biri shuki, Amudaryoning chap sohilida Balx, o'ng sohilida joylashgan Termiz keyingi asrlarda siyosiy poytaxt bo'lmasa-da, madaniy markaz edi. Bu o'rganilayotgan davrda Sharq o'z tafakkurida asosan inson ruhiyatini, uning ma'naviy olamini bilishga, odamlarning o'zaro munosabatlarini anglashga e'tibor bergen bo'lsa, G'arb falsafasining asosiy maqsadi esa tashqi dunyo tabiatini bilishga, insonlarning tabiatdagi o'mini aniqlashga qaratildi. Sharq o'z tafakkurida insonning ijtimoiy ahvolini ikkinchi o'ringa surib, uning ma'naviy kamolotiga ko'proq e'tibor berdi.

G'arb tafakkuri esa insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga asosiy e'tiborini qaratdi. Ya'ni Sharqning G'arbdan orqada qolib ketishiga yana bir sabab shuki, G'arb ta'limni vosita deb bilib, ilm – fanning barcha qirralaridan keng foydalaniib, moddiy to'kin – sochin jamiyat qurishga intildi, biroq u axloqiy qadriyatlarini boy berdi. Sharq esa ta'limni maqsad deb qarab, texnikaviy taraqqiyotga jiddiy e'tibor bermadi, yuksak ma'naviyatni saqlab qola oldi – yu, lekin iqtisodiy tanazzulga uchradi.

Buxoro hukmdorlaridan ba'zilarigina chekka hududlarda ham madrasalar qurilishiga ruxsat berishga jur'at qilgan edilar. Masalan, Buxoro jo'yboriy xojalari bilan bog'liq voqealarga to'xtaladigan bo'lsak, jo'yboriy xojalariga Buxoro xonlari doimo katta iltifot ko'rsatib kelganlar. Ular jo'yboriy shayxlarga yerlar, pul, qimmatbaho sovg'alar berib, iloji boricha ular bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lashga harakat qilgan edilar.

Ana shulardan biri ashtarxoniylardan Imomqulixon (1611 – 1642 yy) Buxoro taxtiga o'tirgach, singlisini Tojiddin Xoja Hasan Jo'yboriyga (1574 – 1646 yy) nikohlab beradi va unga in'om sifatida Buxorodagi Parmast va Hisordagi Denov yerlarini muhrlab tortiq etgan edi⁶. Tojiddin Xoja Hasan Jo'yboriy o'z mablag'i hisobiga Denovda ikkita madrasa bino qildirdi. Tojiddin payg'ambarzodalar avlodiga mansub bo'lganligi tufayli el orasida sayyid unvoniga ega edi.

Shu sababdan madrasa uning nomi bilan Sayyid otaliq nomi bilan ataldi va u 1612 – 1628 yillar davomida qurib bitkazildi. Madrasaning g'ishtlari Zahartepa qishlog'i tuprog'idan olindi. G'ishtlari esa o'sha joyda mavjud bo'lgan katta g'isht pishiriladigan xumdonlarda pishirildi. Madrasa binosini usta Ahmad Muhammad Buxoriy qurdi. 114 ta hujraning har birida o't yoqish uchun olovxonasi, ikkinchi qavatida esa har bir hujrada ko'chaga qaragan balkon va arkdan iborat bezak berilgan xonalar mavjud. Bunday holatni Buxorodagi Ko'kaldosh (1578 yil), Abdullaxon va Modarixon (1580

⁶ Tursunov S., Turdiev T. Denov.– Toshkent: Fan, 2009.-173 – 174 b.

yillar), Bozori Gusfand (1670 yillar), Xiva va Qo'qondagi madrasalar qurilishida ham uchratish mumkin⁷.

Xuddi shu asrda (XVII asr) tug'ilib voyaga yetgan So'fi Olloyor (1634 – 1721 yillar) Buxorodagi Jo'ybor shayxlari qo'lida uzoq yillar tasavvuf yo'lida tarbiya topdi, oxiri o'zi ham kamolga yetib, shayx bo'ldi. Murid to'plab tariqatni targ'ib etdi⁸. Bejizga Majid Hasaniy So'fi Olloyorni 1991 yili nashr etilgan "Sabot ul ojizin" asariga yozgan so'z boshisida "O'rta Osiyoda odatda savod chiqarilganidan so'ng, albatta, So'fi Olloyor o'qitilar edi" – deb yozmagan edi.

So'fi Olloyorning buyukligi shundaki, agar Xoja Alouddin Attor, Mavlono Ya'qub Charxiy, Xoja Ahrori Valiy kabi allomalar Naqshbandiya tariqati ta'lomitlarini ijtimoiy hayotga kiritishda sadoqat ko'rsatgan bo'lsalar, So'fi Olloyor buyuk xizmatlari uchun "Abu Hanifai vaqt", ya'ni "Davrning Imom A'zami" unvonini oldi. G'arb davlatlaridagi universitetlar o'zlarining tashkil topgan tarixlarini o'sha ilk maydonga kelgan davrlaridan boshlab hisobga oladilar va bu bilan asosli ravishda faxrlanadilar.

Ana shu nuqtai nazardan oladigan bo'lsak Termiz, Buxoro, Urganch, Samarqand va boshqa joylardigi oliy ta'lim tizimi va uning dargohlari madrasa va madrasai oliyalarni yangi davr taqozosini va talablariga mos holda davom ettirayotgan universitetlarning (oliy o'quv yurtlarini) ta'sis etilish yillarini o'sha davr sanasi bilan bog'lash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

HUQUQIY TARBIYA BARKAMOL AVLOLDNI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMIL

Muqaddas Xojiboyeva,

Namangan tibbiyot kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Qizlarxon Boydadayeva,

"Laboratoriya-diagnostika" bo'limi 2-kurs talabasi

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga, ularni sog'lom, barkamol bo'lib o'sishlariga, dunyoviy bilimlarni egallashlariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoxda.

Ta'lim-tarbiya barcha zamonalarda barcha millat va xalqlarni o'zaro yaqinlashtiruvchi, birlashtiruvchi omil bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"⁹. Darhaqiqat, ta'lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy hayotining muhim tarmog'i hisoblanadi.

Insoniyat ongida dunyoni bilish, kashf etish va bu orqali esa «o'z»ligini anglashga intilish hissi kuchli bo'lgan. Bunga esa faqat ilm, ma'rifat va

⁷ Tursunov S., T. Turdiev. Denov.–Toshkent: Fan, 2009.-176 – 177 b.

⁸ Sultonmurod O. So'fi Olloyorning so'nggi karomati //Fan va turmush.-1992.-№5-6.-27 b.

⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmash kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 62.

huquqiy tarbiya bilangina erishilib kelingan. Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi yozma manbalaridan biri bo`lgan “Avesto” asarida ko`rsatilishicha, bolalarni huquqiy ta`lim-tarbiyasiga Zardo`sht ta`limotida alohida e`tibor berilgan. Bu davrda ta`lim-tarbiya diniy, jismoniy va o`qish yozishni o`rgatish kabilarni qo`shgan holda olib borilgan. Ta`lim-tarbiya yetti yoshdan boshlangan¹⁰.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati amalga oshirilar ekan, ular jamiyatning asosiy bunyodkor va harakatlantiruvchi kuch ekanligini alohida e`tirof etib, yosh avlodni huquqiy tarbiyalash masalasi ham muhim o`rinda turganligini ta`kidlash o`rnildir. Shu o`rinda huquqiy tarbiya- bu huquqiy tajriba almashish bo`yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo`naltirilgan faoliyati, huquqiy normalarga rioxay qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta`minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish, yo`l-yo`riqlarni shakllantirish maqsadida odam onggi va xulq-atvoriga doimiy ta`sir o`tkazib borishdir.

Darhaqiqat, kelajagimiz poydevori ta`lim-tarbiya beruvchi bilim dargohlarida yaratiladi. Xalqimizni ertangi kuni qanday bo`lishi, yoshlarimizning bugun qanday ta`lim va tarbiya olishiga bog`liq.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning ahamiyati xususida to`xtalib quyidagilarni ta`kidlagan edi: «Eng avvalo, bizning ta`lim tizimiga bo`lgan munosabatimizni ham tubdan o`zgartirish kerak. Ta`lim islohoti bizni demokratik o`zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo`lidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo`lmog`i zarur. Har birimizga ayon bo`lsin-kim, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini tubdan o`zgartirish mumkin emas»¹¹.

Ta`lim O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor bo`lib, ta`lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ta`lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta`limning uzlucksizligi va izchilligi;
- umumiyligini o`rtalash, shuningdek o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining majburiyligi;

- o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi yo`nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o`qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

¹⁰ Boboev X., Xasanov S. “Avesto” – ma`naviyatimiz sarchashmasi. –Toshkent: Adolat, 2001. – 104 b., Homidov H. “Avesto”dagi ta`lim tarbiya va ustozlar ta`rifi // Milliy tiklanish, 1999 yil 13 aprel.

¹¹ Karimov I.A. Biz o`z kelajagimizni o`zimiz qurmoqdamiz //O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Turkiston-Press” axborot agentligi muxbir savollariga bergan javoblari. – Toshkent: O`zbekiston, 1999. – B. 84.

- ta'lism tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lism standartlari doirasida ta'lism olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lism dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lism tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Yurtimizda samarali tarzda amalga oshirilib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar jarayoni yoshlarni ijtimoiy himoya-langanlik darajasini kuchayishiga va mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu haqda «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunda¹² ijtimoiy himoyani O'zbekiston yoshlari manfaati va kelajagi yo'lida ularning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotda o'z o'mini topishini ta'minlash maqsadida ularga davlat tomonidan taqdim etilgan kafolatlar majmui sifatida belgilab beradi.

Barkamol avlodni huquqiy muhofaza qilish davlat va jamoat tashkilotlari, birlashmalar va korxonalarining yoshlarga nisbatan huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan vazifalarini shaxsning qadr-qimmatini oilada, mehnat va o'quv jamoasida, turar joyda har tomonlama himoya qilishni o'z ichiga oladi. Yoshlarni huquqiy muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakillik, ijroiya, sud hokimiyati idoralari, shuningdek huquq-tartibotni muhofaza qilish idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilish maqsadida tegishli tashkiliy-huquqiy asoslar, qonuniy negizlar to'la shakllantirildi. Buning asosiy yo'naliishlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 45-moddasida¹³ voyaga yetmaganlarning huquqlari davlat himoyasida ekanligi mustahkamlangan bo'lsa, uning 64-moddasi bilan ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishi belgilangan. Bundan tashqari Asosiy qonunimizning 65-moddasida farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, keyingi yillarda yoshlarning manfaatlari va huquqlarini yanada to'liq ta'minlash yo'lida yangi qonunlar qabul qilinib, amaldagi qonun hujjalari izchil takomillashtirib borilayotgani diqqatga sazavordir. Shu bilan birga huquqiy tarbiya barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil bo'lib, huquqiy demokratik davlat, erkin bozor munoso-

¹² O'zbekistonning yangi qonunlari. №5. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.

¹³ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 9.

batlariga asoslangan faol fuqarolik jamiyatini qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rinnegallashda asosiy qonunimiz mustahkam zamin bo'lib kelmoqda.

**TA'LIM BORASIDAGI ISLOHOTLAR-YOSHLAR MANFAATI
YO'LIDA**

Vasila Hakimova,

Namangan yuridik kolleji o'qituvchisi

Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Bizning mamlakatimizda kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatlarimizdandir. Ta'limga isloh qilishdan ko'zlangan bosh maqsad-o'sib kelayotgan yosh avlodni qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi turaoladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Biroq, 1992 yilgi ta'limga to'g'risidagi qonunning bir qator kamchiliklari ko'zga tashlandi, xususan ta'limga tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmaganligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolga tushib qolganligi, ta'limga muassasalarida zamонави о'quv adabiyotlari va didaktik materiallar hamda yuqori malakali pedagoglar yetishmayotganligi, ishlab turgan murabbiy-o'qituvchilar kattagina qismining bilim va kasb saviyasi yetarli darajada emasligi, bu kabi muammlolar girdobida qolganligi edi. Bu borada Prezidentimiz I. Karimov shunday degan edilar: "Eng muhimi shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'y-harakatlarimiz kutilgan natijalarini berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamонави та'limga tizimini isloh qilish, zamон talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmos'i darkor".

Shu kabi muammolarni yechimini hisobga olgan davlatimiz parlamenti 1997 yil 29 avgust kuni "Ta'limga to'g'risida"gi yangi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilinishi bu borada tarixiy yangi qadam bo'ldi. Mazkur qonunning 3-moddasida ta'limga sohasida davlat siyosatining asosiy printsiplari, xususan, ta'limga uzluksizligi va izchilligi, shuningdek, umumiyo'rtta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limga majburiyligi belgilandi.

Qonunda ko'rsatilganidek, mamlaktimizning rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashning uzluksiz ta'limga tizimi yaratildi. Shu asosda yurtimizda 12 yillik umumiyo'rtta majburiy bepul ta'limga tizimi joriy etildi. Ta'limga va tarbiyaning asosiy diqqat-markazida komil inson tarbiyasi turganligi tufayli bu masala davlat siyosatining ustivor sohasiga aylanganligi bejiz emas albatta. *Komil inson-deganda*

biz, avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli ma'rifatli kishini tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. Ta'limni amalga oshirish bilan barobarida bizning eng muhim jihatlarmizdan biri bu tarbiya masalsidir.

2012 yilning 16-17 fevral kunlari poytaxtimiz Toshkentda "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida xalqaro konfrentsya bo'lib o'tdi. Ushbu konfrentsiyada BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, va 40 ziyod mamlakat vakillari ishtirok etdi. Konfrentsya ishida ishtirok etgan Prezidentimiz I. Karimovning ochilish marosimida "ta'lim tizimini tubdan isloh qilish odamlarimizning ong-tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqorolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylanadi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi" deya so'zlagan fikrlari ta'lim borasida olib borilayotgan ishlarimizning maqsad vazifasini ifoda etib berdi.

Bugungi kun yoshlarini ta'lim olishlarini yanada takomillashtirish va zamonaviy innovatsion pedogik texnologiyalar asosida bilimlarini mustahkamlash maqsadida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va uni amalga oshirishda beparvolikka yo'l qo'ymaslik eng assosiy masalalardan biridir. Zeroki, beparvolik va loqaydlik o'z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo'yishdan, xudbinlikdan, kelajak haqida qayg'urmaslikdan, o'ziga ham, o'zgalarga ham ishonmaslikdan, qo'rkoqlikdan kelib chiqadi. Jamiyat kelajagini o'ylaydigan inson hech qachon tevarak-atrofidagi hodisalarga beparvo, loqayd bo'lmaydi. Zararli, yot jarayonlarni fosh qiladi, ularga qarshi fidoyilik bilan kurashadi. Shuning uchun I. Karimov bu masalani alohida ta'kidlaydi: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qaerdaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bo'larlilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qaerda hushyorlik va jonkuyarlik yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi».

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING SAMARADORLIGI

O. A. Tillayeva,

Chust tuman HTB 17-maktab o'qituvchisi

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini yanada yaxshilash borasida juda katta tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Barcha ta'lim muassasalarida O'zbekiston xalqlari tarixi, chet tili, hisoblash texnikasi kabi fanlarga jaxon standartlari talabida e'tibor qaratilgan. AQSh, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Saudiya Arabiston kabi

rivojlangan mamlakatlarning xalq ta'limi vazirliklari bilan o'zaro kadrlar tayyorlab berish borasidagi shartnomalar tuzilgan. Bu jarayon o'z samarasini bermoqda. Milliy ta'lim tizimida yosh avlodni hayotga tayyorlash uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Xalq ta'limi tizimini isloq qilish, kadr tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgartirishlarni kiritish maqsadida maxsus hukumat komissiyasi tuzilib, 1997 yil 29 avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Qonunda islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish printsipi qo'yilgan. Birinchi bosqich-o'tish davri bo'lib, u 1997-2001 yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi.

Ikkinchi bosqich 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich 2005 yil va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z omillari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, asosiy yo'naliishlari va tamoyillariga ega.

Ta'limni standartlashtirish insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruradir. Chunki, axborotlar almashinuvni maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisda aynan shu tarzda ro'y bergenini anglashi va his qilishi zarurdir. Standart ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish. Ya'ni u o'quvchi yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat davlat ta'lim standarti hisoblanadi.

Bundan ko'rinish turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan

o'quvchiga singdirishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'limg standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Bunday standartlar umumiy o'rta maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'limg mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi.

Ta'limg-tarbiya jarayoniga DTSni joriy etish talablari rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. O'zbekistonda ta'limg standartlari masalasiga Davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'limg-tarbiya amaliyatiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlari tarbiyasidan boshlanadi. Yoshlari esa bugungi kunda oilada va asosan ta'limg-tarbiya muassasalarida shakllantiriladi. Shuning uchun ham, mustaqil davlatimiz va uning rahbariyati anna shu muassasalar faoliyati imkon qadar zamon talablari darajasida bo'lishiga e'tiborini qaratmoqda. DTS barkamol shaxsn shakllantirishga yo'naltirilgan. Hozir yaratilayotgan barcha didaktik vositalarning ana shu standartlarga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda.

Ta'limg vositalari o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o'ziga xosliklarini to'liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

MIQDOR UZVLI MURAKKAB NOMLAR

Nozima Nuriddinova
Namangan davlat universiteti magistrant

Ma'lumki, miqdor belgisi predmet hamda harakat ifodalovchi birliklar uchur taalluqli bo'lishi mumkin. Predmet harakati miqdori bilan predmet miqdori bir biriga teng hodisalar emas. Predmet harakatining miqdor belgisi shu tipdalig harakatning bir martaligi yoki takroriyligini yoki harakat predmetning bir qism bilan aloqador ekanligini ifodalasa, predmetning miqdor belgisi shu turdag predmetlarning bir yoki birdan ortiqligini ifodalaydi. Predmet harakati va uning miqdori o'rtasidagi munosabat miqdor vaziyatini hosil qiladi. Inson ongida ak etgan miqdor vaziyati insoniy vositalar orqali o'z ifodasini topadi. Tilda predmet harakati va uning miqdorini ifodalovchi maxsus leksik vositalar mavjud. Bu leksil vositalar mazmunida miqdor semasi markaziy o'rinni egallaydi: ko'p, oz, picha mo'l, kam va boshqa.

Miqdor uzvli predikativ ifodalarning predikati predikativ shaklin noprifikativ shaklga aylantirish yo'li bilan transformatsiya qilinganda, transformagaplik xususiyatini yo'qotadi va gapning asosiy predikatiga o'z argumentlari (ichk uzvlari) bilan bir butun holda argument bo'lib qoladi¹. Masalan: Dasturxonning to'kinligini aytmaysanmi? (O.Yo.)

Nning + Adv ligini + Vf
|s+Ak(p)|+Pv

Ushbu gapda to'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nom dasturxonning to'kinligini ifodasi gapning asosiy predikati aytmaysanmi so'z shaklini argumenti bo'lib kelyapti, to'ldiruvchi + kesim shaklidagi boshqaruv munosabat yuzaga chiqyapti. Bosh kelishikdagи predmet (ega) va uning miqdorini belgisin ifodalovchi kesim orqali shakllangan sodda gap – dasturxon to'kin ifodasi qaratuvchi (dasturxonning) uzvning qaralmish (to'kinligini) uzvga bog'lanish tipidagi transforma bo'lib, uyushtiruvchi markazi miqdor anglatgan argumen sifatida funksiya bajaryapti. Miqdor uzvning argumenti bo'lgan predmet uzb transformaning ichki uzvi, asosiy predikat argumentining ichki argument hisoblanadi.²

Shuningdek, Sultonali endi vordam kam ekanligini juda vaxshi bilard gapida asosiy predikat bilardi leksemasining argumentlari Sultonali, endi vordan kam ekanligini, juda vaxshi ifodalari hisoblanadi. Predikatning kengaytiruvchilar sifatida ega pozitsiyasidagi Sultonali, hol pozitsiyasidagi jud, vaxshi so'z shakllari singari to'ldiruvchi pozitsiyasidagi endi vordam kan ekanligini ifodasi ham o'z ichki argumentlari bilan birga xizmat qilyapti. Ushbu transforma endi vordam kam ekan sodda gapining transformatsiyasi vositasid: hosil bo'lib, butun gapga nisbatan yaxlit bir pozitsiya - to'ldiruvchi pozitsiyasid: kelishi bilan harakterlanadi. Propozitiv nom tarkibidagi uyushtiruvchi marka hisoblanuvchi kam ekanligini miqdor anglatuvchi uzvi o'ziga endi pay bildiruvchi uzvini hamda vordam(ning) predmet anglatuvchi uzvlarini ergashtirib, ana shu ichki argumentlari bilan gap predikatiga bog'lanib kelyapti. Ularning umumiy bog'lanishiga e'tibor qilamiz: s + temp + s + quan (P) + Ak +

¹ Usmonova H.O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozision tadqiqi.- Toshkent, 2005 -B.149.

² Usmonova H. O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozision tadqiqi.- Toshkent, 2005 -B.150.

Pv bunda: s - sub'kt, **temp** - payt, **Ak** - belgi, **P** - predikat, **quan** - miqdor.

Ushbu gapning substantsional shaklini shunday belgilash mumkin: N + **Adj + N(HHr)** + **Adj ekanligini + juda Adv + vf**

Uyushtiruvchi markazi miqdor ma'nosini anglatuvchi leksema son turkumi bilan ifodalanganda, miqdorning aniq ko'rinishi namoyon bo'ladi.³ Masalan:

Beshni beshga ko'shsa o'n ekanini hamma biladi Sni + Sga + Vca + ekanini + Pron + Vf bu yerda: S - son, **Pron**- olmosh, V - fe'l

Gapning asosiy predikati **biladi** so'zining argumentlari to'ldiruvchi pozitsiyasidagi **beshni beshga go'shsa o'n ekanini**, ega pozitsiyasidagi **hamma** birliklari sanaladi. Bu propozitiv nom ko'rinishidagi transforma **Beshni beshga go'shsa - o'n** shaklidagi gapdan hosil bo'lgan va o'z ichki argumentlari bilan (kengaytiruvchilari bilan) predikatning argumenti vazifasini bajaryapti.

Berilgan gapning mazmuniy uzvlarini shunday belgilash mumkin:

[quan + quan + R + quan (R)] + s + Pv

Ko'rinaridiki, uyshtiruvchi markaz aniq miqdor (son) bo'lsa, uning kengaytiruvchilari orasida aniq miqdor bildiruvchi leksemalar bo'lishi tabiiy. Miqdor bildiruvchi uzvlarning umumiy holdagi ifodasi so'roq olmoshlari orqali ham yuzaga chiqadi⁴:

Inoyat oqsoqol uning tangasi qanchaligini obdan surishtirdi (S.A.)

To'ldiruvchi pozitsiyasidagi propozitiv nomning tayanch nuqtasi **uning tangasi qanchaligini** o'z ichki argumentlari bilan xuddi ega pozitsiyasidagi **Inoyat oqsoqol**, hol pozitsiyasidagi **obdan** leksemalari singari **surishtirdi** predikatining argumenti hisoblanadi. Qurilma tarkibidagi uyshtiruvchi markaz bo'lgan **qanchaligini** miqdor anglatuvchi uzb **tangasi** predmet uzvini o'z argumenti bilan birga tobelantirib kelyapti. Transformatsiyalashgunga qadar ushbu ifoda **uning tangasi qancha** tipidagi sodda gap bo'lib, so'ng qaratuvchi + qaralmish tripli transformaga aylangan. E'tibor berilsa, tangasi qaratuvchisi ham o'z qaratuvchisiga ega: **uning tangasi**. Bu ifoda yaxlit holda **qanchaligini** so'z shaklining qaratuvchisi sanaladi:

uning tangasi qanchaligini

Berilgan gap substantsional jihatdan shunday shakllangan:

N+P ron+N+Pron+Adj+Vf

Mazmuniy uzvlari:

s+ls + s + quan(P)+ Ak + Pv

Demak, miqdor anglatuvchi uzvlar aniq miqdor anglatuvchi (son leksemalar orqali) va mavhum, noaniq, miqdor anglatuvchi (ravish, olmosh leksemalar orqali) miqdor uzvlari sifatida ajratilishi mumkin.

ANTIK DAVR SUD NOTIQLIGI

B.B.Ibrohimov,

Nam DU "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi o'qituvchisi

Yunoniston polislariada va xususan, Afina davlatida eng katta mavqe va e'tiborga, amaliy ahamiyatga molik bo'lgan notiqlik ko'rinishlaridan biridir.

¹ Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedova O. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi.-Toshkent. 1992- B.294.

⁴ Usmonova H. O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozision tadqiqi.- Toshkent, 2005 -B.152.

Ma'lumki, antik demokratiya qoidalariga ko'ra, har bir erkin fuqaro xohlagan paytida, xohlagan ishi bo'yicha sudga murojaat etishi va o'z manfaatini himoya qilishi mumkin edi. Sud jarayonida esa sud hay'ati chinakamiga demokratik, odilona pozitsiyada turar, da'vogar bilan himoyalanuvchi esa har biri o'z manfaatini himoya qilish uchun kurashardi. Sud hukmining qaysi tomon foydasiga hal bo'lishi ko'pincha sudlanuvchi shaxs yoki da'vogarning notiqlik san'atidagi mahoratiga bog'liq edi.

Antik sud jarayonining demokratik qoidalariga ko'ra, har kim o'zini himoya qilishi, o'z «ishini» o'zi olib borishi va shuningdek, ayollarning ishi ham sudga tushishi mumkin ediki, bu toifadagi sudlanuvchi yoki da'vogarlar yetuk notiq bo'lgan raqiblarining tazyiqiga dosh berishlari qiyin edi. Shuning uchun ham, antik sud sistemasining qoidalariga ko'ra bunday kishilar uchun u yoki bu kishi nomidan so'zlovchi notiqlardan yordamchi olishga ruxsat berilardi. Sud jarayonida boshqa birovning manfaatini ko'zlab nutq so'zlovchi ana shu toifadagi notiqlarga simegorlar deyilib, ularning nutqi sinegoriya deb atalardi. Sinegorlar notiqlik san'ati va yurisprudentsiyadan maxsus ta'lim olgan kishilar bo'lib, ana shu sud jarayonidagi qatnashuvchilar hisobiga o'z himoyalalaridagi kishilardan xizmat haqi olib tirikchilik qiluvchi professional notiqlar edilar. Shu ma'noda, ularni notiqlik san'atining bu ko'rinishi bo'yicha ixtisoslashgan notiqlar, deb aytish mumkin. Chunki, sud notiqligi oldida birovni oqlash uchun ular bor bilimlarini va mahoratlarini ishga solishga majbur edilar. Bugiňa emas, ular avvaliga olgan ynlarini ipidan ignasigacha o'rganib chiqishlari, uni yurisprudentsiya qoidaları asosida yozib chiqishlari va niyoyat jonli so'z san'atiga oid bor mahoratlarini ishga solib, sud jarayonida yutib chiqishga harakat qilishlari lozim edi. Shuning uchun ham sinegorlar sud notiqligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Logograflar ham aslida sinegorlarga juda o'xshash kishilar bo'lib, to'g'riroq'i, ularni ham sinegorlardan ajralib chiqqan muayyan ixtisosli kishilar, deb aytish mumkin.

Logograflar aslida, nutq matnlarini tuzib yoki yozib beruvchi kishilar edi. Sinegorlar ham yozib, ham himoya qilgan bo'lsalar, logograflar ko'proq yozib berish bilan shug'ullanadilar. Biroq bu ularning shaxsan nutq so'zlashlarini istisno qilmaydi.

Bu kasb egalari o'z ixtisoslari taqozosiga ko'ra yurisprudentsiya, notiq va nutq matnnini yozishda iqtidorli kishilar bo'lganlar. Chunki, ular qonunshunos mutaxassis, ta'sirchan, mantiqiy izchil va ishontiruvchi nutqlarning yozuvchisi, o'rni kelganda notiq sifatida o'z himoyalalaridagi kishilarni keng omma oldida, demokratik sud oldida oqlab chiqishlari kerak edi. Zabardast notiqlar nutqiga o'rganib qolgan afinaliklar va sud hay'ati oldida bu ishni bajarish juda mushkul bo'lgan. Shuning uchun ham logografiya bilan eng bilimdon, zehni o'tkiz, tadbirdor kishilargina shug'ullanganlar. Logografik nutq matnlari bir talay o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganki, ularga amal qilish nechog'lik sermashaqqat bo'lmasin, professional logograflarning burchi hisoblangan. Ana shunday xususiyatlardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. Logograf, avvalo, huzuriga kelgan kishining ishi xarakteri bilan tanishar, keyin ana shu ishga qarab mijozning sotsial mavqeい, iqtisodiy sharoiti va psixologik xususiyatlarini o'rganardi. Buning uchun logograf o'z mijozini bilan uzok suhbatalashar, uning uyiga borar, oilaviy sharoitini yaqindan o'rganar va buning uchun zarur bo'lsa bir necha kunlab, haftalab, hatto oylab vaqt sarflardi.

2. Faktlarni to'plab, barcha sharoitni o'r ganib bo'l gandan so'ng logografiyishni; ya'ni sud oldida so'zlanadigan uzundan uzoq nutq matnini yozishga kirishardi. Bu nutq ishning mohiyatini to'la yoritishi, yurisprudentsiya qoidalariiga va qonunlariga mos kelishi bilan bir qatorda yana bir muhim xususiyatga ega bo'lishi shart ediki, bu xususiyat logograflar mutaxassisligining professional Mag'zini tashkil etardi. Gap shundaki, yozilgan nutq o'sha da'vogar kishining psixologiyasiga mutlaqo mos tushishi zarur edi. Chunki, bilimli, dono, ko'pni ko'rgan bir kishi juda sodda tilda, aksincha, ma'lumoti uncha baland bo'l mag'zun sodda kishi ilmiy terminologiyada gapirishi mumkin emasdi. Bu jihatdan, hatto shu qadar iste'dodli logograflar bo'lganlarki, ular hatto gapiruvchi kishining talaffuziga xos jihatdan yoki shevachilikni ham hisobga olganlar.

3. Logograflar ishni yutib chiqish maqsadida o'z mijozlarini juda g'arib, benavo, so'zga uquvi yo'q, mushtipar bir kishi qilib ko'rsatishga harakat qilardilar. Jumladan, mashhur notiq va logograf Lisiy bir mijozining nutqini bunday boshlaydi: «Men o'zimga aloqador bo'lgan narsalar haqida gapirishga ojizgina emas, balki, aksincha, gapirishim zarur bo'lgan ish haqida ham gapirishga ojizlik qilamanmi, deb qo'rqaman». Uning boshqa bir mijozи uchun yozib bergen nutqi bunday boshlanadi: «Men, agarchi bunday ishlarda tajribam bo'lmasa ham otamga va o'z-o'zimga yordam berish maqsadida qo'limdan kelgancha o'rniiga qo'yishga majburman. Raqiblarimning fitnasi va makrini o'zingiz ko'rib turibsiz, bu haqda bir narsa deyishimga o'ren yo'q, mening tajribasizligim esa, meni tanigan kishilarning hammasiga ayon». Ko'rinib turganidek, ikkala personaj (da'vogar) ham o'zini g'aribdan olib, g'aribga soladi, ojizdan olib, ojizga uradi. Holbuki, bu logografining uquvligi, uning psixologik usuli xolos. Chunki, avvalida o'zini ana shunday beozor, ojiz, qo'yning og'zidan cho'p olmagan qilib ko'rsatgan kishi xuddi ana shu soddalik bilan o'z raqibini shunday qiyin vaziyatga solib qo'yadiki, bunday psixologik manyovr faqtgina Lisiyga o'xshagan yuksak mahoratlari logograf notiqlarnigina qo'lidan kelardi.

4. Logograflar yozib bergen nutq mutlaqo yozganga o'xshamasligi, xuddi hozirgina minbarga chiqqandan keyingina qo'yilib kelayotgan dardu-alamdek tuyulishi kerak edi. Aslida esa, sudlanuvchi yo da'vogar oldindan puxta tayyorlanib, ipidan ignasigacha o'ylab chiqilgan nutq matnini yodlab, logograf pedagog huzurida repitptsiya qilib olgan bo'ladi. Bu jihatdan logograf ko'proq ham dramaturg, ham rejissorga o'xshasa, da'vogarning nutq so'zlashi tayyorlanishi va so'zlashi haqidagi aktyor faoliyatiga o'xshardi. Biroq yukning eng og'iri baribir logograf zimmasiga tushardi, chunki u avvalo nutq matnini dramatik janrda yozishi, qolaversa, bu matnning to'la dramatik talqinini mijozni bo'l mish so'zlovchiga o'rgatishi zarur edi. Shuning uchun ham tarixchilar logograflik intisodi haqida gapirganda dastlab bu kasb namoyondalarining ishonarli va personajbop qilib yozish qobiliyatlarini ta'kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, logograflik ham notiqlik san'atining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, unda hanuzgacha ibrat bo'larli va asrlar osha o'z qimmatini yo'qotmagan xususiyatlar juda ko'p.

BOYSUN MUSIQA MEROSI

*Zarif Zoirov, Dilfuza A'zamova,
Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqotchilarini*

Surxondaryo viloyati Boysun tumani O'zbekistonning qadimiy maskanlaridan biridir. Bu o'lka o'ziga xos ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti tarixiga ega. Qadimgi Yunon-Baqtriya va Kushon sultanati markazi sanalgan, savdo yo'llari chorrahalarida joylashgan, o'tmishda Osiyoning eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblangan bu voha, endilikda qadimiy an'analarni, beqiyos ahamiyatga molik moddiy va ma'naviy merosni saqlagani tufayli xalq ijodiyotining o'ziga xos madaniyat qo'riqxonasiga aylanib qolgan. Surxon-Boysun zaminida qadimiy xalq an'analari yangi zamona ruhiga mos tarzda ravnaq topgan.

Boysun – g'oyat ajoyib musiqa madaniyatiga ega bo'lgan hudud hisoblanadi, uning an'analarda o'tmish zamonalarga xos jihatlar saqlanib qolgan va ularda uzoq asrlar davomida shakllangan rang-barang musiqa asarlari (bolalar qo'shiq aytimlari va cholg'u chaqiriplardan to dasturiy cholg'u kuylari, yirik ashulalar va dostonlargacha), o'yin-raqlar, beqiyos ohanglar mavjud. Ular hozir ham ravnaq topib, ko'pgina insonlarga ma'naviy-ruhiy ozuqa bermoqda. Boysun mintaqasi aholisi hozir ham qadimiy an'anaviy hayat tarzi va xo'jalik faoliyati bilan yashamoqda. Bu yerda farzand tug'ilishidan tortib, nikoh to'ylarigacha, "Navro'z" dan to xosil bayramlarigacha, davolash va aza-motam odatlari qadimiy marosim, urf-udumlari, e'tiqodi va an'analari asosida o'tkazilib kelinmoqda. Aholisining kiyim liboslari va xalq hunarmandchiligi (kashtachilik, gilamdo'zlik, to'qimachilik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa) ham an'anaviy, o'ziga xosdir.

Boysun xalqining boy va rang-barang badiiy merosi ko'p asrlik an'analarga egadir. Ushbu o'ziga xos xalqning tarixiy xotirasi, ming yillik ma'naviy tajribasi bo'lmish ko'p qatlamlari meros ichida musiqa alohida ahamiyat va katta o'rinnegallab turadi, u o'ziga xos milliy xususiyatlari va chuqur obrazli, ta'sirchanli mazmuni bilan ajralib turadi. Unda xalqning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhi, xalqning turmushi, tarixi, qiyofasi, maishiy tarzi o'z ifodasini topgan. Boysun musiqa merosining asosiy xususiyati – bu og'zaki tarzlik. Ushbu meros o'zida ikkita yirik qatlamni qamrab oladi – musiqa folklori yoki xalq musiqa ijodiyoti (uning ijodkori, ijrochisi va tinglovchisi omma, xalq bo'lgan), ular ma'lum vaziyat-marosim mehnat, oila va hokazo, makonda tashkil topgan; ikkinchisi – mumtoz musiqasi yoki og'zaki-professional musiqasi (ularning ijodkori xalq namoyondaları – yetuk xonanda, sozanda va bastakorlar bo'lgan), har biri rivojlangan kuy, murakkab shakl va rang-barang ijro uslub-usullari bilan ajralib turadi.

Boysun musiqa merosi har qanday xalq ijodi kabi voha aholisining dunyoqarashi, fikri, orzu-umidlari, ularning turmushi va axloqi, mehnati va ruhi, falsafasi, ijtimoiy va milliy ozodlik uchun ko'rashining ifodasi sifatida gavdalanadi. Uning mavzu jihatdan serqirraligi, janglarga boyligi va hayotda tutgan o'rning xilma-xilligi ham ana shu bilan bog'liqidir.

Badiiy an'ana – bu san'atning uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib odat tusiga kirgan xususiyat, "haqiqiy xalq guruhi"ni ifodalovchi hamda xalqqa xos badiiy ko'rinish, uning ijodida chuqur ildizi borligini kuzatish mumkin. An'ana qiyofasi keng qamrovlidir – u xalqning musiqa madaniyatidagi milliy uslublar xususiyati, xalq ijrochiligi uslublari, usullari va bir qator ahamiyat xususiyatlari (san'at dunyosini aniqlash uchun zarur bo'lgan) bilan bog'liqidir.

Binobarin, badiiy, ayniqsa, musiqa an'analarining ko'pqirraligi va boyligi shundan iborat. Folklor-xalq og'zaki ijodini, uning tarixi, turmush tarzi, mehnati, odat va marosimlarni ifodalovchi omildir.

Boysunning an'anaviy musiqa sinining shakllanishi va rivoj topishi bevosita u yerlik xalqning etnik tarixi bilan bog'liqidir. Boysun xalqi etnogenezi xali tadqiq qilinmagan bo'lsa ham, ammo, tarixiy, etnografik, arxeologik, antropologik va boshqa ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, u yerda insonning eng qadimiy turar joyi borligi aniqlangan (Teshiktosh va Amir Temur g'orlarining qazilmalari bularga yaqqol dalildir). Boysunliklarning musiqa madaniyati haqidagi ilk ma'lumotlarni Kushon Baqtriya, Tohariston, Chag'aniyon moddiy madaniyati yodgorliklari bizgacha yetkazib bergen. Ularda ayrim musiqa cholg'ularning tasvirlarini ko'rish mumkin. Ularni turli marosimlarda q'llanishi haqida saroy devoriy suratlari va me'yoriy bezaklari darak beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklari tasvirlangan boy va xilma-xil musiqiy hayot, keyinchalik, xalq va xalq professional ijrochilarining ijodkorlik va ijrochilik faoliyatlarini rivoj oladi (o'rta asr og'zaki va yozma manbalar, jumladan, xalq qahramonlik eposi "Alpomish" buning dalili).

Boysun musiqa fol'klori aholining iqtisodiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bog'liq holda asrlar davomida shakllandi. U o'zbek va tojik xalqlari musiqa madaniyati vositalarini singdirgan holda, insonning oilaviy hayoti hamda uning xo'jalik faoliyati, dini va tabiiy hodisalarga daxldor turli vazifalarni o'zida aks ettiradi. Zero, Boysun musiqa fol'klorining janr tizimi insonning turli ehtiyojiga xizmat qilib, uning hayoti va hamma faoliyati tizimini aks ettiradi. Turli etnosning musiqa fol'klori janrlari tarkibi, uning turli davri tarixida ma'lum etnosning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi, uning hayotidagi xo'jalik-madaniy tipologiyasi, uning madaniyat, turmush sharoiti va an'analarining aniq shakllari va boshqa etnosning madaniyati bilan o'zaro bog'lanishi bilan shartlanadi.

Aytim (xalq qo'shiqlari, aytimlar, yig'i-sig'ilar) va cholg'u (chaqiriqlar, ohanglar, usullar, kuylar) janrlari xalq marosimlari bilan keng bog'langandir. Bular orasida marosim qo'shiqlari (mavsumiy, to'y-marosim, a'za-motam, diniy-ibodat) ko'pchiligini tashkil etib, hamma qishloqlarda mavjud. Shu bilan birga mehnat, alla, lirik qo'shiqlari ham keng tarqalgan.

Xalq qo'shiqlari, o'z navbatida, musiqiy xususiyatlari bilan ham umumlashgan ayrim janr va turlardan iboratki, bunda mavzu talqini va qo'shiqning ijro etilish muhiti, uslubi asosiy o'rinn tutadi. Umumiy janrlar tarkibiga ma'lum hayotiy jarayonlarda, masalan, mehnatda (dehqonchilik, chorvadorchilik va hunarmandchilik qo'shiqlari), bola tebratishda (alla qo'shiqlari), to'y marosimlarida (Beshik, Sunnat, Muchal va Nikoh to'ylari bilan bog'liq qo'shiq-aytimlari va cholg'u kuylari), a'zada (dafn va motam aytimlari) ijro etiladigan musiqa asarlari kiradi. Uslublari va ifodaviy vositalari bilan mahalliy an'analariga tayangan – sadr, jaxr, alas, qo'shnos, go'yanda, tuya qadam kabi aytim-qo'shiqlardan tashkil topgan.

Shu bilan birga Boysun musiqa folklori ma'lum jo'g'rosiy va etnik mintaqalarga mos holda mahalliy tafovutlarga ham ega. Masalan, vohaning pasttekislik qismidagi aholi madaniyati tog'lik aholi madaniyatidan farq qiladi. Machay va Qo'rg'oncha kabi qishloqlarida folklor namunalarining marosim (jumladan, diniy-ibodat aytimlari va to'y qo'shiqlari); Sayrob va Darbandda mehnat (asosan, sut sog'uvchilar va junga ishlov beruvchilar) va alla qo'shiqlari; Boysun shahridda esa mavzu va ijro an'analarini xilma-xil bo'lgan xalq qo'shiqlari –

qo'shiq, yalla, lapar, va ashula janrlarida ijro etiladi. Yakkatol, Olachopon, Pulhokim va Kofrun qishloqlarida qo'sh haydash, hosil yig'im-terimi va ularga ishlov berish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarini ijro etish harakterlidir, shuningdek, afsungarlik va baxshichilik qo'shiqlari uchraydi. Avlod, Sariosiyo, Machay, Qo'rg'oncha qishloqlari va tuman markaziga xos so'fiylar marosimlarda urf bo'lgan "jahr", shuningdek "alas" ("xalos") cholg'u jo'rligisiz kuylab ijro etiladi. Jumladan, "jahr" da kuy va aytim ijrosidagi harakat, rasm-rusum, atributika, tuzilma (Qo'rg'onchada qo'biz bilan, Machayda do'mbira bilan) va o'ziga xos ritmik zarblar (Boysun shahrida doira jo'rligida), ularning shamanlik bilan mushtarakligidan darak beradi.

Adabiyyotlar:

1. Abdullayev M. Sattorov M. Tog'lar gavhari. -Toshkent: Fan, -2001. 128 b.
2. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.-Toshkent: Universitet, 2007.-309 b.
3. Annayev T., Tilolov B., Xudoyberdiev SH. Boysun arxeologik yodgorliklari. Toshkent: Xalq merosi, 1999.-39-bet.
4. Avliyoqulov A., Ergashev R., Ismoilov Y. Surxon yulduzlari.-Toshkent: Xalq merosi, 1995.-87 bet.
5. Azimov M. Surxondaryo ijodkorlari.-Qarshi: Nasaf, 2006.-308 bet.

ILK SAN'AT NAMUNALARINING SHAKLLANISHIGA DOIR

Azizbek Soliyev,

Nam DU Pedagogika fakulteti 3 bosqich 312-guruh talabasi

O'zbekiston Respublikasi milliy mustaqillikka erishishi bilan nafaqat mamlakat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'nnaviy hayotida balki o'zbek xalqining ko'p ming yillik ma'nnaviy merosini boy etnomilliy madaniyati borasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Ayniqsa, milliy madaniy an'analarni qayta tiklash ushbu yigirma yillikda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan respublikalarda, xususan, O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov haqli tarzda ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab borayotgan O'zbekistonga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'nnaviy ildizlari, urf-odat va an'analariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda"⁵.

Ma'lumki, san'at juda qadim zamonlarda mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan. Yaratuvchanlik va bunyodkorlik faoliyati jarayonida insonning tafakkuri kamol topadi. Go'zallik hissi orta boshlaydi, voqealikdag'i qulaylik, foydalilik, go'zallik tushunchalarini anglaydi. Uzoq o'tmishdag'i ajdodlarimiz yaratgan tosh qurollar, ularning nafaqat moddiy ehtiyojlарини qondirgan, balki, kundalik hayoti mazmunini boyitishga xizmat ham qilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlار o'z boshidan kechirdilar, ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'nnaviyat, 2008. – B. 138.

kuchlarining zaifligi odamlarning jamoa bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini, hayotning ilk bosqichidayoq sezdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga unday boshladi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yaratdi⁶.

San'at qachon va qanday paydo bo'lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'atning yuzaga kelishi insonning ob'ektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o'z avlodni tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallaشتirdi.

Haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. G'arbiy Yevropadan (Avstriya) topilgan "Villendorf Venerasi" deb nomlangan haykal mashhurdir. Haykal hajm jihatidan katta emas, (balandligi 0,06 m.) lekin ko'rinishi jihatidan monumental. Haykalda ortiqcha detallar yo'q. Ichki kuch-qudratga to'la haykalda bosh qismi bir oz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik o'q, lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonliligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi ta'surot qoldiradi⁷.

Mezolit yoki o'rta tosh asrida odamlar katta bo'limgan to'daga ajralgan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta yer maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi.

Kishilik jamiyati tarixining ibridoiy davrida yaratilgan san'at obidalari, xususan qoya toshlarga urib-o'yib ishlangan, g'orlarning devor hamda shiplarining tabiiy bo'yoq oxra (angob) bilan chizilgan odam, hayvon, qurol-yaroq, uy-ro'zg'or, mehnat qurollari va boshqa narsalarining rasmlari ham ibridoiy tarixni o'rganishning muhim arxeologik manbasi xisoblanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, har bir arxeologik yodgorlik va buyumning o'ziga xosh xususiyati bo'lib, ular kishilik (tarixining) hayotining u yoki bu tomonini tiklashga xizmat qiladi. Mehnat qurollari kishilarning nimalar ishlab chiqarganliklari va qanday qilib tirikchilik o'tkazganliklarini o'rganish imkoniyatini bersa, o'lik ko'mish tartiblari ba'zi san'at obidalari esa ularning e'tiqodi qanday bo'lganini aks ettirishi mumkin.

O'rta Osiyo hududlarida bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu yerlarda har xil xom ashyo materiallardan buyumlar ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg'onadan topilgan bilak uzuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlanadi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir⁸.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, ilk san'at namunalarining paydo bo'lishi natijasida insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabatining shakllanishiga, xordiq chiqarish hamda tafakkurning rivojlanishiga olib kelgan. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarining keng ko'lamma ishlatalishi uning sifatini o'zgartirdi, yangi tur va formalarini yuzaga keltirdi.

⁶ Qarang: Kosven M. O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 133.

⁷ Qarang: Abdullayev N. San'at tarixi. – Toshkent, 1986. – B. 14.

⁸ Qarang: Ro'zmatov Sh. O'zbekiston san'ati va madaniyati tarixi. Ma'ruzalar matni. – Angren, 2005. – B. 6.

МУНДАРИЖА

SO'Z BOSHI	3
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA MAFKURA.....	4
O. Mamatov, Ijtimoiy taraqqiyotda erkinlik va begonalashuv	4
Abdulvohid Nuriddinov, Maxdumi A'zam ilm va ma'rifat haqida.....	6
B.B.Ibrohimov, Jadid matbuotida axloqiy tarbiya muammolari	9
B.M.Vahobov, N.O.Xomidova, Globallashuv jarayonida internet tizimidagi mafkuraviy tahdidlar.....	11
A'zamjon To'xtaboyev, Yoshlar ongini shakllanishida milliy g'oya o'mni	14
B.Abdurahmonova, O'quvchi yoshlar orasida milliy g'oya targ'ibotini olib borish uslublari	16
Ruhiddin Ibrohimov, Mafkuraviy profilaktika va uning zarurati	18
M.Abdullayeva, N.Imomberdiyeva, Shaxs ma'naviyatida oilaning o'mni	23
Jahongir Qodiraliyev, Rimma Zamilova, "O'zbekiston – yagona vatan" tushunchasining mohiyati.....	24
Dilafruz Qodiraliyeva, Rimma Zamilova, Milliy madaniyatimiz va milliy g'oyamizdagи mushtaraklik	25
Umida Abdulboqiyeva, Tohirjon Qozoqov. Barkamol insонning ma'naviy fazilatlari.....	26
Muqaddas Xojiboyeva, Yoshlar tarbiyasiga axborot hurujlarining salbiy ta'siri	27
Hurshidbek Boymirzayev, Millatlararo totuvlikni ta'minlash omillari	29
Mafstuna Rejabboyeva, O.Mamatov. Oilaning jamiyat hayotida tutgan o'mni	31
Yoqutxon Hamidullayeva, O.Mamatov. Ma'naviy kamolot omillari	33
Ayubxon Orifxo'jayev. "Ommaviy madaniyat" – ma'naviy tubanlik targ'ibotchisi.....	34
Abdumalik Qo'ziyev. Ta'lim va tarbiyadagi mushtaraklik.....	35

SIYOSAT VA HUQUQ.....	37
<i>B.A.Talapov</i> , Yoshlarda huquqiy madaniyatini shakllantirish – davr talabi	37
<i>Ahmadjon Salmonov</i> , Markaziy osiyoda tinchlik va osoyishtalik uchun kurashning global muammolari.....	39
<i>Ozodaxon Chuboyeva, Azamat Qosimov</i> , Oila muqaddasligi asosi.....	42
<i>Farida Nishonova</i> , Globallashuv va demokratiya.....	44
<i>Qodirxon Inamov</i> , Jamiyatni yangilash va modernizatsiyalashda yoshlarning o’rni va roli.....	47
<i>Bobomurod Tillayev</i> , Millatlararo totuvlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari	48
<i>K.Xolmirzayev, M.Tojahmedova</i> . Konstitutsiya – baxtimiz qomusi	50
<i>Abdujabbor Qambarov</i> , Konstitutsiya – mustaqil va demokratik davlatimizning poydevori	51
<i>Xurshid Mirzahmedov, Sherzod Adashaliyev</i> , Globallashuv – yo saodat — yo falokat masalasidir	53
<i>Abdujabbor Qambarov</i> , O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: ijtimoiy hayot tarzining huquqiy ifodasi.....	55
<i>Bekzod Rahimov</i> , Jahon mamlakatlari taraqqiyotida geosiyosiy vaziyatlarning o’rni.....	57
ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT	59
<i>Z.U. Haydarov,B. B. Inatullayev</i> ,O’zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatida “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo’llashning ayrim masalalari.....	59
<i>Bobomurod Tillayev</i> , O’zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoyalash masalasi	62
<i>Gulnoza Rafiqova</i> ,O’zbekistonda yoshlar tashkilotlarining rivojlanish istiqbollari.....	64
<i>Mohira Mo’ydinova</i> , Ayollar tajdbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati	67
<i>B. B. Ibrohimov, Abrorjon Mamadaliyev</i> , Jamoatchilik fikrini o’rganish markazlari	69
<i>Abdusalom Xo’janazorov</i> , Surxon vohasida tibbiy xizmat madaniyatning yuksalishi (1991-2000 yillar)	72

<i>Dildora Eshmurodova</i> , Surxon vohasida mutaxassislar tayyorlash va uning amaliy ahamiyati.....	74
<i>Abdusalom Xo'janazorov</i> , Tibbiyat xizmatidagi amalga oshiriligan dastlabki islohatlar samarasi	77
TARIX VA ETNOGRAFIYA	81
<i>Adhamjon Ashirov</i> , Oila tarixida ijtimoiy hayotning aks etishi.....	81
<i>E. O. Qobilov</i> , Surxon vohasida bog'dorchilik.....	83
<i>A.Sharafiddinov, D.Umrzaqov</i> , XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida yog'-moy sanoatining vujudga kelishi	85
<i>Tohirjon Qozoqov</i> , Otashqalb taraqqiyatparvar	88
<i>B.B.Ibrahimov</i> , Antifont notiqligining o'ziga xos jihatlari.....	90
<i>Yo.T.Boltaboyev</i> , Rossiya imperiyasida XIX asrning 60-70 yillarida shahar dumalarini tashkil etilishi jarayonlari.....	93
<i>Alisher Jo'rayev</i> , Turkistonda matbaachilikning vujudga kelish shart-sharoitlari	96
<i>N. Ismoilova</i> , Sovet davlati siyosati va ijtimoiy hayotda ayollar mavqeini o'zgarishi: sabab va oqibatlar	101
<i>Rayhona Xolboyeva</i> , Mahmud ibn Muhammad Umar al-CHag'miniy va uning tabiiy-ilmiy falsafiy qarashlari	103
<i>Kamoliddin Toshov, Anvar Malikov</i> , "Buyuk ipak yo'li " chorrahasida joylashgan shahar	105
<i>Lutfullo Usmonov</i> , Qo'qonlik fidokor jadid	107
<i>Izzatillo Omonov, T.Q.Qozoqov</i> , Mustaqillik buyuk ne'mat.....	109
<i>Jahongir Tojiboyev, Doniyorbek Erkinov</i> , Tolstov – qadimgi Xorazm tilsimini ochgan olim	111
<i>Xushnudbek Mamadaliev</i> , Farg'ona viloyati boshqaruв tizimida mahalliy boshqaruв tartiblari (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	114
<i>Iqboljon Orziyev</i> , Qo'qon va Xiva xonliklari o'rtaсидagi savdo aloqalari	116
<i>Bahromjon Jalolov</i> , Rossiyaning ko'chirish siyosati va unda temiryo'l transportining tutgan o'mni (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr o'rtalari).....	118

<i>Hulkar Suyunova</i> , Surxon vohasida qaromol bilan bog'liq marosimlar	122
<i>Tohirjon Qozoqov</i> , Jadidchilik harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini.....	124
<i>R. Akbarov</i> , Turkistonda ta'sis majlisiga tayyorgarlik ishlarining olib borilishi.....	127
TA'LIM	130
<i>Abdug'ani To'xtayev</i> , O'tmishda oliv ta'lif	130
<i>Muqaddas Xojiboyeva, Qizlarxon Boydadayeva</i> , Huquqiy tarbiya barkamol avlodni shakllantirishda muhim omil.....	133
<i>Vasila Hakimova</i> , <i>Ta'lif borasidagi islohotlar-yoshlar manfaati yo'lida</i>	136
<i>O. A. Tillayeva</i> , <i>Ta'lif tizimidagi islohotlarning samaradorligi</i>	137
ADABIYOT VA SAN'AT	140
<i>Nozima Nuriddinova</i> , Miqdor uzbek murakkab nomlar.....	140
<i>B.B.Ibrohimov</i> , Antik davr sud notiqligi	141
<i>Zarif Zoirov, Dilfuza A'zamova</i> , Boysun musiqa merosi	144
<i>Azizbek Soliyev</i> , Ilk san'at namunalarining shakllanishiga doir	146

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT VA HUQUQ
ASOSLARI KAFEDRASI**

SALOHIYAT – MEZON

(ilmiy maqolalar to‘plami)

4-SON

Terishga berildi: 15.04.2014-y. Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2014-y.

Bichimi 60×84. 1/16. Shrift garniturasi Times New Roman.

Hajmi 9,75 bosma taboq. Oq qog’ozga ofset usulda bosildi.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 39.

“Namangan” nashriyotida tayyorlandi.

Namangan shahri, Navoiyko’chasi, 36.

“Matbuot uyi”ning 3-qavati. Tel.: (8 369) 227-92-14.

Nashriyot litsenziya raqами AI №156, 2009-yil 14-avgustda berilgan.

“Start Print Poligraf” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Namangan shahri, Marg’ilon ko’chasi, 5-uy.



ISBN 978-9943-4210-7-3

9 789943 421073